



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING DENOV  
TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# **ILMGA SADOQAT**

**Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining  
*5 yilligiga bag‘ishlanadi***

**DENOV-2025**



УЎК: 821.222.8-1

КБК: 84(5U)-6

О 60



*Ushbu to'plamda, Samarqand davlat universitetining  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tashkil topganligini  
5 yilligi munosabati bilan, institut professor – o'qituvchilarining  
hayoti va ilmiy pedagogik faoliyati haqida ma'lumotlar jamlangan*

**Muallif:**

**Oybek Ruziyev,**

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

ISBN: 978-9910-8557-5-7

KITOB NASHR 2026





O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” da 2020-yil 17-apreldagi PQ-4681-son qaroriga asosan Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tashkil etilgan.

## MUQADDIMA

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini isloh etish, ularni zamonaviy bosqichga olib chiqish borasida izchil va keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ezgu yo'lda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar zamirida o'z kasbiga sadoqatli, bilim va tajribasini yurt taraqqiyoti yo'lida safarbar etgan fidoyi ustoz va olimlarning xizmatlari turibdi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqobat sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsion g'oyalarning joriy etilishi, o'z navbatida, yuksak bilimli va tashabbuskor yetakchilarni talab qilmoqda. Ana shunday jonkuyar, ezgu maqsadlar yo'lida intilayotgan, vatan istiqboli uchun mas'uliyatni teran his etgan, o'zining boy tajribasi, keng dunyoqarashi, teran tafakkuri va fidokorona mehnati bilan yurtimiz ilm-fani va ta'lim tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yuksak salohiyatli institut olim va olimalarining xizmatlari beqiyosdir.

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (keyingi o'rinlarda - institut) tarkibida hozirgi kunda **4** ta fakultet va **16 ta** kafedra faoliyat ko'rsatadi.

Professor-o'qituvchilar soni **295** nafarni tashkil etadi, shundan **9** nafari fan doktori (DSc), **71** nafari fan nomzodi (PhD), **2** nafari professor, **29** nafari dotsent, **68** nafari katta o'qituvchi, **147** nafari assistent o'qituvchilar bo'lib, ilmiy salohiyat **27** foizni tashkil etadi. Shuningdek institutining Tarix va falsafa kafedrasi mudiri, t.f.f.doctori Dilorom Yaqubova "**Mehnat Shuhrati**" ordeni bilan, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi Ravshan Mamatmurodov "**Shuhrat**" medali, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi Maftuna Ashurova "**Kelajak bunyodkori**" medali hamda 10 nafar professor-o'qituvchilar Mustaqilligimizning 30 yilligi esdalik ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

**24** ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va **12** ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha jami **7967** nafar talaba tahsil olmoqda.

Institutda **4** ta jami **900** o'ringa ega talabalar turar joyi mavjud.

Institutda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar salohiyatini

oshirish maqsadida **17** ta ixtisosliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tayanch doktoranturada **66** nafar va mustaqil izlanuvchilikda **153** nafar tadqiqotchilar ilmiy faoliyatlarini olib bormoqda.

2021-yilda **6** nafar tadqiqotchining falsafa doktori (PhD) himoyasi bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda **9** nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qildi, 2023-yilda **12** nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qildi, 2024-yilda **16** nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) va 1 nafar fan doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qildi, 2025-yilning birinchi choragida **7** nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) va **2** nafar fan doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qildi, yil oxiriga qadar yana **35** nafar dissertatsiya himoyalari rejalashtirilgan bo'lib, institut ilmiy salohiyatini **35** foizdan oshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda davlat ilmiy loyihalari hisobidan **1** ta **902** mln so'mlik innovatsion loyiha bajarilmoqda, yana **6** ta amaliy va innovatsion loyihalar davlat ilmiy loyihalari tanlovida ishtirok etish uchun taqdim etilgan.

Institutda 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha OAK ro'yxatiga kiritilgan “Tadbirkorlik va pedagogika” ilmiy jurnali faoliyat olib bormoqda, ushbu jurnalda chop etilgan maqolalar xalqaro bazalarga indeksatsiya qilinmoqda.

### **Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar**

**80** dan ortiq xorijiy davlat universitetlari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan bo'lib, o'zaro hamkorlik o'quv jarayoni hamda ilmiy-tadqiqot sohasiga tatbiq etilgan:

- Rossiya Federatsiyasi Oltoy davlat universiteti bilan hamkorlikda **(1+1)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi imzolangan va **20 nafar** magistrant tahsil olmoqda;

- Rossiya, Afg'oniston, Qatar, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Janubiy Koreya, Tojikiston va Qozog'iston davlatlaridagi nufuzli oliygohlar bilan o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolangan.

- Times Higher Education xalqaro reytingida ilk bor “Reporter” sifatida qayd etildi;

- Institut GREENMETRIC xalqaro reytingida **1355-o‘rinni** egalladi;

- QS xalqaro reytingida 2024-yil ilk bora ishtirok etib **1000-o‘rinni** egalladi

- Institut Round University Rnking (RUR) xalqaro reytingida ilk bor ishtirok etib **1099-o‘rinni** egaladi,

- Institut SUN (Buyuk ipak yo‘li universitetlari tarmog‘i)ga a‘zo hisoblanadi;

- so‘nggi **3** yilda **125 nafar** professor-o‘qituvchilar xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida stajirovkada bo‘lib qaytgan.

- xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan talabalar almashinuvi Rossiya Federatsiyasi ulushiga **5 nafar**, Yaponiyaga **1 nafar**, Qozog‘istonga **2 nafar**, Indoneziyaga **2 nafar**, Turkiyaga **2 nafar**, Tojikiston Respublikasiga **9 nafar**ni tashkil qiladi.

- xorijlik o‘qituvchilar soni **34 nafar**;

- xorijlik talabalar soni **24 nafar**;

- institutda rus, koreys, hind, tojik, turk o‘quv markazlari faoliyat yuritmoqda.

### **Iqtidorli talabalar**

O‘tgan vaqt mobaynida institut talabalaridan **4 nafari** Prezident stipendiyasi, **4 nafari** Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, **10 nafari** Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, **2 nafari** Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi, **2 nafari** Zahridin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi sovrindorlari bo‘lishgan (jami **22 nafar** talaba davlat va nomdor stipendiya sohiblaridir). Undan tashqari, **39 nafar** talaba viloyat hokimining stipendiyasiga, **72 nafar** talaba rektor stipendiyasiga sazovor bo‘lishgan (jami **111 nafar** talaba viloyat hokimi va rektor stipendianti hisoblanadi), **6 nafari** Mirzo Ulug‘bek vorislari ko‘rik tanlovida faol ishtirok etib, viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o‘rinlarni egallagan.

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabasi Xikmatova Shirin “**El-yurt umidi**” jamg‘armasining 2024-yildagi

birinchi ochiq stipendiyasi (190 ming dollar) g'olibi bo'lib, Missouri davlat universiteti (AQSH) da ta'lim olmoqda.

Shuningdek, **1 nafar** talaba kimyo fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadada bronza medaliga sazovor bo'lgan. **17 nafar** talaba xalqaro olimpiadalarda faol ishtirok etib, nufuzli 1-2-3-o'rinlarni egallagan.

Institutda sportning boks, o'zbek jang san'ati, suzish, shaxmat, og'ir va yengil atletika, futbol, voleybol, basketbol, boks, Yunon-Rum kurashi hamda para powerlifting va kamondan otish turlari bo'yicha **26 nafar** talabalar respublika va xalqaro musobaqalarda 1,2,3-o'rinlarni qo'lga kiritganlar.

2024-yil noyabr oyida institutning sportchi talabalari "**Besh tashabbus olimpiadasi**" ning viloyat bosqichida yengil atletika jamoasi faxrli 3-o'rin, stridbol (o'g'il bolalar) jamoasi 3-o'rin, mini futbol jamoasi 3-o'rin va voleybol (o'g'il bolalar) jamoasi faxrli 2-o'rinni egallaganlar.

"**Universiada-2024**" va "**Talabalar ligasi**" doirasidagi musobaqalarning viloyat bosqichida basketbol, gandbol, yengil atletika, kurash, shaxmat va voleybol sport musobaqalaridan (o'g'il va qizlar) jamoasi faxrli 1-2-3-o'rinni egallaganlar. Mini futbol (futzal) jamoasi viloyat bosqichining faxrli 1-o'rini egallab, respublika bosqichi yo'llanmasini qo'lga kiritgan.


Institut miqyosida sportning mini futbol, voleybol, basketbol, gandbol, shaxmat, yengil atletika, stol tennis, badminton, kurash kabi turlaridan muntazam ravishda "**Rektor kubogi**" sport musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.

Toshkent shahrida sportning "**O'zbek jang san'ati**" turi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionati musobaqalarida talabalarimiz **1 ta oltin** (Jumanazarov Valijon) va **1 ta bronza** (O'ralov Jamoliddin) medalini qo'lga kiritgan.

Jizzax viloyatida "**Kurash**" sport turi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro ochiq turnirda **Alimardon Abdulaxatov** 73 kg vazn toifasida kurash olib borib, faxrli **3- o'rinni** egallagan.

Qurilish ishlari va moddiy texnik bazani rivojlantirish bo'yicha institut **2 820 o'ringa** mo'ljallangan bo'lib, **38 ta** elektron doska, **70 ta**

o‘quv monitori va videoprojektor, **730 ta** kompyuter jamlanmalari bilan jihozlangan. Shuningdek, **650 o‘rinli** o‘quv zali, **400 o‘rinli** faollar zali, **200 o‘rinli** raqamli iqtisodiyot markazi, **350 o‘rinli** axborot resurs markazi, **900 o‘rinli** 3 ta talabalar turar-joyi hamda **200 o‘rinli** oshxona va **200 o‘rinli** karyera markazi mavjud bo‘lib, markazda tikuvchilik va amaliy san‘at, qandolatchilik xonalari, go‘zallik saloni, erkaklar sataroshxonasi va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.



### **Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar**

2020-yilda 1 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman;  
 2021-yilda 2 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;  
 2022-yilda 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;  
 2023-yilda 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;  
 2024-yilda 12 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar o‘tkazilgan;

2025-yilda (vazirlik buyrug‘iga kiritilgan) **7 ta** respublika va **9 ta** xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Institutda 2024-yilda **6** ta darslik va **42** ta o‘quv qo‘llanma, **19** ta monografiya, **30** dan ortiq scopus va web of science xalqaro ilmiy bazalardagi jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan, **30** dan ortiq uslubiy qo‘llanmalar, **2** ta patent, **50** dan ortiq mualliflik guvohnomalari olingan.

Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentyabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha OAK nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan. Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali bir nechta bazalarda [inLibrary.uz](http://inLibrary.uz) va [Slib.uz](http://Slib.uz) platformalariga yuklanadi.

### **Maqsadli ko‘rsatkichlar**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatlaridan keng foydalanish maqsadida quyidagi ishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda:

- ayrim ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi **Ilmiy kengash**larni ochish;

- dunyoning **TOP-300** talikka kiruvchi oliy ta‘lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatish;

- institutda mavjud o‘quv laboratoriyalari asosida ilmiy grantlar va xalqaro donor tashkilotlarning homiyligida qo‘shimcha **ilmiy laboratoriyalarni** tashkil etish;

- institutga xorijiy investitsiyalar, grant va beg‘araz ko‘mak mablag‘larini jalb qilish;

- barcha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning xorijiy OTMlarida qisqa va uzoq muddatlik ta‘lim olishlarini yo‘lga qo‘yish;

- barcha bitiruvchi talabalarning mutaxassislik diplomi bilan birgalikda, milliy sertifikat hamda til bilishning xalqaro sertifikatiga ega bo‘lishlarini ta‘minlash;

- barcha berilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan yaqindan bog‘lash;

- aholining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini 100% qondirish maqsadida **1 500** kvts **quyosh panellarini** o‘rnatish hamda iste‘mol

ortiqcha bo'lgan energiyani shahar elektr tarmoqlari korxonasi ga realizatsiya qilish;

- **1500 o'rinli** o'quv binosi, **400 o'rinli** talabalar turar joyi (davlat xususiy sherikchilik asosida) va **400 o'rinli** talabalar turar joyi (institutning budjetdan tashqari mablag'lari) hisobidan qurish;

- professor-o'qituvchilar hamda talabalarni sog'lomlashtirish oromgohini barpo etish kabi rejalarni amalga oshirish belgilab olingan.

**Ruziyev Oybek Abdimuminovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

# DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTIDA

## FAOLIYAT YURITGAN REKTORLAR



**ESHKARAYEV ULUGBEK  
CHORIYEVICH**

Texnika  
fanlari nomzodi, dotsent

**2018-2020 yillar**



**RAXIMOV G'ANISHER  
XUDOYKULOVICH**

Filologiya fanlari  
doktori, Professor

**2020-2024 yillar**



**RUZIYEV OYBEK  
ABDIMUMINOVICH**

Iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent

**2024 yildan -h.v**



**SHARIPOV KONGRATBAY  
AVEZIMBETOVICH**

*O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori,  
professor*

Tarixdan ma'lumki, hozirgi Denov tumani hududida joylashgan ko'hna Chag'oniyon qadimgi davrlardan buyon yirik iqtisodiy-madaniy markaz sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yerda turli xalqlar o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalar jadal rivojlangan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan o'z faoliyatini boshlagan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilm-fan, milliy iqtisodiyot, siyosat hamda hududda ta'lim tizimining rivojlanishiga ko'maklashish, ushbu ta'lim muassasasi olimlari, professor-o'qituvchilari, mutaxassislari, doktorantlari va mustaqil tadqiqotchilari tomonidan olib borilayotgan izlanishlarning faolligi va ilmiy ahamiyatini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Denov tumanining ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalangan holda, hududda uzoq yillar davomida shakllangan hunarmandchilik va tadbirkorlik, sanoat, turizm, xizmat ko'rsatish va agrar sohani rivojlantirish, tuman markazining me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, uning tarixiy qismini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha istiqboldagi vazifalar belgilab olingan.

Prezidentimiz tomonidan tumanda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tashkil etildi. Institut nafaqat tumanda, balki butun respublikamizda ilm-ma'rifat va madaniyatni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shadi, deb ishonch bildiramiz.



## **QOSIMOV ULUG'BEK BERDIQOBILOVICH**

*Surxondaryo viloyati hokimi*

Bugungi kunda Denov Surxondaryo viloyatidagi yirik tumanlardan biri hisoblanadi. Denov shahri viloyatda kattaligi va aholisining ko'pligi jihatdan Termizdan ham yuqori o'rinda turadi. Shuning uchun tumanda ham, shaharda ham ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yuksak natijalarga erishilmoqda.

Bunyodkorliklar natijasida, shahar va qishloqlar obod bo'lib, zamonaviy va milliy qiyofa kasb etmoqda. Barcha jabhalarda aholining turmush tarzi o'zgardi, yangicha dunyoqarash shakllandi, farovonlik oshdi. Bu barcha sohalarda namoyon bo'lmoqda.

Denov – xalqimizning o'tmishi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zida mukammal aks ettirgan muqaddas yurt. Boy ma'naviy qadryatlarni o'zida mujassam etgan, ko'plab tarixchi, adib-shoir, baxshilarning ijod yo'lini ochgan vatandir. Denov hosildor tuproqli yer, tabiiy madanlarga to'yingan suv, yetarli quyosh nuri va mo'tadil iqlimli manzil.

Denov Surxondaryo va Qizilsuv daryolari suvlaridan bahra oladi. Buyuk ajdodimiz Muhamad G'iyosiddin jannat ariqlari deb ta'rif berganda, shu daryolar oqqan firdavsmonand Denov o'lkasini nazarda tutgan. Denov xalqi – buyuk jasoratga qodir, tanti, mard, jasur, qo'rqmas, fidoiy, kamtarin, mehnatkash xalq. Ularing qalbida bog'rog'lar, sug'oriladigan dalalar, bebaho hunarmandchilik, savdo-sotiq san'ati va halollik mujassamlashgan.

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hududning kelajakda yanada yuksak ilm-ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat o'chog'i, ishlab chiqarish va sanoat markaziga aylanishida, albatta, o'z hissasini qo'shadi.



## **ABROROV ILXOM IBRAXIMOVICH**

*Denov tumani hokimi*

Denov – Surxondaryo viloyatining janubiy qismida, O‘zbekistonning quyoshga eng yaqin, bahor havosi hech tark etmaydigan, serquyosh vodiylaridan biridir. Shahar o‘zining iliq iqlimi, serhosil zaminlari va tabiatning saxovatli qo‘li bilan mashhur. Denov atrofida keng dalalar, qadimiy bog‘lar va sharqona ruhi saqlangan eski qishloqlar uzilib ketadi. Tarix sahifalaridan ma’lumki, bu zaminda qadimdan karvon yo‘llari o‘tgan, savdo va madaniyat gullab-yashnagan. Bugungi kunda ham Denov sermehnat, mehmondo‘st xalqining fidokorona hayoti bilan yashab, rivojlanmoqda. Denov – faqat yeru osmon orasidagi shahar emas, u — umrning o‘zi kabi iliq, hayotning o‘zi kabi to‘lib-toshgan diyori. Bu yerda paxta dalalari oppoq to‘lqin kabi o‘ynaydi, uzumzorlardan uzilmagan xushbo‘y hidi esa, tun yarmida ham havoga singib turadi. Tog‘ etaklaridan oqib tushayotgan soylar, qadimiy masjidlar va bozorlarning shovqini Denovga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Zamonaviy Denov bilim va ma’rifat shamchalarini ham yorqin tutmoqda. Ayniqsa, yurt kelajagini tarbiyalovchi bilim maskanlaridan biri – **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti** shaharning ma’naviy qiyofasiga yangi ranglar olib kirdi. Ushbu oliy ta’lim dargohi yosh avlodga zamonaviy tadbirkorlik, ta’lim va ijtimoiy sohalarda mustahkam bilim berib, ularni zamon bilan hamqadam bo‘lishga tayyorlamoqda. Institut zamirida yoshlarning orzulari, intilishlari va ertangi kuniga ishonchi porlaydi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti nafaqat bilim beruvchi maskan, balki shahar hayotining ma’naviy yuragi, yoshlarning ilhom manbai hamdir.



## **MAXMATRAYEMOV BAXROM OMONOVICH**

*Oltinsoy tumani hokimi*

Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qisqa tarixiga qarab, yuqori ta'lim makonida o'ziga xos o'rin egalladi. Bugungi kunda ushbu nufuzli dargoh ta'lim ilm-fan va xalqaro hamkorlik, yo'nalishlarida jadal rivojlanmoqda.

Institut qisqa vaqt ichida ilmiy xodimlari, zamonaviy ta'lim tizimi va xalqaro aloqalar yordami bilan O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ham munosib e'tirof etilmoqda. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining so'nggi besh yil ichida erishgan muvaffaqiyatlari, mustahkam ilmiy va pedagogik xodimlar, zamonaviy infratuzilmasi hamda innovatsion dasturlari global ta'lim sohasida ilg'or tajriba sifatida namoyon bo'lmoqda.

Institutda ta'lim olish uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar mavjud.

Institutning 5 yillik faoliyati o'tgan davrida erishilgan yutuqlarni, o'zlashtirilgan tajribani va kelgusidagi qilinadigan ishlarini o'zida mujassam etadi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bugun nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo ta'limida ham mustahkam o'ringa ega bo'ldi. Joriy besh yillik amalga oshirilgan ishlar institut kelajagiga katta umid va istiqbollarni ochib beradi.



## ESHMURATOV ABDULXAKIM XUSHBOKOVICH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senat  
a‘zosi, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga  
qarshi kurashish qo‘mitasi raisi*

Denov – quyosh bilan do‘stlashgan, bahor havosi hech qachon tark etmaydigan maskan. Surxondaryoning yuragida joylashgan bu shahar tabiatning saxovatidan bahramand, inson mehnatining eng go‘zal samarasidir. Yerlar serhosil, osmon musaffo, xalq esa mehmondo‘st va dilkash. Denov qadimdan karvon yo‘llarining beshigi, madaniyat va savdoning bebaho uzug‘i bo‘lgan. Har bir qadami tarix, har bir qadamida bir zamonning nafasi seziladi. Uzumzorlari shirin hidi bilan havoni to‘ldiradi, paxta dalalari oq to‘lqinlar kabi yer yuzida tebranadi. Bugun Denov shunchaki tarix xotirasi emas – u kelajakka yuz tutgan, yoshlar shijoati bilan to‘lib-toshgan shahardir. Ayniqsa, shahar qoq markazida qad rostlagan **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti** bu orzular va intilishlarning haqiqiy timsolidir. Institut – ilm izlagan, orzulari katta, zamoni quvib yetmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun ochilgan eshikdir. Bu yerda nafaqat bilim beriladi, balki inson o‘z orzusiga qanot yasaydi. Tadbirkorlikni o‘rganayotganlar kelajakda o‘z yurtining faxri bo‘lishni maqsad qiladilar, pedagogika sirlarini o‘zlashtirayotganlar esa ertangi avlod tarbiyasiga poydevor qo‘yishni niyat qiladilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti – bu bilim nuridan qilingan minoradir. Uning har bir qavati, har bir derazasi zamonaviylikni, izlanishni va yorqin ertani ifodalaydi. Institut devorlari orasida har kuni yuzlab orzular unadi, minglab umidlar sabr va mehnat bilan to‘qiladi. Denov bugun ham o‘zining serquyosh zaminida, sermehnat xalqining qo‘li bilan yangi tarix yaratmoqda. Va bu tarix sahifalarida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining o‘ziga xos, yorqin sahifasi bor. Denov – quyosh o‘pgan shahar. Denov – ilm va orzular uchrashgan maskan.



## **XALMURADOV RUSTAM IBROGIMOVICH**

*Samarqand davlat universiteti rektori,  
texnika fanlari doktori, professor*

Denov qadimiy tarixga ega bo'lib, u mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Shahar madaniyatini shakllantirishda innovatsion uslub bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani esa yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, butun jahonda malakali mutaxassislarga talab yuqori bo'layotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Fan olamida katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan Samarqand davlat universiteti hamda Surxon vohasida hozirda faoliyat yuritayotgan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida belgilanishi ham bu ikki hudud o'rtasidagi qadimiy uzviy bog'liklikdan dalolatdir.

Qadimgi va navqiron Samarqand shahrining fan, ta'lim, madaniyat, san'at va ijtimoiy-iqtisodiy rivojida Samarqand davlat universitetining uzoq yillar davomida orttirgan yuksak tajribasi muhim o'rin tutadi. Hududning tarixini o'rganish jarayonida bunga yana bir bor amin bo'lamiz.

Tadbirkorlik an'analarining ilmiy-ijodiy namunasi sifatida, yosh avlodni vatanparvarlik hamda madaniy merosimizga munosib faxr-iftixor ruhida tarbiyalashda ushbu institutining ham o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti yaqin yillarda eng yirik oliy ta'lim muassasasi sifatida nafaqat respublikamiz, balki dunyo tan olgan ta'lim muassasasi bo'lib shakllanadi. Hududda ushbu oliygohga asos solinishi, uning tashkil etilganligiga endiginda 5 yil to'lgan bolsa-da, nafaqat Surxon vohasining shimoliy tumanlari, balki butun Respublika ta'limi va ilm-fanining yanada rivojlanishida muhim voqelik bo'ldi.



## **TOSHQULOV ABDUQODIR HAMIDOVICH**

*Termiz davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Denov qadimdan ilm-ma'rifat markazlaridan biri bo'lib, bu yurtda ta'lim jarayoni uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shayx Alouddin Attor valiy hazratlari shu zaminda qo'nim topgan. Denov qo'rg'onidagi Sayid otaliq madrasasi hamda qator tarixiy obidalar moziydan shohidlik berib turibdi.

Bundan tashqari, qadimgi qo'lyozmalar va bitiklar o'z davrida yozib qoldirilib, bugungi avlodlargacha meros sifatida saqlanib kelgan. Bu go'shaning tuprog'i – oltin, suvi – xazina, odamlari esa mehnat bilan rizq yaratib keladi. Manbalarga ko'ra, Sayid otaliq madrasasida 500 ga yaqin talaba tahsil olgan, ularga 33 nafar mudarris saboq bergan.

Oradan 500 yil muddat o'tib, Denovda oliy ta'lim muassasasining tashkil etilishi Prezidentimiz ta'kidlab o'tgan uchinchi Renessasnsnga qo'yilayotgan zalvorli qadamlardan biri, ta'bir joiz bo'lsa, tarixiy adolatning qaror topishidir.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan Denovda oliy ta'lim muassasasining tashkil etilishi o'z davrining nufuzli oliy ta'lim muassasasi hisoblangan Sayid Otaliq madrasasidagi ilmiy muhitni rivojlantirish uchun, Surxon vohasining shimoliy hududlari aholisi uchun tom ma'noda katta imkoniyat bo'ldi.

Qisqa vaqtda mazkur institut olimlarining ilmiy-ijodiy izlanishlari natijalarini kitob shaklida nashr etish kelajak avlod uchun muhim nodir meros sifatida saqlanib qoladi. Bu ilmiy xazinama nafaqat hudud va respublikaning yirik olimlari, qolaversa xorijiy olimlarning ham ilmiy yo'nalishlardagi yangiliklari aks etgan tadqiqot ishlari bayon etiladi hamda keng jamoatchilikka yetkaziladi.



## **RAXIMOV G'ANISHER XUDOYQULOVICH**

*Jahon tillari universiteti proffessori,  
Filoliya fanlari doktori*

Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan qadimda Chag'aniyon deb atalgan go'zal va betakror Denov zamini azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini va shu zaminda har besh yuz yillik davriylik bilan buyuk tamaddunlar tarix sahnasiga chiqqanini ko'ramiz.

Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

Tarixda Chag'oniyon (arab. Sag'oniyon) – Surxondaryo (Chag'onrud)ning o'rta va yuqori oqimi bo'ylarida joylashgan tarixiy madaniy viloyat hisoblangan. Milodiy I–III asrlarda Chag'oniyon Kushon podsholigi tarkibiga kirgan.

Chag'oniyonning iqtisodi va madaniyati bu davrda ravnaq topgan, ko'plab shahar va qishloqlar vujudga kelgan, tovar-pul munosabatlari, sug'orma dehqonchilik, turli kasb-hunarlar, tasviriy va amaliy san'at (ayniqsa, haykaltaroshlik) rivojlangan. Darhaqiqat, buyuk tarixga ega bo'lgan bu hududda bugungi kunda ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"da 2020-yil 17-apreldagi PQ-4681-son qaroriga asosan Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tashkil etilishi

tarix zarvaraqlarida bitilgan qadim o‘tmishimizning yangi qiyofada aks etishidir.

O‘rta Osiyoda har yarim ming yilliklar oralig‘ida kechgan ikki Renessans davrida ilm-fan rivojida O‘zbekistonning janubiy vohasida yashab o‘tgan buyuk allomalarning hissalarini beqiyos bo‘lgan. Qadimiy Surxon vohasining shimoliy hududlarini qamrab olgan hozirgi Denov, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy Boysun va Sho‘rchi tumanlari hududi ulkan amfiteatrni eslatadi.

Sharqda Bobotog‘, g‘arbda Boysuntog‘ bilan o‘ralgan tuman zamini tog‘lar bag‘ridan zinapoya hosil qilgan holda tushib keladi va o‘rtada tekislikdan iborat vodiya aylanadi. Uning bag‘riga Surxondaryo, To‘polangdaryo, Sangardak, Qizilsuv daryolari, Hazarbog‘, Oybarak kanallaridan obi-hayot inadi. Suvi mo‘l, zamini unumdor, havosi musaffo bo‘lgani uchun ajdodlarimiz qadim-qadimdan bu yerda qal’alar, kentlar, shaharlar barpo qilib umrguzaronlik qilishgan.

Qadimgi davrlardan buyon hozirgi Denov tumani hududida joylashgan ko‘xna Chag‘oniyon yirik iqtisodiyot va madaniyat markazi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Institutning ilmiy salohiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Umid qilamanki, yaqin vaqt ichida Respublikamizning eng nufuzli oliygohlaridan biriga aylanadi.



## **YASTREBOV OLEG ALEKSANDROVICH**

*Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti rektori,  
Rossiya Federatsiyasi*

Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy bilim va ilg‘or tajribalarni almashish bugungi global ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari izchil yo‘lga qo‘yilgan va samarali rivojlanmoqda. Bu hamkorlik ikki oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi ilmiy va akademik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu 2024-2025-o‘quv yilida Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘rtasida memorandum imzolandi. Ushbu xalqaro shartnomada ko‘zda tutilgn eng asosiy narsa bu Xalqaro tan olingan rus tilini bilish bo‘yicha sertifikat berish markazi ochilishi bo‘ldi. Ushbu markaz nafaqat institutning talabalarini bilimini baholaydi, balki institutga yaqin hududlarda istiqomat qiladigan rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarini ham bilimini baholab, testdan muvaffaqiyatli o‘tgan talabgorlarga C1 sertifikati beriladi.

Shuningdek, hamkorlik doirasida kelgusi o‘quv yilidan ilmiy izlanishlar, akademik almashinuvlar, qo‘shma seminar va anjumanlar yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa ikki oliy ta’lim muassasasining o‘zaro ishonch va manfaatga asoslangan aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan bo‘lgan hamkorligimiz o‘zaro rivojlanish, yangi imkoniyatlar va xalqaro ta’lim maydonidagi barqaror taraqqiyot sari dadil qadamdir. Men, Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti rektori sifatida bu hamkorlikning yanada muvaffaqiyatli bo‘lishiga va talabalarning ilmiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan yangi tashabbuslarni amalga oshirishga tayyorman.



**JAFYAROVA MARINA  
NIKOLAEVNA**

*Novosibirsk viloyati ta'lim vaziri*

Surxondaryo viloyatida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qisqa vaqt ichida yurtimiz oliy ta'lim makonida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bu maskan bugungi kunda nafaqat ta'lim, balki ilm-fan va xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham faol rivojlanmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti shu qisqa davrda o'zining ilmiy salohiyati, ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik sohasidagi yutuqlari bilan O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyoda o'ziga xos o'rin egalladi. Ushbu institutning ta'lim va ilm-fan yo'nalishlaridagi muvaffaqiyatlari nafaqat o'z mamlakatida, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etiladi. Institutning joriy besh yil ichida erishgan yutuqlari, uning ilmiy va pedagogik salohiyati, zamonaviy infratuzilmasi va innovatsion dasturlari butun dunyoda ta'lim tizimiga yangiliklar kiritishning muvaffaqiyatli namunalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Institutda ta'lim olish uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratib berilgan, talabalar o'z bilimlarini amaliyotda mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarga ega. Ular yuqori malakali professor-o'qituvchilar, zamonaviy laboratoriyalar, kutubxonalar va innovatsion markazlar bilan ta'minlangan. Bu esa yoshlarning keng dunyoqarashi va mukammal bilim olishlariga yordam beradi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ta'lim metodikasi zamonaviy talablar va global ta'lim tendensiyalariga mos kelib, o'zining muvaffaqiyatli natijalari bilan yurtimizda ham, xalqaro miqyosda ham yuqori baholandi.

Ayniqsa, institutning xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga bo'lgan intilishi va bu borada erishgan yutuqlari juda muhimdir. Novosibirsk viloyati bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish, professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobilligi, qo'shma ilmiy izlanishlar va loyiha ishlari ikki hudud o'rtasidagi ta'lim va ilm-fan aloqalarini yanada mustahkamladi. Bu hamkorlik nafaqat ikki mamlakat

o'rtasida, balki butun xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

2024-yilning 19-20-sentabrida o'tkazilgan tashrif davomida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xodimlari Novosibirskda o'tkazilgan forum va konferensiyada ishtirok etishdi va Novosibirsk viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari bilan yangi memorandumlar imzoladilar. Bu yirik xalqaro hamkorlik loyihalari institutning ilmiy va pedagogik salohiyatini yanada kuchaytirib, yangi bosqichga olib chiqadi. Biz, Novosibirsk viloyati ta'lim vazirligi bu hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish yo'lidagi harakatlarni davom ettirishga tayyormiz. Biz uchun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan ishlash juda muhim va biz bu hamkorlikni kelgusi yillarda yanada chuqurlashtirishni niyat qilganmiz.

Institutning 5 yilligi – bu shunchaki o'tgan davrni yodga olish emas, balki u erishgan yutuqlar va amalga oshirilgan loyihalar natijasida o'rganilgan tajriba va yangi imkoniyatlarning ko'rsatkichi sifatida qaralishi kerak. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hozirda nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo va Rossiya bo'ylab ta'lim sohasida yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Uning joriy 5 yillik faoliyati o'zida katta istiqbollarga ega bo'lgan ko'plab loyihalarni o'z ichiga oladi. Shubhasiz, bu institutning kelgusi yillarda ilmiy, pedagogik va madaniy hamkorlikda yanada yirik muvaffaqiyatlarga erishishi kutilyapti.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan ta'lim, ilmfan va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida qo'yilayotgan asosli qadamboshlari va strategiyalarining samarali bo'lishiga ishonchim komil. Bu institut, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo ta'limi uchun o'ziga xos o'rnak bo'lib, yangi avlodning bilim olishiga xizmat qilishda muhim rol o'ynaydi. Biz bu institutning 5 yilligini nishonlashda, uning kelgusi rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishga tayyormiz va bu hamkorlikni yanada kuchaytirish yo'lidagi barcha harakatlarni qo'llab-quvvatlaymiz.



## **BOCHAROV SERGEY NIKOLAYEVICH**

*Altay davlat universiteti rektori, Rossiya*

*Federatsiyasi*

Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy bilim va ilg'or tajribalarni almashish bugungi global ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan Altay davlat universiteti o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari izchil yo'lga qo'yilgan va samarali rivojlanmoqda. Bu hamkorlik ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi ilmiy va akademik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'tgan uch yil davomida Altay davlat universiteti bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'rtasida 1+1 magistratura dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida talabalar birinchi yilini Denovda, qolgan yilini esa Altay davlat universitetida tahsil olishadi. Bu yoshlarimizga nafaqat har ikki ta'lim tizimining afzalliklarini o'zlashtirish imkonini, balki xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini ham bermoqda.

Shuningdek, talabalarining Altayga o'qishga borishlari va ilm olish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini e'tirof etaman. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalarining yuqori bilimga chanqoqligi va ilm-fan sohasidagi katta qiziqishlarini ko'rganimizda, biz bu hamkorlikni yanada rivojlantirishga harakat qilamiz.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan bo'lgan hamkorligimiz o'zaro rivojlanish, yangi imkoniyatlar va xalqaro ta'lim maydonidagi barqaror taraqqiyot sari dadil qadamdir. Men, Altay davlat universiteti rektori sifatida bu hamkorlikning yanada muvaffaqiyatli bo'lishiga va talabalarining ilmiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan yangi tashabbuslarni amalga oshirishga tayyorman.



**MAMIY DAUD  
KAZBEKOVICH**

*Adigey davlat universiteti rektori,  
Rossiya Federatsiyasi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan o‘rnatgan aloqalarimiz bizning universitetimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirayotganidan dalolat beradi. Bu hamkorlik ikki oliy ta’lim muassasasining o‘zaro hurmat va ishonch asosidagi do‘stona munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adigey davlat universiteti Rossiyaning yetakchi ilmiy markazlaridan biri sifatida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik bizning talabalarimiz va professor-o‘qituvchilarimiz uchun yangi ilmiy imkoniyatlar yaratmoqda. Bu aloqalar nafaqat ta’lim sohasida, balki ilmiy izlanishlar, tajriba almashish, qo‘shma loyihalar va seminarlar tashkil etish orqali akademik aloqalarimizni yanada mustahkamlashga yordam bermoqda.

O‘tkazilgan forumlar, konferensiyalar va ilmiy anjumanlar nafaqat ikki oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilari, balki talabalar o‘rtasida ham o‘zaro ilmiy muloqotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalarining yuqori bilimga bo‘lgan chanqoqligi, ularning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishi va yuqori darajadagi bilim olishga intilishi bizni juda hayratda qoldiradi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik, albatta, ikki xalq o‘rtasida ta’lim tizimi bo‘yicha mustahkam ko‘prik qurilishiga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, ikki oliygoh o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

Men ishonchim komilki, bu hamkorlik faqat bugungi kun uchun emas, balki istiqboldagi muvaffaqiyatlar uchun ham mustahkam poydevor bo‘ladi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan erishilgan yutuqlar va muvaffaqiyatlar bizning ilmiy va ta’lim sohasidagi yangi yutuqlarimizga yo‘l ochadi.



## **FAHRETTİN GÖKTAŞ**

*Fırat universiteti rektori*

*Turkiya*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun Markaziy Osiyoda ilmiy va ta’limiy faoliyati bilan katta e’tibor qozongan ilmiy muassasa sifatida tanilgan. Institutning rivojlanish jarayoni va erishgan muvaffaqiyatlari, ta’lim tizimining barcha darajalarida yuqori sifat va innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash orqali amalga oshirilgan. Denovda o‘qitilayotgan dasturlar va ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa, yosh avlodning ta’lim olishining samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Fırat universiteti sifatida biz Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining barcha erishgan muvaffaqiyatlariga chuqur hurmat bilan qaraymiz. Turkiya-O‘zbekiston III ta’lim forumi doirasida imzolangan memorandum natijasida, biz Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidan 17-martdan 18-aprelga qadar 18 nafar professor-o‘qituvchining malaka oshirish uchun Fırat universitetiga tashrif buyurganini katta mamnuniyat bilan ta’kidlaymiz. Ushbu tashrif, hamkorlikning yangi cho‘qqilarga chiqqanligini va ikki universitet o‘rtasida ilmiy izlanishlar, ta’lim metodikalari va innovatsiyalarni almashishdagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Denov institutining ilmiy jamoasi va rahbariyatining tashabbuskorligi va hamkorlikka bo‘lgan ochiqligi bizni chuqur ta’sirlantiradi. Bizning universitetimiz va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘rtasidagi hamkorlik, ikki tomonning ham ilmiy salohiyatini yanada boyitib, ta’lim va ilm-fan sohasidagi yangi yutuqlarga erishishga imkon yaratadi. Biz kelgusi yillarda bu hamkorlikni yanada mustahkamlashni va yangi ilmiy va pedagogik yutuqlarga erishishni intiqlik bilan kutmoqdamiz.



## SMITA PANT

*Hindiston Respublikasining  
O'zbekistondagi Favqulodda va  
Muxtor Elchisi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'zining qisqa tarixida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda ham o'zining ilmiy va ta'limiy faoliyati bilan katta muvaffaqiyatlarga erishib, xalqaro ta'lim maydonida mustahkam o'rin egallagan nufuzli ta'lim muassasasiga aylandi. Bu institutning yuksak ilmiy salohiyati va zamonaviy ta'lim dasturlari orqali talabalarga berilgan bilimlar nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda yuksak e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 5 yillik faoliyatida amalga oshirilgan xalqaro hamkorliklar o'zgacha ahamiyatga ega. Ushbu institutda Hindiston markazi tashkil etilganligi, Hindiston madaniyati va ilmiy faoliyati bilan tanishish imkoniyatlari yaratilganligi ta'lim jarayonini yanada boyitmoqda. Hindiston markazining faoliyati orqali talabalar Hindistonning boy madaniy merosi, ilmiy yutuqlari va ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. Ayniqsa, Hindiston milliy o'yinlari, masalan, Kriket, Yoga va Kabadiy o'yinlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari talabalar uchun alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Bu markazda o'quvchilar Hindistonni o'rganish, uning sport turlari va madaniy qadriyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lib, bu aloqalar nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki ikkala mamlakat o'rtasida yanada mustahkam madaniy aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi. Denovdagi Hindiston markazi, shuningdek, Hindistonning sport an'analarini keng targ'ib qilish orqali talaba-yoshlarni raqobatbardosh qilishda muhim o'rin tutadi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining kelajagi yanada yorqin va uning ilmiy hamkorliklari va xalqaro aloqalari har doim yangi yutuqlarga erishishda davom etadi. Bizning Elchixonamiz bu hamkorlikni yanada chuqurlashtirishni kutmoqda va bu yo'nalishda o'zaro manfaatli ishlashlarni davom ettirishga tayyor.



## HASAN MANDAL

*Istanbul texnika universiteti  
rektori Turkiya*

Bugungi kunda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, ilm-fan va ta'lim sohasidagi yuksak maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishda katta tajribaga ega bo'lgan muassasa sifatida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu institut o'zining rivojlanish jarayonida nafaqat yuqori sifatli ta'lim, balki ilmiy izlanishlar va innovatsion tadqiqotlar orqali o'zining mustahkam o'rnini yaratdi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining o'qituvchilari va talabalarining ilmiy faoliyati, regionda ta'lim tizimining sifatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Biz Istanbul texnika universiteti Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ta'lim va ilm-fan sohasidagi erishgan yutuqlarini yuqori baholaymiz. Ularning ilmiy izlanishlaridagi yangiliklar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdagi muvaffaqiyatlari O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi yetakchilik o'rnini yanada mustahkamladi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining xalqaro ilmiy hamkorliklari doimiy yangilanib, global ta'lim tizimiga hissa qo'shishda davom etmoqda.

Turkiya-O'zbekiston III ta'lim forumi doirasida imzolangan memorandum biz uchun nafaqat ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, balki global ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim qadamdir. Ayniqsa, "Quyosh panellari" loyihasi va yashil energatika sohasidagi qo'shma tashabbuslar ikkala universitetning ham ilmiy potentsialini sinovdan o'tkazish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Bu loyihalar orqali, biz faqatgina ilm-fan va ta'lim sohasida yangi yuksakliklarga erishishni emas, balki ekologik inqirozga qarshi kurashishda ham jahon ta'limiga o'z hissamizni qo'shish niyatidamiz.



## **DJILO GULNAZARZODA**

*Uluğzoda nomidagi Tojikiston xalqaro  
chet tillar universiteti Tojikiston  
Respublikasi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bugungi kunda butun jahonda ilm-fan va ta'lim sohasidagi yuksak natijalarga erishib, o'zining xalqaro miqyosdagi nufuzini tobora mustahkamlamoqda. Ushbu institutning ta'lim tizimi nafaqat o'quvchilarni yuqori darajada tayyorlash, balki ilmiy izlanishlar va innovatsion tadqiqotlar orqali o'zining ilmiy salohiyatini kengaytirishda katta rol o'ynaydi. Institutning o'qituvchilari va talabalarining ilmiy faoliyati, zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsion yondoshuvlari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ta'lim jarayonlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi bilan katta e'tiborga molik. Institutning o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro aloqalarni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlari o'ziga xos yuksak darajaga ko'tarilgan. Ayniqsa, yosh avlodni bilim va ma'rifatga yo'naltirishdagi yondoshuvlari va ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan e'tibori institutning mustahkam o'rnini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ta'lim tizimiga va ilmiy salohiyatiga yuqori baho beramiz. Bu oliy ta'lim muassasasi nafaqat zamonaviy yondoshuv va innovatsion metodlarni qo'llash, balki talaba-yoshlar uchun eng yaxshi ta'lim sharoitlarini yaratish bo'yicha ham katta ishlar qilmoqda. Biz Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan o'zaro hamkorlikni davom ettirishga tayyormiz va kelajakda ikki universitet o'rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanib, ilmiy izlanishlar va ta'lim sohasida muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilishini umid qilamiz.



## AVRALEV NIKITA VLADIMIROVICH

*N.A. Dobrolyubov nomidagi Nijniy  
Novgorod davlat lingvistik universiteti*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'tgan qisqa davrda katta yutuqlarga erishib, nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda ta'lim va ilm-fan sohasida yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Ushbu muassasa o'zining innovatsion metodlari, yuqori sifatli ta'lim tizimi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlari bilan yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Rus tili madaniyati va ta'lim markazining ochilishi, bu muassasaning xalqaro miqyosdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, ushbu markazning rasmiy ochilish marosimi tashkil etildi.

Mazkur markaz nafaqat rus tili va adabiyoti yo'nalishidagi talabalarga, balki institutning barcha talaba-yoshlari va professor-o'qituvchilariga ta'lim olishda, ilmiy faoliyatda va madaniy aloqalarida katta foyda keltiradi. Bu markaz, nafaqat rus tili bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, balki madaniyatlararo muloqot va xalqaro tajriba almashishni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'rtasida o'rnatilgan hamkorlik ta'lim va ilm-fan sohalaridagi o'zaro foydali aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kelajakda, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan hamkorlikni davom ettirish, ilmiy tajriba almashish va o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirish bizning ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Biz bu aloqalar orqali ikkala universitetning ilmiy salohiyatini oshirib, mintaqamizda ta'lim va ilm-fan sohasidagi yirik loyihalarni amalga oshirishga intilamiz.



**JULIA**  
*Pendidikan Universiteti*  
*professori*

Men, Indonesiyaning nufuzli Pendidikan universiteti professori sifatida ilk bor Surxondaryo viloyatining Denov shahrida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurib, kutilmagan darajada ijobiy taassurotga ega bo'ldim. To'g'risini aytganda, O'zbekistonning olis hududlaridan birida shunchalik zamonaviy, barcha zaruriy infratuzilmalarga ega, innovatsion ruhdagi institut mavjud ekanini ko'rib hayratda qoldim.

Institut bilan yaqindan tanishar ekanman, uning qisqa vaqt ichida erishgan yutuqlari va jadal rivojlanish sur'atlari meni chuqur quvontirdi. Yosh oliy ta'lim muassasasi bo'lishiga qaramay, DTPI bugungi kunda nafaqat O'zbekiston oliygohlari orasida, balki xalqaro miqyosda ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Bu, albatta, institut rahbariyati va fidoyi jamoasining mehnati, xalqaro hamkorlikdagi ochiqligi va yangiliklarga intilishining yorqin namunasi hisoblanadi.

Tashrif davomida institutda yaratilgan zamonaviy o'quv va ilmiy sharoitlar, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan hamkorlik bitimlari bilan yaqindan tanishdim. Bu haqida o'z universitetimizdagi talabalarga so'zlab berganimda, ular katta qiziqish va hayajon bilan bu yangilikni kutib olishdi. Bu bizning institutlar o'rtasidagi hamkorligimizdagi dastlabki va muhim qadamlardan biri bo'ldi, deb hisoblayman. Kelgusida bu aloqalar yanada mustahkamlanib, ko'proq professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirokida kengayishiga umid qilaman.

Institut rektori boshchiligidagi jamoaga chuqur minnatdorchiligimni bildiraman. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining keyingi 5 yillik faoliyatida yanada ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga tilakdoshman.



**RUZIYEV OYBEK  
ABDIMUMINOVICH**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika  
instituti rektori, Iqtisod fanlari nomzodi,  
Dotsent*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini isloh etish, ularni zamonaviy bosqichga olib chiqish borasida izchil va keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ezgu yo'lda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar zamirida o'z kasbiga sadoqatli, bilim va tajribasini yurt taraqqiyoti yo'lida safarbar etgan fidoyi ustoz va olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqobat sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsion g'oyalarning joriy etilishi, o'z navbatida, yuksak bilimli hamda tashabbuskor yetakchilarni talab qilmoqda. Ana shunday jonkuyar, ezgu maqsadlar yo'lida intilayotgan, vatan istiqboli uchun mas'uliyatni teran his etgan, o'zining boy tajribasi, keng dunyoqarashi, tafakkuri va fidokorona mehnati bilan yurtimiz ilm-fani va ta'lim tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yuksak salohiyatli olimlardan biri – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Ruziyev Oybek Abdimuminovichdir.

Ruziyev Oybek Abdimuminovich 1975-yil 7-iyun kuni Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. U bolaligidan o'z tengqurlaridan ziyrakligi, zukkoligi, intiluvchanligi bilan ajralib turar, har bir fanni qunt bilan o'zlashtirardi. Ayniqsa, ilm-fanga bo'lgan qiziqishi uni yoshlik chog'idanoq o'qishga, yangilikka, izlanishga undab keldi.

Maktab davrida Oybek Ruziyev o'zining tirishqoqligi, namunali xulqi va o'quvdagi yuqori ko'rsatkichlari bilan ustozlari va sinfdoshlari e'tiboriga tushgan. Darsdan bo'sh vaqtlarida ko'proq kitob o'qish, sport, atrof-muhitdagi hodisalarni ilmiy tushunishga harakat qilish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga doimo intilgan. Bu esa, albatta, uning kelgusidagi tanlagan yo'nalishi – iqtisodiyot va boshqaruv sohalarida yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida muhim poydevor bo'ldi.

1991-yilda oʻrta maktabni tamomlagach, oʻsha davrda Oʻzbekiston janubidagi yetakchi oliy taʼlim muassasalaridan biri boʻlgan Termiz davlat pedagogika instituti (TDU)ga oʻqishga qabul qilindi. U yerda Oybek Ruziyev 1991-1996-yillar mobaynida tahsil olib, universitetda oʻzining bilimga chanqoqligi, masʼuliyatli yondashuvi va tirishqoqligi bilan tez orada professor-oʻqituvchilar va kursdoshlar orasida hurmat-eʼtibor qozondi.

Talabalik yillari davomida u nafaqat oʻquv jarayonida, balki jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. Yoshlar orasida yetakchi sifatida tanilib, turli viloyat, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, fan olimpiadlarida, davra suhbatlarida faol qatnashdi. Oʻquv dasturlarini aʼlo baholarga oʻzlashtirgan Oybek Abdimuminovich universitetni muvaffaqiyatli yakunlab, oʻzining mehnat faoliyatini aynan ushbu oliy taʼlim dargohida davom ettirdi.

1996-yilda Oybek Ruziyev oʻzining ilk mehnat faoliyatini Termiz davlat universitetining “Biznesni boshqarish” kafedrasida assistent lavozimida boshladi. Yosh pedagog sifatida u qisqa vaqt ichida oʻzining chuqur nazariy bilimlari, amaliy koʻnikmalari, tashabbuskorligi hamda masʼuliyatli yondashuvi bilan ilmiy jamoada alohida eʼtirofga sazovor boʻldi. Aynan shu davrda u ilm-fan yoʻnalishidagi faoliyatini yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni oʻrganish va pedagogik salohiyatini oshirishni oʻz oldiga ustuvor maqsad qilib qoʻydi.

Shu maqsadda, aynan shu yili, yaʼni 1996-yilda Oybek Ruziyev Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kunduzgi boʻlim aspiranturasiga oʻqishga qabul qilindi. Aspiranturada tahsil olayotgan uch yil davomida u ilmiy izlanishlarga chuqur shoʻngʻib, iqtisodiyot fanining dolzarb masalalari boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamladi. Oʻzining puxta tayyorgarligi, izlanishchanligi va ilmga boʻlgan yondashuvi natijasida u 1999-yilda aspirantura bosqichini aʼlo baholar bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Bu yutuq uning ilmiy faoliyatidagi burilish nuqtasiga aylandi va keyingi yillarda masʼuliyatli ilmiy-pedagogik lavozimlarda samarali faoliyat yuritishiga asos boʻlib xizmat qildi.

Aspirantura bosqichini muvaffaqiyatli yakunlaganidan so‘ng, Oybek Ruziyev 1999–2001-yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Mintaqaviy iqtisodiyot va ekologiya” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davr uning ilmiy-pedagogik faoliyatidagi yangi bosqich bo‘lib, u o‘z salohiyati va tajribasini talabalarga yetkazishda, amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 2001-2003-yillar esa davomida u universitet huzuridagi “O‘zbekiston Respublikasida demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o‘rganish markazi” da mudir lavozimida ishladi. Bu lavozimlar unga nafaqat ta‘lim va ilmiy faoliyat, balki boshqaruv sohasida ham chuqur tajriba to‘plash imkonini berdi.

Oybek Ruziyevning professional salohiyati, tashkiliy qobiliyati va mas‘uliyatli yondashuvi Termiz davlat universitetida muhim lavozimlarni egallashiga zamin yaratdi. U 2003-2005-yillar davomida universitetning iqtisodiyot va tadbirkorlik ishlari bo‘yicha prorektori lavozimida ishladi va bu davrda ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, yosh mutaxassislarni amaliyotga yo‘naltirish kabi yo‘nalishlarda tashabbuskorlik ko‘rsatgan.

Shu asosda orttirilgan tajribasi Oybek Ruziyevga 2005-2012-yillar oralig‘ida iqtisodiyot fakultetiga dekanlik qilish imkonini berdi. Bu yillarda u o‘quv jarayonining sifatini oshirish, malakali pedagoglar bilan jamoa shakllantirish, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. Fakultet faoliyati mazkur yillarda yanada tizimlashtirilib, yangi o‘quv-uslubiy yondashuvlar bilan boyitilgan.

2012–2013-yillarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo‘yicha prorektor lavozimiga tayinlangach, Oybek Ruziyev ta‘lim tizimining uzluksizligi va bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qiluvchi bog‘liqlikni ta‘minlash yo‘lida harakat qildi. U kasbga yo‘naltirish, amaliy bilimlarni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib bordi.

Mazkur bosqichdan so‘ng, 2013-2017-yillarda Termiz davlat universitetining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimida faoliyat yuritgan Oybek Ruziyev, talaba-yoshlar bilan ishlashda

yurtparvarlik, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlarga hurmat kabi tamoyillarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratdi. Turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, targ'ibot loyihalari, uchrashuvlar orqali talabalarning ma'naviy olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilgan.

2017–2018-yillarda esa Oybek Ruziyev Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida faoliyat yuritgan Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida direktor vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat olib bordi. Bu xalqaro ahamiyatga molik markazdagi faoliyati davomida u xorijiy talabalarga sifatli ta'lim berish, o'zaro madaniy aloqalarni mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shish yo'lida fidokorona xizmat qildi.

2018-2024-yillar davomida u ushbu markazda to'laqonli direktor lavozimida ishladi. Bu davr mobaynida uning tashabbusi bilan ta'lim markazida zamonaviy o'quv uslublari joriy etildi, xalqaro hamkorliklar yo'lga qo'yildi, Afg'onistonlik yoshlar uchun qulay va samarali o'quv muhiti yaratildi. U yurtimizning xorijiy ta'limdagi nufuzi ilmsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik tamoyillarini dunyo miqyosida targ'ib etishda katta hissa qo'shdi.

2023–2024-yillarda esa Oybek Abdimuminovich "Termiz iqtisodiyot va servis universiteti"ning "Iqtisodiyot va aniq fanlar" kafedrasida o'rindoshlik asosida ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirdi

2024-yildan boshlab, Oybek Ruziyev Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori sifatida mehnat faoliyatini olib bormoqda. Yangi vazifada ham u yurtimiz oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ilm-fanni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, talaba-yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yo'lida faol va samarali ish olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda institutning barcha professor-o'qituvchilarini aniq maqsad bo'yicha ilmiy faoliyatini rivojlantirishga, ustoz-shogird tizimini haqqoniy ishlatishga, xorijiy OTMLar bilan aniq maqsadli hamkorlik aloqalarni o'rnatish, institutning salohiyatini oshirishga asosiy urg'u berilmoqda.



## SHUKUROV RUSTAM ESHONKULOVICH

*Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektori, Psixologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD) v.v.b Dotsent*

Bugungi zamon ilm-fani chuqur tahlil, qat'iyatli izlanish va cheksiz fidoyilikni talab qiladigan murakkab, ammo nihoyatda sharaflı yo'ldir. Bu yo'lda yurak bag'ridan joy olgan har bir yutuq – insoniyat tafakkurining yangi pog'onasi, har bir yangilik – jamiyat taraqqiyotining belgisidir. Ilm-fanning ana shunday cheksiz ummonida sobitqadam yurib, psixologiya sohasi rivojiga munosib hissa qo'shayotgan olimlardan biri – Shukurov Rustam Eshonkulovichdir.

Shukurov Rustam Eshonkulovich 1991-yil 20-yanvarda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Ruhıy dunyosi nozik, o'ziga xos ichki sezgirlikka ega bo'lgan bu yigit bolaligidanoq inson tabiatiga, ruhiyat olamiga, shaxsiyat sir-asrorlariga, jamiyatdagi psixologik muvozanat masalalariga qiziqish bildirgan. Undagi bu tabiiy qiziqish vaqt o'tishi bilan ilmga chanqoqlik, tahlilga ishtiyoq, o'z ustida ishlashga bo'lgan qat'iyatga aylanib bordi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, u 2006–2009-yillarda Termiz davlat universiteti qoshidagi Akademik litseyda o'qib, o'z salohiyatini yanada oshirdi. Bu yillar davomida Rustamning tafakkurida psixologiyaga doir ilk ilmiy savollar shakllandi.

Shu bois u 2011–2015-yillarda Toshkent islom universitetining psixologiya yo'nalishida tahsil olib, bakalavr darajasini qo'lga kiritdi. Uning ilmga muhabbati bu bilan to'xtab qolmadi. U 2015–2017-yillarda shu oliy ta'lim muassasasining magistraturasida tahsil olib, psixologiya sohasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganishga bel bog'ladi.

Rustam Shukurov ilm-fan yo'liga qadam qo'ygan ilk kunlardanoq, o'zini chin ma'nodagi izlanuvchan olim sifatida namoyon eta boshladi. 2018–2019-yillarda Termiz davlat universiteti Denov filialida o'qituvchilik faoliyatini boshlagan yosh mutaxassis qisqa fursatda nafaqat dars beruvchi ustoz, balki talaba yoshlarning ruhiy dunyosiga

e'tibor qaratuvchi, ularga hayotiy maslahatlar bera oladigan murabbiyga aylandi.

Ammo, bu uning ilmiy yo'lidagi ilk bosqich, boshlanish nuqtasi edi. Keyingi yillarda u o'z faoliyat doirasini yanada kengaytirdi: 2019–2021-yillarda Shukurov Rustam Eshonkulovich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutida doktorantura ta'limini davom ettirdi.

U “Boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik mahoratini rivojlantirish” kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, bu sohada chuqur izlanishlarni amalga oshirdi. Psixologiyaga bo'lgan qiziqishi uni ilmiy izlanish sari tobora chuqurroq undadi.

Shunday qilib, 2022-yilda Shukurov Rustam Eshonkulovich 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Uning ilmiy izlanishlari, ayniqsa, ijtimoiy tizimlarda boshqaruv jarayonlari va yoshlarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid muhim tahlillarni o'z ichiga olgan. Bu jarayonda u nafaqat ilmiy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, balki jamiyatda boshqaruv va liderlik mahoratini oshirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Shukurov Rustam Eshonkulovich ilm-fan olamida, ustozlik va rahbarlik faoliyatida o'zini yangi usulda, zamonaviy talablarga mos ravishda faoliyat yuritayotgan olimlardan biridir. 2022–2023-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o'qituvchi sifatida ishlagan Rustam Eshonkulovich o'zining ilmiy salohiyatini va pedagogik tajribasini yoshlar bilan bo'lishishga, ularni ilmni sevadigan, yetuk mutaxassislar qilib yetishtirishga qaratdi.

2023-yil 6-iyuldan 2024-yil 5-iyulgacha Rustam Shukurov “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedراسi mudiri lavozimida faoliyat yuritib, kafedraning ilmiy-uslubiy ishlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Kafedra mudiri sifatida u nafaqat pedagogik jarayonlarni, balki

jamiyat va iqtisodiyot talablariga mos keladigan yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bilan shug'ullandi.

2024-yil 9-sentabrdan boshlab, Rustam Shukurov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori sifatida faoliyatini davom ettirib, ilm-fan va ta'lim tizimida innovatsion g'oyalar va yangi metodikalarni joriy qilish yo'lida faol mehnat qilmoqda.

Shu kunga qadar, Rustam Shukurov o'z ilmiy faoliyati davomida 30 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar muallifi sifatida tanilgan. Uning maqolalari, aksariyat hollarda, xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan bo'lib, ilm-fan sohasidagi dolzarb masalalarni o'rta qo'yadi va o'zining chuqur tahliliy yondashuvi bilan o'ziga e'tibor qaratgan. Uning rahbarligida 10 nafarga yaqin magistrant ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, o'zlarining ilmiy karyeralarida yuksak marralarga erishishdi.

Ilmiy ishlar bilan cheklanmay, Rustam Eshonkulovich tashkilotchilik faoliyatiga ham katta e'tibor qaratadi. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Ilmiy-texnik kengashi a'zosi sifatida ilmiy va texnik ishlanmalar bo'yicha mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi.

Bundan tashqari, u institutning "Tadbirkorlik va pedagogika" ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatib, ilm-fan va ta'limga oid yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazishda o'zining tashabbuskorligini ko'rsatadi.

Rustam Shukurov – yosh, ammo o'z sohasida allaqachon salohiyatini namoyish etgan, yangilikka intiluvchi, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan olimdir. Uning ilmiy faoliyati nafaqat psixologiya fanining rivojlanishiga, balki pedagogika sohasining yangi davriga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shukurovning ilmiy yondashuvlari, ijtimoiy psixologiya, boshqaruv va yetakchilik sohalaridagi tadqiqotlari O'zbekiston ilm-fanini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Uning hayoti va faoliyati – bu yosh tadqiqotchilar, psixologlar, pedagoglar va ilm-fan ixlosmandlari uchun ajoyib namuna bo'lib, bu yo'lida yangi imkoniyatlarga intilishga chaqiradi.



## **PRIMKULOV BEGALI SHERALIYEVICH**

*O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b,  
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Ilm-fan va ta'lim sohasida o'z yo'lini topish – bu cheksiz izlanish, qat'iyat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga bo'lgan sadoqatning muqaddas birlashmasidir. Primkulov Begali Sheraliyevich ana shunday namunali shaxs bo'lib, u texnika fanlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlari, pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvlari bilan ta'lim hamda amaliy fan rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda.

Uning faoliyati yosh avlodni bilim va ma'naviyat bilan qurollantirish bilan birga, texnika fanlari orqali ekologik barqarorlik va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlari bilan alohida e'tirofqa sazovor.

Primkulov Begali Sheraliyevich 1984-yil 20-dekabrda Surxondaryo viloyati Denov tumanida ziyoli oilada tavallud topgan. Bolalik davridanoq u tafakkur charog'ini porlatishga, har bir yangi bilimni egallashga intilib, o'z tengdoshlaridan bilimga chanqoqligi, fidoyiligi va mehnatsevarligi bilan ajralib turgan.

Dastlabki ta'limni Begali Sheraliyevich 1992–2001-yillar davomida Denov tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida olib, bilim olish sari dadil qadam tashladi. Shu davr mobaynida u o'zining intiluvchanligi, mas'uliyatlilik va tartib-intizomi bilan sinfdoshlari orasida hurmat qozongan edi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, o'z oldiga qo'ygan maqsadlar sari intilishdan to'xtamagan Begali Sheraliyevich 2001–2004-yillar davomida Denov "Hazarbog'" iqtisodiyot kollejida o'qishni davom ettirdi. Aynan mana shu davr uning hayotida kasbiy va shaxsiy kamolot sari jiddiy asos bo'ldi.

Yoshlik yillaridanoq Vatanni sevish, sadoqat bilan xizmat qilish g'oyalariga sodiq bo'lgan Begali Sheraliyevich 2004–2005-yillar

oralig'ida muddatli harbiy xizmatni o'tadi. Harbiy xizmat uning xarakterini yanada shakllantirib, qat'iyatlilik, irodalilik va intizom kabi hayot uchun muhim fazilatlarni mustahkamladi.

Ilm-fanga bo'lgan cheksiz qiziqish va intilish Begali Sheraliyevichni yana bilim izlash sari yetakladi. 2006-yilda Termiz davlat universitetining fizika ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirib, 2010-yilga qadar bakalavriat bosqichida tahsil oldi. O'qish davomida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham puxta egalladi. Mehnatkashligi va izlanishlarga bo'lgan qiziqishi sababli, ushbu oliygohni muvaffaqiyatli tamomlab, ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadida 2011–2013-yillar oralig'ida ushbu universitetning magistratura bosqichida o'qishni davom ettirdi.

Begali Sheraliyevichning pedagogik faoliyat yo'li 2010–2011-yillarda Termiz iqtisodiyot kollejida o'qituvchilik lavozimidan boshlandi. U bu davrdanoq nafaqat fan asoslarini puxta o'rgatish, balki yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga ustuvor maqsad qilib qo'ydi.

Ustozlik faoliyatidagi ilk muvaffaqiyatlari, fidokorona mehnati va yangilikka intilishi uning pedagogik izlanishlarini davom ettirishga undadi. Shu tariqa, 2013–2014-yillar davomida Denov "Hazarbog" iqtisodiyot kollejida o'qituvchi sifatidagi faoliyatini davom ettirib, o'zining yuksak mas'uliyati, samarali uslubiy yondashuvi va tashabbuskorligi bilan hamkasblari va shogirdlari e'tiborini yana bir bor qozondi.

2014–2016-yillarda Begali Sheraliyevich o'z faoliyatini Denov Sina qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejida ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari sifatida davom ettirdi. Ushbu mas'uliyatli lavozim unga nafaqat o'quv jarayonini takomillashtirish, balki ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kengaytirish imkoniyatini berdi.

Begali Sheraliyevichning mehnatsevarligi, fidoyiligi va tashabbuskorlik ruhidagi rahbarlik qobiliyati uni ta'lim tizimida yanada mas'uliyatli va muhim lavozimlarga olib chiqdi. 2018–2019-yillarda u Termiz davlat universiteti Denov filialining Pedagogika fakultetida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida faoliyat

ko'rsatib, yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish yo'lida ko'plab tashabbuslarni amalga oshirdi.

Begali Sheraliyevichning fidokorona mehnati va ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvi uning rahbarlik salohiyatini yanada oshirdi. 2019–2020-yillarda u Denov filialining o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davrda u ta'lim jarayonining sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'quv dasturlarini takomillashtirish borasida izchil ishlar olib bordi.

2020-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tashkil etilishi Begali Sheraliyevichning mehnat faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Institut tarkibida u dastlab Pedagogika va aniq fanlar fakultetida o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari sifatida faoliyat olib bordi. 2021–2022-yillarda esa u institutining o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlanib, ta'lim jarayonining metodik bazasini yanada takomillashtirish, o'quv rejalari va dasturlarini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, innovatsion ta'lim usullarini joriy etish yo'lida izchil faoliyat olib bordi.

Begali Sheraliyevichning bilim va tajribaga boy rahbarlik salohiyati 2022–2023-yillarda Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani lavozimida yanada yorqin namoyon bo'ldi. U fakultetda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, yosh olimlarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash va talabalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida samarali ishlarni tashkil etdi.

Bugungi kunda Primkulov Begali Sheraliyevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirish yo'lida mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, u institut O'quv-uslubiy kengashi raisi hamda "Tadbirkorlik va pedagogika" ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ilmiy-uslubiy ishlarni faol olib bormoqda. Ilm-fanga bo'lgan cheksiz qiziqish va izlanish Primkulov Begali Sheraliyevichning hayotida doimo asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. Aynan shu intilish uni 2021–2024-yillar davomida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida mustaqil

izlanuvchi sifatida faol ilmiy izlanishlar olib borishga undadi. Bu davr mobaynida u o‘zining ilmiy salohiyati va izlanuvchanligini samarali namoyon etib, texnika fanlari sohasida salmoqli natijalarga erishdi.

Begali Sheraliyevich o‘zining ilmiy izlanishlarini “Guliob fosforiti, paxta tozalash zavodi va sanoat oqova suv chiqindisi asosida organomineral o‘g‘itlar olish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusida olib bordi. Ushbu mavzu zamonaviy qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohalarida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish masalalariga ilmiy yechim taklif etadi.

Ushbu izlanishlar natijasida Begali Sheraliyevich 2024-yilda “02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi” hamda “11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” ixtisosliklari bo‘yicha texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilib, o‘zining fidoyiligi va mehnatsevarligi bilan ilmiy jamoatchilikda munosib hurmatga sazovor bo‘ldi.

Begali Sheraliyevichning ilmiy izlanishlari natijalari respublika va xorijiy ilmiy jurnallar, nufuzli konferensiyalar materiallarida o‘z aksini topgan. Shu kungacha uning 30 ga yaqin ilmiy maqola va tezisleri nashr etilib, ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan.

Primkulov Begali Sheraliyevichning hayoti va faoliyati yoshlarga ibrat, ilm-fan va mehnatning buyuk kuchini teran anglatadigan yorqin namunadir. Uning fidokorona mehnati va halol xizmatlari kelajak avlodni yetuk mutaxassis va barkamol inson sifatida tarbiyalash yo‘lida davom etmoqda.



## **TURSUNOV DILMURAT XOLMURATOVICH**

*Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha  
prorektor*

Ilm olish, jamiyatga xizmat qilish va kelajak avlod uchun mustahkam poydevor qurish har bir insonning hayotidagi eng muqaddas vazifalardan biridir. Tursunov Dilmurat Xolmuratovich ana shunday ezgu maqsadlarga sadoqat bilan xizmat qiluvchi namunali shaxs bo'lib, u o'zining professional faoliyati va ijtimoiy tashabbuslari bilan oliy ta'lim tizimi hamda mahalliy jamoatchilik rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti moliya-iqtisod ishlar bo'yicha prorektori sifatida u nafaqat institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish yo'lida tinimsiz mehnat qilmoqda, balki yoshlarni vatanparvarlik, mas'uliyat va bilimdonlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Uning hayoti va faoliyati – bu fidoyilik, intizom va jamiyat farovonligi uchun doimiy harakatning yorqin timsolidir.

Tursunov Dilmurat Xolmuratovich 1980-yil 24-may kuni Surxondaryo viloyatining Denov shahrida oddiy, ammo mehnatkash oilada dunyoga keldi. Yoshligidanoq vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'ularini o'zida mujassam etgan Dilmurat Tursunov o'z ishiga sadoqat va jamiyatga xizmat qilishni hayotining asosiy tamoyili sifatida qabul qildi.

1987-yilda Denov shahridagi V.V.Mayakovskiy nomli 9-umumiy o'rta ta'lim maktabiga qadam qo'ygan Dilmurat Tursunov o'qishga bo'lgan alohida ishtiyoqi va tinimsiz intilishi bilan tengdoshlari orasida ajralib turardi. 1987–1997-yillar davomida u nafaqat darslarda yuqori natijalarga erishdi, balki sinfdoshlari va ustozlari oldida o'zining xushmuomalaligi, intizomi va bilim olishga chanqoqligi bilan hurmat qozondi. Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Dilmurat Tursunov hayotning yangi bosqichiga qadam qo'yib, kelajagini bilim va mehnat

bilan bunyod etishga qat'iy bel bog'ladi.

1999–2000-yillarda Denov tumanidagi “Xamal” xususiy firmasida haydovchi sifatida mehnat faoliyatini boshlagan Dilmurat Tursunov har qanday ishda mas'uliyat va sadoqatning muhimligini angladi. Bu tajriba uning hayotga bo'lgan qarashlarini yanada mustahkamladi va unda o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yish istagini uyg'otdi.

2000-yilda Dilmurat Tursunov Toshkent davlat agrar universitetiga o'qishga kirdi va bu muhim qadam uning professional yo'lini belgilab berdi. 2004-yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan Dilmurat Tursunov o'z sohasida yetuk mutaxassis sifatida ilk yutuqlarini qo'lga kiritdi.

Biroq, Dilmurat Tursunov bilim olishda to'xtab qolmadi. O'zini har tomonlama rivojlantirishga intilgan Dilmurat Tursunov 2005–2009-yillarda Toshkent davlat yuridik institutida ikkinchi mutaxassislik bo'yicha tahsil oldi. Iqtisodiyot va huquqshunoslik kabi murakkab sohalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, u o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Dilmurat Tursunovning professional faoliyati o'zining ko'p qirraliligi va har bir bosqichda yuqori mas'uliyat talab qiluvchi vazifalarni bajarishdagi sadoqati bilan ajralib turadi. U o'z mehnat yo'lida har doim jamiyat manfaatini birinchi o'ringa qo'yib, davlat va xalqqa xizmat qilishni o'zining hayotiy prinsipiga aylantirdi.

Mehnat faoliyatining ilk bosqichlarida, 2004–2006-yillarda Oltinsoy tuman jinoiy sudida sud majlisi kotibi sifatida ishlagan Dilmurat Tursunov huquqiy tizimning mas'uliyatli va nozik jarayonlarida o'zini sinab ko'rdi. Ushbu tajriba uning qonunchilikni chuqur anglashiga va adolat tamoyillariga sodiqligini mustahkamlashga xizmat qildi.

2006-yilda u Denov tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya mas'ul kotibi lavozimiga tayinlandi va 2017-yilgacha ushbu sohada faoliyat yuritdi. Bu davrda u yoshlar bilan ishlash, ularning ijtimoiy muammolarini hal qilish va huquqni muhofaza qilish kabi muhim yo'nalishlarda katta tajriba orttirdi. Yosh avlodni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda sog'lom muhit shakllantirish yo'lida qilgan ishlari

uning rahbar sifatidagi ilk muvaffaqiyatlari bo'ldi.

2017–2018-yillar davomida Sariosiyo tumani prokuraturasida tergovchi, 2018–2019-yillarda Surxondaryo viloyat prokuraturasi ichki ishlar organlarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi prokurori sifatida xizmat qilgan.

Dilmurat Tursunov davlat idoralarining qonuniy faoliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Uning prinsipial yondashuvi va qonunchilikni qat'iy rioya qilishga bo'lgan intilishi ushbu lavozimda ham yuqori baholandi. 2019-yilda esa u Denov tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlarni murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi mudiri vazifasini bajaruvchi sifatida yangi mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi.

2020-yilgacha davom etgan bu davrda u tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar murojaatlarini samarali hal qilish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish yo'lida muhim loyihalarni amalga oshirdi. Uning ochiq muloqot uslubi va muammolarni tezkor hal qilish qobiliyati fuqarolar ishonchini oqladi.

2020-yilda Dilmurat Tursunov Denov tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. 2022-yilgacha davom etgan ushbu faoliyat davrida u yosh avlodni tarbiyalash, ijtimoiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ma'naviy-ma'rifiy sohada ko'zga ko'ringan natijalarga erishdi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam berish uning asosiy maqsadlaridan biri edi. Uning tashabbuslari tufayli tumanda ko'plab ijtimoiy va madaniy loyihalar hayotga tatbiq etildi, bu esa mahalliy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi.

2022-yilda Dilmurat Tursunovning faoliyati oliy ta'lim sohasiga yo'naldi. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida magistratura bo'limi boshlig'i sifatida ish boshladi va qisqa vaqt ichida institutning tashkiliy ishlarida sezilarli o'zgarishlar kiritdi. Uning tashabbuskorligi va rahbarlik qobiliyati tufayli bo'limning samaradorligi oshdi, talabalarga ko'proq imkoniyatlar yaratildi. Shu yilning o'zida u institut ishlar

boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga o‘tdi va 2023-yil iyun oyida moliya-iqtisod ishlar bo‘yicha prorektor vazifasini vaqtincha bajaruvchi sifatida faoliyat yurita boshladi. 2024-yil 15-fevraldan boshlab esa u ushbu lavozimda doimiy ravishda ishlab kelmoqda. Ushbu lavozimda Dilmurat Tursunov institutning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy ta‘lim standartlariga moslashtirish yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tursunov Dilmurat Xolmuratovichning Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidagi faoliyati nafaqat tashkiliy ishlar bilan cheklanmaydi, balki institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim natijalarga erishdi.

Uning rahbarligi ostida institutning moliya-iqtisodiy faoliyati yanada samarali yo‘lga qo‘yildi. Reja-moliya bo‘limi, buxgalteriya, bosh muhandis, fuqaro va mehnat muhofazasi bo‘limlari hamda texnik foydalanish va xo‘jalik bo‘limlari bilan uzviy hamkorlikda ish olib borilib, institutning barqaror rivojlanishi ta‘minlandi.

Jumladan, “Qo‘zichoqli” MFY, “Bog‘” ko‘chasi 112-uy manzilida joylashgan o‘quv binosi, ma‘ruza zallari, raqamli axborot texnologiyalar markazi va talabalar turar joyi binolarining qurilishi, shuningdek, “Istiqbol” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi 360-uy manzilidagi o‘quv binosi hududida zamonaviy axborot-resurs markazi va “Karyera markazi” binolarining qurib bitkazilishi uning bevosita ishtiroki bilan amalga oshirildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 563-sonli qaroriga muvofiq, talabalarni turar joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish maqsadida 400 o‘rinli talabalar turar joyi binosining qurilish ishlarida dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirishda muhim hissa qo‘shdi.

Energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlikni ta‘minlash maqsadida 2022-yildan buyon institut hududida umumiy quvvati 473 kVt/s bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi. Shu bilan birga, “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida “Open byudjet” loyihasi asosida 2025-yilning birinchi choragida jami 10 ta loyiha yakunlanishi

rejalashtirildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ham institut jamoasi bilan birgalikda faol ishtirok etib, ekologik tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Bundan tashqari, institutga biriktirilgan Uzun tumani 2-son politexnikumi hududida qandolatchilik klasterini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Institutning qo‘shimcha daromad olish maqsadida Termiz shahrida 0,5 MVt quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda. Ushbu loyihalar institutning nafaqat ta’lim sohasidagi, balki iqtisodiy va ekologik rivojlanishdagi muhim qadamlaridir.

Tursunov Dilmurat Xolmurotovich o‘zining boy tajribasi, chuqur bilimi va fidokorona mehnati bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Uning rahbarligi ostida amalga oshirilgan loyihalar institutni zamonaviy ta’lim muassasasiga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.



## **DJURAYEV BAXTIYOR RAJABOVICH**

*Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha birinchi prorektor v.v.b*

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyatning eng muhim va asosiy maqsadlaridan biri – barkamol, bilimli, vatanparvar, mustaqil fikrlaydigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Ushbu ezgu maqsad jamiyatning ma'naviy yuksalishi, davlatimizning taraqqiyoti va xalqimizning farovon kelajagi uchun mustahkam zamin yaratadi. Ayniqsa, bu jarayonda yoshlar bilan tizimli, samarali va chuqur ma'no kasb etuvchi faoliyatni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, salbiy oqimlar ta'siridan himoya qilish, ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, ayni paytda, kelajakning mustahkam va sog'lom poydevoriga qo'yilayotgan muhim qadamdir.

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi fidokorona xizmatlari bilan ajralib turadigan pedagoglardan biri – Djurayev Baxtiyor Rajabovich hisoblanadi. U oliy ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashini shakllantirish va ma'naviy immunitetini mustahkamlash yo'lida uzoq yillardan beri samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Djurayev Baxtiyor Rajabovich 1977-yil 19-noyabrda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. U bolalikdan kitobga mehr qo'ygan, ilm va ma'rifatga bo'lgan chuqur qiziqishi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan.

1984–1994-yillar davomida Oltinsoy tumanidagi 14-umumiy o'rta

ta'lim maktabida tahsil olib, o'quv jarayonlarida faolligi, namunali xulqi va intiluvchanligi bilan pedagoglar e'tiboriga tushgan. Aynan shu yillarda unda mustahkam bilim poydevori, yuksak ma'naviy qadriyatlar va jamiyatga foydali bo'lishga intilish singdirilgan.

Baxtiyor Rajabovich 1994-yilda yurtimizning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Toshkent davlat universitetining Sotsiologiya yo'nalishiga o'qishga qabul qilinib, 1999-yilda mazkur yo'nalishni muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma'lumotga ega bo'ldi. Aynan universitet davridayoq uning ijtimoiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishi, jamiyat bilan ishlashga intilishi shakllandi va keyingi faoliyatida asosiy yo'nalishga aylandi.

Baxtiyor Rajabovich mehnat faoliyatini 1999-yilda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi "Alpomish" jamoa xo'jaligida kotiblik lavozimidan boshlagan. Bu davrda u tartib-intizom, hujjatlar bilan ishlash va tashkiliy mas'uliyatni chuqur anglab, keyingi pedagogik faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratdi.

2004–2009-yillar davomida Baxtiyor Rajabovich o'zining ustozlik faoliyatini aynan o'zi tahsil olgan maktabi – Oltinsoy tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida davom ettirdi. Bu yillar Baxtiyor Rajabovichning ta'lim va tarbiya sohasidagi ilk amaliy tajribasi, murabbiy sifatida shakllanishi uchun muhim davr bo'ldi. U bu davrda nafaqat o'quvchilarga puxta bilim bergan bilimdon o'qituvchi, balki ularning qalbiga ezgulik, mehr-muruvvat va insoniylik urug'larini qadagan fidoyi tarbiyachi sifatida ham tanildi.

2009–2020-yillar oralig'ida Baxtiyor Rajabovich Oltinsoy qurilish kasb-hunar kollejida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishladi. Ushbu davrda u yoshlar bilan ishlash borasida boy tajriba orttirib, kollejda ma'naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarning vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish yo'lida samarali tashabbuslarni ilgari surdi. Uning tashabbusi bilan tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va turli loyihalar yoshlar ongiga milliy g'urur, ma'naviy poklik, yuksak axloqiy fazilatlar singdirilishida muhim omil bo'ldi.

2020-yildan boshlab Baxtiyor Rajabovich o'zining kasbiy faoliyatini

oliy ta'limda davom ettira boshladi. Dastlab u Termiz davlat universiteti Denov filialining (hozirgi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti) Pedagogika fakultetida yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi. Bu bosqichda u yoshlar masalalarini hal etish, ularning ta'lim va tarbiyasiga doir tashabbuslarni ilgari surish, talaba-yoshlar muhitini ijobiy tomonga o'zgartirishda o'zining faol ishtirokini namoyon etdi.

2020–2022-yillar davomida Djurayev Baxtiyor Rajabovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga boshchilik qildi. Ushbu lavozimda u institut miqyosida talabalarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi, yoshlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, milliy g'oya va qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda salmoqli natijalarga erishdi.

U tomonidan yo'lga qo'yilgan turli davra suhbatlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlar bilan bevosita muloqotlar talabalarning faolligini oshirishga, ularni ijodkor, tashabbuskor va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qildi. Ayniqsa, yoshlarning fikrlarini tinglash, ularning muammolariga yechim topish borasida olib borilgan islohotlar institut miqyosida ijobiy baholandi.

Keyinchalik 2022–2024-yillar oralig'ida Baxtiyor Rajabovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Aniq va tabiiy fanlar fakultetida yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimlarida ishladi.

Bu yillarda u o'zining tashkiliy salohiyati, mas'uliyatli yondashuvi va yangicha fikrlash qobiliyati bilan o'zini namoyon etdi. Har bir tashabbusida u yoshlarning manfaatlarini ustuvor o'ringa qo'yib, talaba hayotini mazmunli va ma'naviy jihatdan boyitishga alohida e'tibor qaratdi.

2024-yilda Djurayev Baxtiyor Rajabovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. Bu tayinlov nafaqat uning ko'p yillik tajribasi, balki yoshlarga bo'lgan samimiy e'tibori, tashkilotchilik salohiyati, o'z sohasiga sadoqat bilan

yondashuvi va doimiy izlanishlari natijasi bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur lavozimda ham u o‘zining prinsipialligi, g‘oyaviy barqarorligi va insoniy fazilatlari bilan talaba-yoshlar, professor-o‘qituvchilar hamda jamiyat vakillari orasida hurmat va e‘tibor qozondi. Uning rahbarligida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib, institutda sog‘lom, sermazmun va ezgu g‘oyalarga boy muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Baxtiyor Rajabovich yoshlar bilan ishlashda chuqur bilim, pedagogik mahorat va insoniy fazilatlarni uyg‘unlashtira olgan ustoz sifatida tanilgan. Uning tashabbusi bilan yoshlarga mo‘ljallangan ko‘plab ijtimoiy-ma‘naviy loyihalar, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, sport va ijodiy tanlovlar tashkil etilgan. Ayniqsa, yoshlar bilan bevosita muloqotda bo‘lib, ularni tinglash, ularning ichki dunyosini anglash va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda o‘ziga xos yondashuvi, samimiyligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi.

Bugungi zamon – axborotlar oqimi va g‘oyaviy kurashlar zamoni. Yoshlar qalbini turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, ularni mustaqil fikrlaydigan, bilimli, tafakkurga ega, irodali, ezgulik va haqiqat tarafdori bo‘lgan insonlar etib tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir. Bu esa shunchaki tashkiliy ishlarga emas, balki chin dildan fidoyilik, mas’uliyat va teran bilimga tayanuvchi sa’y-harakatlarga ehtiyoj tug‘diradi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ish – bu faqatgina bayramona tadbirlar yoki suhbatlar tashkil etish emas, balki yoshlar qalbiga yo‘l topish, ularning dardini eshitish, ichki olamiga nazar tashlab, ularga hayotda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish demakdir. Bu esa har bir pedagog, ma‘naviyat targ‘ibotchisi va tarbiyachidan katta mas’uliyat, yurakdan yondashuv, bilim va ibratli hayotni talab etadi.



## **TOSHBOBOYEV MAKSUD JALILOVICH**

*Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani,  
Tarix va falsafa kafedrası dotsenti v.v.b,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti nafaqat texnologiyalar, balki inson tafakkurining, falsafiy qarashlarning chuqurlashuvi orqali ham belgilanmoqda. Bunday murakkab va mas'uliyatli jarayonda yetuk olimlarning fidokorona mehnati alohida o'rin tutadi.

Ana shunday ilmiy izlanishlarga hayotini bag'ishlagan, falsafa fanining dolzarb yo'nalishlarida samarali tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri – Maksud Toshboboyevdir. Uning hayot yo'li, ilmiy izlanishlari va ta'lim sohasidagi faoliyati bugungi yoshlarga ibrat bo'la oladigan yuksak intilish va fidoyilik namunasi hisoblanadi.

Maksud Toshboboyev 1988-yil 17-fevralda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida, tabiatning o'ziga xos go'zalligi va xalqning saxiyligi mujassam bo'lgan muhitda dunyoga keldi. Uning bolaligi kitoblar sehrida, orzular bag'rida o'tdi. Oilaviy muhit, xalqona tarbiya va kitobga muhabbat yosh Maksud Toshboboyevning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynadi.

2011-yilda Maksud Toshboboyev O'zbekiston Milliy universitetining Ijtimoiy fanlar fakultetiga o'qishga kirib, falsafa yo'nalishini tanladi. Bu tanlov tasodifiy emas edi – bu uning qalbida allaqachon shakllangan ichki chaqiruv, hayot ma'nosini anglashga bo'lgan ehtiyojning tabiiy davom edi. Universitet yillarida u o'zbek va jahon falsafasining nodir manbalarini o'rgandi, har bir mavzuga hayotiy savollar bilan yondashdi. Ustozlarining donishmand yo'l-yo'riqlari, kitoblarning chuqur mazmuni va o'zining izchil izlanishlari tufayli nazariy bilimlarni hayot bilan bog'lashda mustahkam poydevor yaratdi.

2015-yilda bakalavr darajasini olgan Maksud Toshboboyev uchun bu bosqich – yakun emas, balki yangi boshlangan ilmiy sayohatning ilk qadami edi. Shu yili u yana O'zbekiston Milliy Universitetining "Fan falsafasi va metodologiyasi" magistratura bosqichiga qabul qilindi. Bu

davr uning hayotida burilish nuqtasi bo‘ldi – endi u falsafaga nafaqat o‘rganuvchi, balki ilmiy mushohada yurituvchi sifatida yondashdi.

2017-yilda magistraturani muvaffaqiyatli tamomlagach, Maksud Toshboboyev qo‘lida diplom emas, balki yelkasida mas’uliyat, qalbida esa yurtga, jamiyatga, inson ma’naviyatiga xizmat qilish ruhi bilan chiqdi. Endi u o‘zbek falsafasiga yangi nafas, o‘ziga xos yondashuv olib kirishga tayyor ziyoli edi.

Maksud Toshboboyev o‘z mehnat faoliyatini 2017–2019 yillarda Toshkent arxitektura va qurilish institutida falsafa fani o‘qituvchisi sifatida boshlagan. Bu davrda u yosh avlodga falsafiy bilimlarni yetkazish bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash va dunyoqarashini shakllantirishga katta e’tibor qaratdi. Uning darslari talabalarni chuqur mulohaza yuritishga undab, ularda falsafiy savollar orqali hayotning murakkab masalalariga javob izlashga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otdi.

2019-yilda esa u mazkur institutning Arxitektura fakultetida o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimiga ko‘tarildi. Bu rolda u o‘quv jarayonlarini tashkil etish va sifatni oshirishda muhim tashabbuslarni amalga oshirib, fakultetning ta’lim salohiyatini yanada yuksaltirdi.

Toshkentdagi muvaffaqiyatli faoliyatidan so‘ng, Maksud Toshboboyev o‘z tajribasini Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga olib keldi. 2021-yilda u institutning ilmiy kengash kotibi sifatida xizmat qilib, ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish va tadqiqot ishlarini rivojlantirishda faol ishtirok etdi. Keyingi yilda, 2022–2023-yillarda sirtqi bo‘lim boshlig‘i sifatida talabalarga qulay ta’lim sharoitlari yaratish va sirtqi ta’lim tizimining samaradorligini oshirish yo‘lida muhim ishlarni amalga oshirdi. Ushbu lavozimlarda u nafaqat o‘quv jarayonlarini boshqarish, balki professor-o‘qituvchilar jamoasi bilan hamkorlikda yangi ta’lim yondashuvlarini joriy etishga muvaffaq bo‘ldi.

2023-yildan boshlab Maksud Toshboboyev Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu mas’uliyatli lavozimda u fakultetning strategik rivojlanishiga rahbarlik qilib, zamonaviy ta’lim standartlariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratmoqda.

Uning rahbarligi ostida fakultet nafaqat ta'lim sohasida, balki ilmiy va ijtimoiy loyihalarda ham muhim yutuqlarga erishdi. Maksud Toshboboyevning tashkilotchilik qobiliyati va talabchanligi fakultet jamoasini yangi marralarga yetaklamoqda.

Ilm-fanga bo'lgan yuksak qiziqish, mustahkam irodasi va o'ziga nisbatan talabchanligi tufayli Maksud Toshboboyev falsafa fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri – sun'iy intellekt muammolarini chuqur falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishga bel bog'ladi.

U 09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha “Axborotlashgan jamiyatda sun'iy intellekt rivojlanishining epistemologik xususiyatlari” mavzusida izchil ilmiy izlanishlar olib bordi. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi 2022-yil 14-noyabr kuni Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/1-sonli bayonnomasiga asosan, unga falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi berildi. Bu yutuq, nafaqat shaxsiy mehnat samarasi, balki sun'iy intellekt falsafasini o'rganishda muhim ilmiy qadam bo'ldi.

Maksud Toshboboyev o'zining ilmiy faoliyati va falsafa faniga qo'shayotgan salmoqli hissasi bilan respublika miqyosidagi yetuk olimlar safidan munosib o'rin egallab bormoqda. U hozirgi kungacha 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv ko'rsatma, 1 ta monografiya hamda 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarni chop ettirgan bo'lib, bu ilmiy ishlar zamonaviy falsafiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maksud Toshboboyevning falsafiy qarashlari va ilmiy merosi bugungi kunda sun'iy intellekt, axborotlashgan jamiyat va inson tafakkurining yangi ufqlarini ochishda muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. U har bir yosh tadqiqotchiga ilmiy qat'iyat, izlanish va fidoyilik ruhi bilan xizmat qiladigan yorqin namuna bo'lib qolmoqda.



## **SALOMOVA RA'NO VASSIYEVNA**

*Pedagogika fakulteti dekani, v.v.b*  
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
*(PhD)*

Har bir inson tabiatan ichki bir uchqun bilan dunyoga keladi. Vaqtlar o'tishi bilan mana shu uchqun haqiqiy alangaga aylanib, insonni aniq maqsadlar sari harakatga keltirib, ilm olish, tinimsiz izlanish va insonlarga yaxshiliklar qilishga undaydi. Ana shunday ichki bir tuyg'ular bilan yaxshiliklar ulashib, ilm ahlining hurmat-e'tiboriga sazovor Ra'no Vassiyevna oliy ta'lim tizimida samarali mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilardan biri sanaladi.

Ra'no Vassiyevna 1967-yil 16-oktyabrda Surxondaryo viloyatining go'zal va qadimiy hududlaridan biri bo'lgan Denov tumanida tavallud topdi. Yoshligidanoq bilimga chanqoqligi, har bir yangilikni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Uning tarbiyasi va shakllanishida oiladagi sog'lom muhit va o'qituvchilarning fidokorona mehnati muhim o'rin tutdi.

Ra'no Vassiyevna 1975-yilda Denov tumanidagi Sadridin Ayniy nomli 3-sonli umumta'lim maktabining 1-sinfiga qadam qo'ydi. U maktab davrlaridanoq o'zining intizomi, faol ishtiroki va mustahkam bilimga asoslangan yondashuvi bilan ustozlarining e'tiborini qozongan.

Ra'no Vassiyevna 1985-yilga qadar ushbu maktabda o'qib, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'ldi. Shu yillar davomida u nafaqat a'lo baholarga o'qidi, balki turli fan olimpiadalari, maktab tadbirlari va jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib, o'z tengdoshlari orasida yetakchi bo'lib yetishdi.

Yoshligidan matematik tafakkuri, aniqlik va mantiqqa asoslangan yondashuvi bilan ajralib turgan Ra'no Vassiyevna 1985-yilda o'z orzusi sari dadil qadam tashlab, Termiz davlat pedagogika institutining Matematika va informatika yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi.

U yerda olgan puxta nazariy bilim va amaliy tajriba uni nafaqat o'z kasbining yetuk egasiga aylantirdi, balki uni yillar davomida izlanishga

undagan mustahkam ilmiy asos bo'ldi. 1990-yilda mazkur oliygohni muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma'lumotli mutaxassis diplomiga ega bo'ldi.

Mehnat faoliyatini Salomova Ra'no Vassiyevna 1984 – 1985-yillarda Surxondaryo viloyat xalq ta'limi bo'limi xodimi sifatida boshlagan. Bu dastlabki tajriba unga tizimni chuqur anglash va kelgusidagi kasbiy yo'lida muhim poydevor yaratdi.

Oliy ta'limni muvaffaqiyatli tamomlaganidan so'ng, 1990 – 1993-yillarda Denov shahridagi 4-sonli umumta'lim maktabida matematika va informatika fanlaridan dars bergan. Ustozlik faoliyatida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash va ta'lim sifati uchun mas'uliyat bilan yondashgan.

Ra'no Vassiyevna 1993–2001-yillar mobaynida esa Denov tumanidagi ixtisoslashtirilgan 3-sonli maktab-internatda matematika va informatika o'qituvchisi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda u yosh avlodni nafaqat fanga, balki vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ham alohida e'tibor qaratdi. 2001-yildan boshlab Ra'no Vassiyevnaning pedagogik faoliyati rahbarlik darajasiga ko'tarildi. Ra'no Vassiyevna 2001–2007-yillarda ayni shu maktab-internatda o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishladi.

Ustozlik salohiyati va boshqaruvdagi tajribasi tufayli 2007–2017-yillar oralig'ida Denov tumanidagi 67-sonli sanatoriy maktab-internatiga direktor etib tayinlandi. U ushbu maskanda salohiyatli rahbar sifatida ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sog'lomlashtirish va tarbiyaviy ishlarda yangicha yondashuvlar joriy etishga muvaffaq bo'ldi.

2017-yilda esa Ra'no Vassiyevna Denov tumani xalq ta'limi tizimining yuqori bo'g'inlariga taklif etilib, ta'lim muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri lavozimida faoliyat yuritdi. Shu yili u Denov tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri lavozimiga tayinlanib, 2017–2019-yillarda tuman miqyosida ta'lim tizimini samarali boshqarishda muhim rol o'ynadi.

2019-yil Ra'no Vassiyevna uchun viloyat darajasida mas'uliyatli bosqichni boshlab berdi. U Surxondaryo viloyati kasb-hunar ta'limi

boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. Uning tashabbuslari va faoliyati e'tirof etilib, 2019–2023-yillarda Surxondaryo viloyati kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi boshlig'i vazifasini vaqtincha bajaruvchi lavozimida mehnat qildi.

2023–2024-yillarda esa Ra'no Vassiyevna Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Surxondaryo hududiy boshqarmasi Ta'lim jarayonini tashkil etish sho'basini mudiri lavozimida ishlagan. Bu davrda u oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, zamonaviy dars jarayonlarini joriy etish va yoshlar salohiyatini ochib berishga qaratilgan qator tashabbuslarni amalga oshirdi.

Ustozning mehnat faoliyati 41 yillik tajribaga ega bo'lib, bu yillar mobaynida u ta'lim va tarbiya sohasida turli bosqichlarni bosib o'tgan. Ra'no Vassiyevna o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlari, boy pedagogik tajribasi va amaliy faoliyati samarasi sifatida ta'lim nazariyasi va metodikasi sohasida yuksak ilmiy natijaga erishdi.

Ra'no Vassiyevna 2023-yilda Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi bo'yicha Ilmiy kengashda dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo'lga kiritgan.

Oliy ta'lim sohasidagi pedagogik faoliyati 8 yillik tajribani tashkil qilsa-da, Salomova Ra'no Vassiyevnaning kasbiy mahorati, yangiliklarga ochiqqligi va xalqaro hamkorlikdagi tashabbuslari uni tajribali va zamonaviy fikrlovchi pedagog olimlar safida munosib o'ringa olib chiqdi.

2024-yilda Indoneziya Respublikasining Pendidikan universiteti bilan hamkorlik shartnomasini tuzishda bosh-qosh bo'lib, xalqaro ilmiy aloqalarning mustahkamlanishiga bevosita hissa qo'shgan.

Ilmiy-adabiy meros jihatidan Ra'no Vassiyevna salmoqli faoliyat olib borgan. Hozirga qadar hammualliflikda 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 16 ta uslubiy qo'llanma chop ettirgan.

Shuningdek, 100 dan ortiq ilmiy maqolalari respublika va xorijiy ilmiy jurnallar hamda konferensiyalar to'plamlarida e'lon qilingan. Ilmiy

g'oyalari, ayniqsa, ta'lim metodikasiga oid dasturiy ishlanmalari bilan ham dolzarbliigi bilan ajralib turadi. Ra'no Vassiyevna tomonidan 12 ta mualliflik dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan va ularga rasmiy sertifikatlar olingan.

2024-yil iyun oyidan boshlab Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasiga rahbarlik qilib kelmoqda. Shu bilan birga, 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)" ixtisosligi bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Ra'no Vassiyevnaning faoliyati xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. 2022–2023-yillarda Germaniyaning GIZ loyihasi grantlarini qo'lga kiritgan, ko'plab xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda faol ishtirok etgan. 2025-yil yanvar oyidan boshlab AQSHning "Neo Scientific Peer Reviewed Journal" nufuzli ilmiy nashrining kengash a'zoligiga qabul qilinishi uning xalqaro ilmiy obro'sini yanada mustahkamladi.

Ra'no Vassiyevna nafaqat ta'lim sohasi, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etib kelmoqda. 2009–2014, 2014–2019-yillarda tuman kengashi, 2022–2024 va 2024–2029-yillarda esa viloyat kengashi deputati sifatida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga munosib hissa qo'shgan. Ayniqsa, ishsiz yoshlarni xorijiy til kurslari orqali mehnat migratsiyasiga tayyorlash bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosari bilan hamkorlikda amalga oshirgan loyihalari alohida e'tiborga loyiq.

Ra'no Vassiyevna O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20, 25 va 30 yillik yubiley ko'krak nishonlari, "Xalq ta'limi a'lochisi", "Vafo va sadoqat", "Mo'tabar ayol" kabi yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, o'zining butun faoliyati davomida o'quvchilikdan tortib, o'qituvchilik, direktorlik, tuman bo'limi mudirligi va professional ta'lim yo'nalishlarigacha 50 dan ortiq faxriy yorliqlar bilan e'tirof etilgan.

Bugungi kunda ham Salomova Ra'no Vassiyevna o'z shogirdlariga nafaqat ilm, balki hayotiy saboqlar, iymonli mehnat va fidoyilik namunalarini o'rgatib kelayotgan zabardast olima sifatida keng jamoatchilik hurmatiga sazovor.



## **IRALIYEV BAYMIRZA XOLMIRZAYEVICH**

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani*

*Texnika fanlari nomzodi, Dotsent*

Ilm-fan sohasida izchil mehnat qilish, yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish va amaliy natijalarga erishish – bu nihoyatda mashaqqatli, sabr va fidoyilik talab qiladigan jarayondir. Bu yo'lni tanlagan har bir olim o'z umrining katta qismini ilm yo'lida bag'ishlab, beqiyos intizom va matonat namunasini ko'rsatadi.

Ayniqsa, fan va ta'lim sohasini taraqqiy ettirishda o'zining bilim va tajribasini ayamayotgan, yoshlarga ilm berish bilan birga, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalayotgan olimlarning hissasi bebaho. Ana shunday fidoyilardan biri – texnika fanlari nomzodi, dotsent Iraliev Baymirza Xolmirzayevich bo'lib, u o'zining ilmiy izlanishlari, pedagogik faoliyati va tashkilotchilik salohiyati bilan kimyo fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan yetuk olimlardan biridir.

1993–1998-yillarda Iraliev Baymirza Xolmirzayevich Termiz davlat universitetining “Kimyo” yo'nalishida tahsil olib, mazkur fandagi nazariy bilimlar asosini puxta egalladi, amaliy ko'nikmalarini esa izchil ravishda rivojlantirdi. Universitetdagi tahsil yillari davomida u kimyo fanining murakkab, ammo jozibador va keng imkoniyatlarga boy olamiga tobora chuqurroq kirib bordi.

Iraliev Baymirza Xolmirzayevich o'zining mehnat faoliyatini 1998-yilda Termiz davlat universitetining Umumiy kimyo va ekologiya kafedrasida o'qituvchilik lavozimida boshlagan. Ana shu davrdan boshlab u nafaqat o'quv jarayonida talabalar bilan samarali ishlash, balki kimyo fanining murakkab jihatlarini ularga sodda va tushunarli tarzda yetkazish yo'lida ham jonbozlik ko'rsatdi.

Shu bilan birga, Baymirza Xolmirzayevich o'zining ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida izchil izlanishlar olib borib, 2002–2004-yillarda Toshkent kimyo-texnologiya institutida aspirantura bosqichini muvaffaqiyatli tamomladi. Bu davrda u noorganik kimyo sohasidagi

ilg'or yo'nalishlar, xususan, yangi modda va materiallar ishlab chiqish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Ilmiy mehnatlarining mantiqiy davomida, 2006-yilda Iraliev Baymirza Xolmirzayevich 02.00.13 – “Noorganik moddalar texnologiyasi va ular asosida olingan materiallar” ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, kimyo fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Bu ilmiy yutuq uning sohaga qo'shgan hissasi, fidokorona izlanishlari va mashaqqatli mehnatining yorqin samarasidir. Bugungi kunga kelib, Baymirza Xolmirzayevich kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent unvonlariga ega.

Iraliev Baymirza Xolmirzayevich Respublikamiz hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda doimiy ishtirok etib, dolzarb va munozarali mavzulardagi maqolalari bilan tanilgan. U tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar AQSH, Ukraina, Rossiya kabi mamlakatlarning nufuzli OAK ro'yxatidagi jurnallarida e'lon qilingan. Uning ilmiy faoliyati davomida 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar chop etilgan, 2 ta ilmiy loyiha va 1 ta xo'jalik shartnoma asosidagi ilmiy ishda faol ishtirok etgan. Boshqaruv va jamoatchilik faoliyati

Baymirza Xolmirzayevich nafaqat o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis, balki fidokor rahbar, ma'rifat targ'ibotchisi, ilmiy jamoatchilik orasida e'tibor va hurmat qozongan ziyoli siymodir. Uning rahbarlik faoliyati 2017-yilda Termiz davlat universitetining texnika fakultetida o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimidan boshlangan.

Bu mas'uliyatli lavozimda faoliyat yuritar ekan, u nafaqat talabalarning bilim saviyasini oshirish, balki fakultetdagi o'quv jarayonlarini takomillashtirish yo'lida ham samarali ishlar olib bordi. O'zining tashabbuskorligi va intiluvchanligi sabab 2018–2020-yillarda Termiz davlat universitetining Denov filialida o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi. Bu yillarda u yoshlar tarbiyasi, ularning ilmiy va ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha ko'plab loyihalarni amalga oshirdi.

2020-yil esa Baymirza Xolmirzayevich uchun yangi bosqich – Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ijtimoiy-iqtisodiy fakultet dekanining vazifasini bajaruvchi lavozimiga tayinlanadi. Uning bu bosqichdagi faoliyati ham samaradorlik va natijadorlik bilan ajralib turdi. 2020–2023-yillar oralig‘ida esa u mazkur institutning Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetiga dekanlik qildi. U bu vazifani sidqidildan bajarib, fakultetni ilmiy va tashkiliy jihatdan yangicha bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

2023-yil 20-fevraldan boshlab esa Baymirza Xolmirzayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu fakultetda ham u jamoani ilmiy-tadqiqot ishlari, zamonaviy ta’lim metodikasi va talabalar salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha bir yoqadan bosh chiqarib ishlashga ruhlantirib kelmoqda.

Baymirza Xolmirzayevich ilmiy jamoatchilik hayotida ham faol ishtirok etadi. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Ilmiy-texnik kengashi a’zosi bo‘lishi bilan birga, institut tomonidan nashr qilinayotgan “Tadbirkorlik va pedagogika” ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay’ati a’zosi sifatida ham samarali ijod qilmoqda.

Baymirza Xolmirzayevich bugungi kunda ham ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirib, o‘z bilimini yanada takomillashtirmoqda. U yosh avlodni zamonaviy talablarga mos, mustaqil fikrlovchi, bilimli va vatanparvar kadrlar etib tarbiyalashga o‘zining butun kuch-g‘ayrati, tajribasi va bilimini bag‘ishlamoqda.

Iraliev Baymirza Xolmirzayevich – ilm-fanga sadoqatli, pedagogik faoliyatga mehr bilan yondashadigan, yosh avlod tarbiyasiga mas’uliyat bilan qaraydigan, o‘z kasbining ustasi sifatida ko‘plab yurtdoshlarimiz uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilayotgan zabardast olimdir. Uning fidokorona mehnati, teran ilmiy qarashlari va yuksak insoniy fazilatleri nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.



## MUSURMANKULOVA MADINA NOSIROVNA

*Filologiya fakulteti dekani, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent*

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi doimo yangilikka, chuqur ilmiy tahlilga, yuksak kasbiy mahoratga tayanadi. Ana shunday talablarga munosib tarzda javob bera olayotgan, fidokorona mehnati, sermazmun ilmiy faoliyati va pedagogik mahorati bilan o'z o'rnini topgan salohiyatli ustozlardan biri – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Musurmankulova Madina Nosirovnadir.

Madina Nosirovna 1987-yil 5-fevral kuni Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Yoshligidanoq kitob va bilimga oshno bo'lgan Madina Nosirovna hayotini ilm-fan, ma'rifat va ta'lim tarbiyaga bag'ishlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aynan shu intilish uni katta ilmiy yo'lga yetakladi.

2015-yilda Musurmankulova Madina Nosirovna Termiz davlat universitetining Filologiya fakultetida “Ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti o'zga tilli guruhlarda)” yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomlab, bakalavrluk diplomini qo'lga kiritdi. Ilmga bo'lgan chuqur qiziqish va izlanish ruhi uni to'xtatmay, 2017-yilda ayni universitetda “Lingvistika: rus tili” ixtisosligi bo'yicha magistratura bosqichini ham muvaffaqiyatli yakunladi. Bu davrda u ilmiy izlanishlarga yanada chuqurroq kirib, o'zining pedagogik salohiyatini to'liq namoyon etishga kirishdi.

Madina Nosirovna o'zining pedagogik faoliyatini 2008-yilda boshlab, ta'lim yo'lida dadil qadam tashlagan ilk kunlardanoq yosh avlodga bilim berish, ularni ma'naviy va intellektual jihatdan kamol toptirishdek sharaflil vazifani bosh maqsadiga aylantirgan. Dastlab Denov shahridagi 77-umumiy o'rta ta'lim maktabida, so'ngra 79-maktabda o'qituvchi sifatida samarali faoliyat yuritib, yuzlab o'quvchilarning qalbiga ilm nurlarini sochdi.

2019-yil Madina Nosirovna hayotining yangi bosqichini boshlab

berdi. Madina Nosirovna oliy ta'lim tizimiga dadil qadam qo'yib, Termiz davlat universiteti Denov filialining "Umumiy tilshunoslik" kafedrasida o'qituvchi lavozimida faoliyat boshladi. O'z ustida izchil ishlash, zamonaviy ta'lim yondashuvlarini chuqur o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish orqali qisqa fursatda salohiyatli mutaxassis sifatida e'tirof etildi.

Shu davrda, Madina Nosirovna nafaqat tajribali ustoz, balki ilm-fan sohasida ham izchil izlanish olib borayotgan olim sifatida tanilgan. 2022-yil 8-noyabr sanasi Madina Nosirovna hayotida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Aynan shu kuni u "Совершенство сопоставительно-диалектологической компетенции будущих учителей русского языка" mavzusidagi dissertatsiyasini Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashda "13.00.01 – Pedagogika tarixi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Ushbu ilmiy tadqiqot tilshunoslik va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida yotib, bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan. Ushbu ish o'zining nazariy puxtaligi, zamonaviylik ruhida yondashuvi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Madina Nosirovnaning ilmiy izlanishlari, pedagogik salohiyati va akademik faolligi munosib ravishda e'tirof etilib, 2024-yilda u "10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Bu unvon nafaqat uning individual ilmiy mehnatining mahsuli, balki butun filologiya va pedagogika sohalariga qo'shgan hissasining yuksak e'tirofidir.

2020–2023-yillar davomida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Rus tili va adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchi hamda v/b dotsent lavozimlarida faoliyat yuritarkan, u ilmiy-pedagogik salohiyatini yanada mustahkamladi. Mazkur yillarda u nafaqat o'quv jarayonini sifatli tashkil etishda, balki kafedraning ilmiy-uslubiy hayotini rivojlantirishda ham faol ishtirok etdi.

2023–2024-yillarda Madina Nosirovna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritdi. Bu mas’uliyatli lavozimda u institutda ta’lim sifati monitoringi, ichki audit, baholash va samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash yo‘nalishlarida tizimli yondashuvni yo‘lga qo‘ydi.

2024–2025-yillarda esa Madina Nosirovna “Rus tili va adabiyoti” kafedrasini mudiri lavozimida ishladi. Bu davrda u kafedra faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi, o‘quv va ilmiy ishlarni uyg‘unlashtirish, yosh o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, talabalar bilan individual ishlash kabi qator yo‘nalishlarda muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Bugungi kunda Madina Nosirovna – Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Filologiya fakulteti dekani lavozimida faoliyat olib bormoqda. Madina Nosirovna nafaqat ilmiy-pedagogik, balki ma’muriy sohada ham yuqori salohiyatga ega, jamoaning hurmat-e’tiborini qozongan rahbar sifatida faoliyat yuritmoqda. Fakultetdagi o‘quv-tarbiyaviy ishlar, ilmiy loyihalar va innovatsion tashabbuslarning asosiy ilhomlantiruvchisi sifatida u har bir ishga mas’uliyat bilan yondashadi.

Ustoz va olim sifatida Madina Nosirovna nafaqat o‘quv jarayonida, balki ilmiy-innovatsion faoliyatda ham yuksak samaradorlik namunasini ko‘rsatib kelmoqda. Bugungi kunga qadar u 40 dan ortiq ilmiy, uslubiy va o‘quv-metodik ishlarni yaratgan. Ular orasida 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya, shuningdek, 26 ta ilmiy maqola o‘z o‘rniga ega.

Mazkur asarlar respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli jurnallar, ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan bo‘lib, olimaning fanning turli yo‘nalishlariga qo‘shgan hissasini yaqqol namoyon etadi. Xususan, xorijiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan maqolalari ilmiy jamoatchilik tomonidan katta qiziqish va e’tirof bilan qarshi olingan. Bu esa Madina Nosirovnaning ilmiy salohiyati xalqaro miqyosda ham tan olinganidan dalolat beradi.

Ilm-fanga sadoqat bilan xizmat qilayotgan olim ilmiy yetakchi sifatida ham faoliyat olib bormoqda. U ikki nafar magistrantning ilmiy izlanishlariga rahbarlik qilib, ularni mustaqil tadqiqotchi sifatida

shakllanishiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Hozirda esa uch nafar mustaqil izlanuvchining ilmiy yo‘nalishi, mavzu tanlovi, tadqiqot metodologiyasi va natijadorligida faol maslahatchi va yo‘lboshchi sifatida ishtirok etmoqda. Uning ilmiy rahbarligidagi izlanishlar dolzarb muammolarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Madina Nosirovna shuningdek, innovatsion tadqiqotlar va loyihaviy faoliyatda ham faol ishtirok etmoqda. U to‘rtta ilmiy grant loyihasi doirasida ish olib borgan bo‘lib, ularda o‘zining tadqiqotchilik mahorati, tashabbuskorligi va amaliy natijaga yo‘naltirilgan ishlanmalari bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, "Start-up" loyihasining ilmiy rahbari sifatida u ilmiy g‘oyalarni amaliyotga joriy etish, innovatsion yondashuvlarni ta‘lim tizimiga tatbiq qilish yo‘lida faol harakat qilmoqda.

Pedagog olimasi o‘z ustida ishlashdan aslo to‘xtamaydi. 2024-yilning aprel–may oylarida u “Ta‘lim tizimi menejmenti” yo‘nalishida 288 soatli malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tamomlagan. 2025-yil fevral oyida esa Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida ikki haftalik maxsus kursda qatnashib, davlat boshqaruvi va ta‘lim menejmenti sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini yanada boyitdi.

Bugungi kunda Madina Nosirovna oliy ta‘lim tizimi uchun istiqbolli rahbar kadr sifatida e‘tirof etilmoqda. U zamonaviy pedagogika, ilm-fan va ta‘lim menejmenti sohalarini chuqur anglagan, yangilikka intiluvchi, ilmiy asosda boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan yetuk mutaxassisdir. Ana shu jihatlari uni zamonaviy ta‘lim islohotlarining faol ijrochisi va ilhomlantiruvchisiga aylantirgan.



## ALLAYAROVA SOLIHA NARZULLOYEVNA

*Pedagogika fanlari doktori, Dotsent*

Har bir mamlakatning, jamiyatning taraqqiyoti u yerda ilm-fanning rivojlanish darajasi bilan uzviy bogʻliqdir. Ilmga va uni oʻrganishga qaratilayotgan eʼtibor oʻsha davlatning ertangi kunini belgilab beradi. Oʻzbekiston Respublikasida ham ilm va ilmiy faoliyatni qoʻllab-quvvatlash, tadqiqotchi olim, professor-oʻqituvchilarning samarali faoliyat olib borishlari uchun barcha zaruriy imkoniyatlar yaratilgan. S.Allayarovani shunday imkoniyatlardan foydalana olgan tadqiqotchi-pedagog kadrlar qatoriga qoʻshish mumkin.

Ziyoli insonlar jamiyatning yetakchilari hisoblanadi. S.Allayarovaning ilmiy-pedagogik faoliyatini aynan ilm ulashishga bagʻishlangan deb hisoblash mumkin. Oliy taʼlim tizimidagi 15 yildan ortiq faoliyatida Oʻzbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat yuridik universiteti va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kabi oliy taʼlim tashkilotlarida oʻqituvchi, dotsent, kafedra mudiri, prorektor sifatida mehnat qilgan.

2024–2025-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida oʻquv ishlar boʻyicha prorektor vazifasida faoliyat yuritgan.

Allayarova Soliha Narzulloyevna 1982-yil 7-yanvarda Toshkent viloyati, Bekobod tumanida tugʻilgan. Millati tojik.

1989–1999-yillarda Bekobod tumani 1-umumiy oʻrta maktabda, 1999–2001-yillarda Bekobod qishloq xoʻjalik kasb-xunar kollejida, 2001–2005-yillarda Oʻzbekiston Milliy universitetida bakalavriyat, 2005–2007-yillarda magistratura, 2008-2010-yillarda aspirantura bosqichlarida tahsil olgan.

2006-yilda “Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlangan. Bakalavriyat bosqichida Ibrohim Moʻminov nomidagi stipendiya sovrindori boʻlgan. 2007-yilda OOʻMTV

tomonidan o‘tkazilgan “Eng yaxshi ilmiy tadqiqot ishi” tanlovining respublika bosqichida Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi 1-o‘ringa sazovor bo‘lgan. 2008-yilda Toshkent shaxri OTMLari o‘rtasida aspirant va doktorant xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Ilm yog‘dusi” tanlovida nomzodlik dissertatsiya ishi bilan ishtirok etib g‘olib bo‘lgan. Dissertatsiya ishini 2010-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi D.067.02.01 raqamli Birlashgan Ixtisoslashgan Kengashda “Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlarini” mavzusida 09.00.01 – Dialektika va bilish nazariyasi ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. 2010-yildan 2020-yilgacha o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimlarida ishlagan. 2021-yilda dotsent ilmiy unvonini olgan.

2020–2022-yillarda O‘zbekiston Milliy universitetida doktoranturada tahsil olgan va 2023-yil mart oyida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusida dissertatsiya himoya qilib fan doktori ilmiy darajasini olgan. Shu kunga qadar 150 ga yaqin ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar nashr ettirgan. Jumladan 2 ta o‘quv qo‘llanma (1 tasi hammualliflikda), 3 ta elektron o‘quv qo‘llanma (hammualliflikda), 3 ta monografiya, 4 ta uslubiy qo‘llanma, 3 ta dasturiy mahsulot (2 tasi hammualliflikda), 1 ta mualliflik metodikasi guvohnomasi, Scopus bazasidagi jurnallarda 3 ta, yuqori impakt faktorli jurnallarda o‘nlab maqolalari nashr ettirilgan. Scopus xirshe indeksi – 3, Google Scholar – xirshe indeksi – 8.

S.Allayarova ilmiy-tadqiqot jarayonida faol ishtirok etgan. U aspiranturada tahsil olgan davrdan ilmiy loyihalarda ijrochi va rahbar sifatida faoliyat olib borgan. Jumladan, 2009–2011-yillarda ITD–4-031 “Milliy g‘oyani mustahkamlashda germenevtik yondashuvning o‘rni” mavzusidagi amaliy loyihada kichik ilmiy xodim; 2012–2013-yillarda YOF-1-06 “Belgi va mazmun dialektikasi tadqiqi” mavzusidagi yoshlar loyahasida rahbar; 2015–2017-yillarda A-1-69 “Falsafa (qo‘llash sohasi) mutaxassisligi magistrantlarining professional kompetensiyasini yuksaltirishning o‘quv-metodik bazasini takomillashtirish” mavzusidagi

amaliy loyihada rahbar; 2018–2020-yillarda PZ-20170929789 sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada raxbar; 2018–2020-yillarda PZ-2017093070 “O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning bugungi kun talablariga mos keladigan modellarini ishlab chiqish” mavzusidagi loyihada katta ilmiy xodim; 2020–2022-yillarda F3-2020010829 –sonli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta’minotini yaratish” mavzusidagi loyihada rahbar sifatida ilmiy izlanishlar olib borgan. 2021-yil noyabr oyida Innovatsion rivojlanish Vazirligi qoshidagi Yoshlar Akademiyasi tomonidan e’lon qilingan “Bo‘lajak olim” tanlovida ilmiy g‘oya yo‘nalishi bo‘yicha “Uzluksiz ta’limda ilmiy-tadqiqot faoliyatini ommalashtirish” mavzusidagi loyihasi bilan g‘olib bo‘lgan. S.Allayarova 2022-yildan talabalarning mustaqil ilmiy tadqiqot faoliyati olib borishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Uzluksiz ta’limda ilmiy tadqiqot faoliyati tashkil etish” nomida bepul onlayn kurs tashkil qilgan.

U o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida, mas’uliyat bilan, vijdonan boshqarishga harakat qiladi. Tashabbuskor professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi, muammolarni bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatadi. Ularni yangi marralar sari ildamlashiga ko‘maklashadi. Vatanimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni yuqori malakali, jaxon talablariga mos yetuk kadrlar qilib tayyorlashda, ularning vatanimizga sodiq va fidoyi farzandlar bo‘lib tishishida o‘z kuchi va bilimini, qolaversa huzur-xalovatini ayamaydigan, yurtimiz shon-shuhratini, fan va ta’limini rivojlantirishda, xalqimiz baxt-saodati va manfaatleri yo‘lida fidokorona mehnat qilish uchun kuch va g‘ayratga, bilim va malakaga ega bo‘lgan oliyjanob xodim.



## **YAKUBOVA DILARAM TADJIYEVNA**

*Tarix va falsafa kafedrası mudiri, Tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

*Professor*

Hayot – bu inson taqdiri sahifalariga bitiladigan unutilmas tarix. Bu tarixda chinakam mehr bilan tanlagan kasbiga sadoqatli, o'z mehnati bilan ko'ngillardan joy olgan insonlar haqida so'z yuritish har doim sharaftir. Vatan taraqqiyoti va yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish yo'lida butun umri davomida sobitqadamlik bilan xizmat qilayotgan fidoyi ustozlardan biri – Yakubova Dilaram Tadjiyevnadir.

Yakubova Dilaram Tadjiyevna 1961-yil 15-sentyabrda Surxondaryo viloyatining so'lim maskani Denov tumanida tavallud topgan. U ilm-ma'rifat va pedagogik xizmatga bag'ishlangan hayot yo'li bilan yurtimiz ta'lim taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

1982-yilda Dilaram Yakubova o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadini amalga oshirish uchun Termiz davlat pedagogika instituti (hozirgi Termiz Davlat Universiteti)ning Tarix fakultetiga o'qishga kiradi. Bu qaror uning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. To'rt yil davomida ilm-fan sirlarini puxta o'rgangan, tarixiy tafakkurini shakllantirgan Dilaram Yakubovna 1986-yilda ushbu fakultetni muvaffaqiyatli tamomlab, "Tarix o'qituvchisi" mutaxassisligini qo'lga kiritdi.

Dilaram Yakubovaning pedagogik faoliyati – bu ilmga, tarixga va yosh avlod tarbiyasiga fidoyilik namunasi sifatida qaraladigan sermazmun hayot yo'lidir. U o'z mehnat faoliyatini 1982-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabida yetakchi sifatida boshlagan. Ana shu davrdan boshlab u yoshlarga yo'l ko'rsatish, ularni ongli, bilimli va faol shaxslar etib tarbiyalash ishiga sobitqadamlik bilan kirishgan. 2002–2003 yillarda Dilaram Yakubova aynan shu maktabda tarix va huquqshunoslik fani o'qituvchisi sifatida o'z faoliyatini davom ettirib, o'quv jarayoniga

o'ziga xos yondashuvi bilan yangicha nafas kiritdi. Uning o'z ishiga bo'lgan yondashuvi o'quvchi-yoshlarda tarix va huquqshunoslik fanlariga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otdi, ular orasida mustahkam bilim poydevorini yaratdi.

Ushbu tajribalar asosida Dilaram Yakubova 2003–2009 yillarda Denov tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u bilimli, intizomli va jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxslarni shakllantirishga harakat qildi. O'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar berildi, balki ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga ham katta e'tibor qaratildi. Uning qat'iyligi, talabchanligi va ilmga sadoqati ko'plab o'quvchilarning yutuqlari va yuksalishiga zamin yaratdi.

2016-2019 yillarda Dilaram Yakubova Termiz davlat universiteti qoshidagi 3-son Denov akademik litseyida tarix fani o'qituvchisi sifatida faoliyat olib bordi. Bu davrda u ta'lim sifatini oshirish, fanlarni chuqur o'rgatish, talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etdi..

Dilaram Yakubova 2019–2020-yillarda oliy ta'lim tizimida o'qituvchi sifatida ilk qadamlarini tashladi. U Termiz Davlat Universiteti Denov filiali “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrasida o'qituvchi lavozimida samarali mehnat qilib, yosh avlodga sifatli ta'lim berish, ularni ilm-fanga qiziqtirish yo'lida fidokorona faoliyat olib bordi.

2020–2021-yillarda Dilaram Yakubova Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tarix va falsafa” kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Bu davrda Dilaram Dilaram Yakubova o'zining ko'p yillik tajribasini yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashga bag'ishladi.

Ilm-fan olamiga chuqur mehr qo'ygan Dilaram Tadjiyevna o'zining tadqiqot yo'nalishi sifatida mamlakatimiz tarixining murakkab va dolzarb bosqichlaridan birini – paxta yakka hokimligi davrini sinchiklab o'rganishga bel bog'ladi. U “O'zbekistonda paxta yakka hokimligining o'rnatilishi va natijalari (1930–1990-yillar, Surxon vohasi misolida)” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida bu tarixiy davrda paxtachilik siyosati nafaqat iqtisodiyot, balki mahalliy aholi turmush

tarzi va ijtimoiy-siyosiy muhitga qanday ta'sir ko'rsatganini atroflicha tahlil etdi.

O'tkazilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlar natijasi sifatida, Dilaram Yakubova 2021-yil 25-avgust sanasida Termiz Davlat Universiteti huzuridagi ilmiy kengashda "O'zbekistonda paxta yakka hokimligining o'rnatilishi va natijalari (1930-1990 yillar Surxon vohasi misolida)" mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. Bu tarixiy sana Dilaram Yakubovaning ilmiy faoliyati tarixida yangidan-yangi yutuqlarga yo'l ochgan, unutilmas va muhim bosqich sifatida muhrlandi.

2021-yildan boshlab esa Dilaram Yakubova shu institutda "Tarix va falsafa" kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Rahbar sifatida u kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish yo'lida izchil ishlamoqda. Uning tashabbusi bilan talaba-yoshlar o'rtasida ilmiy anjumanlar, tarixiy-tahliliy davra suhbatlari va metodik seminarlar muntazam tashkil etilib, akademik muhit yanada faollashtirilmoqda. Dilaram Yakubova nafaqat o'zining yuqori malakasi, balki yetakchilik salohiyati bilan ham yosh pedagoglar uchun ibrat maktabini yaratdi.

Dilaram Yakubovaning o'quvchilarga, talabalarga, hamkasblarga, eng muhimi, el-yurt taraqqiyotiga bo'lgan mehr va mas'uliyat hissi nafaqat dars jarayonida, balki ilmiy izlanishlarida ham namoyon bo'ladi. U tomonidan yozilgan o'nlab darsliklar, o'quv qo'llanmalar va monografiyalar bugungi kunda oliy va o'rta ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda. Jumladan, "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi", "Surxondaryo tarixi", "O'zbek davlatchiligi tarixi", "O'zbekiston toponimlari tarixi" kabi asarlar tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tarix fanlari sohasida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan, fidoyi pedagog va yetuk olim Dilaram Yakubova o'z ilmiy va ma'naviy faoliyati orqali yurtimiz ta'lim tizimida chuqur iz qoldirib kelmoqda. Ustoz-shogird an'alariga sadoqat bilan yondashgan Dilaram Yakubova

ko‘plab iqtidorli yoshlarning kamol topishiga beqiyos hissa qo‘shgan. Bugungi kunga qadar u o‘z shogirdlari bilan birgalikda ko‘plab ilmiy-amaliy anjumanlar, tadbirlar va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yosh avlodni tarbiyalashda namunalı ishlarnı amalga oshirib kelmoqda.

Dilaram Yakubovanning mehnatsevarligi, ilmiy yondashuvi va pedagogik mahorati tufayli uning shogirdlari yuksak yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi 2021–2022 o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi sohibasi bo‘ldi. Shuningdek, 2023–2024 o‘quv yili uchun Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi tanlovida Boborahimov Shoxrubbek Inoyatillo o‘g‘li g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Bunday yutuqlarning zamirida, albatta, Dilaram Yakubovanning sabr-toqat, bilim va tarbiya berishdagi fidoyiligi mujassam.

2022-yilda respublika miqyosida o‘tkazilgan “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovining “Eng yaxshi kafedra” nominatsiyasi bo‘yicha Tarix va falsafa kafedrası 1-o‘rinni egalladi. Bu g‘alabada Dilaram Yakubovanning tashabbuskorligi va ilmiy-ijodiy salohiyati katta o‘rin tutdi.

Dilaram Yakubova respublika miqyosidagi ilmiy va ma’rifiy tadbirlarda ham doimiy ishtirok etadi. 2023-yil 8-mayda o‘tkazilgan “Xotira abadiy – xotira mangu” nomli tadbirda, 2024-yil 6-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan intellektual o‘yinda, shuningdek, 2024-yil 10-dekabrda bo‘lib o‘tgan “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi – huquqiy davlat poydevori” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda faol qatnashdi.

2023-yil fevral oyida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining yangi binosi ochilish marosimida Denovda yagona bo‘lgan, 1500 dan ortiq noyob eksponatlarni o‘z ichiga olgan “Chag‘aniyon” arxeologik va etnografik muzeyining tashkil etilishi ham Dilaram Yakubovanning tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan amalga oshirilgan muhim voqealardan biridir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrası faoliyati doirasida Dilaram Yakubova muntazam ravishda respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok

etib, ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali milliy taraqqiyotga xizmat qilayotgan ilg'or g'oyalarni keng targ'ib etishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

2023-yil 15-sentyabr kuni Dilaram Yakubova "Mamlakatimizda uchinchi Renessans g'oyasini keng targ'ib qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida, shuningdek 2023-yil 17-18-noyabr kunlari o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzlardan asrash" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda faol ishtirok etdi. Shu bilan birga, 2024-yil 20-martda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 76-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yil 19-noyabrda tashkil etilgan "Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanda ham o'zining boy tajribasi va chuqur tarixiy bilimlari bilan ishtirok etdi.

Uzoq yillar davomida yurt taraqqiyoti, yosh avlod tarbiyasi va ilm-ma'rifat rivojiga qo'shgan bebaho hissasi davlat tomonidan ham munosib e'tirof etildi. Dilaram Yakubovaning fidoyiligi, vatanparvarlik ruhidagi mehnati, o'qituvchilik burchiga sadoqati o'zining yuksak bahosini topdi. U 2002-yilda ta'lim sohasi fidoyilariga nasib etadigan "Xalq ta'limi a'lochisi" nishoni bilan, 2012-yil 27-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. Yana bir yuksak e'tirof – 2022-yilda unga "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni topshirildi. Bu mukofotlar – nafaqat uning mehnatiga berilgan baho, balki butun bir hayot yo'lining, mashaqqatli, ammo sharafli ustozlik faoliyatining e'tirofidir.

Yakubova Dilaram Tadjiyevnaning butun hayoti va faoliyati, avvalo, ilm-ma'rifatga sadoqat, yosh avlod tarbiyasiga mehr va yurt ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilish namunasi bo'lib xizmat qiladi. Ustozlik burchiga, ilmiy izlanishlarga va ma'naviy-ma'rifiy ishlarga fidokorona yondashuvi bilan ko'pchilikka ibrat bo'la oladigan bunday insonlar jamiyat taraqqiyotining chinakam tayanchi, zamon talabi bo'lgan komil insonlarni yetishtirish yo'lidagi haqiqiy fidoyilar qatoridan munosib o'rin egallaydi.



## SUVONOV ZAVQIDDIN NORQULOVICH

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,  
Filologiya fanlari doktori (DSc)*

Hayotda maqsad tanlash – insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi muhim qadamdir. Maqsad shunday bo‘lishi kerakki, u insondagi barcha yashirin qobiliyatlarni ishga solib, uni doimo oldinga intilishga undasin. Bu borada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy ta’kidlaganidek, “Zavq inson kamoloti zinapoyasiga o‘xshaydi. Zinalar dam olish uchun emas, balki ko‘tarilish uchun yaratilgan”. Bu so‘zlar hayotini ilm-fan, adabiyot va pedagogikaga bag‘ishlagan taniqli olim, filologiya fanlari doktori Zavqiddin Suvonovning ijodiy va ilmiy faoliyatini to‘la aks ettiradi. Uning hayoti – bilim olish, uni keng tarqatish va hayotga tatbiq etish orqali jamiyat rivojiga hissa qo‘shishning yorqin namunasidir.

Zavqiddin Suvonov 1986-yil 5-avgustda Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida, ziyolilik va ma’naviyat muhiti bilan ajralib turuvchi oilada tavallud topdi. Sakkiz farzand orasida ulg‘aygan Zavqiddin Suvonov uchun bu oila nafaqat mehr-muhabbat maskani, balki bilim va kitob dunyosiga ochilgan eshik bo‘ldi. Oilada ilm-fanga bo‘lgan cheksiz hurmat va yangi nashrlarga muhabbat alohida o‘rin tutardi. Har bir yangi kitob chiqsa, uni birinchi bo‘lib o‘qib, muhokama qilish va do‘st-u yoronlarni xabardor etish oilaning azaliy an‘anasiga aylangan edi. Bu muhit yosh Zavqiddinning qalbida bilimga chanqoqlik, izlanuvchanlik va ma’naviy yuksalish kabi ulug‘ fazilatlarni shakllantirdi. Kitob sahifalaridan chiqadigan bilim nuri uning dunyoqarashini yoritib, kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Zavqiddin Suvonovning ta’lim va ilmiy faoliyat yo‘li 2010-yilda Termiz davlat universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida boshlandi. 2010–2014-yillar oralig‘ida u o‘zbek adabiyoti va tilshunoslik sohasida chuqur bilimlar orttirib, o‘z sohasining yuksak cho‘qqilarini zabt etishga

qat'iy ahd qildi.

Ta'limni muvaffaqiyatli yakunlagan Zavqiddin Suvonov 2014–2015-yillarda o'z tug'ilgan tumanidagi 69-maktabda o'qituvchi sifatida faoliyat boshladi. Yosh avlodga bilim va ma'naviyat ulashish yo'lida qo'ygan ilk qadamlarida u o'zining pedagogik mahorati va shijoatini namoyon etdi. Bu davr uning kelajakdagi ulkan ilmiy va pedagogik faoliyati uchun muhim tajriba maktabi bo'ldi.

Zavqiddin Suvonovning ilmiy yo'li – bu tinimsiz izlanish, o'z sohasiga sadoqat va o'zbek adabiyotini yuksaltirishga qaratilgan fidoyilik hikoyasidir. 2015-yilda u O'zbekiston Milliy universitetining magistratura bosqichiga qadam qo'ydi va 2017-yilgacha bo'lgan bu davrda ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirdi. Magistratura yillari uning o'zbek filologiyasiga bo'lgan muhabbatini nafaqat mustahkamladi, balki unda adabiyot va tilshunoslik sohasida yangi ufqlarni kashf etish ishtiyoqini uyg'otdi.

2017-yilda Zavqiddin Suvonov “O'zbekiston matbuot va axborot agentligi”da hamda “O'zbekiston matbuoti” jurnalida bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat boshladi. Matbuot sohasidagi ishi orqali u nafaqat o'zbek adabiyoti va madaniyatiga oid masalalarni keng yoritishga hissa qo'shdi, balki jamiyatda so'z san'ati va ilmiy fikrning muhim ahamiyatini targ'ib qildi.

2018-yil Zavqiddin Suvonov uchun ilmiy faoliyatidagi muhim burilish nuqtasi bo'ldi. U Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida doktorantura (PhD) bosqichiga kirdi. Bu davr uning ilmiy izlanishlaridagi muhim burilish nuqtasi sifatida uning o'zbek adabiyoti va tilshunoslik sohasidagi chuqur bilimlarini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

2019-yil 25-dekabr kuni Zavqiddin Suvonov o'zbek adabiyotshunosligida muhim voqea sifatida qayd etilgan muvaffaqiyatga erishdi. U taniqli olim, professor B.N.Karimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashda 10.00.02 – O'zbek adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha “Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi” mavzusidagi

mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu dissertatsiya nafaqat uning ilmiy salohiyatini namoyon etdi, balki o'zbek adabiyotidagi obrazlar tahliliga innovatsion yondashuvlarni olib kirdi, soha mutaxassislari tomonidan yuksak baholandi.

Zavqiddin Suvonov pedagogik faoliyatidan to'xtatmay, 2020–2022-yillarda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida katta o'qituvchi va dotsent sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u nafaqat yosh avlodga bilim ulashdi, balki o'zbek adabiyotidagi dolzarb masalalarni tadqiq qilishda davom etdi.

2024-yildan boshlab Zavqiddin Suvonov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchi va dotsent sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu davrda u o'zbek adabiyoti va tilshunoslik sohasidagi chuqur bilimlarini talabalarga yetkazishda davom etib, yosh avlodni milliy ma'naviyat va ilmiy izlanishlar ruhida tarbiyalashga muhim hissa qo'shmoqda. Uning darslari nafaqat nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi, balki talabalarni ijodiy fikrlashga, o'zbek adabiyotidagi muhim masalalarni tahlil qilishga va yangi tadqiqot yo'nalishlarini kashf etishga undaydi. Zavqiddin Suvonov institutdagi faoliyati davomida o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yo'lida faol ishtirok etmoqda.

Zavqiddin Suvonovning ilmiy va ijodiy faoliyati o'zbek adabiyotshunosligi va pedagogika sohasida muhim iz qoldirgan yorqin namuna sifatidadir. U jami 70 dan ortiq nashriy ish muallifi bo'lib, ular orasida 64 ta ilmiy maqola nufuzli jurnal, gazeta va axborot-tahliliy portallarda chop etilgan. Shuningdek, uning 3 ta monografiyasi, 1 ta darslik, 1 ta ilmiy risola va 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanmasi o'zbek filologiyasining boy xazinasiga muhim qo'shimcha bo'ldi. Uning ijodiy va ilmiy yutuqlari Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta mualliflik guvohnomasi bilan e'tirof etildi. Zavqiddin Suvonovning maqolalari Web of Science, Scopus va Google Scholar kabi xalqaro ma'lumotlar bazalarida nashr etilib, o'zbek adabiyotshunosligini global miqyosda targ'ib qilishga xizmat qildi.

Zavqiddin Suvonovning faoliyati davlat tomonidan ham yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. 2021-yilda u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi ko'krak nishoni" bilan taqdirlandi. Bu mukofot uning ilm-fan va ta'lim sohasiga qo'shgan ulkan hissasining, shuningdek, milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lidagi fidoyiligining ramzi sifatida qadrlanadi.

Hozirda Zavqiddin Suvonov bakalavr va magistr talabalarga, shuningdek, 5 nafar PhD doktorantga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Uning rahbarligida tayyorlanayotgan yosh tadqiqotchilar o'zbek filologiyasining kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Turk tilini mukammal darajada bilishi esa Suvonovning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi faoliyatini yanada samarali qildi. U Turkiya (O'taturk, Kastamonu, Egey), Qozog'iston (Muxtor Avezov, Gumilyov), Qirg'iziston (Qirg'iz-Manas), Malayziya (Malaya, Putra), Ozarbayjon va Gruziya universitetlarida talabalarga ma'ruzalar o'qib, o'zbek adabiyoti va tilshunosligini jahon miqyosida targ'ib qildi. Qirg'izistonning Qirg'iz-Manas universiteti bilan hamkorlikda xalqaro loyihalarda ishtirok etib, o'zbek filologiyasining yangi yo'nalishlarini dunyoga tanitdi.

Zavqiddin Suvonov nafaqat o'z sohasida, balki mamlakatimiz ilmiy-pedagogik jamoatchiligi orasida ham yuksak hurmat va e'tiborga ega. Uning respublika, viloyat, shahar va universitet miqyosidagi obro'-e'tibori uning xolisligi, tanqidiy va haqqoniy yondashuvi, qat'iy fikr sohibi ekanligi va o'z so'zida turishi bilan mustahkamlanadi. Serqirra faolligi, mehnatkashligi, rostgo'yiligi va yuksak ma'naviyati uni nafaqat hamkasblari, balki keng jamoatchilik oldida ibratli shaxsga aylantirgan. Zavqiddin Suvonov – bu nafaqat o'zbek filologiyasining yorqin yulduzi, balki yosh avlod uchun ilhom manbai, ma'naviy va ilmiy hayotda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi haqiqiy ziyoli sifatida qadrlanadi.



## ISMATOV SUNNATULLO SHAMSULLAYEVICH

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrasini mudiri, Texnika fanlari doktori  
(DSc)*

Har bir yurt o‘zining fidoyi, bilimli, izlanuvchan va yurtparvar farzandlari bilan faxrlanadi. Bugungi kunda texnika fanlari sohasida ilmiy yutuqlari, murabbiylik faoliyati va halol mehnati bilan tanilgan, texnika fanlari doktori (DSc), professor (v.b.) Ismatov Sunnatullo Shamsullayevich ham ana shunday olimlardan biridir. U yurtimizda texnologiya, qayta ishlash sanoati va ilmiy-tadqiqot sohalarining yuksalishiga beqiyos hissa qo‘shib kelayotgan, shijoatli va sermahsul faoliyat egasi sifatida tanilgan.

Ismatov Sunnatullo Shamsullayevich 1972 yilda Surxandaryo viloyatining go‘zal va qadimiy maskani – Denov tumanida tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoqi, kitobga mehr va mustaqil fikrlash qobiliyati bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Sunnatullo Shamsullayevich 1979–1989-yillarda Denov tumani 36-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tahsil olib, shu yillarda o‘zining intiluvchanligi, tartib-intizomga rioya qilishi, bilimga chanqoqligi bilan ustozlar va sinfdoshlari e‘tiborini qozongan.

O‘rta maktabni tamomlagach, 1989-yilda Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutining “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi bo‘limga o‘qishga qabul qilindi. Institutdagi tahsil olgan yillari davomida Sunnatullo Shamsullayevich nafaqat puxta nazariy bilimlarga ega bo‘ldi, balki amaliy ko‘nikmalari bilan ham ajralib turdi.

Oliy ta‘limni muvaffaqiyatli tamomlagach, u ilmiy faoliyat sari ilk qadamlarini o‘ziga tanish muhitda – institutning «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasida o‘quv ustasi sifatida boshladi. Bu davrda u mas‘uliyat, burch, halollik va tashabbuskorlik kabi sifatleri bilan jamoa e‘tiborini qozondi. O‘z ishiga

jiddiy yondashuvi, talabchanligi va doimiy izlanishga intilishi unga yanada kengroq ilmiy faoliyat sari yo‘l ochdi.

Ilmiy izlanishlarga bo‘lgan intilishi uni yana oliy ta’lim muassasasining aspiranturasiga qaytishga undadi. Sunnatullo Shamsullayevich institutning kunduzgi aspiranturasiga qabul qilinib, «Yog‘lar, efir moylari, atir-upa va pardoqlik mahsulotlari texnologiyasi» yo‘nalishida ilmiy izlanish olib bordi. Aspirantura davrida u yuqori bilim saviyasi, tadqiqotchilik salohiyati, mustaqil fikrlashi va ilmiy yondashuvi bilan ajralib turdi. Aynan shu fazilatlari evaziga u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi nufuzli davlat stipendiyasiga loyiq topildi – bu esa yosh olimning salohiyatiga berilgan yuksak baho edi.

Oliy ta’limni muvaffaqiyatli tamomlagach, u ilmiy faoliyat sari ilk qadamlarini o‘ziga tanish muhitda – institutning «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasida o‘quv ustasi sifatida boshladi. Bu davrda u mas’uliyat, burch, halollik va tashabbuskorlik kabi sifatleri bilan jamoa e’tiborini qozondi. O‘z ishiga jiddiy yondashuvi, talabchanligi va doimiy izlanishga intilishi unga yanada kengroq ilmiy faoliyat sari yo‘l ochdi.

Ilmiy izlanishlarga bo‘lgan intilishi uni yana oliy ta’lim muassasasining aspiranturasiga qaytishga undadi. Sunnatullo Shamsullayevich institutning kunduzgi aspiranturasiga qabul qilinib, «Yog‘lar, efir moylari, atir-upa va pardoqlik mahsulotlari texnologiyasi» yo‘nalishida ilmiy izlanish olib bordi. Aspirantura davrida u yuqori bilim saviyasi, tadqiqotchilik salohiyati, mustaqil fikrlashi va ilmiy yondashuvi bilan ajralib turdi. Aynan shu fazilatlari evaziga u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi nufuzli davlat stipendiyasiga loyiq topildi – bu esa yosh olimning salohiyatiga berilgan yuksak baho edi.

Ilmiy izlanishlar borasidagi izchil mehnatlari, qat’iyati va chuqur nazariy bilimlari natijasida Ismatov Sunnatullo Shamsullayevich o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari bo‘yicha fan nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Bu yutuq uning ilmiy izlanishlarga sadoqati, puxta ilmiy tayyorgarligi va mustaqil fikrlash qobiliyatining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Aspirantura davridagi muvaffaqiyatlarini ortda qoldirgan holda,

Sunnatullo Shamsullayevich o‘z faoliyatini ilmiy-pedagogik yo‘nalishda davom ettirib, institutda laboratoriya mudiri, assistent hamda dotsent kabi mas’uliyatli lavozimlarda samarali mehnat qildi. Ayniqsa, Buxoro muhandislik-texnologiya institutida olib borgan faoliyati uning pedagogik mahorati yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Ustoz-olimning ilmiy salohiyati yillar osha yanada yuksaldi. Nihoyat, 2024-yilda u 02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari” ixtisosligi bo‘yicha texnika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi.

U ilmiy merosi jihatidan sermahsul olimdir. Bugungi kunga qadar 160 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari respublika va xorijiy jurnallarda, ilmiy konferensiyalarda chop etilgan. U muallifligidagi 2 ta darslik, 6 ta o‘quv qo‘llanma, 10 dan ortiq uslubiy qo‘llanma, 10 ta monografiya va 7 ta o‘quv-uslubiy majmua oliy ta‘limda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Uning so‘nggi yillarda e‘lon qilingan 10 ta maqolasi Scopus va Web of Science xalqaro bazalarida indeksatsiyalangan. Google Scholar platformasida h-indeksi 5 bo‘lsa, Scopus bazasida h-indeksi 1 ga teng.

Olimlik faoliyati bilan bir qatorda u samarali ilmiy rahbarlik faoliyatini ham olib bormoqda. Uning rahbarligida 2 nafar PhD dissertant, 15 nafar magistr muvaffaqiyatli tahsil olgan. Shuningdek, 2 nafar talabasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan. Uning tayanchi ostida 30 dan ortiq bakalavr va magistrlar turli tanlovlar, ilmiy ko‘rgazmalar va xalqaro forumlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Ismatov Sunnatullo Shamsullayevich – mehnatsevarlik, fidoyilik, halollik va bilim bilan yurtga xizmat qilish namunasi bo‘lgan olimdir. U o‘zining hayotiy yo‘li orqali yosh avlodga nafaqat ilm berib, balki kuchli irodasi, sadoqati va ilmga bo‘lgan cheksiz muhabbati bilan ham namuna bo‘la oladi. U bugun ilm-fan, ta‘lim-tarbiya va amaliy texnologiyalar chorrahasida xalq manfaatlariga xizmat qilayotgan, kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasini yurtimiz kelajagi uchun baxshida etayotgan yetuk mutaxassis, chinakam xalq olimidir.



## **MAMAJANOV RAXMATILLA YAKUBJANOVICH**

*Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri,  
Texnika fanlari nomzodi*

Har bir inson dunyoga bir maqsad bilan keladi. Kimdir hayot yoʻlida oʻzini topolmay yuradi, kimdir esa yoshlikdanoq yuragida yonib turgan ichki ilhom va fidoyilik bilan yurtiga, xalqiga xizmat qiladi. Ana shunday fidoyilardan biri – bugungi kunda oliy taʼlim tizimida oʻz oʻrni va obroʻsiga ega boʻlgan tajribali pedagog va olim, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrası mudiri, texnika fanlari nomzodi Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovichdir.

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich 1964-yil 15-avgust kuni Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. U bolalik chogʻidanoq bilimga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va intiluvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Raxmatilla Yakubjanovich 1971–1981-yillar davomida Sariosiyo tumanidagi Oydin nomli 32-sonli umumtaʼlim maktabida tahsil olib, ilk bilim poydevorini mustahkamladi. Aynan shu davrlarda uning qalbida ilm-fanga boʻlgan muhabbat, texnika va aniq fanlarga mehr paydo boʻldi.

Raxmatilla Yakubjanovich 1983-1985-yillarda yurt oldidagi burchini ado etib, harbiy xizmatni sharaf bilan oʻtadi. Harbiy intizom, sabr va masʼuliyat tuygʻusi uning xarakterini yanada kamol toptirdi.

Raxmatilla Yakubjanovich 1986-yilda Sirdaryo davlat pedagogika institutining Matematika yoʻnalishiga oʻqishga qabul qilinib, bilim olishga boʻlgan yuksak intilishi bilan 1991-yilda mazkur oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi. Aynan shu yillarda Raxmatilla Yakubjanovich oʻqituvchilik kasbini nafaqat kasb, balki hayot mazmuni sifatida qabul qila boshladi.

Taʼlimga sadoqat va zamonaviy texnologiyalarga qiziqish Raxmatilla Yakubjanovichni 1991–1993-yillarda shu institutning “Informatika va hisoblash texnikasi” kafedrasida laboratoriya mudiri lavozimida ishlashga undadi. Bu bosqichda u nafaqat amaliy

ko'nikmalarni egalladi, balki ilmiy faoliyat sari jiddiy qadamlar tashladi.

Ushbu izlanishlar Raxmatilla Yakubjanovichni 1997–1998-yillarda Toshkent elektrotexnika institutining “Radioqurilmalar” kafedrasining kunduzgi aspiranturasiga olib keldi. U yerda tahsil olib, o'z ilmiy salohiyatini yanada oshirdi, fundamental bilimlarni mustahkamladi va texnik fanlar bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib bordi. Ana shu davr Raxmatilla Yakubjanovichning mustaqil olim sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'ldi.

Raxmatilla Yakubjanovichning mehnat faoliyati o'ziga xos sermahsulligi va ko'p qirrali tajribasi bilan ajralib turadi. 1993–1996-yillarda Guliston universitetining “Informatika” kafedrasida o'qituvchi sifatida faoliyat yuritib, yosh avlodga zamonaviy bilimlarni o'rgatish yo'lida sabr bilan xizmat qildi.

Keyinchalik, 1997–2011-yillar davomida Toshkent axborot texnologiyalari universitetida faoliyat olib bordi. Bu davr mobaynida u aspirantlikdan boshlab, o'qituvchi, katta o'qituvchi va dotsent lavozimlarigacha yetib bordi. Har bir bosqichda u o'zining chuqur nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va pedagogik mahorati bilan o'quvchilar va hamkasblar orasida e'tiborga sazovor bo'ldi.

2012–2015-yillar oralig'ida Toshkent Temiryo'llar muhandislari institutining “Temiryo'l transportida axborot tizimlari” kafedrasida dotsent sifatida ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirib, transport tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalarida izlanishlar olib bordi.

2015–2018-yillarda esa Toshkent avtomobil yo'llari institutining “Oliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasiga rahbarlik qildi. Mazkur lavozimda faoliyat yuritir ekan, u nafaqat kafedra ishini samarali tashkil etdi, balki yosh mutaxassislar tayyorlash, o'quv dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirish va ilg'or texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish borasida muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

2020–2022-yillarda Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Moliya va raqamli texnologiyalar” kafedrasiga mudirlik qildi. Bu davrda u kafedraning

ilmiy va o‘quv-metodik salohiyatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish borasida muhim islohotlarni amalga oshirdi. 2022–2024-yillarda esa institutning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori lavozimida faoliyat yuritib, ta’lim tizimiga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tatbiq etishda bosh-qosh bo‘ldi.

2024-yilning sentabr oyidan e’tiboran Raxmatilla Yakubjanovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Axborot texnologiyalari” kafedrasini mudiri sifatida faoliyat yuritmoqda. U bugungi kunda o‘zining ilmiy izlanishlarini “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)” yo‘nalishida davom ettirib, “Informatika darslarida ta’limning innovatsion shakl va texnologiyalaridan kompleks foydalanishning metodik tizimini takomillashtirish” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Raxmatilla Yakubjanovich o‘zining boy hayotiy va ilmiy tajribasi, chuqur nazariy bilimlari hamda izchil izlanishlari orqali respublikamizda axborot texnologiyalari sohasi va ta’lim jarayonining innovatsion rivojiga sezilarli hissa qo‘shib kelmoqda. U hammualliflikda 1 ta darslik, 14 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya va 16 ta uslubiy qo‘llanmani yaratgan. Shu bilan birga, 100 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari respublika hamda xorijiy miqyosdagi nufuzli jurnallarda e’lon qilingan.

Ustoz tomonidan ishlab chiqilgan “Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan tashxislash algoritmi” dasturiy ta’minoti zamonaviy tibbiyotda yuqori texnologik yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilib, amaliyotda qo‘llanilmoqda. Bu boradagi ishlari natijasida u 12 ta dasturiy mahsulotga oid rasmiy sertifikatlar bilan taqdirlangan.

Ilm-fanga bo‘lgan sadoqati, fidokorona mehnati va o‘z shogirdlariga mehr bilan yondashuvi natijasida hozirgacha 14 nafar magistr hamda 19 nafar bakalavrni muvaffaqiyatli tayyorlagan. Ayni vaqtda ustoz bir nafar tayanch doktorant – Xaydarov Sherali Islomovichga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Ushbu doktorant 05.01.04 – “Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



**TO'RABOYEVA KIMIYOXON  
URAZBEKOVNA**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası mudiri,  
Iqtisodiyot fanlar nomzodi, Dotsent*

Inson hayot yo'lini tanlar ekan, ko'nglida ulkan orzu va maqsadlarni jo qilgan holda oldinga intiladi. Ayniqsa, ilm-fan sari yetaklaydigan, kelajak avlodga zamin tayyorlovchi, o'z kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan insonlar borki, ularning yo'li sharafli, izzat-ikromga loyiqdir. Bu yo'lda yillar mobaynida samimiy mehnati, chuqur bilim va tajribasi bilan e'tirofga sazovor bo'lgan olimalardan biri – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent To'raboyeva Kimyoxon Urazbekovnadir.

To'raboyeva Kimyoxon Urazbekovna 1955-yil 5-mayda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dunyoga kelgan. Ilmga bo'lgan kuchli qiziqish, bilimga chanqoqlik va katta hayotiy maqsadlar uni yoshligidanoq ilm-fan olamiga yetakladi. Kimyoxon Urazbekovna 1975-yilda Tojikiston Agrar universitetining iqtisodiyot fakultetiga o'qishga kirib, ushbu oliy ta'lim muassasasida puxta nazariy tayyorgarlik ko'rdi va 1980-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi.

Yosh iqtisodchi sifatida faqat bakalavriat bosqichidagi bilim bilan kifoyalanmay, ilmiy izlanishlar sari dadil intilgan Kimyoxon Urazbekovna o'z faoliyatini yanada chuqurlashtirish maqsadida Moskvadagi nufuzli Davlat iqtisodiyot universitetida aspiranturaga o'qishga qabul qilindi. U yerda olib borgan izchil tadqiqotlari natijasida 1984-yilda "Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi ilmiy ishi asosida muvaffaqiyatli himoya o'tkazib, iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini qo'lga kiritdi. Mazkur yutuq uning ilmiy faoliyatida muhim burilish nuqtasiga aylandi va kelajakdagi ilmiy-ijodiy izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ilmiy izlanishlarga sadoqat va yuksak mehnatsevarlik ruhida ulg'aygan To'raboyeva Kimyoxon Urazbekovna o'z mehnat faoliyatini 1984-yilda Moskva Davlat Universitetida ilmiy xodim sifatida

boshlagan. Ilm-fanning markazi hisoblangan Moskvada o‘n yil davomida faoliyat yuritib, nafaqat nazariy bilimlarini chuqurlashtirdi, balki xalqaro miqyosdagi akademik muhitda yetuk mutaxassis sifatida shakllandi.

1994-yilda Kimyoxon Urazbekovna Tojikiston Respublikasiga qaytib, Tojikiston Tibbiyot Universitetining “Iqtisodiy siyosat” kafedrasiga ishga qabul qilindi. U yerda o‘zining tashabbuskorligi va rahbarlik salohiyatini namoyon etib, 2003-yilgacha ushbu kafedra mudiri lavozimida faoliyat olib bordi. Shu bilan birga, 1994-2003-yillar davomida Tojikiston Tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish universitetining Sharg‘un filialida direktor o‘rinbosari lavozimida samarali faoliyat olib bordi. Bu davr mobaynida Kimyoxon Urazbekovna oliy ta‘lim sohasida ko‘plab tashkiliy va ilmiy islohotlarga bosh-qosh bo‘ldi.

2003-yildan boshlab, o‘z faoliyatini ona yurti – Denov tumanida faoliyatini davom ettirdi. Avvaliga “Sharof Rashidov” shirkat xo‘jaligida xodimlar bo‘limi boshlig‘i sifatida, keyinchalik esa 2005–2010-yillarda “Sohibjamol” fermer xo‘jaligi rahbari sifatida qishloq xo‘jaligi sohasida ham o‘zining salohiyati va boshqaruv ko‘nikmalarini namoyon etdi. 2010–2020-yillar oralig‘ida esa “Sharof Rashidov” servis inspeksiya uyushmasining bosh hisobchisi lavozimida faoliyat yuritdi.

2020-yildan e‘tiboran To‘raboyeva Kimyoxon Urazbekovna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Raqamli iqtisodiyot” kafedراسi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Ustozning rahbarligida kafedra doirasida ko‘plab iqtidorli yosh mutaxassislar, tadqiqotchilar va professor-o‘qituvchilar yetishib chiqmoqda.

Kimyoxon Urazbekovnaning sermahsul ilmiy izlanishlari natijasida 60 dan ortiq ilmiy maqolalari respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan. Bu maqolalarda zamonaviy iqtisodiyotning turli jihatlarini chuqur tahlil qilinib, ilmiy hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilgan. Shuningdek, Kimyoxon Urazbekovna 20 dan ortiq mahalliy va xalqaro ilmiy anjumanlarda o‘z ilmiy maqola va ma‘ruzalari bilan faol ishtirok etgan, o‘zining original g‘oyalari va takliflari bilan ko‘plab e‘tiborli fikrlar bildirgan.

Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Kimyoxon Urazbekovna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ko‘plab fundamental asarlarni

yaratdi. Jumladan, 2023-yilda “Xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish” nomli monografiyasi chop etildi. Oradan ko‘p o‘tmay, 2024-yilda “Hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish istiqbollari” nomli navbatdagi monografiyasi ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Bu asar ham o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Talabalar uchun ham Kimyoxon Urazbekovna bir nechta muhim adabiyotlar muallifi sifatida tanilgan. 2023-yilda chop etilgan “Sanoat iqtisodiyoti” nomli darsligi, 2024-yilda magistratura talabalariga mo‘ljallangan “Korporativ strategiya va tashkiliy dizayn” nomli darsligi ta’lim jarayonida muhim o‘quv qo‘llanmalarga aylandi. Bundan tashqari, “Tuproq biologiyasi” (2023) va “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” (2024) nomli o‘quv qo‘llanmalari bilan ustoz amaliyot va nazariyani uzviy bog‘lagan holda zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mos adabiyotlar yaratishga erishdi.

Kimyoxon o‘z faoliyati davomida respublika miqyosidagi bir nechta ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etishda tashabbus ko‘rsatgan. Jumladan, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya” mavzusidagi anjuman soha mutaxassisleri va olimlarining e’tiborini jalb qildi. Oradan bir yil o‘tib, 2022-yilda “Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda raqamli transformatsiya” nomli yirik ilmiy anjuman ham muvaffaqiyat bilan o‘tkazildi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalariga kirib kelayotgan bir vaqtda, Kimyoxon Urazbekovna tashabbusi bilan 2024-yilda “Davlat va xususiy sektordagi raqamli transformatsiya jarayonlari va biznesni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o‘rni” mavzusida navbatdagi respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Kimyoxon Urazbekovna faqat respublika doirasida emas, balki xalqaro ilmiy maydonda ham faoliyat yuritmoqda. 2022-yil 22-23-iyul kunlari Qozon Federal universitetida o‘tkazilgan “Актуальные вопросы современной науки и образования – 2022” xalqaro konferensiyasida “Развитие цифровой экономики в Узбекистане” mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi. Bundan tashqari, bir qator xalqaro ilmiy

konferensiyalarda o‘z maqola va tezlari bilan qatnashib, mamlakatimizdagi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini keng miqyosda targ‘ib etmoqda.

Kimyoxon To‘raboyevaning rahbarlik salohiyati oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi xalqaro hamkorliklar rivojida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning faol ishtiroki bilan Rossiya Federatsiyasining Novosibirsk viloyatidagi nufuzli universitetlari, shuningdek Tojikiston Davlatining Agrar universitetlari bilan akademik va ilmiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Bu kabi tashabbuslar, shubhasiz, nafaqat institutning, balki butun mintaqaning ta‘lim va ilm-fan sohasidagi integratsion rivojiga xizmat qilmoqda.

Yillar davomida halol mehnat, fidokorlik va ilmga sadoqat bilan yo‘g‘rilgan hayot yo‘li nihoyat munosib e‘tirofini topdi. 2024-yilda To‘raboyeva Kimyoxon Urazbekovna mamlakatimizda uzoq yillar davomida jamiyat va xalq manfaatlariga xizmat qilganligi, iqtisodiyot sohasi, ta‘lim va ilm-fan yo‘nalishidagi katta xizmatlari uchun “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni va faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda u o‘zining boy tajribasi, keng dunyoqarashi va yuksak ilmiy salohiyati bilan ko‘plab talabalar va izlanish olib borayotgan yosh olimlarga ustozlik qilib kelmoqda. Bakalavriat va magistratura bosqichidagi talabalar uchun bilim manbai bo‘lib xizmat qilayotgan bo‘lsa, mustaqil tadqiqotchilar va tayanch doktorantlar uchun esa – ilhom, ilmiy yo‘l ko‘rsatkich, yo‘lboshchi ustozga aylangan. Ustoz nafaqat bilim beradi, balki har bir shogirdiga o‘ziga ishonch, mustahkam maqsad va ilmiy izlanishga muhabbat baxsh etadi.



## **HAMROEVA MARG'UBA KOMILOVNA**

*Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrası mudiri, Biologiya fanlari nomzodi, Dotsent*

Yurtimizda har bir sohaga chuqur sadoqat bilan yondashadigan, ilm-fanga muhabbat bilan yashaydigan insonlar bor. Ana shunday fidoyi olimalardan biri – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Hamroyeva Marg'uba Komilovna. Uning hayoti – ilm yo'lida kechgan fidokorona mehnat, uzluksiz izlanish va ma'rifat yo'lidagi mashaqqatli, ammo sharaflı yo'l ifodasidir.

1979-yil 21-mart kuni Buxoro viloyatining qadimiy Jondor tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan Marg'uba Komilovna bolaligidan kitob, bilim va izlanishga mehr qo'yib ulg'aydi. Oilasidagi ilmiy va ma'naviy muhit uni erta yoshlikdanoq puxta maqsad sari yetakladi. 1996-yilda Jondor tumanidagi 6-sonli o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomladi. Bu uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun birinchi mustahkam qadamlardan bo'ldi.

2003–2007-yillar oralig'ida Hamroyeva Marg'uba Komilovna Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutida tahsil olib, muhandislik-texnik yo'nalishlarida puxta bilimga ega bo'ldi. Bu yillar uning hayotida katta burilish davri bo'ldi – u nafaqat tanlagan kasbini chuqur o'rgandi, balki ilm-fanga bo'lgan yondashuvini shakllantirdi. Aytish mumkinki, bu davr uning ichki dunyosida olıma sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

2007–2009-yillarda esa u o'sha institutda "Donni saqlash va qayta ishlash texnologiyalari" mutaxassisligi bo'yicha magistrlik dasturida tahsil olib, o'qishni imtiyozli diplom bilan yakunladi. Bu yutuq uning ilmga bo'lgan chin yurakdan mehrini, izlanishga bo'lgan intilishlarini yana bir bor tasdiqladi. Magistratura bosqichi Marg'uba Komilovnani mustaqil tadqiqotlar, ilmiy metodologiyalar va innovatsion fikrlash sari yetakladi. U aynan shu bosqichda nafaqat nazariy bilimlarini

chuqurlashtirdi, balki kelajakdagi ilmiy faoliyatining mustahkam poydevorini qo‘ydi.

2007-yildan boshlab Marg‘uba Komilovnaning mehnat faoliyati boshlandi. Dastlab u o‘zi tahsil olgan institutda katta laborant, shuningdek, o‘rindoshlik asosida assistent lavozimlarida faoliyat yurita boshladi. Yosh mutaxassis sifatida u nafaqat dars berishga, balki laboratoriya tajribalari va ilmiy izlanishlarga ham chuqur kirib bordi. U har bir ilmiy tajribani o‘zida sinab ko‘rdi, har bir ma‘lumotga chuqur yondashdi, yoshligiga qaramay katta ishonch va mas‘uliyat bilan faoliyat olib bordi.

2015-yilda u o‘z ilmiy salohiyatini yanada chuqurlashtirish maqsadida Buxoro muhandislik-texnologiya institutida tayanch doktoranturada o‘qishni boshladi. Shu bilan birga, “Kimyoviy texnologiyalar” va keyinchalik “Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedralarida assistent sifatida faoliyat yuritib, amaliyot va nazariyotni uyg‘unlashtirib bordi. Bu yillar davomida u ilmiy faoliyatni faqat ma‘ruzalar va tajribalar bilan cheklab qo‘ymadi, balki real sektor bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar orqali o‘z izlanishlariga amaliy yechimlar topdi.

Oradan bir necha yillar o‘tib, 2020-yil 27-fevralda uning fidokorona mehnatlari munosib e‘tirof etildi – Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash qaroriga ko‘ra u “Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)” ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Bu nafaqat ilmiy unvon, balki uning yillik izlanishlari, mashaqqatli mehnati va sadoqatining samarasi edi.

Shu yilning o‘zida, ilmiy salohiyati va menejerlik qobiliyati e‘tiborga olinib, u Samarqand davlat universiteti Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga ishga taklif etildi. Bu yerda u “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasiga mudir etib tayinlandi. Uning rahbarligida kafedra nafaqat tashkiliy jihatdan kuchaydi, balki ilmiy yo‘nalishlar ham kengaydi, yangi loyihalar yo‘lga qo‘yildi, yosh tadqiqotchilarga keng imkoniyatlar yaratildi.

Bugunga kelib, Hamroyeva Marg‘uba Komilovna institutda nafaqat rahbar, balki ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi ilmiy maslahatchi sifatida ham

faoliyat yuritib kelmoqda. Uning rahbarligida 16 nafar bakalavr bitiruv malakaviy ishlarini, 4 nafar magistr esa dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Hozirda esa 5 nafar bakalavr, 6 nafar magistr va 3 nafar PhD tadqiqotchilar uning ilmiy rahbarligida izlanish olib bormoqda.

Uning ilmiy ishlari nafaqat nazariy asosga, balki bevosita amaliyotga yo'naltirilgan. 2018-yilda "Buxoro viloyatida soya donini yetishtirish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash" mavzusida yirik xo'jalik shartnomasi doirasida tajribaviy ishlarni olib borgan. Bu loyihaning davomida u soya doni ekinining tuproq tarkibiga ta'siri, agrotexnik tadbirlar va laboratoriya tahlillari orqali muhim ilmiy natijalarga erishgan.

Hozirda esa "Soya donining tarkibida moy miqdorini oshirish va yuqori hosilli navlarini yaratishning innovatsion agrotexnologiyasi" mavzusida ilmiy loyihani olib bormoqda. Uning innovatsion g'oyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkazilgan hududiy ko'rgazmada e'tirof etilib, keyingi bosqichga tavsiya qilingan. Ushbu loyiha nafaqat tuproq unumdorligini oshirish, balki sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga qadar Hamroyeva Marg'uba Komilovnaning 120 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari nafaqat yurtimizdagi, balki xalqaro miqyosdagi nufuzli ilmiy nashrlarda e'lon qilingan. U o'zining chuqur izlanishlari, dolzarb mavzularni yoritishdagi puxta yondashuvi hamda ilmiy tafakkurining sarmazmunligi bilan ilmiy jamoatchilik e'tiborini qozongan. Ayniqsa, uning maqolalari AQSh, Kanada, Hindiston, Ruminiya kabi ilm-fan rivojlangan mamlakatlarning nufuzli jurnallarida chop etilgani – bu uning izlanishlari global miqyosda dolzarbligini ko'rsatadi.

Xususan, Marg'uba Komilovnaning ilmiy ishlari International Journal of Biology, Annals of the Romanian Society for Cell Biology, Journal of Contemporary Issues in Business and Government kabi impakt faktori yuqori bo'lgan jurnallarda o'rin oldi. Ushbu nashrlar dunyo ilmiy maydonida o'z salohiyati, qat'iy talablari va obyektiv ilmiy

mezonlari bilan tanilgan. U yerda maqola e'lon qilinishi — bu muallifning yuqori ilmiy madaniyat, tahliliy fikrlash va yangilikka intilish qobiliyatini anglatadi.

Ilmiy faoliyatidagi samaradorlikni ko'rsatib beruvchi muhim ko'rsatkich – h-indeks – hozirda 5 ga teng bo'lib, bu Hamroyeva Marg'uba Komilovnaning ilmiy ishlari nafaqat keng o'qilganini, balki boshqa olimlar tomonidan ham faol foydalanilayotganini anglatadi. Bu esa uning nafaqat bir mavzuga doir tor doiradagi tadqiqotlar bilan emas, balki fan sohasiga real hissa qo'shayotgan, dolzarb masalalarga javob beruvchi izlanishlar bilan shug'ullanayotgan olim ekanligidan dalolatdir.

Hamroyeva Marg'uba Komilovna – ilmga mehr, hayotga hurmat, yosh avlodga mas'uliyat bilan yondashadigan ustoz. U talaba va magistrantlarga dars berish bilan birga, ularning har birini ilmiy izlanishlarga jalb etadi, ularga o'zining boy tajribasidan bahramand bo'lishga harakat qiladi.

U – fidoyi pedagog, ustozlik mas'uliyatini his qilgan holda, Vatan taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan olim ayollardan biridir.



## **BOBOQULOVA DILFUZA MENGLIBOYEVNA**

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

Ilm-fan olamida yuksalish yo‘li hech qachon oson bo‘lmagan. Ayniqsa, pedagogika sohasida chuqur iz qoldirgan, yoshlarga ma‘naviy-ma‘rifiy yondashuvni, zamonaviy ta‘lim talablariga mos tarzda shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan fidoyi ustozlar – jamiyatimizning eng bebaho boyligidir. Ana shunday zahmatkash, fidoyi va izlanishdan to‘xtamaydigan pedagoglardan biri bu – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Boboqulova Dilfuza Mengliboyevnadir.

Dilfuza Mengliboyevna 1983-yil 21-mayda Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanida tavallud topgan. Ilmga, ayniqsa, pedagogikaga bo‘lgan qiziqish va muhabbat uning hayotida ilk yoshligidanoq shakllangan edi. Shu qiziqish uni ta‘lim sari yetakladi: o‘zining ilk ta‘lim saboqlarini ham aynan tug‘ilib o‘sgan yurtida – Sho‘rchi tumanidagi 4-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida olib, 2000-yilda ushbu maktabni muvaffaqiyat bilan tamomladi.

Yoshlikdan mehr va sabr timsoli bo‘lgan Dilfuza Mengliboyevna mehnat faoliyatini ham aynan shu maskanda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida boshladi.

Ta‘lim sohasidagi dastlabki muvaffaqiyatlari bilan cheklanib qolmagan Dilfuza Mengliboyevna har doim o‘z ustida ishlash, bilim doirasini kengaytirish va pedagogik mahoratini chuqurlashtirishga intildi. U ilm-fan sari bo‘lgan intilishlarini 2002-yilda Termiz davlat universitetining “Pedagogika” fakultetiga o‘qishga kirish orqali yangi bosqichga olib chiqdi. Bu yillar davomida u pedagogika nazariyasi va amaliyotining nozik jihatlarini chuqur o‘rgandi, zamonaviy ta‘lim tamoyillarini puxta egalladi. 2006-yilda mazkur oliygohni muvaffaqiyatli tamomlagan Dilfuza Mengliboyevna, hayotini bolalar tarbiyasi, bilim va

ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlash yo'lida sobitqadamlik bilan davom ettirdi.

Oradan uch yil o'tib, ya'ni 2009-yilda esa shu universitetda "Pedagogika (ta'lim turlari bo'yicha)" yo'nalishi bo'yicha magistrlik darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu uning nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba borasida ham puxta bilim egasi bo'lib borayotganini ko'rsatdi.

2009–2017 yillar davomida Dilfuza Mengliboyevna Sho'rchi agrosanoat kasb-hunar kollejida Pedagogika va psixologiya fanlaridan saboq berdi. Bu yillarda u nafaqat bilim o'rgatuvchi o'qituvchi, balki yoshlar qalbini tarbiyalaydigan murabbiy sifatida shakllandi.

2018-yilda Dilfuza Mengliboyevna yana maktab muhitiga qaytdi – bu safar Sho'rchi tumanidagi 50-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi.

2019-yildan esa uning faoliyati oliy ta'lim bosqichiga ko'tarildi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida u avvaliga oddiy o'qituvchi sifatida ish boshlagan bo'lsa-da, o'zining bilimdonligi, izlanuvchanligi va tashabbuskorligi bilan tez orada jamoa e'tiborini qozondi. Katta o'qituvchi, kafedra a'zosi, faol ilmiy izlanishlar olib boruvchi pedagog sifatida Dilfuza Mengliboyevna institut hayotining muhim qismiga aylandi.

2022-yildan boshlab u institutning Pedagogika va psixologiya kafedراسi o'qituvchisi lavozimida faoliyat yuritdi, bugungi kunda esa ushbu kafedraning mudirasi sifatida jamoaga rahbarlik qilmoqda. Uning boshqaruvidagi kafedrada ilm-fan va amaliy tajriba uyg'un holda olib boriladi, yosh pedagoglar va talabalarga zamonaviy bilimlar singdiriladi. Bu yillar davomida Dilfuza Mengliboyevna nafaqat ta'lim berib, balki o'zining ilmiy izlanishlarini ham izchil va qat'iyat bilan davom ettirib bordi.

2023-yil ilm-fan yo'lida bardavom intilgan Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna hayotida muhim bosqich bo'ldi. U pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda oila hamkorligi"

mavzusidagi dissertatsiyasi pedagogika sohasidagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan bo'lib, Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengash tomonidan yuqori baholandi.

Ilmiy izlanishlarga bo'lgan yuksak intilish va fidoyilik Boboqulova Dilfuza Mengliboyevnani ilm-fan yo'lida samarali faoliyat olib borishga undadi. Bugungi kunga kelib, u 40 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlarni yaratgan bo'lib, ularning har biri pedagogika sohasi rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Jumladan, u tomonidan tayyorlangan 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo'llanma va 1 ta elektron metodik qo'llanma respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy ishlar qatoridan munosib o'rin olgan.

Shuningdek, Dilfuza Mengliboyevnaning 35 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan bo'lib, shulardan 18 tasi O'zbekiston Respublikasi ilmiy jurnallarida, 17 tasi esa nufuzli xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Bu ilmiy ishlar zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan bo'lib, amaliyotga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Dilfuza Mengliboyevna ilmiy faoliyatini yana bir yuksak bosqichga olib chiqish yo'lida izchil harakat qilmoqda. U 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi” ixtisosligi bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tadqiqot olib bormoqda. Uning yangi izlanishlari “O'quvchilarda oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy tarbiya barqarorligini ta'minlash” masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ta'limda iqtisodiy tarbiya tizimining zamonaviy modelini yaratish sari muhim qadamdir.

Boboqulova Dilfuza Mengliboyevnaning faoliyati – bu pedagogik fidoyilik, ilmiy izlanish va jamiyat oldidagi burchni sidqidildan ado etish namunasi. Uning hayot yo'li va mehnati bugungi yoshlarga, ayniqsa ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarga yorqin ibratdir.



**SOBIROVA MAVJUDA RUZIYEVNA**  
*Oliy matematika kafedrasi mudiri dotsent,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Zamon ilmi va taraqqiyot sur'ati tobora tezlashib borayotgan bugungi kunda har qanday jamiyatning kelajagi, avvalo, uning bilimli, tafakkuri keng va fidokor pedagoglariga bevosita bog'liq. Ta'lim sohasidagi har bir yutuq, har bir muvaffaqiyat ortida ana shunday fidoyi, halol, izlanuvchan va ma'rifatparvar insonlarning zahmatli mehnati yotadi. Ana shunday zahmatkash va halol fidoiylardan biri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Sobirova Mavjuda Ro'ziyevna o'zining butun hayoti va faoliyatini yurt kelajagi – yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim sohasining yuksalishiga bag'ishlab kelayotgan olima sifatida e'tirof etiladi.

Mavjuda Ro'ziyevna 1973-yil Surxondaryo viloyatining Denov tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidan ilm-fanga, ayniqsa, matematikaga nisbatan kuchli mehr va qiziqish unga mustahkam bilim va chuqur tafakkur sari yo'l ochdi. Uning bilim olish sari tashna bolalik yillari Denov shahridagi G'afur G'ulom nomidagi 6-umumta'lim maktabi bilan chambarchas bog'liq. 1980-1990 yillar davomida aynan shu bilim maskanida ta'lim olgan Mavjuda Ro'ziyevna, maktab davridayoq matematik tafakkuri va qiziquvchanligi bilan o'qituvchilar e'tiboriga tushgan.

O'quvchilikka xos sadoqat va izlanish ruhi Mavjuda Ro'ziyevnani katta maqsadlar sari ilhomlantirdi. Natijada 1995-yilda Termiz davlat universitetining fizika-matematika fakultetini muvaffaqiyat bilan tamomladi va shu bilan pedagogik faoliyat sari dadil qadam tashladi.

Mavjuda Ro'ziyevnaning ustozlik yo'lini 1992-yilda Denov tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida matematika fani o'qituvchisi sifatida boshlandi. O'sha paytdan boshlab u o'quvchilarga nafaqat darslikdagi bilimlarni singdirish, balki ularda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va hayotiy vaziyatlarda yechim topish

ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratdi. Mas'uliyatli, bilimdon va mehribon ustoz sifatida u o'quvchilar qalbida chuqur iz qoldira boshladi.

1995–1997 yillar oralig'ida Mavjuda Ro'ziyevna Denov tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida pedagogik faoliyatini davom ettirdi. U har bir darsni nafaqat an'anaviy shaklda, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida, ijodiy va hayotiy misollar orqali tashkil etdi.

1997-yildan 2005-yilgacha Mavjuda Ro'ziyevna yana Denov tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabiga qaytib, bu maskanda o'z ustozlik faoliyatini davom ettirdi. Bu yillar davomida u ko'plab yoshlarni matematik fan olamiga oshno etdi, ularda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, hayotiy vaziyatlarga ilmiy yondashuvni shakllantirishga katta ahamiyat qaratdi.

2005-yilda Mavjuda Ro'ziyevnaning pedagogik faoliyatida yangi bosqich boshlandi. U Termiz davlat universitetining iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i lavozimiga qabul qilindi va bu sohada faoliyat boshladi. Bu mas'uliyatli lavozimda ishlash davomida Mavjuda Ro'ziyevna ko'plab yoshlarning iste'dodini yuzaga chiqarib, ularga ilm-fan olamiga keng yo'l ochib berdi. Aynan uning rahbarligi va maslahatlari tufayli ko'plab talabalar "Navoiy", "Beruniy", xalqaro "Mendeleev" va "Prezident" stipendiyalari sovrindori bo'lishga muvaffaq bo'ldilar.

2007-yil esa Mavjuda Ro'ziyevnaning pedagogik faoliyatida yangi sahifa ochilgan yil bo'ldi. Shu yili u Termiz davlat universitetining "Differensial tenglamalar va geometriya" kafedrasiga o'qituvchilik lavozimiga e'lon qilingan tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etib, universitet jamoasiga qo'shildi. Bu davr mobaynida u nafaqat talabalarga bilim berish, balki iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida ham ulkan ishlarni amalga oshirdi.

2009–2018-yillar davomida Mavjuda Roziyevna Denov xizmat ko'rsatish kollejida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida samarali faoliyat yuritdi. Ushbu davr mobaynida u o'quv jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, metodik

materiallarni yangilash va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim hissa qo'shdi. Uning rahbarligida ko'plab ijobiy natijalarga erishildi, ayniqsa, o'quv-tarbiya ishlarida yuksak samaradorlikka erishildi.

2018-yildan boshlab esa Mavjuda Roziyevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Oliy matematika" kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda. Bu davrda u kafedraning ilmiy-uslubiy salohiyatini mustahkamlash, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish va talabalarning sifatli bilim olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish borasida katta tashabbus va fidoyilik bilan ishlamoqda.

Mavjuda Roziyevna 2003-yilda "Umumiy pedagogika" kafedrasida 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika)" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik faoliyatini boshlagan. Dastlabki izlanishlaridanoq u pedagogik jarayonga yangicha yondashuvlarni olib kirish, zamon talablari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishga bel bog'ladi. O'ziga talabchanligi va ilmga bo'lgan sadoqati uni tinimsiz izlanishga, yangilikka intilish va tajriba almashishga undadi. Uning ushbu ilmiy izlanishlari samarasi sifatida, 2020-yilda Chirchiq davlat pedagogika institutida "7–9-sinflarda geometriya o'qitishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi

Ustoz-olim sifatida o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish, darslarni ijodiy va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish borasidagi sa'y-harakatlari bilan tanilgan Mavjuda Roziyevna 2013-yilda "O'quvchi ijodiy faoliyatini faollashtirish nazariyasi va amaliyoti" nomli monografiyasini nashr ettirdi. Ushbu 500 nusxada chop etilgan ilmiy ish Surxondaryo viloyati kollejar boshqarmasining yig'ilishida keng muhokama qilinib, butun respublika bo'ylab targ'ib etildi va ijobiy baholandi.

Uning o'quvchi ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik izlanishlari davomli bo'lib, 2018-yilda "7–9-sinflarda geometriya o'qitishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari" hamda "... metodikasi" nomli ikki muhim qo'llanmasi

nashrdan chiqdi. Shu bilan birga, 2019-yilda “VII–IX sinflarda geometriya o‘qitishda o‘quvchi o‘quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir masala va savollar to‘plami” nomli yana bir muhim amaliy qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan rasmiy guvohnoma (№001382) oldi.

Bugungi kunga kelib, Mavjuda Ro‘ziyevnaning ilm-fanga qo‘shgan hissasi salmoqli bo‘lib, u 80 dan ortiq ilmiy-amaliy ishlar muallifligiga ega. U o‘zining ko‘p yillik izlanishlari va tajribasi natijasida hammualliflikda 3 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya va 7 ta uslubiy qo‘llanmani yaratgan. Har bir asarida u nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish, fan va ta‘lim o‘rtasida mustahkam ko‘prik barpo etishga intilgan.

Hozirgi kunda Mavjuda Ro‘ziyevna o‘zining ilmiy izlanishlarini “Umumta‘lim maktablarida geometriyani fizika bilan sinxron va asinxron bog‘lab o‘qitishda o‘quvchi kreativ faoliyati komponentlarini rivojlantirish” mavzusidagi doktorlik (DSc) dissertatsiyasi orqali yanada chuqurlashtirmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlari o‘zida fanlararo integratsiyani, innovatsion yondashuvlarni va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilg‘or g‘oyalarni mujassamlashtiradi.

Mavjuda Ro‘ziyevnaning ilm-fan yo‘lidagi xizmatlari faqat maqolalar, monografiyalar orqali emas, balki yosh avlodga ilmiy izlanish olib borish sir-asrorlarini o‘rgatish jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Uning rahbarligida hozirgacha 10 nafar magistr va 8 nafar bakalavr talabasi bitiruv ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Ayni paytda esa bir nechta mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilib, ularni ilm yo‘liga yetaklamoqda.

Hozirda Mavjuda Ro‘ziyevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Oliy matematika” kafedrasida mudirasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Uning chuqur nazariy bilimi, boy pedagogik tajribasi va fidokorlik bilan olib borayotgan ishlari institut jamoasi uchun katta ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Ilmga va ta‘limga bo‘lgan sadoqati uni nafaqat institut miqyosida, balki butun respublika ta‘lim tizimida o‘z o‘rniga ega yetuk mutaxassis sifatida tanitmoqda.



## CHORIEV JO'RAQUL G'AFFOROVICH

*Rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchi kasbining ulug'ligini shunday ta'riflagan edi: "Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, yoshlarimiz va butun xalqimiz kelajagini belgilaydigan o'qituvchi mehnati hech narsa bilan o'lchanmaydi." Bu so'zlar ta'lim sohasining naqadar muhim va mas'uliyatli ekanini yorqin aks ettiradi. Har qanday jamiyatda barkamol avlod tarbiyalash, ularni hayotga tayyorlash va ma'lum bir kasb yo'lida yo'naltirish – bu oson kechmaydigan, chuqur bilim, katta tajriba va cheksiz fidoyilik talab qiladigan ulkan mehnatdir. Ana shunday mehnatning timsoli, pedagogika va rus filologiyasi sohasida o'z izini qoldirgan Jo'raqul G'afforovich Choriev o'zbek ta'lim tizimining yorqin namoyandaligidan biridir.

Jo'raqul G'afforovichning ta'lim-tarbiya sohasiga bo'lgan ishtiyoqi tasodifiy emas. Uning otasi G'affor aka Denov tumanidagi eng mohir pedagoglardan biri bo'lib, o'z kasbiga muhabbat, bag'rikenglik va odamlarga mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlarni farzandlariga meros qoldirgan. G'affor akaning talabalarga mehr bilan yondashuvi, ularni tarbiyalashdagi o'ziga xos uslubi va o'qituvchilikdagi fidoyiligi ko'plab yoshlarni hayotda muvaffaqiyatli yo'l topishga undagan. Mana shu ulug' meros Jo'raqul G'afforovichning qalbida chuqur ildiz otib, uning o'qituvchilik kasbini tanlashida muhim ilhom manbai bo'ldi.

Jo'raqul G'afforovich o'z faoliyatida doimo talabalarga mehr bilan yondashib, ularning har birini alohida shaxs sifatida ko'ra oladi. Uning darslari faqat o'quv dasturidan iborat emas, balki hayotiy hikmatlar, axloqiy qadriyatlar va ijodiy yondashuv bilan boyitilgan. U talabalarni nafaqat rus tili va adabiyotini o'rganishga, balki o'zbek xalqining boy madaniyati, milliy tarixi va global dunyodagi o'z o'rnini anglashga

undaydi. Bu – uning o‘qituvchilikdagi o‘ziga xos uslubi, pedagog sifatidagi muvaffaqiyatining kalitidir.

Ustozlik yo‘lida Jo‘raqul G‘afforovichning har bir qadami o‘zbek ta‘lim tizimiga qo‘shgan ulkan hissasini ko‘rsatadi. Uning faoliyati – bu yosh avlodni tarbiyalash, ularni hayotda muvaffaqiyatli yo‘l topishga tayyorlash va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga xizmat qiluvchi ulkan mehnatdir. Jo‘raqul G‘afforovich – nafaqat o‘qituvchi, balki o‘z xalqining ma‘naviy yuksalishi yo‘lida tinimsiz xizmat qiluvchi haqiqiy ma‘rifatparvar, yoshlar uchun ilhom manbai va kelajak avlod uchun yorqin namuna. Uning hayoti va faoliyati o‘zbek ta‘lim tizimining eng muqaddas qadriyatlarini – bilim, ma‘naviyat va sadoqatni o‘zida mujassam etadi.

1963-yil 19-aprel kuni Surxondaryo viloyatining Denov tumanida tug‘ilgan Jo‘raqul G‘afforovich ta‘lim sohasiga bo‘lgan muhabbatini yoshligidanoq his qildi. Uning otasi, Denovning taniqli pedagoglaridan G‘affor aka, o‘g‘liga o‘qituvchilikning muqaddasligini, yoshlarni tarbiyalashning mas‘uliyatini va bilimning cheksiz qadrini singdirib o‘stirdi. Bu meros Jo‘raqul G‘afforovichning kelajakdagi faoliyatida uning yo‘lini yorituvchi chiroq bo‘lib xizmat qildi.

1980-yilda Rossiya Federatsiyasining Saratov davlat pedagogika institutining rus filologiyasi fakultetiga o‘qishga kirdi. 1985-yilda bu nufuzli dargohni muvaffaqiyatli tamomlab, rus tili va adabiyoti bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ldi. Ushbu yillar uning nafaqat professional tayyorgarligini mustahkamladi, balki o‘qituvchilikdagi o‘ziga xos uslubini shakllantirishga zamin yaratdi.

1985-yilda Jo‘raqul G‘afforovich o‘z faoliyatini Denov tumanidagi 18-umumta‘lim maktabida boshladi. Yosh pedagog sifatida u darslarida nafaqat rus tilini o‘rgatdi, balki o‘quvchilarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va o‘z kasbiga sadoqat ruhida tarbiyalashga intildi.

1990-yilda Jo‘raqul G‘afforovich Denov tumanidagi tibbiyot kollejiga ishga o‘tdi. Bu davr uning faoliyatidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Tibbiyot sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash – oson vazifa emas edi, ammo u bu mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, talabalarni nafaqat professional bilimlar bilan ta‘minladi, balki ularni

insonparvarlik, mas'uliyat va tanlagan kasblariga sadoqat ruhida tarbiyaladi.

2012–2018-yillarda Jo'raqul G'afforovich Denov yengil sanoat kasb-hunar kolleji va Denov akademik litseyida faoliyat yuritdi. Bu muassasalarda u rus tili o'qituvchisi sifatida talabalarni til o'rganishning nozik jihatlariga yaqindan jalb qildi. Rus tilini chuqur o'zlashtirish maqsadida tashkil qilgan tugarak mashg'ulotlari, darsdan tashqari tadbirlar va ijodiy kechalar talabalarda tilga bo'lgan muhabbatni uyg'otdi. U nafaqat o'quv jarayonlarini sifatli olib bordi, balki o'qituvchilar jamoasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda faol ko'maklashdi.

2018-yildan boshlab Jo'raqul G'afforovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faol mehnat qilib kelmoqda. Dastlab rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida ish boshlagan u, talabalarga nafaqat til o'rgatdi, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratdi. Keyinchalik yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i lavozimida ishlagan davrida u talabalarning siyosiy savodxonligini oshirish, ma'naviy yuksalishlariga ko'maklashish maqsadida ko'plab loyihalarni amalga oshirdi.

2020-yilda Jo'raqul G'afforovich rus tili va adabiyoti kafedراسi mudiri etib tayinlandi. Bu lavozim uning faoliyatidagi yangi mas'uliyatli bosqich bo'ldi. U kafedraning ilmiy va o'quv salohiyatini oshirish, o'qituvchilar jamoasini tajribali mutaxassislar bilan boyitish va malakali rus tili o'qituvchilarini tayyorlash yo'lida tinimsiz mehnat qildi. Uning rahbarligida kafedrada tizimli mashg'ulotlar, viktorinalar, savol-javob kechalari va ijodiy tugaraklar tashkil etildi. Bu tadbirlar talabalarda rus tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqishni oshirish bilan birga, o'quv jarayonlarining sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Jo'raqul G'afforovichning qat'iyati va tashabbuskorligi natijasida 2020-yil yakunlariga ko'ra, rus tili va adabiyoti kafedراسi institut kafedralari orasida birinchi o'rinni egalladi.

2022-yildan boshlab Jo'raqul G'afforovich o'z faoliyatini yangi ufqlarga yo'naltirib, xalqaro hamkorlik va ilmiy izlanishlarda muhim

yutuqlarga erishdi. Shu yilda Jo‘raqul G‘afforovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida rus tili o‘qituvchisi sifatida faoliyatini davom ettirar ekan, shu bilan birga institut xalqaro aloqalar bo‘limi bosh mutaxassisi sifatida muhim vazifalarni o‘z zimmasiga oldi. Ushbu lavozimda u institutning dunyoning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishda mislsiz xizmat ko‘rsatdi. Uning tashabbuskorligi va diplomatik mahorati tufayli institut Rossiyaning Oltoy davlat universiteti, Novosibirsk davlat universiteti, Lobachevskiy nomidagi Nijniy Novgorod ilmiy-tadqiqot universiteti kabi dunyo reytingida TOP-1000 talikka kiruvchi oliygohlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatdi. Shu bilan birga, Qozog‘istonning Gumilyov nomidagi milliy tadqiqot universiteti, Abu Nasr Forobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti, M.Avezov nomidagi Qozog‘iston davlat universiteti, shuningdek, Belorussiya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Yaponiya, Koreya, Turkiya, AQSh va Xitoy kabi davlatlarning yetakchi ta‘lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlik shartnomalari tuzildi.

Bu hamkorliklar faqat qog‘ozdagi kelishuvlar bilan cheklanib qolmadi. Jo‘raqul G‘afforovichning rahbarligida xalqaro miqyosda ko‘plab tadbirlar muntazam ravishda tashkil etildi. Xorijiy professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan onlayn mahorat darslari talabalarga global ta‘limning eng ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish imkonini berdi. Telemostlar va uchrashuvlar orqali talabalar dunyoning turli burchaklaridagi tengdoshlari bilan muloqot qilish, bilim va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Jo‘raqul G‘afforovichning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan ishtiyoqi uning faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi bo‘ldi. 2023-yil 22-iyun kuni u pedagogika sohasida olib borgan chuqur tadqiqotlari natijasida ilmiy dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Bu yutuq – uning ko‘p yillik mehnati, ilmiy sadoqati va pedagogika sohasiga qo‘shgan ulkan hissasining muhurlangan tasdig‘i bo‘ldi.

Jo‘raqul G‘afforovich 25 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi sifatida respublika va xalqaro jurnal hamda konferensiyalarda o‘z izini

qoldirdi. Uning “Matn va topshiriqlar negizida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanmasi va “Yoshlarga millatlararo totuvlik haqida” monografiyasi ta’lim sohasidagi mutaxassislar va talabalar uchun muhim manba sifatida e’tirof etildi. Ushbu nashrlar nafaqat rus tili o‘qitishning zamonaviy usullarini ochib beradi, balki yoshlarda millatlararo do‘stlik va totuvlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jo‘raqul G‘afforovich nafaqat ilmiy izlanishlar bilan cheklanib qolmadi, balki o‘z bilim va tajribasini yosh avlodga yetkazishda ham faol ishtirok etdi. U pedagogika, rus tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bakalavrlariga murabbiylik qilib, ularni kasbiy hayotga tayyorladi, magistrantlarga ilmiy rahbarlik qilib, ularning tadqiqot yo‘lida muvaffaqiyatli qadamlar tashlashiga ko‘maklashdi. Uning talabalarga yondashuvi – bu har bir shaxsni alohida e’tiborga olish, ularning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va o‘z yo‘llarini topishlariga yo‘l ko‘rsatishdan iborat edi.

2025-yil 14-martdan boshlab Jo‘raqul G‘afforovich rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritmoqda. Bu lavozimda u o‘zining boy tajribasi va ilmiy salohiyatini kafedraning yanada rivojlanishi, rus tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish va talabalarni global talablarga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash yo‘lida sarflamoqda. Uning yagona maqsadi – rus tilida erkin so‘zlasha oladigan, yozma savodxon va hatto ruscha fikrlay oladigan malakali mutaxassislar yetishtirishdir. Bu maqsad nafaqat uning pedagogik faoliyatining asosi, balki o‘zbek ta’lim tizimini xalqaro maydonda yanada nufuzli qilish yo‘lidagi katta orzusidir.

Jo‘raqul G‘afforovich Choriev – o‘zbek ta’limining xalqaro maydondagi yuzi, kelajak avlod uchun ilhom manbai va ma’rifat yo‘lidagi yorqin chiroqdir.



## MELIKOV OTABEK MAXMADAMINOVICH

*Moliya va bank ishi kafedrasi mudiri,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Ilm – bu jamiyatni zulmatdan nurlikka olib chiqadigan eng qudratli quroldir. U insonni anglash, o'zlikni topish va boshqalarni yoritish imkonini beradi. Tarixda ana shunday ilmga oshufta, ma'rifatni hayot mazmuniga aylantirgan insonlar bor – ular jamiyat taraqqiyotining suyanadigan ustunlaridir. Shunday fidoyilardan biri – Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti “Moliya va Bank ishi” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Otabek Melikovdir.

Otabek Melikovning hayot yo'li – bu oddiygina mehnat emas, balki maqsadga sadoqat, uzluksiz izlanish va yurt taraqqiyotiga xizmatning yorqin namunasi. U 1982-yil 11-iyunda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dunyoga kelgan. 1989-yildan 1998-yilgacha Denov tumanidagi 24-maktabda tahsil olgan, so'ngra bilimga chanqoqligi uni 1998–2000-yillarda Denovdagi 3-sonli ixtisoslashtirilgan maktab–internatga yetakladi. Aynan shu yillarda uning qalbida ilmga sadoqat mash'ali yanada porlay boshladi.

Yoshlikda qalbida yonib turgan ma'rifat charog'i uni 1998-yilda Termiz davlat universitetining moliya yo'nalishiga olib bordi. Bu tanlov uning butun hayotini belgilab berdi.

2004-yilda oliy ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagach, Otabek Melikov Xalq Bankining Surxondaryo viloyatidagi filiallarida o'z faoliyatini boshladi. Bank sohasidagi 15 yillik mehnat yo'li davomida u yetuk mutaxassis, puxta rahbar va mas'uliyatli xodim sifatida shakllandi. Lekin yuragining bir cheti doim ilm-fanga talpingan: u o'zining kelajakdagi chin maqsadini – ma'rifatni xalq xizmatiga qo'yishni istardi.

Shu bois, 2018-yilda Melikov o'z yuragining amri bilan bank sohasidagi yuqori lavozimlarni orqada qoldirib, ilm-fan, ta'lim va tarbiyani o'z hayotining bosh maqsadiga aylantirdi. Termiz davlat universiteti Denov filialida o'qituvchilik faoliyatini boshlagan u, qisqa

vaqt ichida o‘zining bilimdonligi, tashabbuskorligi va pedagogik salohiyati bilan katta hurmat va e‘tiborga sazovor bo‘ldi.

2023-yil yanvarida u “Moliya, pul muomalasi va kredit” yo‘nalishida PhD ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Oradan ko‘p o‘tmay – mart oyidayoq kafedra mudirligi unga ishonib topshirildi. Bu ishonch Melikov uchun yangi mas‘uliyat, ammo ayni paytda yangi yutuqlar poydevori bo‘ldi.


Bugunga kelib, Otabek Melikov – 50 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. U 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy ko‘rsatma va 1 ta monografiya yozgan, 20 dan ortiq maqolalari esa xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, u 25 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan. Ammo uning eng katta yutug‘i – ilmni faqat o‘rganmasdan, uni boshqalarga ham singdirish qobiliyatidadir.

U nafaqat ilm yaratadi, balki uni talabalarga yetkazish, amaliyotga tatbiq etish va zamonaviy yondashuvlar orqali boyitishga intiladi. Uning ta‘biri bilan aytganda: “Ilm bilan shug‘ullanish – inson qalbini yoritishdir”.

Bugungi global ilmiy maydonda faol harakat qilayotgan Melikov 2024-yilda Qozog‘istondagi Sarsen Amanjolov nomidagi Sharq Qozog‘iston universitetida malaka oshirib, xalqaro ilmiy tajriba orttirdi. Hozirda esa u DSc (fan doktori) ilmiy darajasini olish uchun izchil tadqiqotlar olib bormoqda. Bundan tashqari, institutning “Tadbirkorlik va Pedagogika” jurnalida tahririyat a‘zosi sifatida faoliyat yuritib, yangi ilmiy g‘oyalarni targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Otabek Melikov – bu nom nafaqat bir kishining hayotiy yo‘li, balki butun boshli avlod uchun ilhom manbai, harakatga chorlovchi o‘rnakdir. Uning har bir qadami, har bir sa‘y-harakati shuni ko‘rsatadiki, ilm yo‘lida yurgan kishi nafaqat o‘zini, balki jamiyatni yuksaltiradi.

Bugun u zamonaviy iqtisodiy tafakkur egasi, fidoyi ustoz, tadqiqotchi va eng muhimi – ma‘rifat posbonidir. Chunki Melikovning hayoti bir haqiqatni yoritadi: ilm – bu faqat bilim emas, balki kelajakni barpo etuvchi qudratdir.



**NOSIROVA DILNOZA SOBIROVNA**  
*Jismoniy tarbiya va sport kafedrası mudiri,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Zamonaviy jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sport va jismoniy faollik nafaqat salomatlikni mustahkamlabgina qolmay, balki intizom, mas'uliyat va maqsad sari dadil intilish kabi fazilatlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ana shunday muhim sohada o'zining ilmiy tadqiqotlari, pedagogik mahorati va ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslari bilan ajralib turadigan shaxs – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Nosirova Dilnoza Sobirovna bo'lib, u sport va ta'lim olamida o'ziga xos iz qoldirgan yetuk olim va ustoz sifatida e'tirof etiladi.

Nosirova Dilnoza Sobirovna 1985-yilda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida, mehnatkash ishchi oilasida tavallud topdi. Bolaligidan o'ziga xos intiluvchanlik, intizom va bilimga muhabbat kabi qadriyatlar bilan ulg'aygan Dilnoza yoshligidanoq sport va ta'lim olamiga o'zgacha ishtiyoq bilan bog'landi. Uning qalbidagi bu olov uni hayot yo'lida dadil qadamlar tashlashga va o'z salohiyatini kashf etishga undadi. 1990-2001-yillarda Sho'rchi tumanidagi S. Rahimov nomli 36-maktabda tahsil olib, o'tkir zehni, g'ayrati va tengdoshlariga nisbatan o'ziga xos yondashuvi bilan ajralib turdi. Bu yillar uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

2002-yilda Dilnoza Sobirovna Termiz davlat universitetining Jismoniy madaniyat yo'nalishiga qabul qilindi va 2006-yilda bakalavriyat bosqichini a'lo darajada yakunladi. O'qish davrida u nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirdi, balki sport musobaqalarida faol ishtirok etib, o'zining jismoniy va ruhiy salohiyatini namoyon qildi. Ko'plab musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritib, sport ustaligi nomzodi unvoniga sazovor bo'ldi. Bu yutuqlar Dilnoza Sobirovnaning intizomli

va maqsadga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynadi. O'z sohasida yanada yuksak marralarni zabt etish maqsadida 2006–2008-yillarda magistratura bosqichida tahsilini davom ettirdi va magistrlik darajasini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Ushbu ta'lim yillari Dilnoza Sobirovnaning nafaqat professional mutaxassis, balki o'z ishiga fidoyi, jamiyat uchun foydali shaxs sifatida yetishishida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

Dilnoza Sobirovna ilmiy faoliyatida sport va pedagogika sohasini uyg'unlashtirgan innovatsion yondashuvlari bilan katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga, balki yosh avlodning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga sport orqali hissa qo'shishga qaratilgan. U 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi” ixtisosligi bo'yicha “Innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning ma'naviy tafakkurini rivojlantirish (sport o'yinlari misolida)” mavzusida chuqur ilmiy izlanish olib bordi. Ushbu tadqiqot sport o'yinlarining talabalarning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini yuksaltirish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim rolini yoritishga bag'ishlandi. 2023-yilda Dilnoza Nosirova ushbu mavzu asosida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilib, ilmiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu muvaffaqiyat nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki sport va ta'lim integratsiyasini chuqur o'rganishga oid muhim qadam bo'ldi.

Dilnoza Nosirovaning ilmiy merosi keng ko'lamliligi va mazmunli nashrlar bilan boyitilgan. U 1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta monografiya va 50 dan ortiq ilmiy maqola hamda tezislar muallifi sifatida o'z sohasida muhim hissa qo'shdi. Ushbu ishlar respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilib, olimlar hamjamiyatida keng muhokama qilindi va yuqori baholandi. Uning maqolalari sport va ta'limning o'zaro bog'liqligini yangicha talqin qilib, pedagogik jarayonlarda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga zamin yaratdi.

Dilnoza Sobirovna o'zining pedagogik faoliyatida talabalarni sport

orqali hayotning turli jabhalariga tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. Uning darslari faqat jismoniy mashqlar bilan cheklanmaydi, balki talabalarda ma'naviy qadriyatlar, jamoaviy ishlay olish qobiliyati va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi. U ta'lim bergan shogirdlari xalqaro, Osiyo va respublika miqyosidagi sport musobaqalarida yuqori natijalar qayd etib, o'z ustozlarining mehnatini munosib davom ettirdilar. Bu yutuqlar Dilnoza Nosirovaning nafaqat malakali mutaxassis, balki shogirdlariga yo'l ko'rsatuvchi haqiqiy murabbiy ekanligini tasdiqlaydi.

Dilnoza Nosirova nafaqat ta'lim sohasida, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirokchi sifatida katta hurmat qozondi. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ommaviy sport musobaqalari va Navro'z kabi milliy bayramlarni o'tkazishda muhim tashabbuskorlik ko'rsatdi. Ushbu tadbirlar orqali u yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bilan birga, ularning milliy qadriyatlar va ma'naviy boyliklarga hurmatini oshirdi.

Uning tashkilotchilik qobiliyati va jamiyat farovonligiga qo'shgan hissasi turli mukofotlar bilan e'tirof etildi. Surxondaryo viloyati kasaba uyushmalari boshqarmasi tomonidan "Faxriy yorliq", Denov tuman hokimining "Faxriy yorliq" va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining "Faxriy yorliq"lari uning faoliyatidagi muhim yutuqlarni tasdiqlaydi. Bu mukofotlar Dilnoza Nosirovaning nafaqat professional, balki ijtimoiy sohada ham muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.

Nosirova Dilnoza Sobirovna sport, ta'lim va ma'naviyatni uyg'un birlashtirib, jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yasagan noyob shaxsdir. Uning ilmiy izlanishlari zamonaviy ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etsa, pedagogik faoliyati yosh avlodni kelajakka tayyorlaydi. Ijtimoiy tashabbuslari esa hududda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va ma'naviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.



## **YUSUPOV ERKINJON XURRAMOVICH**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi  
kafedra mudiri, Pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ilm-fan – baxt sari yetaklaydigan eng haqqoniy va ravshan yo‘ldir. Har qanday jamiyatning yuksalishi, xalqning taraqqiyoti bevosita ilm-fan qanchalik taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan, ilmga e’tibor qaratish, uni hayotga tatbiq etish har qanday millatning ertangi kunini belgilab beruvchi omillardan biri sanaladi. Ilm – bu aql nuridir. U inson tafakkurini shakllantiradi, borliqni anglashga undaydi, ma’naviy hamda moddiy olamni idrok etish, voqelikni chuqur tahlil qilishga zamin yaratadi. Ana shunday yuksak maqsad va tamoyillarga sodiq holda mehnat qilayotgan, o‘zining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati, halol mehnati bilan ilm-ma’rifat rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan zamonaviy olimlardan biri – Yusupov Erkinjon Xurramovichdir.

Erkinjon Xurramovich 1991-yil 11-oktabrda Surxondaryo viloyati Denov tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. Bolalik chog‘laridanoq tabiat hodisalariga qiziqishi, fizika faniga mehr qo‘yishi uni ilm-fan yo‘liga yetakladi. 2006–2010-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Fizika fakultetida tahsil olib, bakalavr darajasini oldi. O‘qish davomida u iqtidorli talabalar safida bo‘lib, ustozlar e’tiborini qozondi.

Mehnat faoliyatini 2014–2015-yillarda Denov tumanidagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabida fizika fani o‘qituvchisi sifatida boshlagan. Bu bosqich uning ilk pedagogik tajribasini to‘plashiga zamin yaratdi. 2015–2017-yillarda esa Termiz davlat universitetining magistratura bosqichida o‘qish bilan birga, 3-son Denov akademik litseyida fizika fanidan saboq berdi. Shu yillarda u ilmiy izlanishlari va amaliy faoliyatini uyg‘unlashtirgan holda, yoshlarda fizika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qildi.

Ilmiy izlanishlarini davom ettirish maqsadida oliy ta’limning keyingi bosqichiga yo‘l oldi. 2015–2017-yillarda Erkinjon Xurramovich

Termiz davlat universitetining Fizika-matematika fakultetida “Fizika (yo‘nalishlar bo‘yicha)” ixtisosligi bo‘yicha magistratura bosqichini muvaffaqiyatli tamomladi.

2015–2017-yillar mobaynida Erkinjon Xurramovich magistratura bosqichida tahsil olish bilan bir qatorda, Termiz davlat universiteti huzuridagi 3-son Denov akademik litseyida fizika fani o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib borgan. Mazkur davr uning ilmiy izlanishlari va pedagogik amaliyotini uyg‘un holda olib borgan bosqichi bo‘lib, u ushbu ta‘lim muassasasida yoshlarga chuqur nazariy bilimlar berish, ularda ilm-fanga qiziqish uyg‘otish hamda fizika fanining amaliy ahamiyatini singdirish yo‘lida samarali mehnat qilgan.

Shuningdek, Erkinjon Xurramovich 2019–2020-yillarda Termiz davlat universiteti huzuridagi akademik litseyda ham faoliyat yuritib, o‘quvchilarga fizika fanining chuqur nazariy asoslarini yetkazishda o‘ziga xos yondashuvi bilan ajralib turgan. Bu bosqich uning pedagogik tajribasini boyitgan muhim davrlardan biri bo‘ldi.

2020–2022-yillar davomida Erkinjon Xurramovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida stajyor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u oliy ta‘lim muhitiga samarali moslashib, o‘zining nazariy bilimlari va amaliy tajribasini birlashtira oldi.

Ilm-fanga bo‘lgan yuksak qiziqish va izlanish ruhi Erkinjon Xurramovichni o‘z ilmiy faoliyatini izchil rivojlantirish sari undadi. 2021-yilda u Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 13.00.02 – “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)” ixtisosligi bo‘yicha maqsadli tayanch doktorantura bosqichiga o‘qishga qabul qilindi. Ushbu bosqichda u zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, SMART-texnologiyalarni fizika fanini o‘qitishga samarali integratsiya qilish yo‘nalishida chuqur ilmiy izlanishlar olib bordi. Uning izlanishlari nazariy asoslar bilan bir qatorda, amaliy jihatdan ham muhim natijalarni berdi.

Erkinjon Xurramovichning ilmiy faoliyati 2023-yil 17-iyul kuni o‘zining yuksak samaradorligini ko‘rsatdi. U Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzurida faoliyat yurituvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi

kengashda “Fizika o‘qitish metodikasini SMART-texnologiyalar yordamida takomillashtirish (7-sinf fizika misolida)” mavzusidagi ilmiy dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi ega bo‘ldi. Ushbu dissertatsiya nafaqat pedagogik metodika sohasiga innovatsion yondashuvni olib kirdi, balki o‘rta maktab ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishning samarali usullarini asoslab berdi.

2023-yildan boshlab Erkinjon Xurramovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Umumiy fizika va qurilish muhandisligi kafedrasida katta o‘qituvchi, hozirda esa dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. U zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, yosh mutaxassislarni tayyorlashda yangicha yondashuv bilan ajralib turadi.

2024-yildan boshlab u 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) yo‘nalishida doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bormoqda. Dissertatsiya mavzusi – “Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish” – hozirgi ta’lim jarayonida muhim dolzarb masalalardan biri bo‘lib, u ilg‘or metodik yondashuvlarni o‘zida mujassam etgan.

Ilmiy izlanishlari ham salmoqli natijalar bilan boyitilgan. Uning 12 dan ortiq ilmiy maqolasi nufuzli mahalliy va xorijiy jurnallarda, xususan, Scopus bazasida chop etilgan. Bundan tashqari, u bir nechta ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etgan, 1 ta monografiya va 1 ta o‘quv qo‘llanma muallifi sifatida tanilgan.

Erkinjon Xurramovich nafaqat olim, balki fidoyi ustoz sifatida ham e’tiborga loyiq. U yetishtirgan shogirdlar qatorida Prezident stipendiyasi sohibi bo‘lgan iqtidorli yoshlar ham bor. Shuningdek, uning rahbarligida ilmiy izlanish olib borgan talabalar respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov hamda ko‘rgazmalarda muvaffaqiyatli qatnashib, turli darajadagi diplom va sertifikatlariga sazovor bo‘lgan. Bu esa uning ilmiy rahbarlikdagi tajribasi va mas’uliyatli yondashuvining amaliy ifodasidir.



## SHUKUROV DILMUROD XURSANOVICH

*Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi  
boshlig'i, Texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD) Dotsent*

Har bir inson dunyoga ma'lum bir maqsad, ichki bir ilhom bilan keladi. Yillar o'tishi bilan bu ilhom olovga aylanib, odamni izlanish, o'rganish va atrofga foyda keltirish sari yetaklaydi. Ayniqsa, yuragida Vatanga muhabbat, xalqiga xizmat qilish istagi jo'sh urgan insonlar o'zining ilmiy izlanishlari, bunyodkorlik ruhi va yuksak fidoyiligi bilan yurt taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shadi. Ana shunday izlanuvchan, g'ayratli va ilmga oshufta zamonaviy olimlardan biri – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Shukurov Dilmurod Xursanovichdir.

Dilmurod Xursanovich 1990-yil 22-yanvarda Surxondaryo viloyatining go'zal va serquyosh Sariosiyo tumanida tavallud topdi. Yosh Dilmurod Xursanovich o'zining hayot yo'lini ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan inson sifatida shakllangan bo'lib, yoshligidan ilmga, bilim olishga bo'lgan intilishi bilan tengdoshlari orasidan ajralib turgan.

Dastlabki ta'limni 1997-yildan boshlab Denov tumanidagi 87-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim olgan Dilmurod Xursanovich, 2006-yilda ushbu maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan. Maktab davridayoq u tabiiy fanlarga, ayniqsa kimyo faniga bo'lgan qiziqishi bilan ajralib turgan. Shu bois u o'rta maxsus ta'limni davom ettirish maqsadida 2006–2009-yillar davomida Denov maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejida tahsil oldi. Mazkur ta'lim muassasasi unga nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki mustahkam nazariy bilimlarni egallash imkonini berdi.

Dilmurod Xursanovichning oliy ta'limdagi faoliyati 2010-yilda Termiz davlat universitetida boshlandi. U yerda kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olib, 2014-yilda bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli yakunladi. Ilmiy izlanishga bo'lgan chuqur qiziqish uni magistratura bosqichiga yo'naltirdi. 2014–2016-yillar davomida Termiz davlat

universiteti Magistratura bosqichida o‘qib, magistr darajasini qo‘lga kiritdi.

Dilmurod Xursanovich pedagogik faoliyat yo‘lini 2016-2018-yillarda Termiz davlat universitetining kimyo kafedrasida o‘qituvchi sifatida boshlagan. U o‘zining ilk faoliyat bosqichidanoq talabalarga sifatli ta’lim berish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish va kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish borasida jiddiy izlanishlar olib bordi.

Keyinchalik, 2018–2020-yillarda Termiz davlat universitetining “Noorganik va analitik kimyo” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyatini davom ettirib, kimyo fanining noorganik va analitik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur bilimlarni yetkazishda, o‘quv-uslubiy ishlarni takomillashtirishda faol ishtirok etdi.

2020–2023-yillar davomida u Termiz davlat universitetining “Noorganik kimyo” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida samarali faoliyat yuritdi. Ushbu davr mobaynida u faqatgina ta’lim-tarbiya jarayoniga emas, balki ilmiy-tadqiqot ishlariga ham jiddiy e’tibor qaratdi.

Dilmurod Shukurovning o‘ziga nisbatan talabchanligi, ilm-fanga bo‘lgan chuqur qiziqishi va izlanishga intilishi natijasida 2020-yilda Termiz davlat universiteti huzuridagi “Noorganik va analitik kimyo” kafedrasiga 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) bosqichiga o‘qishga qabul qilindi. Ilmiy izlanishlarini izchil davom ettirgan holda, 2022-yilda Dilmurod Shukurov texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. Dilmurod Shukurovning ilmiy tadqiqotlari ikki ixtisoslik – 02.00.13 Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi va 02.00.14 Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi yo‘nalishlarini qamrab olib, o‘zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Ilmiy va pedagogik salohiyatining yuksakligi, shuningdek, soha rivojiga qo‘shgan hissasi tufayli Dilmurod Xursanovich 2023–2024-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasiga dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida ishga taklif etildi.

2024-yilda Dilmurod Xursanovich 02.00.01 – Noorganik kimyo ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi. Bu yutuq uning kimyo sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis, izlanishlarga tayangan ilmiy fikr egasi sifatida tan olinganidan dalolat beradi.

2025-yil yanvar oyidan boshlab Dilmurod Shukurov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti lavozimida samarali faoliyat olib bormoqda. U o‘zining chuqur nazariy bilimlari, ilmiy salohiyati va pedagogik mahorati bilan kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari safidan munosib o‘rin egallab kelmoqda.

Dilmurod Shukurov o‘z ilmiy-amaliy faoliyati davomida ham samarali mehnat qilib kelmoqda. U hammualliflikda 2 ta o‘quv qo‘llanma, 4 ta uslubiy qo‘llanma, 3 ta monografiya, shuningdek 2 ta o‘quv-uslubiy majmua muallifi sifatida o‘z salohiyatini namoyon qilgan. Ushbu nashrlar nafaqat talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda, balki respublika miqyosidagi oliy ta’lim muassasalari uchun ham muhim manba sifatida foydalanilmoqda.

O‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishib kelayotgan dotsent Dilmurod Shukurov nafaqat ta’lim tizimida, balki ilmiy sohada ham faol izlanishlar olib borayotgan fidoyi olimlardan biridir. U bugungi kunga kelib kafedraning ilmiy yo‘nalishlariga mos ravishda dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini muntazam amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2021–2022-yillarga mo‘ljallangan BT-I-101-sonli “Mahalliy xomashyo asosida polivinil-xloriddan (PVX) buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish” mavzusidagi va 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan A-OT-2021-22-sonli “Minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamalari ishlab chiqishning innovatsion texnologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy davlat grantlarida kichik ilmiy xodim lavozimida faoliyat ko‘rsatgan va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Shuningdek, 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan FL-7923051854-sonli fundamental davlat granti – “Tabiiy xomashyolar asosidagi yangi ultra va nanofiltratsiya membranalarini olish” mavzusida esa u loyiha rahbari sifatida ilmiy faoliyat olib borgan.

Bundan tashqari, Dilmurod Shukurov ayni vaqtda bajarilishi 2024–

2028-yillarga mo'ljallangan FL-8323102103-sonli fundamental davlat granti doirasida "Yangi avlod yarimo'tkazgichli tandem quyosh elementlari va ularning samaradorligini cheklovchi elektron-kovak tashish jarayonlari" mavzusidagi loyihada katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Olimning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlar "Quyosh elementlari uchun yarimo'tkazgich noorganik va organik materiallar sintezi va ular asosida olinadigan kuchlanish, tok kuchi qiymatlarini oshirishni klassik va zamonaviy analiz usullari yordamida o'rganish, shuningdek, ba'zi 3d metallari va ftalosianin asosida yarimo'tkazgich bo'yoq pigmentlarini sintez qilishning jahon andozasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish hamda anilin va grafen oksidi asosida yarimo'tkazgich polimer materiallar sintez qilishning maqbul usullari va sharoitlarini aniqlash. Shuningdek, olingan quyosh nurlariga sezgir yarimo'tkazgich materiallar asosida yangi avlod bo'yoq-sezgir quyosh elementlarini olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Bugungi kunda dotsent Dilmurod Shukurov nafaqat pedagog va olim sifatida, balki ilmiy maktab yaratuvchi yetuk mutaxassis sifatida ham e'tirof etilmoqda. U o'zining sermahsul ilmiy faoliyati davomida 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarni O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda nufuzli ilmiy jurnallar hamda anjumanlar materiallarida chop ettirgan. Ayniqsa, so'nggi uch yil ichida uning 15 ta ilmiy maqolasi Scopus va Web of Science xalqaro ilmiy bazalariga indeksatsiyalangan jurnallarda nashr qilinib, jahon ilmiy hamjamiyatida munosib o'rin egallagan.

Uning ilmiy salohiyati raqamli ko'rsatkichlar orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Google Scholar platformasida h-indeksi 5, Scopus bazasida esa h-indeksi 3 ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar Dilmurod Shukurovning ilmiy ishlari keng iqtibos keltirilayotganini, ya'ni uning tadqiqotlari boshqa olimlar tomonidan faol foydalanilayotganini anglatadi.

Ilmiy rahbarlik faoliyati ham professor-o'qituvchining katta tajribasi va bilim darajasidan dalolat beradi. U rahbarligida 3 nafar magistr hamda 12 nafar bakalavr muvaffaqiyatli bitirgan. Hozirgi kunda

esa u 2 nafar mustaqil tadqiqotchiga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda. Shuningdek, uning yetakchiligi ostida 15 nafarga yaqin bakalavr va magistratura talabalari respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan tanlovlar, ko'rgazmalar hamda ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etib, diplom va sertifikatlarga sazovor bo'lgan.

Dilmurod Shukurovning ilmiy va tashkiliy salohiyati turli ilmiy kengashlar faoliyatida ham o'z ifodasini topgan. U Termiz davlat universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi ilmiy seminar a'zosi hisoblanadi. Shuningdek, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashi a'zosi, hamda institut nashr etayotgan "Tadbirkorlik va pedagogika" nomli ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ham faol ishtirok etmoqda.

2024–2025-o'quv yilidan boshlab esa Dilmurod Shukurov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Magistratura bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritmoqda. Bu mas'uliyatli lavozimda u oliy ta'limning magistratura bosqichini sifat jihatdan yangi pog'onaga olib chiqish, yosh mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish yo'lida samarali ish olib bormoqda.

Dilmurod Shukurov fidoyi, vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni jahon talablariga mos yetuk kadrlar qilib tayyorlashda, ularning vatanimizga sodiq va fidoyi farzandlar bo'lib yetishishida doimo o'z kuchi va qudratini, bilimini, qolaversa, huzur-halovatini ayamaydigan, yurtimiz shon-shuhratini, fan va ta'limini yuksaklarga ko'tarishda, xalqimiz baxt-saodati va manfaatlari yo'lida fidokorona mehnat qilish uchun kuch va g'ayratga, bilim va malakaga ega bo'lgan g'ayratli, shijoatli olimdir.



## **JURAYEV BOXODIR TURDALIYEVICH**

*Ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Tarix – bu o‘tmish voqealarining quruq sanasi emas, balki xalqning ruhi, millatning ruhiyati, borlig‘ining ildizi va kelajak sari yo‘naltiruvchi aql va tafakkur chirog‘idir. Bu chiroqni doim yondirib turish, uni zamonaviy fikr va ilmiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib yosh avlod qalbiga olib kirish esa – haqiqiy ma’rifat fidoyilarining burchidir. Ana shunday ilm-ma’rifat va vatanparvarlik yo‘lida sobitqadam bo‘lib xizmat qilayotgan fidoyi ustozlardan biri – Jurayev Boxodir Turdaliyevichdir.

Jurayev Boxodir Turdaliyevich 1987-yil 10-dekabr kuni Surxondaryo viloyatining go‘zal va qadimiy tarixga ega bo‘lgan Denov tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. O‘zining ilk tarbiyaviy saboqlarini ota-onasidan olgan Boxodir Jurayev o‘zining ilk ta’lim saboqlarini 1994-yilda Denov tumanidagi 2-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internatida boshladi. Bu muassasa uning hayotida shunchaki bilim beruvchi maskan emas, balki orzu va maqsadlarni shakllantiruvchi, tafakkurini charxlovchi chinakam ma’naviyat dargohiga aylandi. Maktab davridayoq uning qalbida tarix faniga bo‘lgan cheksiz qiziqish uyg‘ondi. U darsliklar bilan cheklanib qolmay, har doim qo‘shimcha manbalarni izlab o‘qishga, qadimiy sivilizatsiyalar, buyuk tarixiy shaxslar, jahon siyosiy jarayonlari haqida chuqur bilim orttirishga intilar edi. Uning bilimga bo‘lgan chanqoqligi va izlanuvchanligi ustozlari va sinfdoshlarining e’tiborini tez orada qozondi. Tarixiy mavzulardagi suhbatlarda faolligi, mustaqil fikrlashi va izlanishlari yoshligidanoq uning kelajakdagi olimlik yo‘liga poydevor bo‘ldi.

2005-yilda maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, Boxodir Jurayev o‘z oldiga yangi marralarni ko‘zlab, ilm yo‘lida yana bir muhim qadamni tashladi. 2008-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining “Jahon siyosati va tarix” fakultetiga qabul qilindi. Ushbu dargohdagi ta’lim

yillari uning fikrlash doirasini yanada kengaytirdi, tarixiy tafakkurini chuqurlashtirdi. U “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida tahsil olib, 2012-yilda bakalavr darajasini muvaffaqiyatli yakunladi.

Biroq, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq va ilmiy izlanishlarga qiziqish Boxodir Jurayevni tinch qo‘ymadi. U tarix fani bo‘yicha chuqur bilim olish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida 2012-yilda yana Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga qaytib, magistratura bosqichiga o‘qishga kiradi va 2014-yilda ushbu bosqichni ham muvaffaqiyat bilan yakunlaydi.

Magistrlik bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan Boxodir Jurayev mehnat faoliyatini yosh avlodni tarbiyalash va ularga tarixiy tafakkurni singdirish yo‘lida boshladi. U 2012–2014-yillar davomida Toshkent shahri S.Rahimov tumanidagi 119-sonli umumta’lim maktabida tarix fani o‘qituvchisi sifatida pedagogik mehnat faoliyatni boshladi. Aynan shu yillarda Boxodir Jurayev tarix fanini o‘quvchilarga nafaqat darslik asosida, balki zamonaviy yondashuvlar va tarbiyaviy qadriyatlar bilan uyg‘un holda o‘qitishga e’tibor qaratdi. Yosh mutaxassis sifatida o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, mustaqil fikrlash va milliy g‘ururni shakllantirish yo‘lida izchil mehnat qildi.

O‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish, ilmiy-amaliy faoliyatini oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish maqsadida, Boxodir Jurayev 2014-yilda Termiz davlat universitetida o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi. U mazkur dargohda “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. 2016-yilda ushbu kafedra “Fuqarolik jamiyati” nomi bilan qayta tashkil etilgach, Boxodir Jurayev o‘zining ilmiy izlanishlari va amaliy tajribasini yanada chuqurlashtirdi. Oliy ta’lim tizimidagi faoliyati davomida Boxodir Jurayev zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali yosh avlodga chuqur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar berishga intildi. U nafaqat tarix fanining murakkab mavzularini o‘quvchilarga tushunarli va ta’sirchan tarzda yetkazdi, balki yoshlarni mustaqil fikrlash, tarixiy tafakkur va ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish sari yetaklashga ham alohida e’tibor qaratdi.

2018–2020-yillar davomida Boxodir Jurayev o‘z mehnat faoliyatida yanada mas’uliyatli bosqichga qadam qo‘ydi. U shu yillar davomida Termiz davlat universiteti Denov filialida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i lavozimini egallab, ta’lim jarayonlarining sifatini oshirish, zamonaviy baholash tizimlarini joriy etish va o‘quv jarayonlarini xalqaro standartlarga mos holda takomillashtirish yo‘lida samarali faoliyat olib bordi. Ushbu davrda u ta’lim sifati monitoringi, baholash mezonlari va o‘quv dasturlarining amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

2022–2024-yillar oralig‘ida esa Boxodir Jurayev Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Tarix va falsafa” kafedrasida ichki o‘rindoshlik asosida katta o‘qituvchi lavozimida mehnat qildi. Ushbu davr mobaynida Boxodir Jurayev kafedra faoliyatining rivojlanishiga, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga munosib hissa qo‘shdi. U o‘zining yuqori malakasi, fidokorona mehnati va mas’uliyatli yondashuvi bilan talabalar va hamkasblar hurmatini qozona oldi. O‘zining ochiqligi, bilimga bo‘lgan mehr-muhabbati va tajribasi orqali u ko‘plab yoshlarni tarix faniga mehr qo‘yishga va ilm-fan yo‘lida izlanishga undadi.

Shuningdek, Boxodir Jurayev 2020-yildan hozirgi vaqtgacha Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i lavozimida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. U mazkur bo‘limga rahbarlik qilgan yillar mobaynida ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, ilmiy-pedagog kadrlar salohiyatini oshirish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Uning tashabbusi bilan bir qator istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy guruhlar shakllantirildi, yosh tadqiqotchilar va doktorantlarning ilmiy izlanishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, u institutda ilmiy muhitni rivojlantirish, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash borasida ham o‘zining bilim va tajribasini namoyon etdi.

Boxodir Jurayev o‘zbek tarixshunosligining yetakchi izlanuvchilaridan biri sifatida o‘zining ilmiy faoliyatini O‘zbekiston

tarixining dolzarb va muhim masalalarini o‘rganishga bag‘ishladi. 2018–2019-yillardan boshlab u o‘z tadqiqotlarini Buxoro xonligining tarixshunoslik an‘analarini chuqur va har tomonlama tahlil qilishga yo‘naltirdi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlari oraqali Boxodir Jurayev nafaqat o‘zbek xalqining o‘tmishini yoritish, balki milliy tarixshunoslikni global ilmiy muhitda yanada mustahkamlash maqsadini ko‘zlardi. U 07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi” ixtisosligi bo‘yicha “XVI–XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligining tarixshunosligi” mavzusida dissertatsiya ishini tayyorlashga kirishdi. Ushbu tadqiqot o‘z davrining eng muhim ilmiy ishlaridan biri sifatida e‘tirof etildi, chunki u Buxoro xonligi tarixini nafaqat siyosiy va ijtimoiy jarayonlar nuqtai nazaridan, balki tarixshunoslik an‘analari va yozma manbalarning shakllanishi nuqtai nazaridan ham o‘rgandi.

Uzoq yillik mehnat va fidoyilik natijasida Boxodir Turdaliyevich Jurayev 2022-yil 19-noyabr kuni Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 raqamli Ilmiy kengashda o‘z dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ushbu nufuzli ilmiy kengash tomonidan uning ilmiy ishi yuqori baholandi va unga tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi berildi. Bu yutuq nafaqat Boxodir Jurayevning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari samarasi, balki O‘zbekiston tarixshunosligiga qo‘shgan muhim hissasi sifatida ham e‘tirof etildi.

Boxodir Jurayevning ilmiy merosi o‘zining keng ko‘lami va sifati bilan e‘tiborga molikdir. U 30 dan ortiq ilmiy va uslubiy ishlar muallifi sifatida o‘z izini qoldirdi. Boxodir Jurayevning qalamiga mansub asarlar orasida hammualliflikda nashr etilgan 1 ta o‘quv qo‘llanma, yakkamualliflikda 1 ta monografiya, shuningdek, 4 ta metodik qo‘llanma mavjud. Bundan tashqari, 40 ga yaqin maqola va tezislari uning faoliyatidagi muhim yutuqlardan biridir. Bu maqolalarning 15 tasi O‘zbekistonning nufuzli ilmiy jurnallarida, 7 tasi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan bo‘lsa, 10 tasi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, 8 tasi esa xalqaro ilmiy konferensiyalarda e‘lon qilingan. Boxodir Jurayevning bu keng qamrovli ilmiy ishlari nafaqat uning chuqur bilimlari va fidoyiligini, balki O‘zbekiston va xalqaro ilmiy

hamjamiyat uchun qimmatli hissa qo‘shganligini yorqin namoyon etadi.

Hozirgi kunda Baxodir Jurayev Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i sifatida o‘zining chuqur bilimlari, boy tajribasi va zamonaviy rahbarlik yondashuvi bilan institut ilmiy hayotida muhim o‘rin egallab kelmoqda. U rahbarlik qilayotgan bo‘lim bugungi kunda nafaqat ilmiy izlanishlarni tashkil etish, balki ularni strategik asosda yo‘naltirish, zamonaviy innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq etish, ilmiy-pedagog kadrlar salohiyatini oshirish borasida ham salmoqli natijalarga erishmoqda.

Ayniqsa, Baxodir Jurayevning 2022-yildan boshlab institutda 18 ta ixtisoslik bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim yo‘nalishlarini ochish tashabbusi – institut tarixida yangi sahifa ochgan, ilmiy salohiyatni yuksaltirishga qaratilgan strategik va uzoqni ko‘zlagan qaror bo‘ldi. Mazkur tashabbus orqali institut nafaqat mintaqada, balki respublika miqyosida ham ilmiy kadrlar tayyorlashning yetakchi markazlaridan biriga aylanish sari dadil qadam tashladi. Ushbu yo‘nalishlarning ochilishi – institut tarixida yangi davrni boshlab berdi, endilikda mintaqadagi yosh olimlar va ilmiy izlanuvchilarga o‘z yurtidan chiqmasdan, yuqori ilmiy darajaga ega bo‘lish imkoniyatini yaratdi. Bu esa ilm-fan rivojiga, ilmiy maktablar shakllanishiga, hududiy muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlarning ko‘payishiga keng zamin yaratdi. Bunday tarixiy tashabbus institutning ilmiy salohiyatini keskin oshirdi va uning obro‘yini respublika miqyosida yanada mustahkamladi.

Natijada, bugungi kunga kelib institutda 67 nafar tayanch doktorant va 150 nafar mustaqil izlanuvchi turli yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bu ko‘rsatkich – institutda ilmiy izlanishlar tizimli yo‘lga qo‘yilganidan, ilm-fan sohasi bosqichma-bosqich, izchil va barqaror rivojlanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi. Ayniqsa, yosh izlanuvchilar sonining yil sayin ortib borayotgani, ilmiy ishlarning mazmunan chuqurlashayotgani va amaliyot bilan uzviy bog‘lanayotgani – institutda shakllanayotgan sog‘lom ilmiy muhit va kuchli ilmiy maktablar negizini anglatadi. Bu esa, shubhasiz, nafaqat institut nufuzi,

balki mintaqaning ilmiy salohiyatini oshirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Institutda ilmiy va pedagogik muhitni jonlantirish, zamonaviy ilmiy g‘oyalar almashinuvi uchun qulay axborot maydonini yaratish maqsadida, 2021-yilda Baxodir Jurayev tashabbusi bilan “Tadbirkorlik va pedagogika” nomli ilmiy-uslubiy jurnal tashkil etildi. Mazkur jurnal qisqa vaqt ichida nafaqat institut doirasida, balki respublika ilmiy jamoatchiligi orasida ham o‘ziga xos mavqe va obro‘ qozona oldi. Jurnal sahifalarida nafaqat pedagogika, balki tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid dolzarb mavzulardagi ilmiy maqolalar chop etilib, u o‘zbek ilm-fan makonida muhim nashrlar qatoridan munosib o‘rin egalladi.

Baxodir Jurayevning izchil tadqiqotlari va ilmiy yondashuvlari bugungi kunda ham e‘tiborga molik natijalar bilan boyimoqda. 2023-yilda nashr etilgan “Buxoro xonligining XVI–XVIII asr o‘rtalaridagi tarixshunosligi” nomli monografiyasi tarixshunoslik sohasiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Mazkur asar o‘zining chuqur manbaviy tahlillari, tanqidiy yondashuvi va ilmiy dalillarga asoslangan tahlillari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda u o‘zbek tarixshunosligi rivojida muhim ilmiy manba sifatida keng e‘tirof etilmoqda.

Jurayev Baxodir Turdaliyevichning hayot yo‘li va ilmiy faoliyati O‘zbekiston tarixshunosligining taraqqiyotiga, yosh avlodni vatanparvarlik va ilmga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ustoz sifatida u nafaqat o‘quvchilarga bilim beribgina qolmay, balki o‘zining fidoyiligi, izlanuvchanligi va mas‘uliyatli rahbarlik faoliyati bilan ilm-fan va ta‘lim sohasida ibratli namuna bo‘lib kelmoqda. Uning yutuqlari kelajak tarixchilari uchun mustahkam poydevor, o‘zbek ilm-fanining taraqqiyoti uchun esa barqaror tayanchdir.



**BERDIYEV ANVAR  
ABDURAXMANOVICH**

*Institut kengash kotibi Moliya va bank ishi  
kafedrası dotsenti, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

Mamlakatimizda fan va ta'lim sohalarini izchil rivojlantirish, zamonaviy bilimlarga ega, vatanparvar va tashabbuskor yosh olimlarni yetishtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, milliy taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, ilm-fan asosidagi yondashuv aynan ana shunday bilimli, fidoyi insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ana shunday bilimli, mas'uliyatli, shijoatli va o'z sohasining yetuk mutaxassislaridan biri — iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Moliya va bank ishi" kafedrası v.b. dotsenti Berdiyev Anvar Abduraxmanovich hisoblanadi.

Berdiev Anvar Abduraxmanovich 1988-yil 8-avgust kuni Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida dunyoga keldi. U ilk ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini oila bag'rida olgan bo'lsa, ta'limdagi dastlabki qadamlari 1995–2004-yillar oralig'ida Oltinsoy tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlangan. Maktab davridayoq bilim olishga bo'lgan intilishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va iqtisodiy tushunchalarga qiziqishi uni aniq maqsad sari yetakladi.

Anvar Berdiyev ta'lim yo'lida keyingi bosqichni 2004–2007-yillarda Denov Xazarbog' ijtimoiy-iqtisodiyot kasb-hunar kollejida davom ettirib, iqtisodiyot va moliyaviy sohalar bo'yicha ilk amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldi. Undagi chuqur izlanish ruhi va intellektual salohiyat bu sohadagi bilimlarini yanada kengaytirishga undadi.

Shu boisdan, 2007-yil Termiz davlat universitetining "Moliya" ta'lim yo'nalishida bakalavriat bosqichiga kirdi va 2011-yilda uni muvaffaqiyatli tamomlab, iqtisodiy nazariya va amaliyotga oid puxta bilimlarni o'zlashtirdi.

Mamlakat moliya tizimidagi dolzarb masalalarni chuqur tahlil qilishga bo'lgan qiziqishi uni 2011–2013-yillar davomida Toshkent

moliya institutining magistratura bosqichida tahsil olishga undadi. Ushbu davr mobaynida u zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar, byudjet va moliyaviy menejment, bank tizimi faoliyati kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilim va malakaga ega bo‘ldi.

Anvar Berdiyev o‘zining pedagogik faoliyatini 2013-yilda Oltinsoy tumanidagi Axborot texnologiyalari va servis xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejida o‘qituvchi sifatida boshlagan. 2013–2018-yillar davomida mazkur dargohda faoliyat olib borar ekan, u ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etib, o‘quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarni ham samarali singdirishga alohida e‘tibor qaratdi.

Keyingi faoliyat davrida Anvar Berdiyev 2018–2020-yillar davomida Termiz davlat universiteti Denov filialida Kengash kotibi lavozimida faoliyat yuritib, oliy ta‘lim tizimidagi tashkiliy-ma‘muriy ishlarni samarali tashkil qilishda o‘zining mas‘uliyati, tashabbuskorligi va ijobiy ish uslublari bilan ajralib turgan. Mazkur davr mobaynida Anvar Abduraxmanovich oliy ta‘lim muassasasining ichki hujjatlari, muhim yig‘ilish va qarorlarning huquqiy asosda yuritilishi, fakultetlararo muvofiqlik kabi masalalarda faol ishtirok etgan.

Fanga bo‘lgan qiziqish va ilmiy izlanishga intilish uni 2021-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga olib kirdi. Ilmiy izlanishlar jarayonida xizmat ko‘rsatish sohalarining iqtisodiy samaradorligi, ularni boshqarishning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur ilmiy ish olib bordi. Natijada, 2025-yil mart oyida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2024-yil yanvar oyidan e‘tiboran Anvar Berdiyev Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Moliya va bank ishi” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat boshlagan bo‘lib, qisqa fursat ichida o‘zining yuqori salohiyati, ta‘limga bo‘lgan mas‘uliyatli munosabati va metodik yondashuvlari bilan ajralib turdi. 2025-yil mart oyidan boshlab esa ushbu institutda v.b. dotsent lavozimida ishlashni

davom ettirmoqda.

Berdiyev Anvar Abduraxmanovich o'zining ilmiy izlanishlari va ta'lim sohasidagi fidokorona mehnati bilan nafaqat pedagogik, balki ilmiy doiralarda ham e'tirofga sazovor bo'lgan mutaxassislardan biridir. Hozirgi vaqtda u tomonidan 55 ga yaqin ilmiy ishlar – ilmiy maqola va tezislar xorijiy hamda Respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy jurnallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va anjumanlarda chop etilgan. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, moliyaviy boshqaruv va strategik rejalashtirish kabi dolzarb mavzularni qamrab olgan bo'lib, ilmiy hamjamiyatda ijobiy baho topgan.

Anvar Berdiyevning ilmiy rahbarlik faoliyati ham e'tiborga loyiq. Bugungi kunga qadar uning bevosita ilmiy rahbarligida 2 nafar bakalavr bitiruvchilar ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bundan tashqari, uning yetakchiligida 4 nafarga yaqin bakalavriat bosqichi talabalari Respublika va xalqaro darajadagi tanlov hamda ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlarga sazovor bo'lgan. Bu esa uning nafaqat mustaqil tadqiqotchi, balki yosh olimlarni yetishtirayotgan tajribali mentor ekanligidan dalolat beradi.

Anvar Berdiyev nafaqat ilmiy-pedagogik, balki tashkilotchilik faoliyatida ham faol ishtirok etmoqda. U hozirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashi a'zosi sifatida institutdagi ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish va rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, institut huzurida nashr etiladigan "Tadbirkorlik va pedagogika" ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ham faoliyat yuritib, mazkur nashrning ilmiy saviyasini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Berdiyev Anvar Abduraxmanovich – bu o'z kasbiga sodiq, ilm-fanga ixlos bilan yondashadigan, yosh avlod tarbiyasi va iqtisodiy sohaga yetuk kadrlar tayyorlashda munosib hissa qo'shayotgan pedagog va olimdir.



**SAITOV SUXROB  
DJUMAYDILLAYEVICH**

*Registrator Ofisi, Xizmat ko'rsatish bo'limi  
boshlig'i, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)*

Ilm-fan taraqqiyoti har bir jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu yo'lda fidokorona mehnat qilayotgan olimlar orasida Suxrob Djumaydillayevich Saitovning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.

Suxrob Djumaydillayevich Saitov 1989-yil 18-martda Surxondaryo viloyati, Denov tumanida tug'ilgan. 2007-yili 36-umumiy o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan. 2007–2011-yillarda Samarqand davlat chet tillari institutining ingliz filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 2012–2013-yillarda Samarqand tuman agro-sanoat kasb-hunar kollejida ingliz tili o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan. 2020–2022-yillarda Samarqand davlat chet tillari institutida magistratura bosqichini tamomlagan. 2020–2021-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi, 2021–2022-yillarda esa ushbu institutning Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishlagan. 2022–2025-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi dekani lavozimida faoliyat yuritgan. 2025-yildan boshlab Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Registrator Ofisi, Xizmat ko'rsatish bo'limi (Front Office) bo'lim boshlig'i lavozimida ishlab kelmoqda.

Saitov Suxrob Djumaydillayevich o'zining ilmiy faoliyati davomida bir qator xalqaro tajriba almashuvlarida ishtirok etgan.

2022–2023-yillarda Turkiyaning Izmir shahrida bo'lib o'tgan "Industriyada texnologik tizimlar va muhandislik ta'limi: tendensiyalar va istiqbollari" mavzusidagi Turkiya–O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari forumida qatnashib, Turkiyaning yettita nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

2023–2024-yillarda Hindistonning ITEC dasturi doirasida "Entrepreneurship For Small Business – Trainers and Promoters" (NIESBUD) malaka oshirish institutida malaka oshirgan.

2024–2025-yillarda esa Indoneziyaning PENDIDIKAN (Ta’lim) universitetida “International Academic Partnership Training and Practices” yo‘nalishida malaka oshirgan.

2025-yil 27-mart kuni Buxoro davlat universitetida “O. Genri ijodi va o‘zbek hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shu kungacha u tomonidan bir monografiya va 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari xorijiy hamda respublika ilmiy jurnallari va anjumanlarida chop etilgan. Ilmiy faoliyatida asosan adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlariga e’tibor qaratadi. Uning “Artistic Perception of Reality in Stories Detail and Illustration” (2024) va “The Development of Events in Stories and the Paradox of the Solution” (2024) kabi ilmiy maqolalari xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Saitov Suxrob Djumaydillayevich 2022-yilda “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. U o‘zining o‘tkir tafakkuri, chuqur bilimga chanqoqligi va fidokorona mehnati bilan nafaqat yetuk mutaxassis, balki yoshlarga ilhom baxsh etuvchi ustoz sifatida tanilgan. O‘zbek adabiyotiga ham, jahon adabiyotiga ham birdek mehr qo‘ygan. U insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘zbek va jahon hikoyachiligi orqali tahlil qilib, adabiy tafakkurga yangi nigoh olib kirgan tadqiqotchidir. U bilimni nafaqat egallagan, balki uni qalbi bilan his qilgan, har bir so‘z ortidan ma’no izlarkan, har bir ma’no ortidan insoniyat taqdirini ko‘ra oladigan samimiy, halol inson. Har bir so‘zida hayot bor, har bir nigohida mas’uliyat. Ilm bilan insoniylikni birlashtira olgan, o‘z yo‘lini topgan va bu yo‘ldan boshqalarni ham yurgizishga harakat qilayotgan chin ma’nodagi ziyoli.

Suxrob Djumaydillayevich Saitov yurtimizga fidokorona xizmat qilayotgan, zamonaviy ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga o‘zining ulkan hissasini qo‘shayotgan olimdir.



## **RAJABOV O'TKIR DO'SNAYEVICH**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*

Ilm-fan – bu insoniyat tafakkurining yuksak cho‘qqisidir. Bu cho‘qqiga yetishish sabr, mehnat va fidoyilikni talab qiladi. Har bir kashfiyot, har bir ilmiy yondashuv ortida yillar davomida tinimsiz izlanishlar, sinovlar va mashaqqatlar yotadi. Ana shunday murakkab va sharaflı yo‘lda bor kuch-g‘ayrati bilan Vatan ravnaqi uchun xizmat qilayotgan ziyolilarimiz orasida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Rajabov O‘tkir Do‘snayevich alohida o‘rin egallaydi.

O‘tkir Do‘snayevich 1968-yil 7-may kuni Surxondaryo viloyatining go‘zal va qadimiy maskanlaridan biri – Boysun tumanida tug‘ilgan. Tog‘lar bag‘rida ulg‘aygan yosh O‘tkir Do‘snayevichda mehnatga muhabbat, hayotga hushyor nigoh, halollik va sadoqat kabi fazilatlar bolaligidan shakllana boshlagan.

Hayot yo‘lining ilk sahifalari mehnat bilan boshlandi. 1985–1986-yillarda O‘tkir Do‘snayevich Sherobod tumanidagi “Oktyabr-60 yilligi” sovxozida oddiy ishchi sifatida faoliyat yuritdi. 1986-1988-yillarda esa O‘tkir Do‘snayevich muqaddas burch – harbiy xizmatni ado etib, Vatanga bo‘lgan fidoyiligini amalda isbotladi. Shu yillar davomida u intizom, matonat va vatanparvarlikni qalbiga muhrladi.

Keyinchalik Toshkentga yo‘l olgan O‘tkir Do‘snayevich hayot yo‘lini ilm-fan sari burdi. 1990–1995-yillar oralig‘ida Toshkent Davlat universitetida sotsiologiya yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olib, o‘z sohasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘zlashtirdi.

Ilm sari boshlangan safar hech qachon to‘xtamagan yo‘l bo‘lib, O‘tkir Do‘snayevich uchun bu yo‘l doimiy o‘sish, izlanish va yangilanish manbayi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy mehnat faoliyati esa 1995-yilda, Sherobod tumanidagi 28-sonli umumta‘lim maktabida o‘qituvchilikdan boshlandi. Bu maskan O‘tkir Do‘snayevich uchun nafaqat dastlabki pedagogik tajriba maktabi, balki kelajakdagi

ustozlik va olimlik yo‘lining poydevori bo‘ldi.

2001-yildan boshlab esa O‘tkir Do‘snayevich ta’lim va ilm-fanning yuksak pog‘onalariga yo‘l oldi. Termiz davlat universiteti qoshidagi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ish boshlagan olim, bu davrdan e’tiboran nafaqat pedagogik, balki ilmiy faoliyatni ham chuqurlashtirdi. Ilmiy salohiyat va intellektual izlanishlarga bo‘lgan qiziqish uni 2003-yilda ushbu universitetining “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasiga olib keldi. U yerda ham o‘zini faqatgina o‘qituvchi emas, balki yangilikka intilgan, sohani chuqur anglagan tadqiqotchi sifatida namoyon eta oldi.

2004–2012-yillar mobaynida O‘tkir Do‘snayevich “Ijtimoiy-iqtisodiy ta’lim” kafedrasida faoliyat yuritar ekan, zamonaviy iqtisodiy bilimlarni yoshlarga yetkazish, sohaga oid nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratdi. Aynan shu yillarda u talabalarning sevimli ustoziga, ilmga chanqoq yoshlarga ilhom bag‘ishlovchi rahnamoga aylandi. 2012–2014-yillarda mazkur kafedraga mudir vazifasini bajaruvchi etib tayinlangach, u rahbarlik mas’uliyatini ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirib, jamoada samarali ilmiy muhit shakllanishiga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda u Termiz davlat universitetining Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchi (2015–2016), so‘ngra esa kafedra mudiri vazifasida (2016–2018) faoliyat olib borib, soha rivoji uchun muhim tashabbus va g‘oyalarni ilgari surdi. 2018–2024-yillarda esa Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasiga mudirlik qilib, iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridagi dolzarb muammolar, xususan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib bordi.

Bugungi kunda esa u Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Raqamli iqtisodiyot kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat olib bormoqda. Bu yangi bosqichda u zamonaviy texnologiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlarini iqtisodiy ta’limga tatbiq etish borasida yangi tashabbuslarni ilgari surmoqda.

O‘tkir Do‘snayevichning ilm-fanga bo‘lgan sadoqati nafaqat dars jarayonlarida, balki mustaqil tadqiqot ishlarida ham yorqin namoyon

bo'ldi. Termiz davlat universitetida faoliyat yuritgan ekan, O'tkir Do'snayevich doimiy ilmiy izlanishlarga sho'ng'ib, iqtisodiy jarayonlarning chuqur mohiyatini o'rganishga intildi. Aynan shu izlanishlar natijasida u 08.00.01 – “Iqtisodiyot nazariyasi” ixtisosligi bo'yicha “Ijtimoiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” mavzusida ilmiy dissertatsiya yozib, 2008-yilda iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi.

O'tkir Do'snayevich bu bilan to'xtab qolmadi – ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirdi, yangi iqtisodiy sharoitlarni tahlil qilish, tarmoq darajasida innovatsion yondashuvlar ishlab chiqishga kirishdi. 2020-yilda esa O'tkir Do'snayevich doktorlik dissertatsiyasi ustida ish boshladi. Mavzu esa yurtimiz taraqqiyotiga hamohang, o'ta muhim yo'nalishga qaratilgan edi: “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tibbiy xizmatlar bozorini takomillashtirish yo'nalishlari”. Uch yil davom etgan chuqur tahlil, statistik asoslangan yondashuvlar va kompleks ilmiy qarashlar natijasida 2023-yilda O'tkir Do'snayevich 08.00.05 – “Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini oldi. Bu yutuq nafaqat shaxsiy mehnat samarasi, balki butun ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan muhim ilmiy natija bo'ldi.

Mehnatsevarlik va izlanuvchanlik bilan yo'g'rilgan pedagogik faoliyatining samarasi o'laroq, O'tkir Do'snayevich hozirgacha 1 nafar iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorini (PhD) va 30 dan ortiq magistrnlarni tayyorladi. Bu ulkan yutuqlarini e'tirof etgan holda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan u 2021-yilda faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Olimning ilmiy merosi ham nihoyatda boy va salmoqlidir. O'tkir Do'snayevich 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan 5 ta monografiya, 1 ta darslik va 1 ta o'quv qo'llanma muallifi sifatida iqtisodiy adabiyotlar fondini boyitishga xizmat qilgan. Shuningdek, u tomonidan yozilgan 30 ga yaqin ilmiy maqolalar nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan, 10 dan ortiq xalqaro konferensiyalarda esa ma'ruzalar bilan qatnashgan.

Uning ilmiy izlanishlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan bo'lib, SCOPUS bazasida indekslangan jurnallarda 2021-yilda "O'zbekistonda tibbiy xizmatlar bozori" hamda 2022-yilda "Inson kapitalini rivojlantirish – iqtisodiy barqarorlik omili sifatida" nomli maqolalari chop etilgan. Bu esa uning ilmiy fikrlari va tadqiqotlari xalqaro akademik doirada ham qiziqish uyg'otayotganidan dalolat beradi.

Davlatimiz tomonidan ustozning ilm-fan yo'lidagi xizmatlari alohida e'tirof etilib, 2021-yilda O'tkir Do'snayevich "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bugungi kunda esa O'tkir Do'snayevich ko'plab bakalavr va magistratura bosqichidagi talabalarning ustoziga aylangan, ilmiy izlanish olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilar va tayanch doktorantlar uchun ishonchli ilmiy rahbar sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning har biriga kerakli yo'l-yo'riq, ilmiy maslahat va ma'naviy ko'mak berib, kelajak avlod olimlarini tarbiyalashda davom etmoqda.



## **SUYUNOV BAXODIR TURDIYEVICH**

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Suyunov Baxodir Turdiyevich 1966-yil 11-fevralda Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. 1992-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetini tugallagan. 1987-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti (oldingi ToshDU)ning O‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kirgan.

1992-yilda mazkur fakultetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 1992–1995-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti aspiranturasida tahsil olgan. 1996-yildan O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi akademik S.H.Sirojiddinov nomidagi litsey-internatda o‘qituvchi sifatida ish boshlagan.

1999–2000-yillarda mazkur akademik litseyning Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida mudiri bo‘lib faoliyat yuritgan. 2000–2004-yillarda Toshkent davlat yuridik institutida katta o‘qituvchi, 2005-yildan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy Kengashi bosh mutaxassisi, 2006–2010-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi direktori lavozimlarida ishlagan.

2010–2013-yillarda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi Ijtimoiy-siyosiy targ‘ibot bo‘limi mudiri v.b., 2013–2014-yillarda Toshkent viloyati o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshqarmasi bosh uslubchisi bo‘lib faoliyatini davom ettirgan.

2014-yildan “Mahalla ziyosi” Respublika O‘quv-uslubiy markazi bo‘lim boshlig‘i, 2018–2019-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalash bo‘limi boshlig‘i sifatida ishlagan. 2020-yildan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Xorijiy filologiya (keyinchalik Jurnalistika) fakulteti doktoranti.

2023–2024-yillarda Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti lavozimida ishlagan. 2025-yil 6-yanvardan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti bo‘lib faoliyat yuritmoqda.

Suyunov Baxodir Turdiyevichning Davriy nashrlarda, jumladan, “Ma’rifat”, “Xalq so‘zi”, “Inson va qonun”, “Huquq”, “Milliy tiklanish”, “Adolat”, “Toshkent oqshomi”, “Вечерний Ташкент”, “Postda” gazetalarida 250 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalari, jurnallar va ilmiy to‘plamlarda 100 dan ortiq izlanishlari nashr etilgan.

2009-yilda “O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish yo‘llari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan.

2003–2024-yillarda Baxodir Suyunov muallifligida jami 30 dan ziyod ma’ruza matnlari to‘plami, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslibiy qo‘llanmalar, monografiyalar hamda risolalar nashr qilingan.

“O‘zbek tili: alifbo, imlo va talaffuz” (2003), “Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” (2004), “Yoshlar yili – yoshlar ma’naviyati” (2008), “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” (2010), “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi” (2018) o‘quv qo‘llanmalari, “Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi” (2022), “O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari” (2023), “O‘zbek tili lakunar birliklari semantikasi va tezaurusi” (2024) monografiyalari shular jumlasidandir.

2023-yilda “Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan va filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan.

Ixtisosligi: 1) 10.02.01 – O‘zbek tili. 2) 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi. U O‘zbek tilining leksikologiya, terminologiya, nutq madaniyati va notiqlik san’ati sohalarida ilmiy tadqiqot olib boradi va yosh tadqiqotchilarga rahbarlik qiladi. Ilmiy ishlari soni 100 dan ortiq. Shulardan, ilmiy-amaliy anjumanlarda: Xalqaro – 22 ta, Respublika – 35 ta. Ilmiy jurnallarda jami: 37 ta,

shundan, xorijiy jurnallarda – 12 ta; Respublika jurnallarida – 25 tani tashkil etadi.

Shu bilan bir qatorda, Baxodir Suyunov o‘nlab o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va risolalar ham muallifi. Uning muallifligida o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan 5 ta o‘quv qo‘llanma, 8 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 15 ta risola va 3 ta monografiya nashr qilingan.

Baxodir Suyunovning tilshunoslik nazariyasiga oid qimmatli fikrlari va ilg‘or g‘oyalari xalqaro e‘tirof etilgan ilmiy jurnallarda “Web of Science”, “Scopus” va boshqa xalqaro bazalarga kiritilgan jurnallarda chop etilgan.

Baxodir Suyunov “Science, education, innovation: modern tasks and prospects” xalqaro ilmiy jurnali (“Google Scholar”, “Zenodo” va boshqa xalqaro e‘tirof etilgan bazalarga kiritilgan jurnal) bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda bir necha bor ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan.

Ayni paytda Baxodir Suyunov Denov tilshunoslik maktabining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari ustida faoliyat olib bormoqda. Shu bilan birgalikda, sohada munosib kadrlar yetishtirish masalasida, xususan, “Ustoz-shogird” tizimini o‘ziga xos rivojlantirish borasida ham jonbozlik ko‘rsatmoqda.



## **BOZOROV RUSLAN XAMDAMOVICH**

*Moliya va bank ishi kafedrasi professori v.b.,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(DSc)*

Hayot yo'lining har bir burilishida inson o'zini sinaydi, turli ijtimoiy va ma'naviy maydonlarda iz qoldiradi. Ammo kamdan-kam odamlargina ana shu yo'lda boshqalarga yo'lchi yulduz bo'lish, baxtli lahzalarni ulashish, eng muhimi esa – ham dunyoviy, ham diniy adolat mezonlariga asoslangan fidokorlik bilan jamiyatga xizmat qilish baxtiga muyassar bo'ladi. Bu insonlar hayotda o'z prinsiplariga qat'iy sodiqligi bilan ajralib turadi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Moliya va bank ishi” kafedrasi v.b. professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Bozorov Ruslan Xamdamovich aynan shunday insonlardandir.

U kishining ilm-fan va ta'limdagi yo'li – bu nafaqat bilim izlash, balki yosh avlod qalbida tanqidiy fikrlash, amaliy tafakkur va insoniylikni uyg'otishga qaratilgan fidokorona faoliyatdir. Bugungi kunda Ruslan Bozorov – o'zining bilimdonligi, zamonaviy pedagogik uslubi va soddaligi bilan talabalar, ilmiy izlanuvchilar va davlat boshqaruvi sohasidagi yosh kadrlarga katta ruhiy kuch, bilim va ishonch bag'ishlab kelayotgan ustozdir. Uning har bir darsida, har bir maslahatida hayotiylik, zamonaviylik va ilmiy izchillik uyg'unlashgan.

Ruslan Xamdamovich 1986-yil 22-dekabrda Surxondaryo viloyatining go'zal va serilm Sherobod tumanida tug'ilgan. Yoshligidan faol va zukko bola bo'lgan, har doim bilim olishga intilgan. 2006–2010-yillarda Termiz Davlat Universitetining “Moliya” yo'nalishida tahsil olib, o'z yo'lining ilmiy va amaliy asoslarini puxta shakllantirdi. 2009-yilda esa mamlakat bo'ylab o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi fan olimpiadasida “Moliya-kredit” fanidan faxrli 2-o'rinni egallab, o'z bilim salohiyatini amalda isbotladi.

2010–2012-yillarda Toshkent Moliya Institutida “Loyihalarni

moliyalashtirish” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturada davlat granti asosida tahsil oldi. Bu yillar – ilmiy tafakkur, analitik yondashuv va moliyaviy chuqur tahlillar sari tashlangan qat’iy qadamlar davri bo‘ldi. Poytaxt muhitining ilmiy talabi, bilimdon ustozlarning doimiy yo‘llanmalari, dars va seminarlar chog‘ida olib borilgan muhokamalar – bularning barchasi Ruslan Bozorov shaxsida iqtisodiyot sohasida mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy masalalarga yechim topishga intiladigan, mas’uliyatli va tashabbuskor bir mutaxassisni shakllantirdi.

2012-yil – Ruslan Xamdamovich uchun katta burilish yili bo‘ldi. Aynan shu yili u o‘zining pedagogik faoliyatini Termiz Davlat Universitetining “Moliya” kafedrasida boshladi. U uchun bu nafaqat mehnat faoliyatining boshlanishi, balki ustozlik yo‘lining ilk qadami, mas’uliyatli va sharafli yo‘lga kirib kelgan kunlar edi.

Dastlab, u auditoriyaga kirganida talabalar uchun o‘ziga xos uslub, sodda va tushunarli tilda bayon qilish, hayotiy misollar orqali nazariyani tushuntirish qobiliyati bilan ajralib turdi. Ustozlik burchiga faqat dars berish deb emas, balki yoshlarda iqtisodiy tafakkurni uyg‘otish, ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga, tanqidiy va tahliliy fikrlashga o‘rgatish deb qaradi.

2012–2017-yillar davomida u universitet hayotida faol qatnashdi: o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangicha yondashuvlarni joriy qilish, ilmiy tadqiqotga qiziqqan talabalarni qo‘llab-quvvatlash – uning doimiy mehnat yo‘nalishlariga aylandi. O‘quvchi-yoshlar orasida hurmat qozondi, ilmiy hamjamiyatda esa iste’dodli va istiqbolli yosh olim sifatida tanildi.

2018-yil – Ruslan Bozorov hayotining yangi bosqichi. Ilmiy izlanishlar va katta maqsadlar yo‘lida u Toshkent sari yo‘l oldi. O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasining tayanch doktoranturasiga qabul qilindi. Ilmiy rahbari – iqtisodiyot fanlari doktori, professor Adham Sharipovich Bekmurodov bo‘ldi. Ustoz-shogird hamkorligida olib borilgan izlanishlar 2020-yilda o‘z samarasini berdi – u “Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy

darajasini qo‘lga kiritdi.

Izlanish bilan birga, Bozorov davlat miqyosidagi loyihalarda ham faol qatnashdi. 2018–2020-yillar mobaynida u mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilashga qaratilgan davlat grantlarida faol ishtirok etdi. Parallel ravishda, “El-Yurt Umidi” jamg‘armasida bosh mutaxassis va bo‘lim boshlig‘i lavozimlarida samarali faoliyat yuritdi. Bu tajribalar unga nafaqat nazariy, balki amaliy ko‘nikmalarni, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi nozik jihatlarni o‘rganish imkonini berdi.

2021–2023-yillarda u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining “Iqtisod va moliya” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat olib bordi. Bu davrda u yuqori darajadagi kadrlar – davlat xizmatchilari, tahlilchilar, siyosiy strateglar uchun iqtisodiy bilimlar berishda o‘ziga xos pedagogik uslubni joriy etdi.

2022-yilda esa yana bir muhim qadam tashlandi – u doktorantura bosqichiga hujjat topshirdi va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, o‘z ilmiy yo‘lini yanada chuqurlashtirishga bel bog‘ladi.

2023-yildan boshlab Ruslan Bozorov Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Institutida “Moliya va bank ishi” kafedrasida faoliyat yuritmoqda. Bu institutda u o‘zining boy tajribasi, ilmiy qarashlari va zamonaviy yondashuvi bilan iqtidorli talabalar, yosh tadqiqotchilar orasida ustozlik salohiyatini namoyon qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, u 4 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifidir. U nafaqat o‘zi izlanadi, balki yosh tadqiqotchilar uchun ham ilmiy rahbarlik qiladi. Hozirda u iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish arafasida turibdi – bu esa uning ilm-fanga sadoqatining yana bir yorqin namunasi.

Bozorov Ruslan Xamdamovich – ilmiy kamolot sari sobitqadamlik bilan odimlayotgan, har bir ishini maqsadli, mas’uliyatli va vijdonli bajarayotgan ustoz va olim. U kishining hayoti bizga shuni yana bir bor eslatadi: ilm-fan bu faqat raqamlar yoki nazariyalar yig‘indisi emas – bu ijtimoiy xizmat, yurakdan berilgan kuch, kelajak uchun qurilgan poydevordir.



**NASRULLAYEVA GULSHAN  
SAMADOVNA**

*Filologiya fakulteti dotsenti, filologiya  
fanlari doktori (DSc)*

Shaxsning chin insoniylik darajasi uning xalq, el-yurt ravnaqi va taraqqiyoti yo'lida qilgan ezgu amallari bilan o'lchanadi. Har bir inson dunyoga ichki bir ilhom, qalbining tubida yongan bir uchqun bilan keladi. Til – insoniyat tafakkurining eng sodda, ammo eng ta'sirli ifodasidir. U milliy ong va madaniyatni aks ettiruvchi og'zaki shaklda bolalikda shakllanadi, o'smirlikda esa lingvistik bilimlar asosida chuqurlashib, mukammallik sari intiladi. Ana shu qalbdan jo'sh urgan ichki ilhom, mehr va fidoyilik bilan ilm-ma'rifatga xizmat qilayotgan, ezgulikka oshno, halol mehnati bilan ilm ahlining hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan Nasrullayeva Gulshan Samadovna bugun oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan eng fidoyi, el-yurtga sadoqatli professor-o'qituvchilardan biri sifatida e'tirof etiladi. U ayniqsa intiluvchan, ilmga chanqoq yoshlarga mehr-muruvvat ko'rsatishdan charchamaydi, o'z bilim va tajribasini avlodlarga fidokorlik bilan ulashmoqda.

1982-yil 2-avgust kuni Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida ziyoli oilada dunyoga kelgan Gulshan Samadovna bolalikdan ta'lim va tarbiyaga, ilm-ma'rifatga chuqur qiziqish bilan ajralib turgan. 1989-yilda Toshkent shahridagi 114-sonli maktabning 1-sinfiga ilk qadamini qo'ygan yosh qiz, o'zining a'lo baholari, izlanuvchanligi va tirishqoqligi bilan maktab davridayoq tengdoshlaridan ajralib chiqqan. 1999-yilda maktabni imtiyozli tamomlagach, uning ilmga bo'lgan tashnaligi va izlanishlari uni yurtimizdagi nufuzli oliygohlardan biri – O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Ingliz filologiyasi fakultetiga olib keldi.

U yerda ham Gulshan Samadovna o'zining bilimga bo'lgan intilishi, mustahkam irodasi bilan grant asosida o'qishga kirib, oliy ta'limni yuqori natijalar bilan yakunladi va imtiyozli diplom sohibasiga aylandi. Bu esa uning ilmiy faoliyatidagi ilk bosqich, kelajakdagi katta

muvaffaqiyatlar sari ochilgan yoʻlning boshlanishi boʻldi. 2003–2005-yillar mobaynida u Qarshi davlat universitetining magistratura bosqichida “Lingvistika” yoʻnalishi boʻyicha tahsil olib, bu bosqichni ham yuksak saviyada tamomladi.

Gulshan Nasrullayeva ustozlik faoliyatidagi ilk qadamini 2001-yilda Qarshi davlat universiteti qoshidagi gimnaziyada ingliz tili oʻqituvchisi sifatida boshladi. Bu davrdan boshlab u til va nutq madaniyatiga, lingvistika va filologiyaga oid yoʻnalishlarda izchil, mazmunli faoliyat yurita boshladi. Uning bilimdonligi, mehnatsevarligi va fidoyiligi unga yuksak bosqichlarga koʻtarilish imkonini berdi. 2005–2018-yillar oraligʻida Qarshi davlat universitetida, soʻng 2018–2023-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali hamda Axborot texnologiyalari va menejment universitetida oʻqituvchi, dotsent, professor kabi masʼuliyatli lavozimlarda samarali faoliyat yuritdi.

Bugungi kunda Gulshan Samadovna Nasrullayeva Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Filologiya” fakultetida filologiya fanlari doktori, dotsent sifatida talaba-yoshlar bilan bevosita ishlamoqda. U dars jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni puxta yetkazadi, balki amaliy mashgʻulotlar, zamonaviy yondashuvlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va ijodiy tafakkur koʻnikmalarini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratadi. Bugungi yoshlar uchun u – bilim manbai, ustoz, ilhom bagʻishlovchi, hayotiy yoʻldosh boʻlib xizmat qilayotgan salmoqli ziyolilardan biridir.

Gulshan Nasrullayeva ilmiy izlanishlarga talabalik yillaridayoq jiddiy eʼtibor qaratgan. U oʻzining ilmga boʻlgan qiziqishi, izlanishlarga boʻlgan intilishi bilan bu yoʻnalishda dadil qadamlari bilan ajralib tura boshladi. 2019-yilda u “Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti” mavzusidagi dissertatsiyasini Fargʻona davlat universiteti huzuridagi PhD.27.06.2018.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor boʻldi.

Uning ilmiy izlanishlari shu bilan cheklanib qolmadi. 2022-yilda “Antropomorfik metaforaning sotsiolingvistik xususiyatlari va

leksikografik tadqiqi masalalari” mavzusidagi chuqur tadqiqot asosida tayyorlangan dissertatsiyasi himoyasi natijasida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini ham qo‘lga kiritdi. Ushbu himoya Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashda bo‘lib o‘tgan.

Gulshan Nasrullayeva bugungi kunda o‘zining sermahsul ilmiy faoliyati, xalqaro miqyosdagi ishtiroki hamda metodik yondashuvlari bilan tilshunoslik sohasining yirik vakillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Uning 60 dan ortiq ilmiy maqolalari nafaqat yurtimiz, balki xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, Gulshan Nasrullayeva 10 dan ziyod ilmiy va o‘quv qo‘llanmalari muallifi sifatida ham tanilgan. Ushbu asarlar lingvistika sohasida tahsil olayotgan talabalar, izlanuvchilar hamda amaliyotchi mutaxassislar uchun muhim manbaga aylangan.

Gulshan Nasrullayeva xalqaro ilmiy maydonda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Misr, Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Qozog‘iston, Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarda o‘tkazilgan nufuzli konferensiyalarda o‘zining ilmiy maqolalari bilan qatnashib kelmoqda. Bundan tashqari, uning o‘quv qo‘llanmalari Amerika Qo‘shma Shtatlari, Indoneziya va Turkiyada ham nashr etilgan bo‘lib, bu esa uning ilmiy yondashuvlarining xalqaro ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda esa uning xalqaro miqyosdagi fidokorona ilmiy-pedagogik faoliyati Qozog‘iston Respublikasining “Xalqaro do‘stlik” medali bilan e’tirof etildi.

Nasrullayeva Gulshan Samadovna – chuqur ilmiy tafakkur, fidoyilik va kasbga sadoqat timsoli bo‘lgan zamonaviy lingvist. Uning hayot yo‘li – ilmga muhabbat, ustozlikka fidoyilik va yoshlarga mehr bilan yo‘g‘rilgan. Bugun u nafaqat bilim beruvchi, balki bilimli, vatanparvar avlodni tarbiyalayotgan ziyoli sifatida yurt ilm-faniga munosib hissa qo‘shmoqda.



## **ESHKARAYEV ULUG'BEK CHORIYEVICH**

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra  
dotsenti, Texnika fanlari nomzodi Dotsent*

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bilimli, tashabbuskor va xalqparvar kadrlarni yetishtirishdir. Bu jarayonda o'zining el-yurt oldidagi burchini sidqidildan ado etib kelayotgan, nafaqat ilm sohasida, balki yoshlar tarbiyasida ham namunali faoliyat olib borayotgan zabardast pedagog-olimlarimiz talaygina. Ana shunday fidoyi va yetuk insonlardan biri – texnika fanlari nomzodi, dotsent Ulug'bek Choriyevich Eshkarayevdir.

Ulug'bek Choriyevich Eshkarayev 1968-yil 30-iyulda Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi Hazarbog' qishlog'ida ziyoli oilada dunyoga keldi. Uning ota-onasi – otasi Chorihoji Eshkarayev va onasi Menglixol Eshkarayeva farzandlarining kelajakda vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan, bilimli va yetuk inson bo'lib yetishishini orzu qilganlar. Shu maqsadda ular o'g'illariga Ulug'bek ismni qo'yib, unda buyuk maqsadlar va yuksak orzular ramzini aks ettirdilar. Ulug'bekning ilmga bo'lgan ishtiyoqi shakllanishida oilasining ta'siri beqiyos bo'ldi. Bobosi Mullo Musobobo, tog'alari – biologiya fanlari nomzodi Abdulhamidhoji Xabibullaev, tarix fanlari nomzodi Abdusalom Muxammadiev va otasi – fizika-matematika fanlari nomzodi Chorihoji Eshkarayevning ilmiy muhiti yosh Ulug'bekning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, onasi Menglixol Eshkarayevaning ko'p kitob o'qiganligi, arab imlosidan xabardorligi va ma'naviy dunyosining boyligi uning tarbiyasida muhim o'rin tutdi.

Ulug'bek Eshkarayev 1985-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomlab, o'zining bilim va qobiliyatini ilk sinovlarda namoyon eta oldi. Maktab davridagi yuksak natijalari unga Termiz davlat universitetida tahsil olish imkonini berdi. Bu esa uning ilmiy izlanishlari va pedagogik

faoliyati uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

1992-yilda mazkur oliy ta‘lim dargohini muvaffaqiyatli tamomlagan Ulug‘bek Eshkarayev kasbiy faoliyatini Termiz davlat universitetining “Mashinashunoslik” kafedrasida assistent-o‘qituvchi sifatida boshladi. Bu lavozim uning nafaqat pedagogik mahoratini oshirishga, balki ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini amaliy izlanishlar orqali rivojlantirishiga keng imkoniyat yaratdi.

Ilmiy izlanishlarga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq va yangilik sari intilish Ulug‘bek Eshkarayevni doimo izlanishga undadi. 1999-yilda u O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining sirtqi aspiranturasiga qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda, institutning doktorantura va aspirantura bo‘limi mudiri sifatida faoliyat yuritib, tashkilotchilik qobiliyati va rahbarlik salohiyatini ham namoyish etdi.

Ulug‘bek Eshkarayev o‘zining fidokorona mehnati va qat‘iyati evaziga 2003-yilda texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Bu yutuq uning ilmiy faoliyatidagi muhim bosqich bo‘lib, keyingi katta muvaffaqiyatlarga asos bo‘ldi. Bugungi kunda ham u ilm-fan va ta‘lim sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Ulug‘bek Choriyevich Eshkarayevning faoliyati faqat ilmiy izlanishlar bilan cheklanib qolmadi. U ta‘lim tizimida rahbarlik va tashkilotchilik salohiyati bilan ham keng e‘tirof topdi. 2004-yilda Termiz davlat universiteti Kasbiy ta‘lim fakultetida ilmiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Ulug‘bek Choriyevichning tashabbuskorligi va mas‘uliyatli yondashuvi tufayli fakultetda ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshdi. 2007-yilda esa u o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinlanib, ta‘lim jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish borasida muhim islohotlarni amalga oshirdi. Uning boshchiligida o‘quv jarayonlari zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqildi, talabalarga yanada samarali va sifatli ta‘lim berish uchun sharoitlar yaratildi.

2008-yildan boshlab Ulug‘bek Eshkarayev “Agroinjeneriya va kimyoviy texnologiya” kafedراسi mudiri lavozimida faoliyat yuritdi. Ushbu lavozimda u nafaqat o‘quv jarayonlarini samarali boshqardi, balki

talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularni ishlab chiqarish bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritishga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratdi.

2013-yilda esa u "Kasbiy ta'lim" kafedrası mudiri lavozimiga tayinlanib, kafedra faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning rahbarligi ostida kafedrada zamonaviy ta'lim metodlari joriy etildi, ilmiy-tadqiqot ishlari faollashtirildi va talabalarga sifatli bilim berishga qaratilgan qator loyihalar amalga oshirildi.

Ulug'bek Choriyevichning rahbarlik faoliyatidagi eng muhim bosqichlardan biri 2018–2020-yillar oralig'ida Termiz davlat universitetining Denov filiali (hozirgi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti) direktori lavozimida ishlagan davri bo'ldi. Bu lavozimda u ta'lim muassasasini rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o'quv jarayonlarini zamonaviy talablarga moslashtirish va yoshlarni sifatli ta'limga keng jalb etish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Uning rahbarligi ostida institut nafaqat hudud miqyosida, balki respublika darajasida ham katta obro'-e'tibor qozondi.

2020–2022-yillarda Ulug'bek Eshkarayev Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu davrda u ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, innovatsion loyihalarni yo'lga qo'yish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator muhim yutuqlarga erishdi. Uning tashabbuslari natijasida institutda zamonaviy ilmiy loyihalar amalga oshirildi, talaba va o'qituvchilarning ilmiy salohiyati oshdi, ilmiy maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ulug'bek Eshkarayevning ilmiy faoliyati o'zining chuqur mazmuni va amaliy ahamiyati bilan alohida e'tiborga loyiqdir. U respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarda faol ishtirok etib, o'z maqolalarida zamonaviy muammolarni yoritish va ularga innovatsion yechimlar taklif qilish bilan mashhurdir. Uning ilmiy ishlari Yaponiya, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarning nufuzli ilmiy-texnik jurnallarida chop etilib, xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan yuqori baholangan.

Bugungi kunga qadar Ulug'bek Eshkarayev 7 ta ixtiro, 3 ta

monografiya, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 8 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma va 180 dan ortiq ilmiy maqola muallifi sifatida o‘z sohasida muhim hissa qo‘shdi. Ushbu yutuqlar uning nafaqat ilmiy salohiyatini, balki texnika va ta’lim sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan ijodiy yondashuvini ham yaqqol namoyon etadi.

Innovatsion rivojlanish yo‘lida Ulug‘bek Eshkarayev O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e‘lon qilingan grant tanlovlarida faol ishtirok etdi. Uning tashabbuskorligi va ilmiy salohiyati natijasida 107 million 860 ming so‘mlik innovatsion loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyiha nafaqat mamlakat iqtisodiyoti va ta’lim sohasiga foyda keltirdi, balki Eshkarayevning amaliy masalalarni ijodiy yechish qobiliyatini ham isbotladi.

Ulug‘bek Eshkarayev faoliyati faqat ilmiy va akademik doiralar bilan cheklanmaydi, u ijtimoiy hayotda ham muhim tashabbuskor sifatida tanilgan. Surxondaryo viloyati va Denov tumani hokimliklari tomonidan bir qator faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan Eshkarayev o‘z faoliyati bilan hudud rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

2018-yilda Denov tumanida o‘tkazilgan Boks bo‘yicha xalqaro turnirni tashkil etishdagi tashabbuskorligi alohida e‘tirof etildi. Ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o‘tkazishda ko‘rsatgan tashkilotchilik mahorati uchun u maxsus tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Bu voqea nafaqat sport sohasidagi faolligini, balki jamiyatni birlashtirish va yoshlarni sog‘lom turmush tarziga undashdagi sa’y-harakatlarini ham ko‘rsatdi.

Ulug‘bek Eshkarayev xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, u Tojikiston Respublikasining to‘rtta nufuzli oliy ta’lim muassasasi bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu hamkorlik nafaqat ta’lim sohasida tajriba almashishni, balki ilmiy tadqiqotlar va talabalar almashinuvini rivojlantirishni ham ta’minladi. Bu tashabbus hududlar o‘rtasida ta’lim va ilmiy sohada yangi imkoniyatlar ochdi, mintaqaviy integratsiyaga xizmat qildi va xalqaro miqyosda O‘zbekiston ta’lim tizimining obro‘cini oshirdi.

Ulug‘bek Eshkarayevning faoliyatida shogird tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. U nafaqat ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullansa-da, balki yosh

olimlar va talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Ilmiy seminarlar va xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etib, u yosh o'qituvchilar va magistrantlarga yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda. Uning rahbarligida tayyorlangan shogirdlar ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, o'zlarining mustaqil ilmiy yo'llarini boshlamoqda.

Eshkarayev nafaqat bilim, balki ma'naviy merosni ham shogirdlariga yetkazmoqda. Uning o'qituvchilik uslubi – talabalarni faqat bilim bilan ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki ularda vatanparvarlik, mas'uliyat va ijodiy fikrlash tuyg'ularini uyg'otadi. Uning shogirdlari o'z ustozlarining ilmiy va ma'naviy merosini davom ettirib, kelajakda o'z sohasida yetakchi mutaxassislar bo'lib yetishmoqda.

Mavlono Jaloliddin Rumi "Qancha o'qidim, mendan nimani bilding deb sorasalar, 'haddimni bildim' deb aytaman" degan edi. Ulug'bek Choriyevich Eshkarayev ham o'z ilmi, amali va xulqi bilan haddini bilgan, kamtar va fidoyi inson sifatida namuna ko'rsatmoqda. U nafaqat ta'lim va ilm sohasida muhim yutuqlarga erishdi, balki o'z vataniga, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilib, yosh avlodga ilhom baxsh etmoqda.

Ulug'bek Eshkarayevning hayoti va faoliyati – bilim, mehnat va ezgu niyatlar bilan jamiyatda muhim o'rin egallash mumkinligini ko'rsatuvchi yorqin misoldir. Uning ilmiy yutuqlari, ijtimoiy tashabbuslari va shogirdlarga yo'l-yo'riqlari kelajak avlodlar uchun o'chmas meros bo'lib qoladi. Ulug'bek Eshkarayev – nafaqat o'z sohasining yetakchisi, balki vatan ravnaqi yo'lida tinimsiz xizmat qilayotgan haqiqiy ziyolidir.



## **XAMIDOV ABDUMALIK KIRANOVICH**

*Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent*

Ilm yo‘li – bu cheksiz okean, unda faqat o‘z ishiga oshiq, yuragi bilim nuri bilan yoritilganlar suza oladi. Xamidov Abdumalik Kiranovich ana shunday nodir shaxs – o‘zbek filologiyasining so‘z sehri bilan talaba qalblarini zabt etgan olim, pedagog va ma‘rifat ulashuvchisi. Uning hayoti – bu tinimsiz izlanish, yosh avlodga yo‘l ko‘rsatish va milliy tilimizning boyliklarini dunyoga yoyishga bag‘ishlangan ulug‘vor safar. Abdumalik Xamidov nafaqat o‘zbek tilining o‘qituvchisi, balki uning ruhini ochuvchi, so‘zning qudratini yoshlarga singdiruvchi haqiqiy ustozdir.

1981-yilning 7-sentyabr kuni Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi “O‘zgarish” mahallasida dunyoga kelgan Abdumalik Xamidov o‘zbek xalqining ma‘rifatsevar oilasida ulg‘aydi. Bolaligidan so‘zga, adabiyotga bo‘lgan muhabbati uning qalbida chuqur ildiz otadi. Go‘yo har bir o‘zbek she‘ri, har bir xalq ertagi unda kelajak filologning orzularini uyg‘otgandek edi. 1987-yilda Denov tumanidagi 38-maktabning birinchi sinfiga qadam qo‘ygan yosh Abdumalik 1998-yilga kelib ushbu maktabni muvaffaqiyatli tamomlaydi. Maktab yillarida u nafaqat bilim olishga, balki so‘zning sehri olamini kashf etishga intildi. O‘qituvchilar uning ziyrakligini, har bir darsda so‘z boyligiga qo‘shgan kichik “xazina” larini hayrat bilan kuzatardi.

Maktabni a‘lo baholarga tamomlagan Abdumalik Xamidov 2001-yilda Termiz davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi va yosh olim uchun hayotining yangi sahifasi bo‘ldi. O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi uning qalbiga yo‘l topdi. To‘rt yil davomida u o‘zbek adabiyotidagi buyuk asarlarning chuqur ma‘nolarini, tilning nozikliklarini o‘rgandi. 2005-yilda bakalavr diplomini qo‘lga kiritgach, u o‘z maktabiga – Denov tumanidagi 38-maktabga ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi sifatida qaytdi. Bu uning o‘zbek tili va adabiyotiga xizmat

qilishdagi ilk qadami edi. Har bir darsi yosh shogirdlar uchun nafaqat bilim, balki milliy ruhni uyg‘otish darsi bo‘ldi.

Ammo Abdumalik Xamidovning bilimga chanqoqligi uni bu yerda to‘xtatib qolmadi. 2008-yilda Termiz davlat universiteti magistraturasining lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishiga davlat granti asosida qabul qilindi. Ikki yil davomida u tilshunoslikning sirlarini chuqur o‘rgandi, ilmiy izlanishlarga kirishdi va 2010-yilda magistrlik darajasini muvaffaqiyatli yakunladi. Bu yillar uning nafaqat o‘qituvchi, balki olim sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Magistraturani muvaffaqiyatli tamomlaganida Abdumalik Xamidovning bilim va iste’dodi Termiz davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining nufuzli professorlari tomonidan yuksak baholandi. Shu sabab 2010-yilda u ushbu kafedraga o‘qituvchi sifatida qadam qo‘ydi. Bu uning o‘zbek so‘ziga xizmat qilishdagi muqaddas yo‘lining boshlanishi edi.

Abdumalik Xamidov 2010-yildan 2018-yilgacha Termiz davlat universitetining “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu yillar uning uchun sinov va o‘shish davri bo‘ldi. Har bir darsi so‘zning o‘ziga xos jozibasi bilan to‘lib, talabalarni tilning sirli dunyosiga yetakladi. U leksikologiya va stilistikaning nozik naqshlarini ochib, talabalarga nafaqat bilim, balki o‘zbek tilining ruhini singdirdi. Uning sinfi adabiy suhbatlar va so‘z o‘yinlari makoni edi.

Abdumalik Xamidov 2018-yilning qish va yoz oylarida Termiz davlat universitetining Denov filialida “Maktabgacha ta’lim va gumanitar fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida ish boshladi. Qisqa bo‘lsa-da, bu davr uning ta’lim olamida yangi ufqlarni kashf etishiga zamin yaratdi.

Shu yilning kuzida u yana Termiz davlat universitetining “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasiga qaytdi va 2020-yilgacha shu yerda o‘qituvchi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Bu safar u yanada tajribali va ishonchli edi. Talabalar bilan birga o‘zbek tilining chuqur okeaniga sho‘ng‘ib, ilmiy maqolalar yozdi, yoshlarni tadqiqot olamiga chorladi. 2020-yildan 2021-yilgacha Termiz davlat universitetining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida ishlay boshladi. Bu davrda u o‘zbek

adabiyotining ulug‘vor olamini talabalarga ochdi.

2021-yil Abdumalik Xamidov uchun faoliyatining yangi bosqichi boshlandi. U ona yurtiga qaytib Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti filologiya fakultetining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasiga mudir etib tayinlandi. Bu lavozimda u rahbarlik qobiliyatini to‘la namoyon qildi. O‘quv jarayonlarini tashkil etishdan tortib, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishgacha – uning tashabbuslari kafedrani yangi bosqichga ko‘tardi. Rahbarlik yo‘lida davom etgan Abdumalik Xamidov 2022-yildan 2024-yilgacha Termiz davlat pedagogika instituti filologiya fakultetining dekani sifatida faoliyat yuritdi. Bu davr uning ta’lim sohasidagi eng muhim yutuqlari bilan to‘ldi.

2024-yilning sentyabr oyidan boshlab Abdumalik Xamidov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti filologiya fakultetining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsent sifatida o‘z xizmatini davom ettirmoqda. Bu yerda u talabalarga so‘zning sehrini yetkazishda, ilmiy izlanishlar olib borishda tinmaydi. Har bir darsi, har bir tadqiqoti o‘zbek tilining yorqin kelajagiga yo‘l ochadi.

Abdumalik Xamidovning ilmiy faoliyati – bu o‘zbek tilshunosligiga qo‘shilgan ulkan xazina. U 100 dan ortiq ilmiy ish muallifi, jumladan, 1 monografiya, 1 darslik, 3 o‘quv qo‘llanma va 1 risola nashr etgan. Uning maqolalari nafaqat O‘zbekiston, balki xorijiy nufuzli jurnallarda chop etilib, o‘zbek tilining global miqyosda targ‘ib qilinishiga xizmat qilmoqda.

Hozirda Abdumalik Xamidov “Murod Muhammad Do‘st asarlarining lingvokulturologik xususiyatlari” mavzusida doktorlik (DSc) tadqiqoti olib bormoqda. Bu ish o‘zbek adabiyotidagi muhim shaxslarning ijodini zamonaviy lingvistik usullar bilan tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Uning tadqiqotlari kelajakda o‘zbek adabiyotshunosligiga yangi yo‘nalishlar ochishi shubhasiz.

Xamidov Abdumalik Kiranovich nafaqat bilim ulashuvchi ustoz, balki yoshlar qalbida ma’naviy olov yoqib, ularni Vatan va milliy qadriyatlar sadoqatiga yetaklovchi haqiqiy tarbiyachidir. U ustoz-shogird an’analarining muqaddas ruhini davom ettirib, talabalarga o‘zbek tilining

nozik sirlari va adabiyotning chuqur ma'nolarini o'rgatish bilan birga, institutdagi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etadi. Uning har bir sa'y-harakati yoshlarni sog'lom turmush tarziga undash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazishga yo'naltirilgan.

Uning bu fidokorona mehnati yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-maydagi Farmoniga asosan ta'asis etilgan "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Bu nishon uning ta'lim, tarbiya va ma'rifat yo'lidagi ulkan xizmatlarining ramzi bo'lib, o'zbek xalqining ma'naviy yuksalishiga qo'shgan hissasini e'tirof etdi.

Abdumalik Xamidov o'zining talabchanligi, kasbiga sadoqati va odamiyligi bilan hamkasblari va talabalari orasida alohida hurmatga ega. U har bir ishda mas'uliyat va samimiyat bilan yondashib, o'zbek tilining boyliklarini nafaqat o'rgatadi, balki uni yashatish va targ'ib qilishda chinakam fidoyilik ko'rsatadi. Uning shaxsiyati – bu o'qituvchilikning eng oliy namunasi, yosh avlod uchun ilhom manbai va millatimiz ma'naviyati uchun faxrdir.



## **NAIMOV MUZAFFAR URINOVICH**

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası professori v.b., San'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Muzaffar Urinovich Naimov – o‘zbek san’ati va ta’lim sohasida o‘ziga xos iz qoldirgan, fidokorona mehnati bilan milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan taniqli shaxs. U 1962-yil 24-fevralda Surxondaryo viloyati Denov shahrida, mehnatkash ishchi oilasida dunyoga keldi. Millati tojik bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida vatan ravnaqiga sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda. Yoshligidanoq musiqaga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqi va san’atga muhabbati uning hayot yo‘lini belgilab berdi. Bu ehtiros nafaqat uning shaxsiy orzulari, balki kelajakdagi professional faoliyatining mustahkam poydevoriga aylandi.

1970-yillarning oxirlarida o‘z yo‘lini aniq belgilagan Muzaffar Naimov 1981-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga (hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi) xor dirijyorligi mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kirdi. Ushbu nufuzli ta’lim maskani uning musiqiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim bosqich bo‘ldi. Konservatoriyada o‘qish davrida u nafaqat musiqiy san’atning nozik jihatlarini o‘rgandi, balki o‘zbek va jahon musiqiy merosining chuqur qatlamlariga sho‘ng‘idi. 1986-yilda oliygohni muvaffaqiyat bilan tamomlagan Naimov amaliy ko‘nikmalar bilan birga musiqiy san’atning nazariy asoslarini ham puxta egalladi.

Biroq, Muzaffar Naimov bilim olish bilan cheklanib qolmadi. O‘z salohiyatini yanada yuzaga chiqarish maqsadida ilmiy izlanishlarga kirishdi va san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Ushbu yutuq uning musiqiy va pedagogik faoliyatidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Keyinchalik dotsent unvoniga sazovor bo‘lib, o‘z sohasida yetuk mutaxassis sifatida e’tirof etildi. Bu yutuqlar nafaqat uning shaxsiy muvaffaqiyati, balki o‘zbek san’ati va ta’lim sohasiga qo‘shgan hissasining dastlabki namoyonlari

edi.

O‘zining pedagogik faoliyatini Muzaffar Naimov 1979-yilda Termiz shahridagi 93-sonli umumta’lim maktabida musiqa fani o‘qituvchisi sifatida boshlagan. Shundan buyon deyarli 45 yillik faoliyati davomida u o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, musiqiy saviyasini yuksaltirish yo‘lida tinimsiz mehnat qildi. 1979–2007-yillar davomida u respublikaning turli hududlaridagi umumta’lim maktablari, Bolalar musiqa va san’at maktablari, San’at va pedagogika kollejlari kabi muassasalarda o‘qituvchi, direktor o‘rinbosari hamda direktor lavozimlarida samarali faoliyat olib bordi.

2007-yilda Muzaffar Naimov Termiz davlat universitetining Musiqa ta’limi kafedrasida o‘qituvchi sifatida yangi bosqichni boshladi. Bu davr uning pedagogik faoliyatida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. 2009-yilda ushbu kafedraga mudir etib tayinlanib, u ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirishda sezilarli islohotlar amalga oshirdi. Uning tashabbusi bilan darslar zamonaviy metodlar bilan boyitildi, folklor va klassik musiqa an’analari o‘quv dasturlariga muvozanatli tarzda kiritildi. Bu yondashuv nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirdi, balki ularning milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatini yanada mustahkamladi.

Keyinchalik, 2014–2019-yillar oralig‘ida Naimov Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 16-son Bolalar musiqa va san’at maktabida o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. Bu davrda u yosh avlodni musiqiy san’atning nozik jihatlari bilan tanishtirish bilan birga, ularning milliy folklor va an’analarga muhabbatini oshirishga katta e’tibor berdi. Uning darslari nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda o‘z xalqining madaniy merosiga hurmat va g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qildi.

2019-yilda Termiz davlat universitetining Denov filialida Pedagogika fakulteti dekani sifatida yangi mas’uliyatli lavozimga kirishdi. Uning rahbarligida fakultet ta’lim sifati va ilmiy izlanishlar bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. Naimov nafaqat o‘quv jarayonlarini takomillashtirdi, balki talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilib, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga zamin yaratdi. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tashkil etilgan

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham Pedagogika fakulteti dekani sifatida samarali faoliyat yuritdi. Bu lavozimda u zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish va pedagog kadrlar tayyorlashda yangi yondashuvlarni qo'llash yo'lida muhim qadamlar tashladi.

2021-yilda "Maktabgacha ta'lim" kafedراسi mudiri, so'ngra dotsenti sifatida faoliyatini davom ettirdi. Ushbu lavozimlarda u maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion usullarni joriy etish, yosh bolalarga ta'lim berishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash va pedagog kadrlarning malakasini oshirishga katta hissa qo'shdi. Uning tashabbusi bilan kafedra o'quv dasturlari xalqaro tajribalar asosida boyitildi, bu esa kelajak pedagoglarining sifatli ta'lim olishiga xizmat qildi. 2022-yil dekabrda boshlab "Maktabgacha ta'lim" kafedrasining professori vazifasini bajaruvchi sifatida o'z tajribasi va bilimlarini yosh mutaxassislar bilan baham ko'rmoqda.

Muzaffar Urinovich Naimovning ilmiy va ijodiy faoliyati keng ko'lamli, chuqur va samarali bo'lib, o'zbek san'ati va madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Uning ijodiy merosi nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki milliy musiqiy an'analarni asrash va yosh avlodga yetkazishdagi fidokorona sa'y-harakatlarining yorqin namunasi. Naimovning 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari nufuzli ilmiy jurnallar, xalqaro anjumanlar, gazeta va internet saytlarida chop etilib, o'zbek musiqashunosligi va folkloristikasi sohasida muhim manba sifatida e'tirof etilgan.

Uning muallifligidagi asarlar orasida "Surxon qo'shiqlari" (1-2-3 qismlar), "Qalb navolari", "Metar navolari", "Qadim Surxon navolari", "Surxondaryo ijodkorlari" (1-2 qismlar), "Folklor qo'shiqlari jo'rsiz xor uchun", "Ko'ngil bir navo istar", "Folklor qo'shiqlari bolalar xori uchun", "Surxondaryo etnografik xalq-havaskorlik ansambllari", "Dirijyorlik asoslari" va "Vokal ijrochiligi" kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalar alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, "O'zbek marosim qo'shiqlari (XX asr Janubiy O'zbekiston – Surxon vohasi misolida)" nomli monografiyasi uning ilmiy izlanishlarining cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarlar nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki Surxondaryo viloyati musiqiy merosini o'rganish, saqlash va kelajak

avlodlarga yetkazishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu nashrlar musiqiy ta'lim sohasida o'quvchilar va mutaxassislar uchun qo'llanma bo'lib, milliy madaniyatimizning boyligini keng ommaga tanitishda muhim rol o'ynaydi.

Naimovning ilmiy maqolalari "San'at", "Teatr", "Moziydan sado", "Tafakkur", "Yoshlik", "Guliston" kabi nufuzli jurnallarda chop etilgan. Uning xalqaro miqyosda e'lon qilingan maqolalari xorijiy musiqashunoslar orasida ham e'tirof topib, o'zbek folklori va musiqiy an'analarini jahon miqyosida targ'ib qilishga xizmat qildi. Uning ijodi asosan Surxondaryo viloyati folklori va musiqiy merosini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishda u muhim yutuqlarga erishdi. Naimovning tadqiqotlari nafaqat o'zbek musiqiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yoritibgina qolmay, balki uni global musiqiy kontekstda talqin qilish imkonini ham berdi.

Muzaffar Naimov nafaqat olim va pedagog, balki ijtimoiy faol shaxs sifatida ham katta hurmatga sazovor. U o'z faoliyati davomida yoshlarni ijodiy va madaniy sohada rivojlanishga undash, ularning salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam berishni o'z ishining muhim yo'nalishi deb bildi. "Kamalak yulduzlari", "Talabalar bahori", "Boysun bahori" kabi nufuzli festivallar va ko'rik-tanlovlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashda uning roli beqiyos. U nafaqat ushbu tadbirlarni tashkil etishda ko'maklashdi, balki yosh iqtidorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning o'ziga xosligini namoyon qilishiga zamin yaratdi.

Muzaffar Naimovning rahbarligida Denov tumanidagi 16-son Bolalar musiqa va san'at maktabida tashkil etilgan "Tug'dona" bolalar folklor ansambli respublika miqyosida "Eng namunali bolalar folklor ansambli" unvoniga sazovor bo'ldi. Bu yutuq uning folklor an'analarini yosh avlod orasida targ'ib qilishdagi muvaffaqiyatining yorqin dalilidir. Shu bilan birga, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tashkil etilgan "Chag'oniyon" folklor-etnografik ansambli uning tashabbusi bilan muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ushbu ansambl o'zbek musiqiy merosini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda targ'ib qilishda muhim platformaga aylandi. Naimovning ushbu tashabbuslari yoshlarni milliy qadriyatlar va san'atga bog'lashda muhim ko'priklarni yaratdi.

vazifasini o‘taydi.

Muzaffar Naimovning o‘zbek ta’limi, san’ati va madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasi davlat va jamiyat tomonidan yuqori baholandi. U O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining faol a’zosi sifatida musiqiy ijod sohasida muhim rol o‘ynaydi. Uning xizmatlari “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni va “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Shu bilan birga, u institut, respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy anjumanlar, festivallar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etib, ko‘plab diplom, sertifikat va fahriy yorliqlar bilan e’tirof etildi.

Naimovning har bir mukofoti uning o‘zbek madaniyati va ta’limiga qo‘shgan bebaho hissasining ramzi bo‘lib, uning ijodiy va ilmiy faoliyati kelajak avlod uchun ilhom manbai sifatida xizmat qilmoqda. Uning bu yo‘ldagi sa’y-harakatlari nafaqat o‘tgan yutuqlarni mustahkamlabgina qolmay, balki yangi avlod musiqashunoslari va pedagoglarini ilhomlantirishda davom etmoqda.

Muzaffar Urinovich Naimov – o‘z mehnati, fidoyiligi va samimiy sa’y-harakatlari bilan nafaqat Surxondaryo viloyati, balki butun O‘zbekiston miqyosida ilmiy, pedagogik va madaniy hayotga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan inson. Uning faoliyati yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va ijodiy izlanishlar ruhida tarbiyalashda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilmoqda. Muzaffar Naimovning hayoti va mehnati kelajak avlod uchun o‘rnak va ilhom manbai sifatida yorqin iz qoldirmoqda.



## **BABAMURATOV QUDRAT HAYITOVICH**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi  
kafedrasi katta o'qituvchisi, Pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori Dotsent*

Ilm-fan olami – bu cheksiz kashfiyotlar va tinimsiz izlanishlar makoni bo'lib, unda faqat sabr-toqat, fidoyilik va o'z ishiga muhabbat bilan yurganlar muvaffaqiyatga erisha oladi. Bu yo'lda o'z bilimini yosh avlodga yetkazish, ularning qalbida ilmiy olov yoqish – alohida mas'uliyat va sharafdir. Ana shunday sharafli yo'lda o'z izini qoldirgan, fizika va qurilish muhandisligi sohasida muhim yutuqlarga erishgan Babamuratov Qudrat Hayitovich o'zbek ta'lim tizimining faxri, talaba-yoshlar uchun haqiqiy ilhom manbaidir. Uning hayoti – bu o'z kasbiga sadoqat, mehnatkashlik va doimiy rivojlanishga intilishning yorqin timsoli.

1960-yil 10-yanvar kuni Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi Qumqo'rg'on qishlog'i sovetiga qarashli Yonbosh mahallasida dunyoga kelgan Qudrat Hayitovich o'zbek xalqining mehnatkash oilasida ulg'aydi. Bolaligidan aniq fanlarga, ayniqsa fizika va texnikaga bo'lgan qiziqishi uni tengdoshlaridan ajratib turardi. 1967-1977-yillarda Jarqo'rg'on tumanidagi umumta'lim maktabida tahsil olarkan, u o'zining ziyrakligi, bilimga chanqoqligi va mas'uliyatli yondashuvi bilan o'qituvchilar e'tiborini qozondi. Bu yillar uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'ldi, qalbida ilm olish va uni amalda qo'llash istagini uyg'otdi.

1977-yilda Qudrat Hayitovich o'z orzulariga yo'l ochib, hozirgi Samara davlat texnika universitetiga o'qishga kirdi. 1984-yilda Avtomatika va o'lchov fakultetining “Informatsion o'lchov texnikasi” mutaxassisligini muvaffaqiyatli tamomlab, o'z sohasida mustahkam bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldi. Bu yillar uning dunyoqarashini kengaytirib, ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorgarlik ko'rishda muhim bosqich bo'ldi.

Qudrat Hayitovich professional faoliyatini 1984-yilda Termiz davlat universiteti (TerDU) pedagogika institutida injener sifatida boshladi. Yosh va intiluvchan mutaxassis sifatida u tez orada o'z salohiyatini namoyon etdi. 1985–1988-yillarda institut yoshlar qo'mitasi rahbari sifatida faoliyat yuritib, nafaqat o'quv jarayonlarida, balki ijtimoiy-tashkiliy ishlarda ham faolligi bilan ajralib turdi.

1988–1989-yillarda umumiy fizika kafedrasida o'qituvchi sifatida ishlay boshladi. Bu davr uning pedagogik mahoratini sinash va o'quv jarayonlariga o'z hissasini qo'shish uchun muhim imkoniyat bo'ldi. 1989–1991-yillarda esa Sankt-Peterburgdagi A.F.Ioffe nomidagi fizika-texnika institutida ilmiy tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu yillar uning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va xalqaro tajriba orttirishda muhim rol o'ynadi.

Qudrat Hayitovichning ilmiy yo'ldagi muhim qadamlaridan biri 1991–1994-yillarda A.F.Ioffe nomidagi fizika-texnika institutida aspirantura bosqichini muvaffaqiyatli yakunlashi bo'ldi. 1994-yilda u fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasini qo'lga kiritdi. Bu yutuq uning ilmiy izlanishlaridagi jiddiy yondashuvi va qat'iyatining yorqin isboti edi.

1994–2001-yillarda Termiz davlat universitetining umumiy fizika kafedrasida katta o'qituvchi, so'ngra kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu davrda u nafaqat o'quv jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqardi, balki kafedraning ilmiy va metodik faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. 2001–2002-yillarda fizika va matematika bo'yicha o'quv ishlari dekani o'rinbosari lavozimida ishladi, bu esa uning rahbarlik qobiliyatini yanada oshirdi.

2005–2010-yillarda Termiz akademik litseyi direktori sifatida faoliyat yuritib, yoshlarni ta'lim va tarbiyalashda muhim tajriba orttirdi. 2010–2012-yillarda Termiz pedagogika kolleji bo'lim boshlig'i sifatida ishladi, so'ngra 2012–2014-yillarda yana Termiz davlat universitetining umumiy fizika kafedراسi mudiri lavozimiga qaytdi. 2014-yildan boshlab universitet qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani sifatida muhim islohotlarni amalga oshirdi.

2017–2019-yillarda Qudrat Hayitovich o'qituvchi va rahbar

xodimlarning malakasini oshirish instituti markazining o‘quv va ilmiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritdi. 2019–2020-yillarda fizika kafedrasida dotsenti, 2020–2022-yillarda Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filialining elektr energetikasi kafedrasida mudiri lavozimlarida ishladi. 2023-yildan Termiz muhandislik-texnologiya institutida avtomatika va boshqarish kafedrasida mudiri sifatida faoliyat yuritdi.

2024-yildan hozirgi kunga qadar Qudrat Hayitovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida dotsent, shu bilan birga Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti kafedrasida dotsent sifatida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Uning har bir lavozimi – bu ta’lim va ilmiy sohada yangi yutuqlar va islohotlar bilan to‘ldirilgan muhim bosqichdir.

Qudrat Hayitovichning pedagogik faoliyati nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ilmiy izlanish ruhini shakllantirishga qaratilgan. U “Qattiq jismlar fizikasi”, “Yarim o‘tkazgichlar fizikasi”, “Elektronika”, “Elektronika va elektrotexnika asoslari”, “Elektronika va mikroprotsessori asoslari” kabi fanlardan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib boradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini o‘qitish jarayoniga faol joriy etib, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor beradi.

Uning darslari talabalar orasida katta qiziqish uyg‘otadi, chunki u nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Talabalar tomonidan o‘tkazilgan anonim so‘rovnomada Qudrat Hayitovich eng yuqori baholarni qo‘lga kiritib, 2024-yil 1-oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan universitet rektori tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Bu uning pedagog sifatidagi samarali mehnati va talabalarga bo‘lgan mehr-muhabbatining yorqin isbotidir.

Babamuratov Qudrat Hayitovich ilmiy faoliyatida salmoqli natijalarga erishgan olim sifatida e’tirof etiladi. U 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari muallifi bo‘lib, ular respublika va xalqaro ilmiy jurnal

hamda konferensiyalarda chop etilgan. Ushbu ishlar fizika, qattiq jismlar fizikasi, yarim o'tkazgichlar va elektronika kabi dolzarb mavzularga bag'ishlangan. Uning 4 ta o'quv qo'llanmasi va 4 ta uslubiy qo'llanmasi chop etilib, ta'lim jarayonlarida muhim manba sifatida foydalanilmoqda. Bu nashrlar nafaqat talabalarga, balki soha mutaxassislariga ham qimmatli yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

Qudrat Hayitovich nafaqat ilmiy va pedagogik sohada, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etadi. U yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga katta hissa qo'shmoqda. Oilaviy hayotda esa u 4 nafar farzand – ikki o'g'il va ikki qizning mehrlil otasidir. Uning oilasi – bu uning orqa suyanchi va ilhom manbai bo'lib, har bir muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi.

Babamuratov Qudrat Hayitovich – ilm-fan va ta'lim sohasida o'z o'rnini topgan, fizika va qurilish muhandisligi yo'nalishida muhim yutuqlarga erishgan fidoyi olim va pedagogdir. Uning ilmiy izlanishlari, zamonaviy ta'lim usullariga sadoqati va yoshlarni tarbiyalashdagi samarali faoliyati nafaqat o'z sohasiga, balki butun jamiyatga ulkan hissa qo'shmoqda. O'zining qat'iyati, mehnatkashligi va innovatsion yondashuvi bilan Qudrat Hayitovich kelajakda yanada yuksak cho'qqilarni zabt etishga tayyor. Uning faoliyati yosh olimlar va talabalar uchun ilhom manbai bo'lib, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishning yorqin namunasini ko'rsatmoqda. Qudrat Hayitovich – bu nafaqat bugungi kunning muvaffaqiyatli olimi, balki kelajakning yetakchi mutaxassisi, o'zbek ilm-fanining yorqin yulduzidir.



## **NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH**

*Tarix va falsafa kafedrası dotsenti, Tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Dotsent*

Yurt taraqqiyoti, xalq ma'naviyati va yosh avlodning sog'lom dunyoqarashi ustozlarning fidoyi mehnati evaziga shakllanadi. Ayniqsa, tarix faniga mehr qo'ygan, o'tmish saboqlarini bugungi kun va kelajak bilan bog'lab bera oladigan ustozlar jamiyatda muhim o'rin egallaydi. Ana shunday chinakam ma'rifatparvarlardan biri – Nazirov Baxtiyor Safarovich bo'lib, u o'zining ilmga sadoqati, halolligi va mehnatsevarligi bilan o'qituvchilik kasbining chinakam namunasi bo'lib kelmoqda.

1985-yil 1-oktabrda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida tug'ilgan Nazirov Baxtiyor Safarovich bolalikdan tarixiy obidalar bag'rida, xalq og'zaki ijodi va o'tmish rivoyatlari bilan ulg'aydi. 2004-yil Baxtiyor Safarovich uchun taqdiriy burilish bo'ldi – u orzu qilgan O'zbekiston Milliy universitetining Tarix fakultetiga o'qishga qabul qilindi. Universitet yillarida u nafaqat tarixiy faktlar va davrlarni o'rgandi, balki voqealar ortidagi ijtimoiy-siyosiy sabablar, insoniyat taraqqiyotining murakkab jarayonlari bilan chuqur tanishdi.

2008-yilda bakalavriatni muvaffaqiyatli yakunlagach, Baxtiyor Safarovich bilim olish yo'lida to'xtab qolmadi. U o'z yo'lini yanada chuqurlashtirishga qaror qildi va 2009 yilda O'zbekiston Milliy universitetida "Xalqaro munosabatlar tarixi va nazariyasi" yo'nalishi bo'yicha magistraturasiga qabul qilindi va 2011-yilda muvaffaqiyatli tamomladi.

Baxtiyor Safarovich pedagogik mehnat faoliyatini 2008-2009-yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi 3-sonli Uchtepa akademik litseyida tarix fani o'qituvchisi sifatida boshlagan. Ustozlik faoliyatining keyingi bosqichi 2011-2018-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatidagi Termiz davlat universiteti huzuridagi 3-son Denov akademik litseyida davom etdi. Bu yillarda u o'zini nafaqat tarix fanining puxta bilimdoni, balki yosh avlodga ma'naviy tarbiya berishda

o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan o‘qituvchi sifatida namoyon etdi.

2018-yil esa uning hayotida yangi bir sahifa – oliy ta’limdagi faoliyati boshlandi. Shu yildan boshlab Baxtiyor Safarovich Termiz davlat universitetining Denov filialida pedagogik faoliyatni davom ettirdi. U “Maktabgacha ta’lim va gumanitar fanlar” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat boshladi. 2018–2019-yillar davomida yoshlarga bilim berish, ularni yuksak insoniy qadriyatlarga yo‘naltirishda jonbozlik ko‘rsatgan yosh pedagog o‘zining izlanuvchanligi va mas’uliyatli yondashuvi bilan alohida e’tiborga loyiq bo‘ldi.

Keyingi yili, ya’ni 2019–2020-yillarda Baxtiyor Safarovich “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasida faoliyatini davom ettirdi. Bu davr Baxtiyor Safarovich uchun tajriba to‘plash, bilim doirasini kengaytirish, o‘qituvchilik mahoratini chuqurlashtirish yillari bo‘ldi.

2020-yil esa uning hayotida chinakam burilish nuqtasiga aylandi. Aynan shu yili Baxtiyor Safarovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tarix va falsafa kafedrasiga o‘tib, o‘z faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. 2020–2021-yillarda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritar ekan, u fidoyiligi, chuqur nazariy bilimlari va talabchanligi bilan nafaqat talabalar, balki hamkasblari orasida ham obro‘-e’tibor qozondi.

2021–2023-yillarda Baxtiyor Safarovich katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib, talabalarga nafaqat tarix fanining nozik jihatlarini o‘rgatdi, balki ularda o‘tmishga muhabbat va izlanish ruhini uyg‘otdi. Uning darslari faqat kitobiy bilim emas, balki hayotiy hikmat va ilhom manbai edi.

2023–2024-yillarda esa Baxtiyor Safarovich dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat yuritib, o‘z ilmiy salohiyati va pedagogik tajribasini yanada yuksak pog‘onaga olib chiqdi. Sadoqat, mehnatsevarlik va o‘z ustida ishlash – bu fazilatlar Baxtiyor Safarovichni har bir bosqichda muvaffaqiyat sari yetakladi. Va nihoyat, 2024-yildan boshlab Baxtiyor Safarovich Tarix va falsafa kafedrasining to‘laqonli dotsenti sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. Bu unvon – uning ko‘p yillik mehnati, ilm-fanga sadoqati va ustozlik burchiga bo‘lgan chuqur mas’uliyatining munosib e’tirofidir.

Vatan tarixini o'rganish, uni yosh avlodga chuqur va mazmunli tarzda yetkazish har doim ustoz Baxtiyor Safarovich faoliyatining bosh mezoni bo'lib kelgan. Ilmga bo'lgan cheksiz mehr, tarixiy tafakkur va izlanuvchanlik uning hayot yo'lini belgilab bergan asosiy yo'nalishdir. O'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ygan Baxtiyor Safarovich bugungi kunda nafaqat pedagog, balki chinakam olim sifatida ham tan olingan siymolardan biridir.

2019-yildan boshlab Baxtiyor Safarovich 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixini chuqur ilmiy asosda o'rganishga bel bog'ladi. Uzoq yillar davomida olib borilgan izlanishlar natijasida u “O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi (XX asr – XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida)” mavzusida dissertatsiyasini tayyorladi. 2022-yil 14-iyun kuni Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 raqamli ilmiy kengashda ushbu dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

O'zining mehnatkashligi, ilmiy halolligi va doimiy o'sishga intilishi sababli Baxtiyor Safarovichning yutuqlari yana bir muhim bosqich bilan boyidi. 2024-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 357/1-sonli bayonnomasi asosida unga 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoni berildi. Bu – uning tarix faniga, ilmiy maktablarga, yoshlarga berilgan yillar va halol mehnatining mantiqiy, e'tiborga loyiq natijasidir.

Bugungi kunda Baxtiyor Safarovich tarix fanining dolzarb masalalarini chuqur tadqiq etayotgan yetuk olim sifatida tanilgan. Uning ilmiy merosi o'ziga xos salmoqqa ega: 3 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, 4 ta monografiya, 6 ta risola, 3 ta DGU (Davlat guvohnomasi bilan tasdiqlangan uslubiy ishlanma) hamda 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari – bular barchasi uning izchil mehnati, ilmiy fidoyiligi va yurt kelajagiga xizmat qilish yo'lidagi sobitqadamligidan dalolat beradi.

Baxtiyor Safarovich “O'zbekiston tarixi”, “O'zbek davlatchilik tarixi”, “Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi”

kabi muhim fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlar va masofaviy ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llab kelmoqda. Jumladan, u tomonidan yaratilgan elektron darsliklarning metodik ta’minoti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy guvohnomasi bilan tasdiqlanganligi – uning innovatsion fikrlashi va yangilikka intiluvchanligining yorqin isbotidir.

Baxtiyor Safarovich o‘zining ilmiy izlanishlari va pedagogik faoliyati bilan nafaqat tarix sohasi bo‘yicha mutaxassislar, balki keng jamoatchilik orasida ham e’tirofga sazovor bo‘lgan olimdir. U tarix yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va magistrantlar uchun sifatli, chuqur tahliliy yondashuvga asoslangan o‘quv adabiyotlarini yaratish orqali zamonaviy tarixiy ta’limning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Jumladan, Baxtiyor Safarovich muallifligida chop etilgan “O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha)”, “Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi”, hamda “Qadimgi va o‘rta asrlar davri xalqaro munosabatlar tarixi” fanlariga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari 70220301 – Tarix mutaxassisligi magistrantlari uchun asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu asarlar o‘zining mazmunan boyligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Uning tarixiy va madaniy sohalardagi chuqur tadqiqotlari qator monografiyalarda o‘z aksini topgan. Xususan, “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”, “O‘zbek milliy kurash tarixi”, “O‘zbekistonda ommaviy sport o‘yinlari tarixi (sportning futbol turi misolida)”, “Jaloliddin Manguberdi: buyuk jasorat tarixi” kabi asarlar tariximizdagi muhim jihatlarni ilmiy asosda yoritib berishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, Baxtiyor Safarovich tomonidan yozilgan “Aburazzoq Samarqandiyning ‘Matlai sadayn va majma ul bahrayn’ asarida tarixiy shaxslar talqini”, “Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shohrux va Mirzo Ulug‘bek”, “O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Surxondaryo viloyati misolida)”, “O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining diniy e’tiqodlarining manbalarda aks

etishi” kabi risolalar tarixiy tafakkur va zamonaviy tahlilni uyg‘unlashtirgan yondashuvga misoldir.

Bundan tashqari, Baxtiyor Safarovich tomonidan tayyorlangan “Mahallalarda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish” mavzusidagi metodik qo‘llanma ijtimoiy boshqaruv va mahalla institutining bugungi hayotdagi o‘rnini yoritishda muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda Baxtiyor Safarovich o‘z ilmiy faoliyatini yanada chuqurlashtirgan holda, “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportning shakllanishi va rivojlanishi tarixi (qadimgi davrdan – 2022-yilga qadar Surxon vohasi misolida)” mavzusida tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bu izlanishlar nafaqat Surxon vohasining sport tarixini balki, butun O‘zbekiston sport madaniyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini kompleks tarzda yoritishga xizmat qiladi.

Baxtiyor Safarovich o‘zining ilmiy izlanishlari bilan nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy maydonda ham faol ishtirok etib, tarix fanining dolzarb masalalarini yoritishda samarali faoliyat olib bormoqda. U “History Research” (AQSh) xalqaro ilmiy jurnalining retsenzenti sifatida faoliyat yuritib, nashr etiladigan ilmiy maqolalarni xolislik va yuqori akademik mezonlar asosida tahlil qilish orqali ilmiy izlanishlar sifati va nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Mazkur mas’uliyatli vazifa orqali u xalqaro ilmiy hamjamiyatda O‘zbekiston tarixshunosligini munosib namoyish etmoqda.

Shuningdek, Baxtiyor Safarovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tadbirkorlik va pedagogika” ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay’ati a’zosi sifatida faol ishtirok etib, jurnalning ilmiy yo‘nalishini belgilash, maqolalarni saralash va tahrir qilish jarayonlariga faol hissa qo‘shmoqda. Bu orqali u tarix fanining rivoji va dolzarb muammolarining ommalashuviga xizmat qilmoqda.

Baxtiyor Safarovich har yili Respublika va institut miqyosida tashkil etiladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda muntazam qatnashib keladi. Uning ilmiy ma’ruzalari yoshlar tarbiyasi, tarixshunoslikdagi dolzarb yo‘nalishlar, jismoniy madaniyat va sport

tarixi, shuningdek, oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan bo'lib, keng jamoatchilikda ijobiy rezonans uyg'otmoqda. So'nggi besh yil ichida u 30 dan ortiq mahalliy va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, o'z tadqiqotlari asosida tayyorlagan maqolalarini nufuzli to'plamlarda e'lon qildi. Bu esa, uning ilmiy faoliyatining faolligini va sohaga qo'shayotgan beqiyos hissasini ko'rsatadi.

Baxtiyor Safarovich o'zining tashabbuskorligi, ijodiy yondashuvi va tashkilotchilik qobiliyati bilan ajralib turadi. Kafedra a'zolari bilan hamkorlikda u 2023-yil 19-sentyabr kuni "Mamlakatimizda uchinchi renessans g'oyasini keng targ'ib qilishda ijtimoiy va gumanitar fanlarning ahamiyati va o'rni" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyani muvaffaqiyatli tashkil etdi. Mazkur tadbir jamiyatda ilm-fanga bo'lgan hurmat va e'tiborni mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur ilmiy tadbirlar orqali Baxtiyor Safarovich ilmiy hamjamiyatni birlashtirish, dolzarb tarixiy va mafkuraviy masalalarni muhokama qilish, yangi ilmiy yondashuvlarni ilgari surish, yosh olimlarni faol ilmiy jarayonga jalb etish borasida katta hissa qo'shdi. Uning har bir faoliyati – bu yurt tarixini anglash, uni ilmiy asosda o'rganish va kelajak avlodga yetkazish yo'lidagi fidokorlik namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Baxtiyor Safarovich o'zining uzoq yillik ilmiy va pedagogik faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning faol targ'ibotchisi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining bevosita ishtirokchisi sifatida o'zini namoyon etib kelmoqda. U nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanib, balki jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni faol qo'llab-quvvatlaydi. Baxtiyor Safarovich, e'tiqodli, sog'lom fikrli, madaniyatli, intizomli va samimiy ustoz sifatida o'z shogirdlari va hamkasblari orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Uning mehribonligi va rahbarlik sifati ko'plab yosh olimlar va talabalarga ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun kuchli ilhom va yo'naltirish manbai bo'lib xizmat qilmoqda.



## **MAXMUDOV SHOKIR KAMOLOVICH**

*Pedagogika va psixologiya kafedrası  
dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (Phd)*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – bu bilimli va tafakkurli insonlar avlodini tarbiyalashdir. Kishining ma'naviy yuksalishi, avvalo, uning bilim olishga, tafakkurini boyitishga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimi islohotlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan davlat siyosati ayni shu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan fidoyi ustozlarning mehnati bilan yanada samarali bo'lmoqda. Ana shunday o'z kasbiga sadoqat bilan yondashayotgan, yuksak ilmiy salohiyati, ko'p yillik pedagogik tajribasi va yurt ravnaqiga xizmat qilayotgan professor-o'qituvchilardan biri – Maxmudov Shokir Kamolovichdir.

Shokir Kamolovich 1976-yil 3-noyabrda Surxondaryo viloyati Denov tumanining Shahrinav mahallasida ziyoli oilada tavallud topgan. 1983-yilda Denov tumanidagi G'afur G'ulom nomli 36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qadam qo'yib, 1993-yilda ushbu maktabni a'lo baholar bilan tamomladi. O'qishga bo'lgan qiziqish va ilmga chanqoqlik uni pedagogik yo'nalishda faoliyat boshlashga undadi.

1993–1998-yillar mobaynida Maxmudov Shokir Kamolovich Tojikiston davlat pedagogika universitetida tahsil olib, psixologiya sohasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirdi. Talabalik yillarida o'zining izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va intellektual salohiyati bilan ajralib turgan Shokir Kamolovich, 1998-yildan boshlab ushbu universitetning psixologiya kafedrasida assistent lavozimida mehnat faoliyatini boshladi. U o'zining fidokorona mehnati, ilm-fanga bo'lgan mehr-muhabbati evaziga qisqa vaqt ichida o'z kasbining mohir mutaxassisiga aylandi. 1998–2013-yillar davomida mazkur kafedrada o'qituvchi, katta o'qituvchi hamda dotsent lavozimlarida samarali faoliyat yuritdi.

Keyingi yillarda o‘z ilmiy va pedagogik faoliyatini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida davom ettirgan Shokir Kamolovich 2018–2019-yillarda Termiz davlat universiteti Denov filialining “Boshlang‘ich ta’lim va aniq fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida ishlagan. 2020–2021-yillarda esa Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasiga rahbarlik qilib, ushbu ta’lim muassasasida sifatli kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish yo‘lida faol mehnat qildi.

Shuningdek, ilmiy izlanishlar bilan muntazam shug‘ullanib kelgan Shokir Kamolovich 2023-yilda 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu yutuq uning pedagogik faoliyatidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, ilmiy salohiyatining yuksakligini yana bir bor isbotlab berdi. 2024-yil kelib, shokir Komilovich 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi.

Shokir Maxmudov dars o‘tish bilan bir qatorda o‘zi o‘qitadigan o‘quv fanlaridan talabalarni o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashga ham harakat qilib kelmoqda. Maxmudov Shokir Kamolovich o‘zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida hammualliflikda bir qator muhim o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlagan. Jumladan, “Pedagogik mahorat” nomli darslik (2023-yil), “Психолого-педагогический практикум” (2023-yil), “Talabalarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari” monografiyasi (2023-yil), “Психологияи омўзгорӣ” (2023-yil) hamda “Социально-психологические тренинги управления конфликтами” (2021-yil) kabi asarlar nafaqat Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, balki respublika bo‘yicha boshqa oliy ta’lim muassasalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Ushbu adabiyotlarning barchasi institutning Axborot-resurs markaziga joylashtirilib, asosiy va mustaqil ta’lim vositasi sifatida foydalanilmoqda. Ular pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim nazariy-amaliy

manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shokir Kamolovich o‘z pedagogik faoliyati davomida 50 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar muallifi sifatida tanilgan. Uning ilmiy izlanishlari ta’lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish va yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgandir. U shuningdek, iqtidorli talabalar bilan ishlashda faol ishtirok etib, ularning ilmiy salohiyatini ochish va rag‘batlantirish borasida samarali ish olib bormoqda. Natijada, Shokir Kamolovich rahbarligida tayyorlangan talabalarning ayrimlari respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlarda munosib natijalarga erishganlar. Xususan, 2021-yilda Rahmonova Dilrabo Ibrohim qizi Qozog‘istonning Nur-Sulton shahrida tashkil etilgan “Лучший молодой учёный – 2021” xalqaro tanlovida faxrli birinchi darajali diplom va medal bilan taqdirlangan. Shu bilan birga, Pedagogika fakultetining 3-bosqich talabasi Safarov Azizbek Isoq o‘g‘li Surxondaryo viloyati hokimi stipendiyasiga sazovor bo‘lgan.

Bugungi kunda Maxmudov Shokir Kamolovich Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritmoqda. U kafedraning tayanch doktorantlari va mustaqil izlanuvchilariga ilmiy rahbarlik qilgan holda, yosh olimlar avlodini yetishtirish yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqda.

Shokir Kamolovich – bilimga sadoqat, ilmga muhabbat va mehnatga halollik bilan yondashgan chinakam pedagog olimdir. U nafaqat institut doirasida, balki butun ta’lim tizimida o‘zining boy tajribasi, zamonaviy yondashuvi va ilmiy salohiyati bilan hurmat-e’tibor qozongan ziyoli siymodir. Uning hayot yo‘li – o‘qituvchilik kasbini tanlagan yosh avlod uchun chin ibrat maktabidir.



## **XASANOVA NODIRA IBRAGIMOVNA**

*Tarix va falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi,  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Dotsent*

Xasanova Nodira Ibragimovna 1974-yil 28-may kuni Surxondaryo viloyatining go‘zal va serquyosh maskani – Denov tumanida, mehnatkash dehqonlar oilasida dunyoga keldi. Bolaligidan tabiatning betakror manzaralari, sermahsul zamin va samimiy insonlar bag‘rida ulg‘aygan Nodira Ibragimovna yoshlikdan bilim olishga, kitob mutolaasiga qiziqib, maktabda o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi bilan ustozlar e‘tiboriga tushgan. Ayniqsa, tarix faniga bo‘lgan mehr va qiziqish uni bu yo‘nalishda chuqur izlanishga undadi.

Nodira Ibragimovna 1981–1991-yillarda Denov tumanidagi o‘rta maktabda tahsil olib, barcha fanlardan yuqori natijalarga erishdi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlardan yuksak bilim ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, maktab davridayoq iqtidorini namoyon eta boshladi. Ustozlarining mehribonlik bilan bergan saboqlari, ota-onasining yuksak orzulari Nodira Ibragimovnani yuksak marralarga intilishga undadi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, Nodira Ibragimovna 1991-yilda Termiz davlat universitetining tarix va jamiyatshunoslik fakultetiga o‘qishga qabul qilindi. 1991–1996-yillar davomida u mazkur oliy ta‘lim dargohida o‘z bilim doirasini kengaytirib, tarixiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy tahlil ko‘nikmalarini mustahkamladi. Universitet davrida Nodira Ibragimovna nafaqat o‘zlashtirishdagi yutuqlari bilan, balki tadbirkorligi, faol ishtiroki va ijtimoiy hayotdagi faolligi bilan ham professor-o‘qituvchilar va kursdoshlar e‘tiborini qozondi.

Nodira Ibragimovna o‘z mehnat faoliyatini O‘zbekiston ta‘lim tizimida sadoqat, fidoyilik va mas‘uliyat bilan boshlab, bugungi kunga qadar xalq ma‘naviyati, tarixiy ong va milliy g‘ururni yuksaltirish yo‘lida yuksak samaradorlik bilan faoliyat olib bormoqda. Uning pedagoglik faoliyati nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularni komil inson qilib tarbiyalash, tarixiy haqiqatni to‘g‘ri tushuntirish, milliy

qadriyatlarni yuraklarga singdirishdek muqaddas maqsadlar bilan uyg'unlashgan. 1995–2012-yillar mobaynida Nodira Ibragimovna Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 23-sonli umumta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, minglab o'quvchilarga tarix fani sir-asrorlarini sabr-toqat bilan o'rgatdi. Bu yillar davomida Nodira Ibragimovna tarix fanining murakkab jihatlarini yengil, tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkazish borasida o'ziga xos pedagogik yondashuvlar va innovatsion uslublardan samarali foydalandi. Uning darslarida tarix nafaqat faktlar ketma-ketligi, balki milliy o'zlik, xotira va faxr manbai sifatida talqin qilinar edi.

2012–2016-yillar oralig'ida Nodira Ibragimovna Denov sport va pedagogika kollejida o'qituvchi sifatida faoliyat olib bordi. Bu davrda u ta'lim va tarbiya uyg'unligiga alohida e'tibor qaratib, yosh avlod qalbida tarixga bo'lgan muhabbat, Vatanga sadoqat va intellektual rivojlanish istagini shakllantirish yo'lida jonbozlik ko'rsatdi. Ustoz va murabbiy sifatida uning har bir so'zi, har bir darsi yoshlar tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2016–2017-yillarda esa Nodira Ibragimovna aynan kollejda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davr Nodira Ibragimovnaning tashabbuskor, fidoyi va tashkilotchilik salohiyatini to'liq namoyon etgan bosqich bo'ldi. U muassasa hayotiga yangi ruh, zamonaviy fikrlash va ilg'or tajribalarni olib kirib, ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, tarixiy-madaniy ekskursiyalar, uchrashuvlar va madaniy-ma'rifiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

2018-yildan boshlab Nodira Ibragimovnaning mehnat faoliyatida yangi bosqich boshlandi. O'sha yili Prezidentimiz tashabbusi bilan Termiz davlat universitetining Denov filiali tashkil etildi va aynan shu dargohda u yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi lavozimlarida faoliyat boshladi.

2018–2020-yillar oralig'ida Nodira Ibragimovna yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi lavozimida talaba-yoshlarning intellektual, ma'naviy va madaniy salohiyatini rivojlantirish yo'lida faol harakat qildi. Ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy-

ma'rifiy suhbatlar, davra uchrashuvlari va vatanparvarlik ruhidagi loyihalar uning tashabbusi bilan amalga oshirildi.

Aynan 2020-yilda Nodira Ibragimovna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tarix va falsafa kafedrasida o'z faoliyatini o'qituvchi sifatida davom ettirdi. Shu bilan birga jamoatchilik asosida Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda. U 2020–2022-yillar mobaynida ushbu kafedrada tarix fanlarini o'qitishda, yangi avlod mutaxassislarini yetishtirishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini talabalar bilan uyg'unlikda olib borishda alohida faollik ko'rsatdi. Uning mas'uliyatli mehnati, yuksak pedagogik mahorati va ilmiy salohiyati e'tiborga olinib, 2022-yilda Tarix va falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga tayinlandi. Bu bosqichdan boshlab u ilmiy-pedagogik faoliyatini yanada kengaytirib, kafedra faoliyatining mazmunan boyishi va dars jarayonining metodik takomillashuviga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Oliy ta'limda faoliyatini boshlagandan so'ng, Nodira Ibragimovna o'zining pedagogik faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan uyg'un holda olib borib, tarix fanining dolzarb masalalariga chuqur e'tibor qaratdi. U 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. Nodira Ibragimovna 2021-yil dekabr oyida Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashda “O'zbekistonda sovet hukumatining madaniy-ma'naviy siyosati va uning natijalari (Surxon vohasi misolida, 1917–1941-yillar)” mavzusidagi dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi oldi.

Nodira Ibragimovna bugungi kunda nafaqat tajribali pedagog, balki zamonaviy tarixshunoslik va metodika yo'nalishida faol ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim sifatida ham tanilgan. U o'zining sermahsul ilmiy faoliyati davomida respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli nashrlarda 30 dan ortiq ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalarni chop ettirdi. Bu maqolalarda u o'zbek tarixining dolzarb masalalari, ayniqsa, sovet davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ularning ta'siri va tarixiy saboqlari haqida chuqur tahlil va izlanishlar olib bordi.

Nodira Ibragimovnaning pedagogik faoliyati davomida yaratilgan

muhim asarlaridan biri 2022-yilda nashr etilgan “O‘zbekistonda Sovet hukumatining madaniy-ma’naviy siyosati” nomli monografiyasidir. Ushbu monografiyada u sovet davridagi madaniyat va ma’naviyat siyosatining murakkab yo‘nalishlarini tarixiy hujjatlar, faktlar asosida tahlil qilib, milliy ong va ma’naviyatga ko‘rsatgan ta’sirini yoritishga intilgan. Kitob nafaqat tarixiy faktlar bilan boyitilgan, balki dolzarb mavzularni o‘z ichiga olgan fundamental tadqiqot sifatida qadrlanadi.

Shuningdek, 2024-yilda “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” tomonidan nashr etilgan “Tarix o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi esa pedagoglar, magistrantlar va tarix fanini o‘qitishga qiziqqan barcha uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu asarda tarix fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish, interaktiv metodlardan foydalanish, tarixiy tafakkurni shakllantirishga oid muhim tavsiyalar mujassamlangan.

Nodira Ibragimovnaning pedagogik faoliyati davomida talabalar, ayniqsa, qizlar bilan olib borgan ishlari alohida e’tiborga loyiq. U oliy ta’lim muassasasida Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi sifatida faoliyat yuritgan yillarida institut talabalari, xususan, yosh qizlarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi va ta’limdagi yutuqlari yo‘lida fidokorona xizmat qildi. Xususan, qisqa vaqt ichida 8 nafar talaba qiz Prezident davlat stipendiyasi, shuningdek, Islom Karimov, Alisher Navoiy kabi nufuzli nomdor stipendiyalariga sazovor bo‘lishida bevosita maslahat va ko‘mak bergan. Bundan tashqari, 5 nafar iqtidorli qiz “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotining respublika bosqichida faol ishtirok etib, yuqori natijalarga erishgan.

Nodira Ibragimovna yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash borasida ham keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirgan. U tomonidan turli mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda talaba-yoshlarni vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar, yot g‘oyalarga qarshi kurash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida 70 ga yaqin ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilgan. Ayniqsa, giyohvandlik, OITS kabi ijtimoiy illatlarga qarshi kurash borasidagi targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan yoshlar ongida hushyorlik va mas’uliyat hissini shakllantirishga katta hissa qo‘shgan.

Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish borasida ham Nodira Ibragimovna o‘z faoliyatini keng yo‘lga qo‘ygan. U tomonidan ta‘lim muassasasida 50 dan ortiq, mahallalarda esa 10 dan ziyod targ‘ibot-tashviqot uchrashuvlari tashkil etilib, Gender tengligi, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, huquqiy ongi va savodxonlikni oshirishga doir qonuniy asoslar keng yoritilgan.

2023–2024 o‘quv yili davomida “Ayollar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan 11 nafar qizga imtiyozli stipendiyalar ajratilishida, shuningdek, 7 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ish bilan ta‘minlashda bevosita tashabbuskorlik qilgan. Ayniqsa, ta‘lim muassasasida jinoyatchilikning oldini olish, o‘z joniga qasd holatlarining bartaraf etilishi yo‘lidagi muntazam tushuntirish ishlari va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar samara bergani natijasida 2023–2024 o‘quv yili davomida institutda ajrimlar, jinoyatchilik va o‘z joniga qasd holatlari qayd etilmagan.

Nodira Ibragimovna turli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, talaba-yoshlar, ayniqsa, qizlarning huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirishga intilmoqda. Xususan, tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman Ichki ishlar bo‘limining xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limi, “Taskin” nodavlat-notijorat tashkiloti, Oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha tuman bo‘limlari bilan muntazam hamkorlikda ishlamoqda.

Shu bilan birga, u Denov tumani “Oqila ayollar” harakati rahbari sifatida ham faoliyat yuritib, ilmiy, ziyoli va tadbirkor ayollar bilan doimiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etib kelmoqda. Mazkur uchrashuvlar orqali mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini mahallalardagi ayollar orasida keng tushuntirib, islohotlarning respublikaning chekka hududlarigacha yetib borishida faol ishtirok etmoqda.

Nodira Ibragimovna o‘zining pedagogik va jamoat ishlaridagi faoliyati bilan nafaqat institut miqyosida, balki tuman, viloyat va respublika darajasida ham yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lgan xodimalardan biridir. U 2024-yilda institutda tuman miqyosida tashkil

etilgan mehnat yarmarkalarida bitiruvchi talaba qizlar hamda mahalla yoshlari ishtirokini ta'minlab, ularning bandligini ta'minlashda, shuningdek, kasb-hunar egallashlariga amaliy yordam ko'rsatishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ayniqsa, mehnat yarmarkasi orqali ko'plab ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga munosib kasb topishda ko'makchi bo'ldi.

Shuningdek, 2023–2024 o'quv yillari davomida ijtimoiy muhiti nosog'lom bo'lgan 8 nafar xotin-qizning jamiyatga moslashuvi yo'lida samarali faoliyat olib bordi. Bu ishlar orqali u o'zining nafaqat o'qituvchi, balki mehribon murabbiy va yetuk ijtimoiy maslahatchi sifatidagi salohiyatini namoyon etdi.

Nodira Ibragimovna institutda olib borilayotgan barcha rejali ishlar va jamoat tadbirlarida doimiy faol ishtirok etib kelmoqda. U institut xotin-qizlar maslahat kengashining raisi, shuningdek, jamoatchilik kengashining faol a'zosi sifatida tanilgan. Jamoa orasida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lib, o'zining insoniy fazilatlari, fidokorona mehnati va tashabbuskorligi bilan ko'pchilik uchun namuna bo'lib kelmoqda.

Nodira Ibragimovna turli ko'rik-tanlovlarda – jumladan “Ilmli ayol”, “Yil ayoli”, “Islohotlar bilimdoni” kabi nufuzli tanlovlarning tuman, viloyat va respublika bosqichlarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan. Jumladan, 2022-yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovining institut bosqichida 1-o'rinni egallagan va 2022-yil 28-sentyabr kuni Respublika bosqichida “Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi” nominatsiyasida imtiyozli o'rin sohibasiga aylangan.

Shuningdek, 2022–2023-yillarda “Yil ayoli” ko'rik-tanlovining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida faol ishtirok etgan va faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan. 2024-yilda esa “Yil ayoli” tanlovining tuman va viloyat bosqichlarida 1-o'rinni egallagan holda respublika bosqichida ham munosib ishtirok etgan.

Nodira Ibragimovna ko'p yillik samarali pedagogik mehnati, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi sadoqati hamda jamoatchilikdagi faol ishtiroki uchun 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. Shuningdek, yoshlar siyosatini rivojlantirishda qo'shgan munosib hissasi uchun 2025-yil 7-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Tashakkurnomasi bilan e'tirof etildi.

Nodira Ibragimovna ilmiy va jamoaviy ishlaridagi faolligi uchun bir necha bor tuman hokimligi hamda institut ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan. Darsdan tashqari vaqtda institut miqyosida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etib, rahbariyat va jamoaning alohida e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Bugungi kunda u yoshlarning huquqiy, tibbiy va ijtimoiy savodxonligini oshirishga, gender tenglikni targ'ib etishga, xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik va ijtimoiy muammolarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamlil faoliyatni izchil davom ettirib kelmoqda. Xususan, tuman tibbiyot birlashmasi, IIB xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi, "Taskin" nodavlat notijorat tashkiloti, shuningdek, oila va xotin-qizlar bilan ishlash bo'limlari bilan hamkorlikda samarali ishlamoqda.

Nodira Xasanova institutning rejali ishlarini bajarishda hamda jamoat hayotida faol ishtirok etib keladi. U xotin-qizlar maslahat kengashi raisi va jamoatchilik kengashining a'zosi sifatida institut jamoasi orasida katta obro'-e'tibor qozongan.

Uning har yili o'tkaziladigan "Ilmli ayol", "Yil ayoli", "Islohotlar bilimdoni" kabi nufuzli ko'rik-tanlovlardagi ishtiroki va yutuqlari bunga yaqqol misoldir. Jumladan, 2022-yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Islohotlar bilimdoni" respublika ilmiy-ma'rifiy tanlovining institut bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida "Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi" nominatsiyasi bo'yicha imtiyozli o'rin sohibasi bo'ldi. 2022–2023 va 2024-yillarda "Yil ayoli" tanlovining tuman va viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

2025-yilning 5-mart kuni uzoq yillik samarali mehnati, pedagogik faoliyatiga bo'lgan sadoqati, yoshlar bilan ishlashdagi tashabbuskorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **Faxriy yorlig'i** bilan taqdirlandi. Oradan ikki kun o'tib, 7-

mart kuni esa yoshlarga bag'ishlangan loyihalardagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan **Tashakkurnoma** bilan e'tirof etildi.

U o'zining faol fuqarolik pozitsiyasi bilan OAVda ham faol chiqishlar qilib kelmoqda. "O'zbekiston tarixi", "Zamon", "O'zbekiston-24", "Ma'naviyat va ma'rifat", "Surxondaryo" telekanallarida yoshlarga, xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoitlar, ilm-fandagi yutuqlar xususida chuqur mulohazalar bildirgan.

Nodira Xasanova ilmiy tadbirlarda ham faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, u 2023-yil 15-sentyabrda "Uchinchi Renessans" g'oyasiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanida, 17–18-noyabrda "Axborot urushi va mafkuraviy tahdidlar" mavzusidagi xalqaro anjumanda, 2024-yil 19-noyabrda esa "Turkiy xalqlar tarixiy davlatchiligi" bo'yicha xalqaro miqyosdagi anjumanda ilmiy chiqishlar bilan ishtirok etdi.

Shuningdek, 2024-yil 15-oktyabrda Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan davra suhbatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligiga bag'ishlangan intellektual zakovat o'yinlari va tadbirlarda tashabbuskorlik ko'rsatdi.

2024-yil sentyabridan buyon Oltinsoy tumanidagi 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim sifati va oliy ta'limga qamrovni oshirish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etib kelmoqda. 2025-yil 3–4 mart kunlari O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida o'tkazilgan "Yoshlar tarbiyasi: milliy qadriyat va ommaviy madaniyat" mavzusidagi respublika seminar-treningda ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi.

Xasanova Nodira Ibragimovna – bu zamonamizning fidoyi, bilimdon va tashabbuskor pedagoglaridan biri bo'lib, uning hayoti va faoliyati O'zbekiston ta'limi va tarixshunosligining buguni hamda kelajagiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. U nafaqat o'z sohasining yetuk mutaxassisi, balki yosh avlod tarbiyasida, xotin-qizlar salohiyatining yuksalishida va jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni qaror toptirishda yetakchi shaxs sifatida namuna bo'la oladi.



**XO'JAGELDIYEV CHORSHANBI  
PARDAEVICH**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasini taraqqiy ettirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish va ularga malakali rahbarlik qilish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda o'zining fidokorona mehnati, chuqur ilmiy izlanishlari va mehrli ustozlik faoliyati bilan ajralib turadigan olimlar bor. Shular safida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevichning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.

Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich 1970-yil 7-oktabrda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida ziyoli oilada tavallud topgan. 1978–1988-yillar oralig'ida Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi 23-maktab hamda Sherobod tumanidagi 51-sonli umumta'lim maktablarida ta'lim oldi. O'zining tirishqoqligi, a'lo baholardagi o'qishi va namunali xulqi bilan ajralib turgan Chorshanbi Pardayevich umumta'lim maktabini "Oltin medal" bilan yakunladi. 1990-yilda esa u Toshkent politexnika institutiga o'qishga qabul qilinib, 1996-yilda Toshkent arxitektura-qurilish institutining "injener-iqtisodchi" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli tamomladi.

Mehnat faoliyatining ilk bosqichlaridanoq iqtisodiyot sohasida puxta bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich o'z faoliyatini 1996–1997-yillarda "Bunyodkor" aksiyadorlik jamiyatida iqtisodchi lavozimidan boshladi. Keyinchalik 1997–1998-yillarda Termiz shahar Xalq bankida nazoratchi sifatida faoliyat yuritib, moliyaviy nazorat va bank ishlarining ichki tizimlari bilan yaqindan tanishdi.

1998–2000-yillarda esa u Respublikadagi yetakchi iqtisodiy bilim

maskanlaridan biri bo'lgan Respublika biznes maktabining Termiz filialida o'qituvchi sifatida faoliyat olib bordi. Ushbu davrda Chorshanbi Pardayevich nafaqat nazariy bilimlarni berishda, balki zamonaviy biznes asoslarini yosh kadrlarga singdirishda ham faol ishtirok etdi. Mehnatga sadoqat va pedagogik salohiyatining yuksakligi bois 2000-2001-yillarda ushbu filialda direktor o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

2001–2003-yillarda Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich Termiz davlat universiteti “Menejment va marketing” kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishladi. Ustozlik yo'lida qat'iy intilishlar va ilmiy izlanishlar natijasida 2004–2012-yillar davomida universitetning “Menejment” kafedrasida katta o'qituvchi sifatida samarali faoliyat olib bordi.

Keyingi yillarda uning faoliyati yanada kengayib, 2012–2016-yillarda Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi va boshqaruv” kafedrasida, 2016–2018-yillarda esa “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida ishladi. Har ikki yo'nalishda ham u iqtisodiy bilimlarning chuqurlashtirilgan tahlili va amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan yondashuvlarini talabalarga yetkazishda alohida muvaffaqiyatlarga erishdi. 2018-yil 28-avgustdan boshlab 2022-yil 1-iyungacha u Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida katta o'qituvchi sifatida faoliyat olib bordi. Uning samarali pedagogik ishlari va ilmiy izlanishlari e'tiborga olinib, 2022-yil 1-iyundan boshlab ushbu kafedrada dotsent vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. 2024-yil 29-yanvardan boshlab Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Bugungi kunga kelib, u ilmiy-tadqiqot, ta'lim-tarbiya, metodik va tashkiliy ishlar bilan faol shug'ullanib, institutda raqamli iqtisodiyot yo'nalishini rivojlantirishda munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich 2015–2022-yillar mobaynida “Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib bordi. Ushbu tadqiqot doirasida u sug'oriladigan yer fondidan foydalanish samaradorligini oshirish, yer unumdorligini barqaror ravishda yaxshilash

va agrar sohada iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini chuqur o‘rgandi. Ilmiy izlanishlar natijalari asosida Chorshanbi Pardayevich 2022-yil 30-aprel kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy kengashda dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

Chorshanbi Pardayevichning ilmiy faoliyati nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, uning tadqiqotlari qishloq xo‘jaligida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni rag‘batlantirish asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Uning ilmiy ishlari agrar sohadagi dolzarb muammolarni yechishga qaratilganligi bilan e‘tiborga loyiq. Hozirgi kunda olim o‘z ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirib, “O‘zbekiston sug‘oriladigan yer fondidan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasi ustida ishlayotgan. Ushbu tadqiqot orqali u agrar sohada samarali resurs boshqaruvi va yer foydalanish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslar yaratishni maqsad qilgan. Xo‘jageldiyev Chorshanbi Pardayevich – nafaqat chuqur bilimga ega iqtisodchi olim, balki pedagogik mahorati va fidoyiligi bilan ko‘pchilikka namuna bo‘layotgan ustozlardan biridir. Bugungi kunga kelib Chorshanbi Pardayevich 50 dan ortiq ilmiy maqola, 2 ta monografiya, ko‘plab uslubiy qo‘llanmalar hamda respublika va xalqaro miqyosda taqdim etilgan tezislar muallifi sifatida tanilgan. Uning har bir ilmiy ishi o‘z dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Olim o‘zining ilmiy salohiyatini faqat shaxsiy izlanishlar bilangina emas, balki yosh tadqiqotchilar va magistrantlarni ilm-fan yo‘liga yetaklash orqali ham namoyon etmoqda. Uning ilmiy rahbarligida bir qancha magistrlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan bo‘lib, bugungi kunda ham Chorshanbi Pardayevich iqtidorli va ilmga chanqoq yoshlar bilan ishlashda davom etmoqda. Har bir shogirdiga o‘z vaqtida kerakli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularga ilmiy izlanishda mustahkam tayanch bo‘la olayotgani ustozlik burchiga sadoqat ramzi sifatida e‘tirof etiladi.



## MENGLIBOYEV AKMAL XOLTO'RAYEVICH

*Tarix va falsafa kafedrası dotsenti, tarix fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Professor olim jamiyatning intellektual yuragi, bilimning muqaddas olovini yoqib, kelajakni shakllantiruvchi shaxsdir. U o'zining chuqur tadqiqotlari, ilmiy kashfiyotlari va pedagogik mahorati orqali nafaqat ta'lim tizimini yuksaltiradi, balki yosh avlodni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va milliy qadriyatlar sadoqatiga undaydi. Bunday olimlar jamiyatning ma'naviy va madaniy boyligini asrab-avaylab, uni yangi cho'qqilarga yetaklaydi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan Mengliboyev Akmal Xolto'rayevich ana shunday nodir shaxs – O'zbekiston tarixining nozik sahifalarini o'rganuvchi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi va ilmiy maktab yaratuvchi haqiqiy professor olim.

Mengliboyev Akmal Xolto'rayevich 1993-yil 15-mart kuni Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida, o'zbek xalqining mehnatkash va ma'rifatsevar oilasida dunyoga keldi. Bolalik yillaridan boshlab uning qalbida tarixga, o'z xalqining o'tmishi va ildizlariga bo'lgan chuqur qiziqish uyg'ondi. Qadimiy voqealar, xalqning sinovli yo'llari va buyuk shaxslar haqidagi hikoyalar uning yosh ongida o'chmas iz qoldirdi. Bu qiziqish uning kelajak yo'lini belgilab, uni tarixshunoslikning muqaddas olamiga yetakladi.

Ta'lim yo'li Akmal Xolto'rayevich uchun bilimning mustahkam poydevorini qurish va o'zbek tarixining nozik sirlarini kashf etish davri bo'ldi. 2014-yilda u O'zbekiston milliy universitetining Tarix fakultetini bakalavr sifatida muvaffaqiyatli tamomladi. Bu yillar uning tarix faniga bo'lgan muhabbatini yanada chuqurlashtirdi, uni o'tmishni o'rganishga undovchi ilk ilmiy savollarni shakllantirdi. O'qishni davom ettirish ishtiyoqi uni to'xtatib qolmadi – 2017-yilda u shu universitetning "Tarix (mamlakatlar va mintaqalar)" yo'nalishida magistratura darajasini qo'lga

kiritdi.

O‘qishni tamomlagach, Akmal Xolto‘rayevich o‘z bilimlarini yosh avlod bilan baham ko‘rishga kirishdi. 2014–2015-yillarda Qumqo‘rg‘on qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kollejida tarix fani o‘qituvchisi sifatida faoliyat boshladi. Bu yerda u o‘quvchilarga nafaqat tarixiy faktlarni, balki o‘tmishdan olingan saboqlarni, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini singdirdi. 2015-yilda Akmal Xolto‘rayevich Toshkent shahrining Shayxontohur tumanidagi 276-maktabga o‘tib, 2017-yilgacha bu yerda tarix fani o‘qituvchisi sifatida ishladi.

2018-yilda Akmal Xolto‘rayevich Termiz davlat universitetining Denov filialida yangi sahifa ochdi. U dastlab “Maktabgacha ta’lim va gumanitar fanlar” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u nafaqat tarix fanini o‘rgatdi, balki gumanitar fanlarning yosh avlod tarbiyasidagi muhim o‘rnini talabalarga anglatdi. 2019–2020-yillarda esa “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasida o‘z ishini davom ettirdi.

2020-yilda Akmal Xolto‘rayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tarix va falsafa kafedrasiga qadam qo‘yib, o‘zbek tarixshunosligida o‘ziga xos iz qoldirish yo‘lini boshladi. Bu yerda u pedagogik mahorati va talabchan yondashuvi bilan talabalar va hamkasblari orasida darhol e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Dastlab 2020–2021-yillarda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi, so‘ng 2021–2023-yillarda katta o‘qituvchi lavozimida egalladi. 2023-yilda dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida mas’uliyatni oshirib, kafedraning ilmiy va ta’lim jarayonlarida muhim o‘zgarishlarga hissa qo‘shdi. 2024-yildan boshlab esa u ushbu kafedraning dotsenti sifatida o‘z xizmatini muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

Akmal Xolto‘rayevichning o‘ziga xos talabchanligi va tarixga bo‘lgan cheksiz qiziqishi uni O‘zbekiston tarixining murakkab sahifalarini tadqiq etishga undadi. 07.00.01 – O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha qatag‘onlik va milliy kamsitish siyosati kabi nozik masalalarni chuqur o‘rganib, u xalqning o‘tmishidagi sinovli yo‘llarni yorita oldi.

2022-yil 26-mart kuni Termiz davlat universiteti huzuridagi

PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 raqamli ilmiy kengashda u muhim qadam tashladi. “Janubi-sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi va unga qarshi kurash (1917–1930 yillar Surxon vohasi misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) darajasini qoʻlga kiritdi. Bu tadqiqot Surxon vohasidagi xalqning mustaqillik ruhini ochib, oʻzbek tarixiga yangi nur sochdi.

Uning mehnati 2024-yil 24-aprelda yana eʼtirof topdi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining 353/1-sonli qarori bilan Akmal Xoltoʻrayevichga 07.00.01 – Oʻzbekiston tarixi boʻyicha dotsent ilmiy unvoni berildi. Bu unvon uning ilmiy izlanishlari, oʻzbek tarixiga qoʻshgan hissasi va yoshlarni tarbiyalashdagi fidoyiligining ramzi boʻldi.

Hozirda Akmal Xoltoʻrayevich yanada ulugʻvor maqsad sari intilmoqda – “Sovet hokimiyatining Oʻzbekistonda amalga oshirgan milliy kamsitish va qatagʻonlik siyosati (1920–1945 yillar Surxon vohasi misolida)” mavzusida tarix fanlari doktori (DSc) darajasini olish uchun tadqiqot olib bormoqda. Bu ish oʻzbek xalqining oʻtmishidagi fojiali, lekin oʻrganilishi zarur boʻlgan davrlarni chuqur tahlil qilib, milliy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mengliboyev Akmal Xoltoʻrayevich oʻzbek tarixshunosligida chuqur iz qoldirgan olim sifatida eʼtirof etiladi. Hozirgacha u 1 darslik, 1 oʻquv qoʻllanma, 3 monografiya, 5 risola, 2 DGU (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi guvohnomasi) hamda 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarni nashr ettirdi. Bu asarlar Oʻzbekiston tarixi, davlatchilik tarixi va yangi zamon xalqaro munosabatlar tarixi kabi fanlarni chuqur oʻrganishga xizmat qiladi. Xususan, u “Oʻzbekiston tarixi”, “Oʻzbek davlatchilik tarixi” va “Xalqaro munosabatlar tarixi” fanlarini oʻqitishda masofaviy taʼlimning zamonaviy usullarini joriy etib, elektron darsliklar yaratdi va bu ish Adliya vazirligining maxsus guvohnomasi bilan taqdirlandi.

Uning ilmiy asarlari oʻzbek va jahon tarixining muhim sahifalarini yoritib, keng jamoatchilik eʼtiborini qozongan. “Janubi-sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi va unga qarshi kurash” monografiyasi xalqning mustaqillik uchun kurashini hayajonli

tasvirlaydi. “Salib yurishlari” va “Arab xalifaligi tarixi” asarlari o‘rta asrlarning murakkab dunyosini ochib, tarix ixlosmandlarini o‘ziga tortadi. Uning risolalari ham birdek ta’sirchan: “Aleksandr Makedonskiy tarixi” buyuk shaxsiyatni yangi nuqtai nazardan talqin qiladi, “O‘zbekiston mustamlaka va sovet totalitarizmi sharoitida” o‘tmishning og‘ir damlarini ko‘z oldiga keltiradi. “Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati: Qashqadaryo vohasi misolida” va “Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug‘bek” asarlari o‘zbek madaniyatining ulug‘vorligini ta’kidlaydi. “Tarixiy antropologiya” qo‘llanmasi esa tarixni insoniyat hayoti prizmasida ko‘rishga chorlaydi.

Mengliboyev Akmal Xolto‘rayevich nafaqat tarixshunos olim, balki ilmiy hamjamiyatni birlashtiruvchi, ma’rifat targ‘ibotchisi sifatida ham muhim iz qoldirmoqda. Uning tashabbuskorligi va kafedra a’zolari bilan samarali hamkorligi tufayli bir qator nufuzli tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2023-yil 19-sentyabrda “Mamlakatimizda uchinchi renessans g‘oyasini keng targ‘ib qilishda ijtimoiy va gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etdi.

2024-yil 19-noyabrda esa “Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazdi. Bu tadbir turkiy xalqlarning tarixiy merosini yoritib, mintaqa tarixshunosligiga yangi nur sochdi. Ushbu konferensiyalar Akmal Xolto‘rayevichning ilmiy jamoatni birlashtirish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va zamonaviy yondashuvlarni targ‘ib etishdagi muhim hissasini ko‘rsatdi.

Akmal Xolto‘rayevich o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning faol targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ldi. E’tiqodli, sog‘lom fikrli, madaniyatli va intizomli shaxs sifatida u hamkasblari orasida samimiy do‘st, talabalari uchun esa mehribon ustoz sifatida chuqur hurmat qozondi.



## **XUSANOV BAXROM MENGDOVULOVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

Bugungi ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti zamirida o'z ishiga sidqidildan yondashadigan, izlanuvchan va fidoyi pedagog-olimlarning hissasi beqiyosdir. Ularning sa'y-harakatlari tufayli nafaqat yurtimizning ilmiy salohiyati ortmoqda, balki yangi avlod mutaxassisleri – ertangi kun egalarining intellektual salohiyati ham yuksalmoqda. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Xusanov Baxrom Mengdovulovich ana shunday zamonaviy ilm-fan va ta'lim fidoyilaridan biridir. Ilm-fan sohasidagi izlanishlari bilan chuqur bilimli olim, yuksak qadriyatlarga ega ustoz sifatida hurmatga sazovor insondir. Bugungi kunda ustoz boy ilmiy tajribasi bilan Analitik kimyo fanining sirlarini ochib, yurtimiz ilm-fani rivojiga munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Baxrom Mengdovulovich Xusanov 1976-yil 1-fevral kuni Surxondaryo viloyati Denov tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Millati o'zbek, oilali bo'lib, to'rt nafar farzandning mehribon otasi hisoblanadi. Ta'lim va ilm-fanga bo'lgan erta qiziqishi uni yoshlikdan bilim izlashga undadi. U o'zining ilk bilimlarini Denov tumanidagi 54-sonli umumta'lim maktabida egallab, 1993-yilda ushbu maktabni muvaffaqiyatli tamomladi.

Ta'lim olishdagi izchillik va yuqori intilish Baxrom Mengdovulovichni 1997-yilda Termiz davlat universitetining Kimyo fakultetiga olib keldi. U yerda Baxrom Mengdovulovich chuqur nazariy bilimlar va mustahkam amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib, 2001-yilda mazkur oliygohni imtiyozli diplom bilan bitirdi. Ilm-fanga bo'lgan cheksiz qiziqishi, kasbiga bo'lgan sadoqati uni o'z ustida tinimsiz ishlashga undadi va bu izlanishlar natijasida Baxrom Mengdovulovich

2004-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining “Kimyo” fakulteti qoshidagi “Noorganik kimyo” yo‘nalishida magistratura bosqichini davom ettirdi. U mazkur bosqichni 2006-yilda muvaffaqiyatli yakunlab, o‘zining professional faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi.

Mehnat faoliyatini 2001-yilda Denov tumanidagi 24-sonli umumta’lim maktabida kimyo fani o‘qituvchisi sifatida boshlab, ustoz Baxrom Mengdovulovich pedagogik sohada barqaror va izchil taraqqiyot yo‘lini tanladi. Ta’lim jarayonidagi samaradorlikni oshirishga, yosh avlod qalbida ilmga muhabbat uyg‘otishga qaratilgan mehnatlari natijasida u nafaqat o‘qituvchilik, balki ta’lim boshqaruvi sohasida ham o‘zini munosib namoyon qila oldi.

2016–2018 yillar mobaynida u Denov qurilish va transport kasb-hunar kolleji filiali direktori o‘rinbosari sifatida o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etishga mas’ul bo‘ldi. Ushbu davrda u ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ustoz-shogird an‘analarini mustahkamlash borasida muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Shuningdek, 2020–2022-yillar davomida Denov tumanidagi 26-sonli umumta’lim maktabiga direktorlik qilgan davrida ta’lim-tarbiya sifati, muhit va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirdi.

2020-yildan buyon Baxrom Mengdovulovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirda Baxrom Mengdovulovich dotsent lavozimida faoliyat olib borib, o‘zining ilmiy va pedagogik tajribasini yoshlar tarbiyasiga safarbar etmoqda.

Ilmiy izlanishlarga bo‘lgan chuqur qiziqish va fidoyilik Baxrom Mengdovulovichni 2022-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo institutiga tayanch doktorant sifatida olib keldi. Bu davrda Baxrom Mengdovulovich “Analitik kimyo” yo‘nalishida o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borib, “Nikel(II) va mis(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usullarini ishlab chiqish” mavzusida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya etib, 2024-yil 25-oktabrda kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini

qo‘lga kiritdi.

Baxrom Mengdovulovich o‘zining ilmiy faoliyati davomida analitik kimyo sohasida katta salohiyat va tajriba to‘pladi. U analitik kimyoning nazariy asoslarini chuqur o‘rgangan, spektrofotometrik va fotometrik tahlil uslublari bo‘yicha boy tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassis sifatida tanilgan. Ayniqsa, ushbu ilmiy uslublarning amaliyotda qo‘llanilishi borasida yuksak natijalarga erishgan, o‘zining ilmiy ishlarini real dunyo muammolariga yechim topish uchun samarali ravishda tatbiq etgan.

Baxrom Mengdovulovich ilmiy faoliyatida muhim yutuqlarga erishgan va u o‘zining hammuallifligida 60 dan ortiq ilmiy ishni chop ettirgan. Ushbu ilmiy ishlarning 4 tasi nufuzli xalqaro Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda, 16 tasi esa doktorlik dissertatsiyasi mavzusi bo‘yicha e‘lon qilingan. Ustozning maqolalari O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, O‘zbekiston kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy jurnali, Universum: Ximiya va biologiya, hamda Austrian Journal of Technical and Natural Sciences kabi xalqaro va respublika darajasidagi nashrlarda chop etilgan. Shuningdek, u respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muntazam ishtirok etib, ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e‘tirof etilgan. Bu ilmiy ishlarning hammasi uning yuqori malakali olim va analitik kimyo sohasida yetakchi mutaxassis sifatida o‘z o‘rnini topganini ko‘rsatadi.

Xusanov Baxrom Mengdovulovich – bu nafaqat bilim va tajriba, balki fidoyilik va sadoqat timsoli. Uning ilmiy yutuqlari, pedagogik faoliyati va jamiyat uchun qilayotgan xizmatlari yurtimizda kimyo fanining, umuman olganda, ta‘lim-tarbiya tizimining yuksalishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda u nafaqat olim va pedagog, balki yoshlarga hayotiy va kasbiy yo‘l ko‘rsatib kelayotgan ustoz-murabbiy sifatida yuksak e‘tirofga sazovor.



## **XO'JANOVA TAMARA JO'RAYEVNA**

*Tarix va falsafa kafedrası dotsenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

O'zbekistonning ta'lim va ma'rifati sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan shaxslar jamiyatning ma'naviy yuksalishi, yosh avlodning barkamol avlod sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbek ta'lim tizimining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Xo'janova Tamara Jo'rayevna – o'zining samarali mehnati, ilmiy izlanishlari va pedagogik faoliyati bilan nafaqat o'qituvchilar jamoasi, balki butun jamiyat o'rtasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan fidoyi olim va ustozdir. Uning har bir qadami – bilim, ma'naviyat va o'z xalqiga xizmat qilishning yorqin timsolidir.

Xo'janova Tamara Jo'rayevna 1973-yil 15-iyulda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida, o'zbek xalqining mehnatkash oilasida dunyoga keldi. Yoshligidanoq bilimga chanqoqligi, mas'uliyatli yondashuvi va o'z ishiga sadoqati bilan ajralib turdi. Oilaviy muhitda shakllangan mehr-muhabbat, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar uning kelajakdagi faoliyatida muhim yo'naltiruvchi chiroq bo'ldi.

1991–1993-yillarda Sherobod tibbiyot bilim yurtida tahsil olib, tibbiyot sohasiga ilk qadamlarini qo'ydi. Bu davrda u nafaqat professional bilimlarni o'zlashtirdi, balki inson hayotiga xizmat qilishning muqaddasligini chuqur angladi. Tibbiyot sohasidagi dastlabki tajribasi uning mas'uliyatli va insonparvar shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Tamara Jo'rayevna o'z mehnat faoliyatini 1993-yilda Sherobod markaziy shifoxonasida hamshira sifatida boshladi. 1995–1996-yillarda Termiz shahri viloyat shifoxonasida, so'ngra 1996-2001-yillarda Termiz shahridagi 11506-harbiy qismda hamshira sifatida ishladi. 2001–2003-yillarda yana Sherobod markaziy shifoxonasida faoliyat yuritdi. 2003–2005-yillarda esa Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa

Vazirligiga qarashli Markaziy pitomnikda feldsher sifatida xizmat qildi. Bu yillar uning inson hayotiga xizmat qilish, mas'uliyat va intizom kabi fazilatlarini yanada mustahkamlashiga zamin yaratdi. Tibbiyot sohasidagi tajribasi Tamara Jo'rayevnaning keyingi faoliyatida, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda insonparvarlik va mas'uliyatni singdirishda muhim asos bo'ldi.

Tamara Jo'rayevna o'z bilimini yanada oshirish maqsadida 2005-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Milliy istiqlol g'oyasi; huquq va ma'naviyat asoslari" yo'nalishida bakalavriat bosqichida tahsil oldi. 2009-yilda ushbu nufuzli dargohni imtiyozli diplom bilan tamomladi. Uning bilimga bo'lgan ishtiyoqi uni to'xtab qolishga yo'l qo'ymadi. 2010–2012-yillarda shu universitetda "Ma'naviyat asoslari" mutaxassisligi bo'yicha magistratura bosqichini muvaffaqiyatli yakunlab, magistr darajaga ega bo'ldi.

2009–2010-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida metodist sifatida ishlab, o'quv jarayonlarini tashkil etishda dastlabki tajribasini orttirdi. 2012-yildan boshlab esa Termiz davlat universitetida pedagogik faoliyatini boshladi. 2012–2015-yillarda "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchi sifatida ishlay boshlagan Tamara Jo'rayevna talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni yetkazdi, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy qadriyatlar va huquqiy ongini shakllantirishda muhim hissa qo'shdi.

2015–2018-yillarda Termiz davlat universitetining ijtimoiy fanlar kafedrasida, 2019–2020-yillarda esa falsafa kafedrasida o'qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu davrda u talabalarni falsafa, ma'naviyat va ijtimoiy fanlarning chuqur jihatlari bilan tanishtirib, ularning tanqidiy fikrlash va mustaqil mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Uning darslari nafaqat bilim ulashish, balki yoshlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish vositasiga aylandi.

2020-yildan boshlab Tamara Jo'rayevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Tarix va falsafa" kafedrasida dotsent sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu lavozimda u o'zining boy tajribasi va ilmiy salohiyatini talabalarga sifatli ta'lim berish, ularni ilmiy izlanishlarga

jalb qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash yo'lida ishlatmoqda. U bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida "Falsafa", "Ma'naviyatshunoslik", "Tarbiya" fanlaridan, magistratura bosqichida esa "Kasbiy ma'naviyat" va "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanlaridan mahorat bilan dars berib kelmoqda. Uning darslari talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan boyitadi, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tamara Jo'rayevna institut faoliyatida "Ustoz va shogird" tizimining samaradorligini oshirishda salmoqli hissa qo'shmoqda. Uning rahbarligida 6 ta bitiruv malakaviy ishi va 2 ta magistrlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilingan. Shu bilan birga, u 30 dan ortiq tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlariga va ilmiy maqolalariga taqrizchi sifatida ishtirok etib, yosh olimlarning ilmiy yo'lida muvaffaqiyatli qadamlar tashlashiga ko'maklashdi.

Tamara Jo'rayevnaning ilmiy faoliyati uning o'qituvchilikdagi muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda muhim yutuqlarga ega. 2021-yilda u 09.00.04 – "Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha ilmiy dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo'lga kiritdi. Bu yutuq uning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, chuqur tahlili va falsafa sohasiga qo'shgan ulkan hissasining yorqin tasdig'i bo'ldi.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining qaroriga asosan Tamara Jo'rayevna "Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Uning ilmiy faoliyati 173 ta ilmiy, ilmiy-uslubiy va ommabop ishlarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan, 2 ta darslik, 1 ta elektron darslik, 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 3 ta monografiya, 1 ta xalqaro monografiya, 1 ta metodik qo'llanma, 1 ta uslubiy ko'rsatma, 20 ta mahalliy ilmiy jurnalda maqolalar, 112 ta mahalliy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislar va 27 ta xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan maqolalar uning ilmiy merosining muhim qismini tashkil qiladi.

2022-yilda Tamara Jo'rayevna "Falsafa" fanidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'quv-uslubiy qo'llanma, "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanidan magistratura uchun maxsus qo'llanma

tayyorladi. Shu bilan birga, “Ma’naviyatshunoslik” va “Kasbiy ma’naviyat” fanlaridan darsliklar (sillabuslar) takomillashtirildi. Uning “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanidan №DGU 18845 raqamli elektron darsligi ta’lim jarayonlarida muhim manba sifatida qo’llanilmoqda. Ushbu nashrlar talabalar va soha mutaxassislariga zamonaviy ta’lim usullarini o‘zlashtirishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tamara Jo‘rayevna nafaqat ta’lim va ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham faol shaxs sifatida tanilgan. 2022-yilda Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Ibratli oila” tanlovida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga, u “Ma’rifatparvar ayol” nominatsiyasida e’tirof etildi va Sherobod tumanida o‘tkazilgan “Yil ayoli” tanlovida “Yilning eng faol olima ayoli” nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi. Ushbu e’tiroflar uning nafaqat professional, balki ijtimoiy sohada ham muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi.

Tamara Jo‘rayevna har yili respublika va institut miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib, yoshlar tarbiyasi, falsafa va oliy ta’lim muammolariga bag‘ishlangan maqolalar bilan qatnashadi. So‘nggi besh yil ichida u 40 dan ortiq ilmiy konferensiya va seminarlarda ishtirok etib, o‘z ishlarini nufuzli to‘plamlarda chop ettirdi. Uning ilmiy maqolalari ta’lim sohasidagi dolzarb masalalarni yoritish bilan birga, yosh olimlarni tadqiqot yo‘lida ilhomlantirishga xizmat qilmoqda.

Tamara Jo‘rayevna oilaviy hayotda uch nafar farzandning mehrli onasi sifatida ham muvaffaqiyatli shaxsdir. Uning oilasi – bu uning eng katta ilhom manbai va mustahkam tayanchi bo‘lib, har bir muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi.

Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna – falsafa, ma’naviyat va ta’lim sohasida muhim yutuqlarga erishgan, o‘z faoliyati bilan yosh avlodga ilhom baxsh etgan fidoyi olima va ustozdir.



## **TURSUNOV JOVLI NARZULLAYEVICH**

*Tarix va falsafa kafedrası professori  
v.b., Tarix fanlari nomzodi, Dotsent*

Har bir inson dunyoga kelganidan boshlab, qalbida ezgulikka, nurga, ilm va ma'rifatga yo'naltiruvchi ichki bir chaqnash mavjud bo'ladi. Bu ichki tuyg'u vaqt o'tishi bilan yorqin bir alangaga aylanishi, insonni ezgu maqsadlar sari yetaklab, ilm olish, izlanish, jamiyatga foydali bo'lishga undashi mumkin. Ana shunday olijanob tuyg'ular ta'sirida o'z hayotini ta'lim va tarbiya ishlariga bag'ishlagan, oliy ta'lim tizimida samarali faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilardan biri – Tursunov Jovli Narzullayevichdir.

Tursunov Jovli Narzullayevich 1964-yil 3-oktyabrda Surxondaryo viloyati Sherobod tumani "Partiya XXIV-syezdi" nomli jamoa xo'jaligining Bobotepa qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. Jovli Narzullayevich ta'lim olishni 1971-yilda boshlangan bo'lib, A.J. Mengliyev nomidagi 29-sonli o'rta maktabda ilk bor bilim olgan. Dastlabki savodxonlik saboqlarini unga fidoyi ustoz Sharif Choriyev bergan.

Yoshligidan mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, jamoatchilik ishlari va tashkilotchilik qobiliyati bilan tengdoshlaridan ajralib turgan Jovli Tursunov maktab yillarida ustozlarga hurmat, o'rtoqlarga g'amxo'rlik kabi insoniy fazilatlarni o'zida shakllantirib bordi. U maktab ma'muriyati tomonidan ishonib topshirilgan barcha topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarar, shanbaliklar va paxta terimi kabi ijtimoiy-mehnat jarayonlarida faol ishtirok etar edi.

Jovli Narzullayevichning ayniqsa tarix, huquq, jamiyatshunoslik, adabiyot va geografiya fanlariga bo'lgan qiziqishi alohida e'tiborga loyiq edi. Mazkur fanlardan ta'lim bergan tajribali ustozlar – maktab direktori Nishon Davudov, tarix fani o'qituvchilari Parida Axmedov va Dovur Abdurahmonov, adabiyotdan saboq bergan Zarif Allayev va Ulug'oy Sultonova, geografiya va jamiyatshunoslikdan Abdusalim Abrayev

hamda rus tili o'qituvchisi, sinf rahbari Abdug'affor Majidov uning hayotida muhim o'rin tutgan.

Jovli Narzullayevichning bilimga bo'lgan intilishi va o'z ustida muntazam ishlashga bo'lgan qat'iyati maktab yillaridayoq yaqqol namoyon bo'lgan. 1978-o'quv yilidan boshlab u o'z ta'limini Sherobod tumanidagi 37-sonli Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi o'rta maktab (keyinchalik Z.X. Furqat nomi bilan atalgan)da davom ettirdi U yerda tahsil olayotgan chog'ida o'zining intiluvchanligi, tirishqoqligi va ilmga bo'lgan chuqur qiziqishi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. 1981-yilda ushbu o'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, katta hayot yo'liga qadam qo'yadi.

Kelajakda o'zini ilm-fan sohasida, xususan, ta'lim yo'nalishida ko'rishni istagan Jovli Narzullayevich o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi – yetuk mutaxassis, bilimdon va vatanparvar ustoz bo'lish. Ushbu yuksak maqsad yo'lida ilk bosqich sifatida 1981-yil Termiz davlat pedagogika institutining 8 oylik tayyorlov kursining tarix bo'limiga hujjat topshirib, tahsil olishni boshlaydi.

Zamonasining faol, izlanuvchan va mas'uliyatli yoshlari qatoridan joy olgan Jovli Narzullayevich 1982-yilda Termiz davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakulteti tarix, huquqshunoslik va jamiyatshunoslik yo'nalishiga talabalar safiga qabul qilinadi. Talabalik yillari davomida u institut hayotida faol ishtirok etib, nafaqat o'z ustida muntazam ishladi, balki tashkiliy va jamoat ishlarida ham jonbozlik ko'rsatd

1984-1986-yillarda Jovli Tursunov Vatan oldidagi muqaddas burch – harbiy xizmatni sharaf bilan o'tadi. Harbiy xizmatni yakunlab, o'zining oliy maqsadlari sari intilishi bilan ilm yo'lida yana sobitqadamlik bilan qadam tashladi. Ilmga bo'lgan chuqur mehr va tirishqoqligi uni tez orada natijalarga erishtirdi: 1989-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tamomladi.

Shu yilning o'zidayoq, ya'ni 1989-yil sentyabr oyidan boshlab, Termiz davlat pedagogika institutining "Ilmiy kommunizm" kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Pedagogik faoliyat bilan birga ilmiy izlanishlar ham davom ettirildi. 1991-yil sentyabr oyida Jovli

Narzullayevich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarix fakultetining sirtqi aspiranturasiga o‘qishga qabul qilindi.

Ilmiy salohiyatini mustahkamlash, yangi bilimlar va tajriba orttirish maqsadida Jovli Narzullayevich 1991-1992-yillarda Toshkent davlat universiteti qoshidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish instituti huzurida siyosatshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha maxsus kursni muvaffaqiyatli yakunladi. Ushbu davr mobaynida u O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona, Davlat arxivi, shuningdek, viloyat, tuman va shahar arxivlarida, hokimliklar huzuridagi kengash materiallari ustida izlanishlar olib bordi. Mazkur izlanishlar uning ilmiy faoliyatida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

1992-yil fevral oyida Termiz davlat universitetining Tarix fakulteti tarkibida Siyosatshunoslik va sotsiologiya kafedrasi tashkil etilgach, Jovli Tursunov o‘z pedagogik faoliyatini aynan shu kafedrada davom ettirdi. U ilmiy-tadqiqot va dars jarayonlarida faollik ko‘rsatib, 1993-yilda unga katta o‘qituvchi lavozimi berildi.

Tursunov Jovli Narzullayevichning ilmiy faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor Faxriddin Rashidov rahbarlik qilgan. Mazkur hamkorlik natijasida u “O‘zbekiston shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tarixi (Boysun, Sharg‘un va Sho‘rchi shaharlari misolida) 1971-1990 yillar” mavzusida ilmiy dissertatsiya ishini olib bordi. Nihoyat, 1995-yil Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ixtisoslashgan Ilmiy kengashda (K.067.04.21) 07.00.02 – Vatan tarixi ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1995-yil 30-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining 32/1-sonli qaroriga binoan Tursunov Jovli Narzullayevichga tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi. Bu yutuq uning ko‘p yillik izlanishlari va ilmiy faoliyatining amaliy natijasi sifatida e’tirof etildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bir qatorda, u 1991–1995-yillar oralig‘ida Siyosatshunoslik va sotsiologiya, shuningdek, O‘zbekiston tarixi fanlarini mustaqil o‘rganuvchilar uchun muhim manba bo‘lgan 7 ta

o‘quv qo‘llanma va 9 ta ilmiy maqola e‘lon qildi. Ushbu asarlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1994–1996-yillar davomida Tursunov Jovli Narzullayevich Termiz davlat universitetining Siyosatshunoslik va sotsiologiya kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida samarali faoliyat yuritdi. 1996-yil sentyabr oyidan boshlab kafedra nomi “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” deb o‘zgartirilgan bo‘lib, u o‘z faoliyatini mazkur yo‘nalishda davom ettirdi.

Ilmiy-pedagogik faoliyati bilan bir qatorda, talabalarning ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasida ham faol ishtirok etganligi inobatga olinib, 1997-yildan boshlab Tarix fakultetining ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Ushbu mas‘uliyatli vazifani samarali bajargan Jovli Narzullayevich 1998-yil sentyabr oyidan boshlab Iqtisodiyot fakulteti dekanining birinchi o‘rinbosari lavozimida ham faoliyat olib bordi. Shu bilan birga, fakultet tarkibidagi Huquqshunoslik kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida dars berib, yosh kadrlar tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shdi.

1998-yil oktyabr oyidan boshlab dotsentlik vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat yuritgan Tursunov Jovli Narzullayevich, 2000-yil avgust oyida ochiq tanlov (konkurs) asosida ushbu kafedraning dotsenti lavozimiga tasdiqlandi. Bugungi kunga qadar u ilmiy-tadqiqot va ta‘lim-tarbiya sohasidagi fidokorona mehnatini izchil davom ettirib kelmoqda.

Nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganidan so‘ng, Tursunov Jovli Narzullayevich ilmiy-tadqiqot faoliyatini izchil davom ettirdi. Shu vaqtgacha u tomonidan 14 ta ilmiy maqola va 4 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma chop etilgan bo‘lib, ularning aksariyati sotsiologiya hamda pedagogika sohalarida amaliyotga joriy qilingan.

Talabalarning mustaqil ta‘lim olish jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan bir qator o‘quv qo‘llanmalar muallifi hisoblanadi. Xususan, Siyosatshunoslik, O‘zbekiston tarixi kurslari bo‘yicha tayyorlangan o‘quv adabiyotlari, “Qishloq sotsiologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi hamda Etnologiya faniga oid o‘quv-metodik qo‘llanma keng o‘quvchilar auditoriyasida foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, u har yili universitet miqyosida an'anaviy tarzda tashkil etiladigan professor-o'qituvchilar va talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyalarida o'zining dolzarb mavzularga bag'ishlangan ilmiy chiqishlari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

Hozirgi kunda Jovli Narzullayevich o'zining ilmiy-tadqiqot faoliyatini yangi bosqichda davom ettirib, "Madaniy merosning o'zlashtirilishi, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar statistikasi va dinamikasining sotsiologik tahlili va sintezi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanishlar olib bormoqda.

Ushbu ilmiy ish doirasida jamiyatning madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini zamonaviy sotsiologik usullar yordamida chuqur tahlil qilish, o'zbek xalqining tarixiy merosi va milliy qadriyatlariga munosabatni ilmiy asosda o'rganish maqsad qilingan. Mazkur tadqiqot ishiga ilmiy maslahatchi sifatida yurtimizda tanilgan olim – sotsiologiya fanlari doktori, professor M.B. Bekmurodov tayinlangan.

Jovli Narzullayevich o'zining uzoq yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida sermahsul ijod qilgan olimlardan biridir. U hozirgi kunga qadar jami 120 ta ilmiy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommabop ishlarga mualliflik qilgan.

Ular orasida 10 ta o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 31 ta ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar, 25 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda taqdim etilgan tezislar, shuningdek, 53 ta ilmiy-ommabop maqolalar mavjud. Ushbu ishlari orqali olim mamlakatimiz ilm-fan taraqqiyotiga, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Tursunov Jovli Narzullayevich uzoq yillardan buyon ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohasida samarali faoliyat yuritib kelayotgan tajribali pedagog va fidoyi olim sifatida o'zini namoyon etgan. Uning mehnatsevarligi, ilmiy izlanuvchanligi, ta'lim tizimiga sadoqati nafaqat o'quvchi-talabalar, balki ilmiy jamoatchilik orasida ham katta hurmat-e'tibor qozongan.



## ORIPOV TURDIQUL SAFAROVICH

*Oliy matematika kafedراسi dotsenti,  
Fizika matematika fanlari nomzadi  
(PhD)*

Har bir inson hayotga ma'lum bir maqsad, qalbini yondiruvchi ilhom bilan qadam qo'yadi. Bu ilhom – yurak tubidagi ezgu niyatlar, orzular, izlanishlarga undovchi kuchli ichki turtkidir. Zamon o'tishi, hayot saboqlari, mehnat va izlanishlar natijasida bu ichki uchqun katta bir alangaga, ma'naviy nurga aylanadi. Bu nur esa insonni ilm-fan sari yetaklaydi, yuksak marralarga ilhomlantiradi. Ana shu yo'lda inson o'zini izlaydi, o'zligini topadi, jamiyat rivoji uchun xizmat qiluvchi bilimli, tajribali, yurtga kerakli mutaxassisga aylanadi.

Hayotini ilm-fanga, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga bag'ishlagan, o'zining kamtarligi, tirishqoqligi va izlanishga chanqoqligi bilan ajralib turadigan ana shunday ziyoli insonlardan biri – Oripov Turdiquil Safarovichdir. U bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ko'p yillik samarali mehnati, mashaqqatli ilmiy izlanishlari va fidokorona ustozlik faoliyati bilan keng jamoatchilik e'tiborini qozongan yuksak malakali professor-o'qituvchilardan biri sifatida e'tirof etiladi.

1955-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida, o'zbek xalqining mehnatkash va ma'rifatli oilasida dunyoga kelgan Turdiquil Safarovich bolaligidanoq o'zining o'ziga xos ziyrakligi bilan ajralib turardi. Uning qalbi bilimga chanqoq, dunyoqarashi keng edi. Oiladagi ma'naviy muhit, ota-onasining mehnatkashligi va o'qishga bo'lgan hurmati yosh Turdiquilning qalbida chuqur iz qoldirdi. Ayniqsa, aniq fanlar, xususan matematika unga o'zgacha joziba bilan ta'sir qildi. Oddiy masalalarni yechish, raqamlar olamidagi mantiqiy bog'lanishlarni kashf etish uning uchun o'yin emas, balki cheksiz kashfiyotlar dunyosiga eshik ochuvchi kalit edi.

1963–1973-yillarda Uzun tumanidagi Oydin nomidagi 32-o'rta maktabda tahsil olgan Turdiquil Safarovich o'qish jarayonida o'zini

nafaqat bilimdon, balki intizomli va mas'uliyatli shaxs sifatida ko'rsatdi. Uning matematikaga bo'lgan ishtiyoqi o'qituvchilarning e'tiborini tortdi.

1973-yilda Turdiquq Safarovich o'z orzusiga bir qadam yaqinlashdi. U Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahridagi T.G.Shevchenko nomidagi pedagogika institutining matematika fakultetiga o'qishga kirdi. Bu nufuzli ta'lim dargohi uning ilmiy dunyosini kengaytirish, matematikaning chuqur sirlarini o'rganish uchun muhim imkoniyat bo'ldi. 1978-yilda Turdiquq Safarovich institutni imtiyozli qizil diplom bilan tamomladi. Bu yutuq uning mehnatkashligi, o'ziga talabchanligi va fanga bo'lgan muhabbatining yorqin isboti edi.

Oripov Turdiquq Safarovichning oliy ta'limni tamomlagach boshlagan professional faoliyati – bu ilm-fan va ta'lim sohasida sadoqat, fidoyilik va tinimsiz izlanishlar bilan to'ldirilgan ulkan yo'ldir. 1978-yilda T.G.Shevchenko nomidagi pedagogika institutining matematika fakultetini imtiyozli qizil diplom bilan tamomlagan Turdiquq Safarovich o'z professional yo'lini Tojikiston texnika universitetining M.S.Osimiy nomidagi oliy matematika kafedrasida boshladi. Bu nufuzli muassasa uning ilmiy va pedagogik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun muhim maydon bo'ldi. 1978-yildan 2019-yilgacha bo'lgan 40 yildan ortiq vaqt mobaynida u ushbu kafedrada sadoqat bilan xizmat qilib, minglab talabalarga matematikaning nozik jihatlarini o'rgatdi va ilmiy izlanishlar orqali sohada muhim yutuqlarga erishdi. Turdiquq Safarovich o'zini faqat o'qituvchi sifatida cheklab qolmay, balki talabalarga ilmiy yondashuvni singdirishga, ularning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intildi. Uning darslari matematikaning nazariy asoslari bilan birga, bu fan hayotning turli jabhalarida qo'llaniladigan amaliy ahamiyatini ochib berardi.

Turdiquq Safarovichning ilmiy faoliyati uning pedagogik mehnati bilan uzviy bog'liq bo'lib, oliy matematika sohasida muhim yutuqlarni o'z ichiga oladi. U o'z ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida davrning eng nufuzli olimlari – akademik L.G. Mixaylov, professor E.R. Ro'zmetov va akademik N.R. Radjabovlar bilan yaqindan hamkorlik qildi. Ushbu olimlarning ilmiy maktabidan saboq olgan Turdiquq Safarovich matematik analiz va differensial tenglamalar

sohasida chuqur tadqiqotlar olib bordi. Ularning rahbarligida olib borgan izlanishlari uning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, sohada yangi yechimlar keltirishga zamin yaratdi.

2007-yilda Turdiqul Safarovich o‘zining ko‘p yillik ilmiy mehnati natijasini “Формулы представления решений систем уравнений в полных дифференциалах второго порядка с одной и двумя сингулярными линиями” mavzusidagi dissertatsiyasi bilan taqdim etdi. Ushbu tadqiqot asosida u fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2019-yil avgust oyidan boshlab, Oripov Turdiqul Safarovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Oliy matematika kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritmoqda. U o‘zining yuksak salohiyati, zamonaviy pedagogik yondashuvi va ko‘p yillik tajribasi bilan talabalarga bilim berib, yosh avlodni ilm-fan sari yo‘naltirib kelmoqda.

Bugungi kunda ustoz tomonidan tojik va o‘zbek tillarida 6 ta o‘quv qo‘llanma chop etilgan bo‘lib, ularning barchasi oliy ta‘lim tizimi uchun muhim metodik manba sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, Turdiqul Safarovich tomonidan 100 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli jurnallarda chop etilgan. Bu esa uning nafaqat o‘z yurtida, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham tan olinishiga xizmat qilmoqda.

Ustoz hozirda doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bormoqda va yaqin orada uni himoya qilish arafasida turibdi. U ilm-fan sohasida faqat o‘zi yetuk bo‘lib qolmay, shu yo‘lda shogirdlar tayyorlashga ham alohida e‘tibor qaratadi. Bugungi kunga kelib, uning rahbarligida 6 nafar magistr va 8 nafar bakalavr bitiruvchilari muvaffaqiyatli himoyalarni amalga oshirgan.

Oripov Turdiqul Safarovich – o‘z umrini ilm-fanga, yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan fidoyi olim, mohir ustoz va yetuk pedagog. Uning hayoti, ilmiy izlanishlari, ustozlik faoliyati bugungi yosh avlod uchun na‘muna bo‘lishga arzigulik. Ustozning intilishi, izlanishlari va mehnati ilm-fan bayrog‘ini baland tutayotgan barcha ziyolilar safida munosib o‘rin egallaydi.



## **ABIRAEV IMOMALI MELIBOEVICH**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Oliy matematika kafedrasi dotsenti, Fizika matematika fanlari nomzodi*

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti, zamonaviy bilimli kadrlar tayyorlash, yosh avlodni ilmga chanqoq, fikrlay oladigan mutaxassis sifatida voyaga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda hayotini ilmga, ta'lim-tarbiya jarayoniga bag'ishlagan, o'zining boy tajribasi, intellektual salohiyati va vatanparvarlik ruhidagi faoliyati bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan ustozlarimizning o'rni beqiyosdir. Ana shunday fidoyilardan biri – tajribali pedagog, matematika fanining chuqur bilimdoni, ilmiy izlanuvchi va ustoz – AbiraeV Imomali Meliboevichdir.

Imomali Meliboevich 1957-yil 15-sentyabr kuni Surxondaryo viloyatining go'zal go'shalaridan biri – Denov tumanida tavallud topgan. Bolalik yillaridanoq uning qalbida ilmga, ayniqsa, matematika faniga bo'lgan kuchli ishtiyoq jo bo'lgan edi. Ana shu ichki rag'bat va izlanishga bo'lgan chanqoqlik uni hayot yo'lida dadil odimlashga, bilim sari to'xtovsiz intilishga chorladi.

Imomali Meliboevich 1965–1971-yillar davomida Denov tumanidagi G'afur G'ulom nomidagi 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ilk bilim asoslarini egalladi. O'zining tirishqoqligi, zakovati va o'rganishga bo'lgan yuksak intilishi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan yosh Imomali Meliboevich o'zining bilim salohiyatini yanada rivojlantirish uchun Toshkent shahriga yo'l oldi. 1972–1974-yillarda u Respublika yosh matematiklar va fiziklar maktab-internatida tahsil olib, bu muassasada chuqurlashtirilgan darslar orqali nazariy va amaliy bilimlarini yanada mustahkamlab bordi.

1974-yilda esa Imomali Meliboevich O'zbekiston ilm-fani tarixida chuqur ildizlarga ega bo'lgan nufuzli oliy o'quv yurti – Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) “Amaliy

matematika” fakultetiga o‘qishga qabul qilindi. Bu davr u hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u yerda nafaqat zamonaviy fan asoslarini chuqur o‘rgandi, balki mustaqil tadqiqot olib borish, murakkab matematik masalalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini egalladi. 1979-yilda mazkur universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma‘lumotli mutaxassis darajasini qo‘lga kiritdi. Ta‘lim bilan bir qatorda harbiy bilimga ham e‘tibor bergan ustoz universitet huzuridagi harbiy kafedrada tahsil olib, “katta leytenant” unvoni bilan harbiy zaxiraga kiritildi. Bu esa uning intizomli, mas‘uliyatli va o‘ziga talabchan inson sifatida shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

Imomali Meliboevichning mehnat faoliyati ta‘lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning har bir bosqichi mashaqqatli mehnat, fidoyilik va izlanish ruhida kechgan. 1979–1986-yillar oralig‘ida u Denov shahridagi Y.Oxunboboyev nomidagi 2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida matematika fani o‘qituvchisi sifatida faoliyat boshlagan. Yosh, bilimdon va g‘ayratli pedagog sifatida Imomali Meliboevich qisqa vaqt ichida o‘quvchilar va hamkasblar orasida katta hurmat-e‘tibor qozondi. Mazkur yutuqlar asosida 1986-1989-yillarda Imomali Meliboevich G‘afur G‘ulom nomli 6-maktabda direktor o‘rinbosari lavozimida ishlay boshladi. Bu davrda u nafaqat pedagog, balki tashkilotchi sifatida ham o‘z salohiyatini namoyon etdi.

Imomali Meliboevichning ta‘limga bo‘lgan fidoyiligi va yangilikka intiluvchi yondashuvi uni oliy ta‘lim tizimiga yetakladi. 1989–1991-yillarda u Termiz davlat institutining “Matematika o‘qitish metodikasi” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida ishladi. Bu yerda u fanning nazariy asoslarini amaliy dars jarayoniga tatbiq etish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish yo‘lida izchil ish olib bordi.

Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar sari qat‘iyat bilan yo‘l olgan Abiraev Imomali Meliboevich 1991–1994-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Matematika ilmiy-tadqiqot institutining aspiranturasida tahsil olib, fundamental nazariy bilimlarini chuqurlashtirdi. 1994–1995-yillarda ushbu institutning “Amaliy matematika” bo‘limida kichik ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritib, dolzarb ilmiy muammolarga yechim izlash borasida izchil tadqiqotlar

olib bordi. Bu davr uning kelajakdagi ilmiy faoliyatiga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda, Imomali Meliboevich amaliy sohalarda ham faoliyat olib borishni davom ettirdi. 1995-1998-yillarda Denov shahridagi 3615-sonli jamg‘arma bankining axborotlashtirish bo‘limi boshlig‘i lavozimida mehnat qildi.

1998–1999-yillarda Denov shahar Xalq ta‘limi bo‘limida uslubchi sifatida ishlagan Imomali Meliboevich, bu davrda o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, ilg‘or metodikalarni joriy etish va ta‘lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni olib kirishda faollik ko‘rsatdi.

1999-yilda Imomali Meliboevich yana maktab ta‘limi tizimiga qaytib, 2018-yilgacha o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. Ushbu davr davomida yuzlab o‘quvchilarga matematikaning nozik va murakkab sirlarini o‘rgatdi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otdi. Imomali Meliboevich uchun o‘qituvchilik nafaqat kasb, balki umrining ma‘nosi, jamiyatga xizmat qilishning eng sharaflari yo‘li edi.

2018-yilda Imomali Meliboevich yana oliy ta‘lim tizimiga qaytdi. Avvaliga Termiz davlat universitetining Denov filialida Oliy matematika kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat olib borib, kafedra ishlarini tizimli yo‘lga qo‘ydi, dars sifatini oshirish va ilmiy faoliyatni faollashtirish yo‘lida ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi. 2020-yilda esa ushbu filialning Aniq va tabiiy fanlar fakultetiga dekan etib tayinlandi. Fakultet rahbari sifatida u yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, professor-o‘qituvchilar salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda ta‘lim va fan integratsiyasini mustahkamlash yo‘lida muhim natijalarga erishdi.

Hozirda Abiraev Imomali Meliboevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Oliy matematika kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Uning boy pedagogik tajribasi, chuqur ilmiy salohiyati va insoniy fazilatlarini uni nafaqat talabalar orasida hurmatli ustozga, balki akademik jamoatchilik orasida fidoyi olim sifatida tanitgan. Ustoz bugungi kunda ham ilmga ixlosmand yoshlar bilan birga izlanishlar olib bormoqda, o‘zining boy tajribasini keyingi avlodlarga jo‘shqin ishtiyoq bilan yetkazishda davom etmoqda.

Ilm-fan sohasidagi samarali mehnati davomida Imomali

Meliboevich tomonidan bir qator muhim ilmiy va uslubiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, u hammualliflikda 2 ta o‘quv qo‘llanma, yakka mualliflikda 1 ta o‘quv qo‘llanma hamda 3 ta uslubiy qo‘llanma muallifi sifatida tanilgan. Ushbu nashrlar nafaqat talabalar va o‘qituvchilar uchun qo‘llanma vazifasini o‘taydi, balki amaliy matematikaga oid bilimlarni chuqur o‘zlashtirishda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Imomali Meliboevichning ilmiy izlanishlari natijasida hozirga qadar 43 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari xorijiy va respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy jurnallarda hamda ilmiy-amaliy anjumanlar materiallarida chop etilgan. Uning fundamental va amaliy matematikaga oid ishlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, 1 ta intellektual mulk ob‘ektiga oid patent olgani ustozning yangilikka intilishi va ilmiy izlanishlarida mustaqil fikrlovchi tadqiqotchi sifatida shakllanganini yaqqol namoyon etadi.

Imomali Meliboevich nafaqat tadqiqotchi, balki yuksak salohiyatli ilmiy rahbar sifatida ham tanilgan. Uning rahbarligida 7 nafar magistr va 7 nafar bakalavr muvaffaqiyatli bitiruv ishlarini himoya qilgan. Bu esa ustozning bilim berishdagi yuqori malakasi, talabchanligi va shogirdlar yetishtirishdagi fidoyiligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda Imomali Meliboevich o‘z ilmiy faoliyatini 01.01.07 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika ixtisosligi bo‘yicha . “Sonlar nazariyasi usullari yordamida bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli integral tenglamalar sistemasini taqribiy yechish” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasi yo‘nalishida davom ettirmoqda. Bu tadqiqot yo‘nalishi matematikaning amaliy qo‘llanilishi va nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Bugun ustoz Abiraev Imomali Meliboevich o‘zining chuqur bilimi, ilmiy-tahliliy fikrlashi, boy tajribasi va hayotiy donishmandligi bilan ko‘plab shogirdlarga nafaqat ustoz, balki yo‘lko‘rsatkich bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning fidokorona mehnati va izlanishlarga to‘la umr yo‘li yosh avlod uchun ibrat maktabidir.



## **ADINAYEV XIDIR ABDULLAYEVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasida dotsenti, Texnika fanlari doktori*

Har bir inson hayotga bir nur bilan keladi. Bu nur – qalbdagi ishtiyoq, ilmga muhabbat, mehnatga sadoqat va ezgulikka intilishdir. Hayot sinovlarida sobitqadam bo‘lib, jamiyat rivojiga o‘z ilmiy va pedagogik salohiyati bilan hissa qo‘shayotgan fidoyi ustozlarimiz esa ana shu nurning yorqin timsolidir. Texnika fanlari nomzodi, dotsent Adinayev Xidir Abdullayevich ana shunday fidoyi va izlanishdan charchamaydigan olimlardan biridir.

Xidir Abdullayevich 1972-yil 23-martda Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanidagi “G‘ur-g‘ur” mahallasida tavallud topdi. Yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga bo‘lgan ezgu niyat, uni yoshlik chog‘idanoq ilm-fan yo‘liga yetakladi. 1979-yilda Jarqo‘rg‘on tumanidagi A.Nabiev nomidagi 37-sonli maktabda tahsil olgan Xidir Abdullayevich o‘zining har bir bilim pillapoyasini puxta o‘zlashtirib bordi.

Ilmga chanqoqlik uni oliy ta’lim sari yetakladi. 1989–1994-yillarda Toshkent kimyo-texnologiya institutida tahsil olib, zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ldi. Ta’limni to‘xtatmay, 1997–2001-yillarda Toshkent moliya institutida ham tahsil olib, iqtisodiy bilimlar borasida o‘z salohiyatini yanada boyitdi. Aynan shu yillarda uning ilmiy dunyoqarashi kengayib, izlanishlarga bo‘lgan qiziqishi tobora kuchaydi.

Mehnat faoliyatini 1994-yilda Termiz davlat universitetining “Anorganik va analitik kimyo” kafedrasida o‘qituvchi sifatida boshlagan Adinayev Xidir Abdullayevich, qisqa vaqt ichida o‘zining bilimga chanqoqligi, mas’uliyat hissi va mehnatsevarligi bilan alohida ajralib tura boshladi. U pedagogik faoliyatda salmoqli yutuqlarga erishib, talabalar orasida nafaqat bilimli ustoz, balki chin ma’nodagi yo‘l ko‘rsatuvchi

sifatida e'tirof etildi. O'z kasbiga fidoyilik bilan yondashgan yosh mutaxassis katta o'qituvchilik unvoniga loyiq topildi.

1997-2000-yillarda Xidir Abdullayevich Toshkent kimyo-texnologiya institutining kunduzgi aspiranturasida tahsil olib, ilmiy izlanishlarini tizimli va chuqur tarzda davom ettirdi. Ushbu davr Xidir Abdullayevich uchun ilmiy faoliyatining mustahkam poydevorini yaratish, o'z yo'nalishida yangi nazariy va amaliy g'oyalarni shakllantirish davri bo'ldi.

Ko'p yillik mehnati va tinimsiz izlanishlari natijasida Xidir Abdullayevich 2010-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Bu yutuq nafaqat uning shaxsiy ilmiy kamolotida muhim bosqich bo'ldi, balki yurtimiz ilm-fani uchun ham sezilarli hissa bo'lib xizmat qildi. Bu unvon Xidir Abdullayevichning fanga bo'lgan sadoqati, izlanishga bo'lgan ehtiyoji va mutaxassislikka chuqur mehrining yorqin samarasidir.

2000-2018-yillar mobaynida Xidir Abdullayevich Toshkent kimyo-texnologiya institutida turli mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritdi. Muhandislikdan boshlab bo'lim boshlig'i, katta o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri kabi mas'ul lavozimlarda samarali faoliyat olib bordi. Bu yillarda Xidir Abdullayevich institutdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, ta'lim sifatini oshirish, yosh kadrlarni yetishtirish kabi qator yo'nalishlarda fidokorona mehnat qildi.

Adinayev Xidir Abdullayevichning tashkiliy salohiyati, ilmiy va pedagogik mahorati 2018–2021-yillarda Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filialida yanada kengroq namoyon bo'ldi. Xidir Abdullayevich bu yerda kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritibgina qolmay, "Ilmiy ishlar va innovatsiyalar" bo'yicha direktor o'rinbosari sifatida ham ta'lim tizimining strategik rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Uning tashabbusi bilan o'quv-uslubiy ishlar takomillashtirildi, ilmiy faoliyat kuchaytirildi, yosh olimlar va talabalarni ilmga jalb etishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi.

Fanga bo'lgan chuqur mehr Xidir Abdullayevichni 2022–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va

noorganik kimyo institutining doktoranturasiga yetakladi. Hozirgi kunda Xidir Abdullayevich “02.00.15 – Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi (kimyo fanlari)” ixtisosligi bo‘yicha “Noyob er elementlaridan foydalanib beztish va texnik maqsadlar uchun rangli shisha va shishakristall materiallarining sintezi va o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Bugungi kunda Adinayev Xidir Abdullayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritib, ilm-fan, ta’lim va tarbiyaning yuksalishiga munosib hissa qo‘shmoqda. U o‘zining boy tajribasi va bilimlarini talabalar bilan bo‘lishish, yoshlarni ilmga oshno qilish, ularni vatanparvar, fidoyi kadrlar sifatida tarbiyalash yo‘lida astoydil mehnat qilmoqda.

Adinayev Xidir Abdullayevichning ilmiy salohiyati va izlanishga bo‘lgan yondashuvi yillar davomida orttirilgan tajriba, chuqur tahlillar va samarali mehnatlar natijasida shakllangan. Bugungi kunga kelib, Xidir Abdullayevich 40 dan ortiq ilmiy maqola, 50 dan ziyod tezis, 3 ta monografiya hamda 2 ta mualliflik guvohnomasi muallifi sifatida tanilgan. Bu ko‘rsatkichlar uning ilmiy tafakkuri, izlanish doirasining kengligi va yaratgan ilmiy yondashuvlarining amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Olim xalqaro va respublika miqyosidagi ko‘plab ilmiy-amaliy anjumanlarda muntazam ishtirok etib, o‘z ilmiy qarashlarini faqatgina respublika doirasida emas, balki xalqaro miqyosda ham ilgari surmoqda.

Adinayev Xidir Abdullayevich – ilm yo‘lida sadoqat, sabr va fidoyilik timsoli. Uning faoliyati nafaqat yosh olimlarga, balki butun jamiyatimizga o‘rnak bo‘la oladi. U Vatan taraqqiyoti uchun ilmini, tajribasini va umrining har bir lahzasini baxshida etayotgan fidoiy ziyoli, yurtparvar olimdir.



## **NURBOYEV JALOLIDDIN MAMADIYEVICH**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası dotsenti,  
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)*

“Olim bo‘lsang, olam seniki”, deya bejizga aytilmagan. Zero, ilm bilan qurollangan yosh avlod har qanday taraqqiyotning tayanchi va kelajak poydevoridir. Bugungi kunda ana shunday shijoatli, ilmga tashna, yangilikka intiluvchi yosh olimlar safi kengaymoqda. Ular orasida o‘z ilmiy izlanishlari, tadqiqotlari, zamonaviy bilim va tashabbuslari bilan ajralib turadigan fidoyilardan biri — iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), v/b dotsent, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevichdir.

Jaloliddin Mamadiyevich 1996-yil 10-martda Surxondaryo viloyatining go‘zal maskanlaridan biri – Oltinsoy tumanida tavallud topgan. U ta‘lim olamiga ilk qadamini Oltinsoy tumanidagi 23-sonli umumta‘lim maktabida qo‘yib, aynan shu maskanda bilimga bo‘lgan muhabbat, izlanish va intilish ruhini singdirdi.

Yuqori intellektual salohiyati, tirishqoqligi va bilimga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqi sababli u shu yiliyoq mamlakatimizdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universitetiga o‘qishga qabul qilindi. U yerda 2017–2021-yillar davomida “Xalqaro iqtisodiyot va menejment” yo‘nalishida tahsil olib, universitetni yuqori natijalar bilan tamomlab, bakalavr diplomiga ega bo‘ldi.

Jaloliddin Mamadiyevich 1996-yil 10-martda Surxondaryo viloyatining go‘zal maskanlaridan biri - Oltinsoy tumanida tavallud topgan. U ta‘lim olamiga ilk qadamini Oltinsoy tumanidagi 23-sonli umumta‘lim maktabida qo‘yib, aynan shu maskanda bilimga bo‘lgan muhabbat, izlanish va intilish ruhini singdirdi.

Yuqori intellektual salohiyati, tirishqoqligi va bilimga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqi sababli u shu yiliyoq mamlakatimizdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri – Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universitetiga

o‘qishga qabul qilindi. U yerda 2017–2021-yillar davomida “Xalqaro iqtisodiyot va menejment” yo‘nalishida tahsil olib, universitetni yuqori natijalar bilan tamomlab, bakalavr diplomiga ega bo‘ldi.

Jaloliddin Mamadiyevich ta‘lim jarayonidayoq o‘zining izlanuvchanligi, mas‘uliyat hissi va ilmga jiddiy yondashuvi bilan ustozlar e‘tiboriga tushgan, akademik muhitda faol ishtiroki bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘la olgan salohiyatli yosh mutaxassis sifatida shakllandi. Shu bois, bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagach, ilmiy izlanishlarini chuqurlashtirish maqsadida u tahsilni davom ettirishga qaror qildi va 2021–2022-yillarda Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universitetining magistratura bosqichida o‘qishni davom ettirdi. Magistrlik ta‘limi davomida u xalqaro iqtisodiy munosabatlar, raqamli iqtisodiyot va davlat iqtisodiy siyosati kabi dolzarb yo‘nalishlarda chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni egalladi.

Ilm-fan sohasida izchil faoliyat yuritishni maqsad qilgan Jaloliddin Mamadiyevich mehnat faoliyatini 2019-yilda Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universitetining o‘quv-uslubiy bo‘limida ish yurituvchi lavozimida boshlagan. Ushbu davrda u ta‘lim tizimi va ilmiy muassasalar faoliyati bilan yaqindan tanishib, kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash barobarida o‘zining ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini ham chuqurlashtirdi. 2022-yil sentyabr oyidan boshlab Jaloliddin Mamadiyevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat boshladi. Ish faoliyatining ilk kunlaridanoq o‘zining tashabbuskorligi, fidoyiligi va izlanishga bo‘lgan chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turdi. Shu yili u 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy tadqiqot ishlariga kirishdi.

Jaloliddin Mamadiyevich 2022–2023-yillar davomida “Davlat qarzini boshqarish siyosatining yo‘nalishlari”, “Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish imkoniyatlari va istiqbollari”, “Navoiy EIZ misolida O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi va istiqbollari”, “Xitoy tajribasi asosida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish” kabi mavzularda bir qator ilmiy maqolalar e‘lon qilgan. Ushbu maqolalar xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda chop

etilib, turli ilmiy-amaliy anjumanlarda ham munosib taqdim etilgan.

Bugungi kungacha u 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi bo'lib, ularning aksariyati nufuzli xorijiy hamda mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan. Bu esa uning ilmiy salohiyatini va dolzarb iqtisodiy masalalarga bo'lgan jiddiy yondashuvini yaqqol namoyon etadi.

Bundan tashqari, Jaloliddin Mamadiyevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida yoshlar bilan ishlash borasida ham faol ishtirok etmoqda. U hozirda institut huzuridagi Yosh olimlar akademiyasi markazi, Karyera markazi hamda Spin-off markazi rahbari sifatida faoliyat yuritmoqda. Ustozlik va murabbiylik faoliyatida ham o'zini ilg'or pedagog sifatida ko'rsatib, bakalavr hamda magistratura bosqichida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlar uchun ilmiy rahbarlik qilmoqda, ularning tadqiqot olib borish jarayonida zarur bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – zamonaviy O'zbekiston ilm-fan sohasi taraqqiyotiga o'zining teran fikrlari, puxta ilmiy yondashuvi va tinimsiz izlanishlari bilan munosib hissa qo'shayotgan yosh olimlardan biridir. Uning ilmga bo'lgan yuksak e'tibori, fidoyiligi, ilmiy va pedagogik faoliyatidagi mas'uliyat hissi bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir.



## **TO'RAXONOV FOZIL BOBONAZAROVICH**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi  
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Inson muvaffaqiyatining asosi – qat'iyat, tinimsiz mehnat va belgilangan maqsad sari dadil intilishdir. Har qanday yutuq mashaqqatli mehnat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z hayot yo'lini ma'rifat, fidoyilik va ilm bilan bezagan shaxslar har doim e'tiborga loyiqdir. Ana shunday fidoyi olim va pedagoglardan biri – To'raxonov Fozil Bobonazarovich bugungi kunda o'zining halolligi, ilmiy salohiyati, tashabbuskorligi va insoniy fazilatlari bilan yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan zamondoshimizdir.

To'raxonov Fozil Bobonazarovich – bolaligidan ilmga oshno bo'lgan, yoshligidayoq tafakkur maydonida yetuklik sari yo'l olgan, har bir qadamini izlanish, bilim va ma'naviyat yo'lida tashlagan ziyoli insondir. U 1976-yil 20-sentyabrda Surxondaryo viloyatining qadimiy tarixga, mehnatsevar va ziyarak xalqiga ega Denov tumanida tavallud topgan. Yoshligidan dunyoni bilishga, tabiat sirlarini o'rganishga oshufta bo'lgan Fozil Bobonazarovichda ayniqsa ilm-fan, aniq fanlar, xususan, fizika sohasi borasida erta uyg'ongan qiziqish uning kelajak yo'nalishini belgilab berdi.

1983-1993-yillarda Denov tumanidagi Shevchenko nomidagi 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil oldi. Ustozlari uni har doim ziyarak, mulohazali, bilimga chanqoq o'quvchi sifatida tilga olib, sinfdoshlar orasida alohida e'tirof etishar edi.

Uning bilim va izlanishga bo'lgan cheksiz ishtiyoqi uni 1994-yilda Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakultetiga olib bordi. U yerda ham a'lo baholar bilan o'qib, talabalar orasida fidoyiligi, halolligi va o'z ustida ishlashi bilan ajralib turdi. 1999-yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlaganidan so'ng, ilmiy izlanishlarini chuqurlashtirish maqsadida shu oliygoh aspiranturasida o'qishni davom ettirdi.

2002-yilgacha bo‘lgan davrda u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Issiqlik fizikasi institutida ilmiy izlanishlar olib borib, o‘zini mustaqil tadqiqotchi sifatida namoyon eta oldi. Uning ilmiy qarashlari, fizik qonuniyatlarga zamonaviy yondashuvi, ilmga sadoqati bu davrda shakllandi va mustahkamlandi.

To‘raxonov Fozil Bobonazarovich o‘zining mehnat faoliyatini 2002-yil dekabr oyida Termiz davlat universiteti “Nazariy fizika” kafedrasida o‘qituvchilik lavozimidan boshlagan. Bu davrda u nafaqat talabalarga dars berish, balki ilmiy izlanishlarni olib borish, laboratoriya tajribalari asosida yangi g‘oyalarni shakllantirish va yoshlar orasida fizikaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish yo‘lida samarali mehnat qildi.

Ustozlik, tadqiqotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini bilan ajralib turgan Fozil Bobonazarovich 2004-yildan boshlab 2020-yilgacha poytaxtdagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat instituti, hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida faoliyat olib bordi. Bu davr mobaynida u nafaqat tajribali pedagog, balki metodik innovatsiyalarni ishlab chiqqan, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etgan ilg‘or mutaxassis sifatida tanildi.

2020-yildan boshlab esa Fozil Bobonazarovich Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritmoqda. Bu maskanda ham u zamonaviy ta‘lim talablari asosida yuqori saviyali kadrlarni tayyorlash, iqtidorli yoshlarni aniqlab, ularni ilm-fanga jalb etish borasida fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

Fozil Bobonazarovich 13.00.02 – “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilib, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo‘lga kiritgan. Hozirda esa ilmiy faoliyatini davom ettirib, o‘z yo‘nalishida dolzarb muammolarni o‘rganishga, ilg‘or pedagogik yondashuvlar asosida ta‘lim jarayonini takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Fozil Bobonazarovich o‘zining ilmiy va pedagogik faoliyati davomida fizika ta‘limi va metodikasi sohasida salmoqli natijalarga

erishgan. U ilmiy-ijodiy mehnatining samarasi sifatida 1 ta monografiya, 3 ta o‘quv qo‘llanma hamda 14 ta uslubiy qo‘llanmaning muallifi sifatida e‘tirof etilgan. Uning qalamiga mansub asarlar zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar va talabalar uchun muhim manba vazifasini o‘tamoqda.

Shuningdek, olim tomonidan xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy konferensiyalar va jurnallarda 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar chop etilgan bo‘lib, ular ta‘lim va tarbiya jarayonidagi dolzarb masalalarni tahlil etish va yechimlar taklif qilish borasida muhim o‘rin tutadi.

Fozil Bobonazarovich nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy faoliyatga ham ustuvor ahamiyat beradi. Uning tashabbusi bilan 20 dan ortiq laboratoriya jihozlari tayyorlanib, o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bu esa talabalarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, u tomonidan yaratilgan elektron darslik uchun mualliflik guvohnomasi olingani – uning innovatsion yondashuvlar tarafdori ekanligidan dalolat beradi.

Ustoz o‘z ilmiy maktabini yaratish yo‘lida ham faol harakat qilmoqda. Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, startap loyihalar ustida ishlash, ularning ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarish yo‘lida har tomonlama ko‘maklashmoqda. Bugungi kunda u yetishtirgan shogirdlardan biri Prezident stipendiyasi sovrindori bo‘lgani – professorning ustozlik faoliyatidagi yutuqlaridan biridir.

To‘raxonov Fozil Bobonazarovich yosh avlodni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sadoqatli shaxs sifatida kamol toptirishda kuch-g‘ayrat va shijoat bilan mehnat qilmoqda. Ustozlik, fidoyilik va tashabbuskorlik – uning hayotiy mezonlari bo‘lib, bu fazilatlar orqali u har qanday jamoada munosib o‘ringa ega bo‘lmoqda.



## **BOYMIROV SHERZOD TUXTAYEVICH**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi  
kafedrasi katta o‘qituvchisi, Pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Ilm-fan sohasidagi faoliyat insondan katta sabr-toqat, matonat va izchillikni talab etadi. Bu yo‘lning mashaqqatlarini faqatgina ilmga sadoqat bilan yondashgan, uni hayotining ma’naviy asosiga aylantirganlar chuqur anglay oladi. Ayniqsa, ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda yosh avlodga saboq berish, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash – bu har bir ustozning el-yurt oldidagi muqaddas burchidir. Boymirov Sherzod Tuxtayevich ana shunday fidoyiligi va ilmga bo‘lgan yuksak mehr-muhabbati bilan ajralib turuvchi professor-o‘qituvchilardan biridir.

Boymirov Sherzod Tuxtayevich 1985-yil 15-yanvarda Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanida tavallud topgan. U ilk ta‘limini 1992-2003-yillar mobaynida mazkur tumandagi 59-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida olib, shu davrdanoq fizika faniga bo‘lgan qiziqishi, ilm-fanga intilishi va bilishga bo‘lgan ishtiyoqi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Maktab davridayoq murakkab tabiiy hodisalarni tahlil qilish, fizikaning amaliy jihatlarini o‘rganish unga chinakam zavq bag‘ishlagan.

Mazkur qiziqish uni oliy ta‘lim sari yetakladi. 2007–2011-yillar davomida Toshkent davlat pedagogika universitetining fizika yo‘nalishida tahsil olib, ushbu sohaning nazariy asoslarini puxta egalladi. Talabalik davridayoq u mustaqil fikrlash, ilmiy izlanishlarga intilish kabi muhim fazilatlari bilan professor-o‘qituvchilar e‘tiborini qozondi. Ta‘limni muvaffaqiyatli tamomlagach, o‘z malakasini yanada chuqurlashtirish maqsadida 2012–2014-yillar oralig‘ida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistraturasida tahsil oldi. Magistrlik bosqichida u ilmiy izlanishlar olib borish, tajriba va nazariyani uyg‘unlashtirishda o‘zini iqtidorli izlanuvchi sifatida namoyon eta oldi.

Boymirov Sherzod Tuxtayevichning mehnat faoliyati ta‘lim

sohasining eng muhim bo‘g‘inidan – maktabdan boshlandi. 2011-yilda Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidagi 59-maktabda fizika fani o‘qituvchisi sifatida ilk ish faoliyatini boshladi. O‘zining pedagogik mahorati, o‘quvchilarga bo‘lgan mehribon va talabchan munosabati, shuningdek, fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarni qo‘llay olishi uni qisqa fursatda tajribali ustoz sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Keyingi yillarda u Toshkent shahridagi bir qator nufuzli umumta‘lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borib, nafaqat o‘quvchilarga chuqur bilim berishda, balki ularning ilmiy tafakkurini shakllantirishda ham katta hissa qo‘shdi.

2019–2022-yillar davomida Sherzod Tuxtayevich Guliston davlat universiteti fizika kafedrasida o‘qituvchi lavozimida samarali faoliyat olib borgan. Ushbu davr mobaynida u nafaqat ta‘lim berish jarayonini yuqori darajada tashkil etish, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish bilan ham shug‘ullangan. Hozirgi kunda u Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida ishlamoqda. U o‘zining yuqori malakasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlari, ilg‘or metodikasi bilan talaba-yoshlar orasida chuqur hurmat-e‘tibor qozongan ustozlardan biridir.

Sherzod Tuxtayevich o‘z ilmiy izlanishlarini izchil va tizimli tarzda olib borish orqali pedagogika sohasida muhim yutuqlarga erishgan olimlardan biridir. U 2021-yil 8-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi Ilmiy kengashda “13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)” ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘lgan. Ushbu ilmiy unvon uning ko‘p yillik mehnati, fidoyiligi va ilmiy izlanishlariga berilgan munosib bahodir.

Bugungi kunga kelib Sherzod Tuxtayevich tomonidan yaratilgan ilmiy-adabiy meros salmoqli ko‘lamni tashkil etadi. U muallifligida 60 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallar hamda konferensiya to‘plamlarida nashr etilgan. Ayniqsa, so‘nggi uch yil ichida amalga oshirilgan ilmiy faoliyati alohida e‘tiborga

loyiq: u tomonidan 9 ta ilmiy maqola, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, shuningdek, 2 ta uslubiy qo‘llanma tayyorlanib, chop etilgan. Ushbu asarlar nafaqat fizika fani bo‘yicha o‘qituvchilarga, balki ilmiy izlanuvchilar, talabalar va magistrarga amaliy jihatdan katta yordam bermoqda.

Bundan tashqari, Sherzod Tuxtayevich yosh kadrlarni tayyorlash borasida ham samarali faoliyat yuritmoqda. Uning bevosita ilmiy rahbarligida hozirgi kunga qadar 2 nafar magistrant va 9 nafar bakalavr talabasi bitiruv ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shuningdek, u rahbarlik qilgan talaba-yoshlar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlovlar hamda ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, o‘zlarining iqtidor va salohiyatini namoyon etgan holda ko‘plab diplom va sertifikatlariga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Sherzod Tuxtayevichning faoliyati faqat ilmiy va pedagogik yo‘nalishlar bilan cheklanmaydi. U ta‘lim tizimi bilan bog‘liq ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, u viloyat, shahar va institut miqyosida o‘tkaziladigan ma‘rifiy tadbirlarda tashabbuskorlik ko‘rsatib, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, milliy g‘urur, fidoyilik kabi tuyg‘ularni shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shuningdek, ta‘lim sohasi bilan bog‘liq qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik, ayniqsa, talaba-yoshlar orasida keng targ‘ib etish ishlarida ham faol ishtirok etmoqda.

Ilmiy izlanishlar sohasida ham Boymirov Sherzod Tuxtayevich salmoqli loyihalar ustida ish olib bormoqda. Jumladan, u hozirda dunyoning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri – Kaliforniya universitetida o‘qitilayotgan Robert Eisberg muallifligidagi “Kvant fizikasi: atomlar, molekulalar, qattiq jismlar, yadrolar va zarralar” nomli mashhur darslikni o‘zbek tiliga tarjima qilish ustida izlanish olib bormoqda.

Boymirov Sherzod Tuxtayevich – ilm-fan sohasida namunali faoliyati, yuqori bilim saviyasi, yoshlar tarbiyasidagi samarali yondashuvlari bilan bugungi oliy ta‘lim tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fidoiy ustozdir.



## **SANAYEVA NARGIZA PAYZILLAYEVNA**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi kafedrasida  
katta o'qituvchisi, texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD) Dotsent*

Ilm-fan va ta'lim sohasida muvaffaqiyat qozonish – bu cheksiz izlanish, qat'iyat va o'z ishiga sadoqat bilan yo'g'rilgan mehnatning samarasidir. Sanayeva Nargiza Payzillayevna ana shunday fidoyi shaxslardan biri bo'lib, u qurilish muhandisligi sohasida ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvlari bilan muhim iz qoldirmoqda. Uning faoliyati nafaqat bilim va tajriba ulashish, balki yosh avlodni Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishga ilhomlantirish bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Nargiza Sanayeva 1988-yilda Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida, o'zbek xalqining mehnatkash va ma'rifatparvar oilasida dunyoga keldi. Yoshligidan aniq fanlarga, xususan, qurilish va muhandislik sohasiga qiziqishi bilan ajralib turdi. Maktab yillarida ziyrakligi, bilimga chanqoqligi va mas'uliyatli yondashuvi bilan tengdoshlari va o'qituvchilari orasida e'tirofga sazovor bo'ldi. Bu davrda shakllangan intilish va qat'iyat uning kelajakdagi muvaffaqiyatlarining poydevori bo'ldi.

2008-yilda Nargiza muhim qadam tashlab, Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining “Qurilishni boshqarish” fakultetiga o'qishga kirdi. O'z kasbiga bo'lgan muhabbat va bilimga chanqoqlik uni to'rt yil davomida tinimsiz mehnat qilishga undadi. 2012-yilda u bakalavr darajasini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Bu yutuq uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, kelajakdagi yuksak marralar sari yo'l ochdi.

Bilimga bo'lgan ishtiyoqi uni to'xtab qolishga yo'l qo'ymadi. 2012–2014-yillarda Nargiza shu institutning “Qurilish” fakulteti magistraturasida tahsil oldi. Bu davrda u qurilish konstruksiyalari va muhandislik masalalarining nozik jihatlariga chuqur sho'ng'ib, ilmiy izlanishlar olib bordi. Magistrlik jarayonida nafaqat nazariy bilimlarini

mustahkamladi, balki amaliy tajriba orttirib, o‘z sohasida muhim yutuqlarga erishdi.

Nargiza Sanayeva o‘z professional faoliyatini 2007–2008-yillarda Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining “Arxitektura tarixi va nazariyasi” kafedrasida laborant sifatida boshladi. Bu dastlabki qadam uning kasbiy sayohatidagi muhim nuqta bo‘lib, arxitektura olamiga ilk kirish imkonini berdi. 2014–2015-yillarda “Shahar qurilishi va kadastr” kafedrasida assistent sifatida ishladi. Bu davrda shaharsozlik va kadastr masalalari bo‘yicha chuqur tajriba orttirib, pedagogik mahoratini oshirdi.

2016–2019-yillarda Nargiza “Qurilish konstruksiyalari” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Uning darslari nazariy bilimlar bilan amaliy tajribaning uyg‘unligi bilan talabalarni o‘ziga jalb qildi, ularga sohada muvaffaqiyatli yo‘l topishga ilhom berdi. 2023–2024-yillarda esa Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining “Qurilish muhandisligi” kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida ishladi. Bu lavozimda u o‘quv jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarib, zamonaviy yondashuvlarni talabalarga singdirdi va sohada yangi ufqlarni ochdi.

Nargiza Sanayevaning o‘qituvchilik faoliyati nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. U “Metal konstruksiyalari”, “Qurilish konstruksiyalari”, “Yog‘och konstruksiyalari” va “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” kabi fanlardan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib boradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini o‘qitish jarayoniga faol joriy etib, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor beradi.

Uning darslari talabalar orasida katta qiziqish uyg‘otadi, chunki u nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Talabalar tomonidan o‘tkazilgan anonim so‘rovnomada Nargiza Sanayeva eng yuqori baholarni qo‘lga kiritib, 2024-yil 1-oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan universitet rektori tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Bu uning pedagog sifatidagi samarali mehnati va talabalarga bo‘lgan mehr-muhabbatining yorqin isbotidir.

Nargiza Sanayeva o‘z ilmiy yo‘lini mustahkamlash maqsadida 2020-

yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining “Qurilish konstruksiyalari” kafedrasida 05.09.01 – “Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar qurilishi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilindi. Uning izlanishlari qurilish sohasidagi zamonaviy muammolarni hal qilishga qaratildi. 2023-yilda u “Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar” yo‘nalishi bo‘yicha texnika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Bu yutuq uning ko‘p yillik mehnati va ilmiy sadoqatining muhrlangan tasdig‘i bo‘ldi.

2024-yildan boshlab Nargiza Sanayeva Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida katta o‘qituvchi va dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, u Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining “Qurilish muhandisligi” kafedrasida 05.09.01 ixtisosligi bo‘yicha doktorantura (DSc) bosqichida o‘z izlanishlarini davom ettirmoqda. Bu uning ilmiy o‘rishga doimiy intilishi va sohada yetakchi mutaxassis bo‘lish yo‘lidagi qat‘iyatini ko‘rsatadi.

Hozirda Nargiza Denov institutida talabalar bilan birgalikda “Ko‘p qavatli binolarni seysmik himoya qilishning faol usuli” mavzusida ilmiy loyiha ustida ishlamoqda. Bu loyiha O‘zbekistonning seysmik xavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, qurilish sohasida zamonaviy yechimlar ishlab chiqishni ko‘zlaydi.

Nargiza Sanayeva ilmiy faoliyatida salmoqli natijalarga erishgan olim sifatida e‘tirof etiladi. U 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi bo‘lib, ular respublika va xalqaro ilmiy jurnal hamda konferensiyalarda chop etilgan. Ushbu ishlar qurilish konstruksiyalari, seysmik xavfsizlik va bino-inshootlarning mustahkamligi kabi dolzarb mavzularga bag‘ishlangan.

2024-yilda u Innovatsion rivojlanish agentligining PQ-161-son qarori asosida tashkil etilgan “Yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy malaka oshirishga yuborish” tanlovida g‘olib bo‘ldi. Ushbu imkoniyat doirasida Xitoy Xalq Respublikasining nufuzli Chongqing universitetida “Shahar zilzilabardoshligi” bo‘yicha ilmiy-texnologik hamkorlik va malaka oshirish loyihasini muvaffaqiyatli yakunladi va sertifikat bilan

taqdirlandi. Bu tajriba uning xalqaro miqyosda o‘z salohiyatini namoyon etishiga zamin yaratdi.

Nargiza Sanayeva nafaqat ilmiy va pedagogik sohada, balki ijtimoiy-ma’rifiy ishlarda ham faol ishtirok etadi. U yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga katta hissa qo‘shmoqda. Uning rahbarligida 10 nafar bakalavr talabasi o‘z bitiruv ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan bo‘lib, bu uning ustoz sifatidagi muvaffaqiyatini ko‘rsatadi.

Nargiza Sanayevaning fidokorona mehnati turli darajadagi e’tiroflarga sazovor bo‘ldi. 2024-yil 11-fevral kuni “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda innovatsion g‘oyasi uchun sertifikat bilan taqdirlandi. 2025-yil 11-fevralda Xitoydagi malaka oshirish loyihasini muvaffaqiyatli yakunlagani uchun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori tomonidan faxriy yorliq va sovg‘alar bilan e’tirof etildi. Shu bilan birga, u faoliyati davomida ko‘plab diplom va sertifikatlariga sazovor bo‘ldi.

Sanayeva Nargiza Payzillayevna – ilm-fan va ta’lim sohasida o‘z o‘rnini topgan, qurilish muhandisligi yo‘nalishida muhim yutuqlarga erishgan fidoyi olima va pedagog. Uning ilmiy izlanishlari, zamonaviy ta’lim usullariga sadoqati va yoshlarni tarbiyalashdagi samarali faoliyati nafaqat o‘z sohasiga, balki butun jamiyatga ulkan hissa qo‘shmoqda. O‘zining qat’iyati, mehnatkashligi va innovatsion yondashuvi bilan Nargiza Sanayeva kelajakda yanada yuksak cho‘qqilarni zabt etishga tayyor. Uning faoliyati yosh olimlar va talabalar uchun ilhom manbai bo‘lib, Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilishning yorqin namunasi ko‘rsatmoqda. Nargiza Sanayeva – bu nafaqat bugungi kunning muvaffaqiyatli olimasi, balki kelajakning yetakchi mutaxassisi.



## **QURBONOV ALIJON SARABEK O'G'LI**

*Umumiy fizika va qurilish muhandisligi  
kafedrasida katta o'qituvchisi, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Bugungi kunda O'zbekiston ilm-fani va ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – zamonaviy, raqobatbardosh va yuksak salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunda muhandislik sohasi, xususan, qurilish yo'nalishida yetuk kadrlarni yetishtirishda o'zining bilim va tajribasini ayamaydigan pedagog-olimlar alohida o'rin tutadi. Ana shunday o'z kasbiga fidoyi, ilmga intiluvchan, har tomonlama yetuk mutaxassislardan biri – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Qurbonov Alijon Sarabek o'g'idir.

Qurbonov Alijon Sarabek o'g'li 1990-yilda tug'ilgan. Alijon Qurbonov ilk ta'lim yillaridanoq texnik va aniq fanlarga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga chanqoqligi bilan ajralib turgan. Maktab davridayoq fan olamiga bo'lgan qiziquvchanligi, izlanishga bo'lgan intilishi bilan ustozlari e'tiborini qozongan.

2009-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutiga o'qishga kirib, 2013-yilda mazkur oliy ta'lim muassasasining “Bino va inshootlar qurilishi” ta'lim yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomladi hamda “Muhandis quruvchi” mutaxassisligini qo'lga kiritdi. O'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida 2013–2015-yillar davomida shu institutda magistratura bosqichida tahsil olib, “Bino va inshootlar qurilishi – energiya samarali binolarni loyihalash” yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan mutaxassislik darajasini oldi.

O'qishni tamomlagach, Alijon Qurbonov ilk mehnat faoliyatini Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida boshladi. U dastlab 2015-2021-yillar davomida “Bino va inshootlar” kafedrasida assistent lavozimida ish boshlagan bo'lib, qisqa vaqt ichida o'zining puxta bilimi, mas'uliyati va tashabbuskorligi bilan e'tibor qozondi.

2021-yildan 2023-yilgacha Alijon Qurbonov shu institutining “Bino va inshootlarni loyihalash” kafedrasida o'qituvchi lavozimida samarali

faoliyat olib bordi. Ushbu davrda u o‘zining amaliy tajribasi, texnik bilimlari va yangilikka intiluvchanligi bilan kafedraning o‘quv-uslubiy hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga salmoqli hissa qo‘shdi.

2023-yilning yanvar oyidan boshlab, noyabr oyigacha Alijon Qurbonov Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida stajyor-tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, 2023–2024-yillarda “Qurilish muhandisligi” kafedrasida katta o‘qituvchi (o‘rindoshlik asosida) lavozimida ishlagan. Aynan shu bosqichda u o‘zining ilmiy izlanishlariga yanada jiddiy e‘tibor qaratib, o‘z tadqiqotlar olib bordi va muhim natijalarga erishdi. Ilmiy izlanishlar sari qat’iyat bilan intilgan Alijon Qurbonov 2023-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/26.01.2023.T.109.02 raqamli Ilmiy kengashda “05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar” ixtisosligi bo‘yicha “Binolarning yer osti qismidan yo‘qoladigan issiqlikni kamaytirish hisobiga energiya samaradorligini oshirish” mavzusidagi dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345/1-sonli bayonnomasiga asosan unga texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi berildi.

2023-2025-yillar davomida Alijon Qurbonov Samarqand viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasida bosh mutaxassis lavozimida faoliyat yuritdi. Mazkur davr mobaynida u qurilish jarayonlarini nazorat qilish, texnik reglamentlarga amal qilinishini ta'minlash hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida nazoratni olib borishda katta tajriba orttirdi.

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi olgandan so‘ng, Alijon Qurbonov 2024-yil 9-fevraldan boshlab Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining “Qurilish muhandisligi” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlay boshladi.

2024-yilning sentabr oyidan boshlab hozirgi kungacha Alijon Qurbonov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida

ham faoliyat olib bormoqda. U bu yerda ham o'zining boy tajribasi va kasbiy mahorati bilan talabalarga sifatli ta'lim berishga, o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga hissa qo'shmoqda.

Alijon Qurbonov o'zining asosiy pedagogik faoliyati bilan bir qatorda universitet, shahar va viloyat miqyosida, shuningdek, davlat tashkilotlarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. U ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy sohalarga oid qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mazmuni bilan fakultet talabalari, magistrantlar va ilmiy izlanuvchilarni muntazam tanishtirib borishda faol ishtirok etmoqda.

2015-yildan hozirgi kungacha oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan Alijon Qurbonov axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida "Arxitektura", "Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi", "Binolarning energiya samaradorlik injineri" hamda "Qurilish fizikasi" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib bormoqda. O'quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida u o'zining darslarini "Aqliy hujum", "Suhbat", "Muhokama", "Bahs-munozara", "Guruh bo'lib loyihalash", "Charxpalak" va "Bumerang" kabi innovatsion o'qitish uslublari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimedia vositalaridan foydalangan holda olib boradi.

Qurbonov Alijon Sarabek o'g'li o'z fanlari bo'yicha bakalavriat bosqichi uchun zarur bo'lgan ishchi dasturlar, sillabuslar, ma'ruza matnlari va uslubiy ko'rsatmalarni mustaqil ravishda ishlab chiqqan. 2024-yilda u tomonidan tayyorlangan "Qurilish fizikasi 2" nomli o'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan. Bugungi kungacha u tomonidan 38 dan ortiq ilmiy maqola, 2 ta o'quv qo'llanma va 1 ta monografiya tayyorlanib, nashr ettirilgan.

Alijon Qurbonovning mehnati, fidokorona va izlanishlarga bo'lgan intilishi, unga nafaqat universitetda, balki xalqaro miqyosda ham obro' qozonishga yordam bermoqda. Uning ish faoliyati butun jamiyatga ta'lim va ilm-fan sohasida ulkan hissa qo'shgan namuna bo'lib xizmat qilmoqda.



## **RAXIMOV ALISHER XUDOYQULOVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrasi katta o'qituvchisi, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Har qanday yuksak marraning ortida mehnat, fidoyilik va sabr yashiringan bo'ladi. Mashaqqatsiz inson o'z hayotida katta yutuqlarga erisha olmaydi. Hayotning sinovlari esa insonni bardam, zukko va kamtarin qilib tarbiyalaydi. Ayniqsa, taqdirini ta'lim sohasiga bog'lagan, yosh avlodni tarbiyalashni hayotiy burchi deb bilgan insonlar ana shunday hayot maktabidan o'tgan bo'ladi. Ular orzulari yo'lida faqat bilim bilan emas, balki qat'iyat, jasorat va halollik bilan ham harakat qiladilar. Bugungi kunda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan ko'plab ustozlar ichida o'zining halol mehnati, ilmga sadoqati va pedagogik mahorati bilan ajralib turadiganlardan biri – Raximov Alisher Xudoyqulovichdir.

Alisher Xudoyqulovich – fidokorona mehnati, chuqur ilmiy izlanishlari va pedagogik faoliyati bilan respublikamiz kimyo fanining rivojiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan olimlardan biridir. U 1974-yil 17-yanvarda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dunyoga kelgan. Dastlabki ta'limni 1981–1991-yillar davomida Denov tumanidagi 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olib, bilimga chanqoqligi, tirishqoqligi bilan ajralib turgan o'quvchilardan bo'lgan.

Maktabni tamomlagach, Alisher Raximov 1992–1994-yillar davomida harbiy xizmatni sharaf bilan o'tadi. Vatan oldidagi burchini sidqidildan ado etgan bu yillar unda mas'uliyat, qat'iyat va bardoshlilik kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qildi. Harbiy xizmatdan qaytgan Alisher Xudoyqulovich 1994–1997-yillar mobaynida S.Raximov nomidagi jamoa xo'jaligida ishchi sifatida mehnat qildi. Bu davr – Alisher Raximovning hayot maktabi, hayotga bo'lgan qarashi, mehnatga hurmat, halollik va fidoyilik kabi insoniy fazilatlar unda chuqur ildiz otgan yillar bo'ldi.

1998-yilda Alisher Raximov ilm-fanga boʻlgan intilishi va tirishqoqligi bilan Termiz davlat universitetining kimyo fakultetiga oʻqishga qabul qilindi va 2002-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. Talabalik davri Alisher Raximov uchun nafaqat nazariy bilimlar bilan boyigan, balki shaxsiy va intellektual oʻsish bosqichi boʻldi. Mashhur fan namoyandalari – professor Toʻrayev X.X., dotsent Aliqulov R.V. va Hamrayev T.A. kabi yurtimizda tan olingan olimlar qoʻlida tahsil olgani uning ilmiy dunyoqarashi va mustaqil fikrlash salohiyatining shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Talabalik yillarida Alisher Raximov nafaqat fanlarni puxta oʻzlashtirgan, balki universitet hayotida ham faol ishtirok etgan. Uning bakalavrlik taʼlim bosqichi dotsent Sh. Quvvatov rahbarligida yozilgan “Maktab kimyo kursida elektrolitik dissotsiatsiyalanish mavzusini oʻqitish metodikasi” nomli bitiruv malakaviy ishi bilan yakunlandi. Bu ilmiy ish orqali u maktab kimyo darslarining samaradorligini oshirish, mavzularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tushuntirish usullarini oʻrganishga harakat qilgan.

Keyinchalik, 2003–2005-yillar davomida Alisher Raximov Samarqand davlat universitetining Kimyo fakultetida magistratura bosqichini davom ettirdi. Bu bosqichda ham Alisher Raximov oʻz bilimini chuqurlashtirib, “Gazlar aralashmasida kislorod miqdorini aniqlash” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

Magistraturani tamomlagach, Alisher Raximov 2005–2020-yillar oraligʻida Denov tumanidagi 36-umumiy oʻrta taʼlim maktabida kimyo fani oʻqituvchisi sifatida faoliyat yuritdi. Mazkur maskanda u haqiqiy pedagogik mahoratini, fidoyiligi va oʻquvchilarga boʻlgan mehrini amalda namoyon etdi. U oʻquvchilarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish maqsadida turli ilmiy toʻgaraklar tashkil etdi. Bu toʻgaraklar orqali koʻplab iqtidorli yoshlar tuman miqyosidagi fan olimpiadalarida yuqori oʻrinlarni egallashdi. Ayniqsa, uning yetakchiligida oʻquvchilarning oliy taʼlim muassasalariga kirish koʻrsatkichlari keskin oshdi.

2020-yildan esa Alisher Raximov oliy taʼlim sohasiga qadam qoʻyib, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tabiiy fanlar”

kafedrasida stajyor-o'qituvchi lavozimida ish boshladi. Ilmga bo'lgan qiziqishi va intilishi bilan u Texnika institutining sanoat texnologiyalari fakulteti dekani, kimyo fanlari doktori, professor F.B. Eshqurbonov rahbarligida bentonit minerali ustida ilmiy izlanishlarga kirishgan.

Doktorantura davrida Alisher Raximov bir qator ilmiy markazlar bilan yaqin hamkorlikda ishlagan, jumladan Toshkent kimyoviy texnologiyalar ilmiy tadqiqot institutida professor X.S. Beknazarov rahbarligida tadqiqot malakasini yanada boyitgan. Uning ilmiy izlanishlari mahalliy mineral xomashyolar asosida samarali sorbentlar ishlab chiqishga, ularni o'simlik moylarini oqartirish, vino mahsulotlarini tozalash hamda suvni tozalashda qo'llashga qaratilgan. Bu boradagi amaliy yutuqlari "SURXONZIQOVQATSANOAT" MChJ, "DENOVVINOSHAROB" MChJ va "Denov OMUXTAYEM" MChJ bilan hamkorlikda rasmiy dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Ilmiy izlanishlar borasidagi izchil mehnatlari, qat'iyati va chuqur nazariy bilimlari natijasida Alisher Raximov 2024-yilda Termiz davlat universiteti qoshidagi DSc.03/31/.01.2023.K/T.78.01 raqamli ilmiy kengashda "Mahalliy xomashyolar asosida organomineral sorbentlar olish va ularni qo'llash texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo'lga kiritgan.

Ilmiy merosi jihatidan sermahsul olimdir. Ilmiy faoliyati davomida Alisher Raximov hammualliflikda 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 4 ta o'quv-uslubiy majmua muallifligiga erishgan. Uning ilmiy izlanishlari asosan mahalliy mineral moddalar asosida noorganik va organik kompozit materiallar olish, ularni oziq-ovqat sanoatida oqartiruvchi vosita sifatida qo'llash, qishloq xo'jaligi uchun ekologik toza o'g'itlar tayyorlash, oqava suvlarni tozalash uchun sorbent materiallar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Shu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Raximov – zamonaviy ilm-fan sohasida izlanayotgan, vatanimiz rivoji yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan, yoshlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida tarbiyalashga o'zini bag'ishlagan fidoyi olim, sadoqatli ustoz, o'z sohasining yetuk mutaxassisi hisoblanadi.



## **KARIMOV XUSNIDDIN RUSTAMOVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Bugungi kunda O'zbekiston ilm-fani zamon bilan hamnafas qadam tashlamoqda. Yurtimizda fundamental va amaliy tadqiqotlar, ayniqsa tabiiy fanlar yo'nalishida yangi avlod olimlarining paydo bo'layotgani quvonarli hol. Shunday istiqbolli olimlardan biri – kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, Karimov Xusniddin Rustamovich bo'lib, u o'zining halolligi, ilmga bo'lgan yondashuvi, yangilikka intilishi va zamonaviy ilmiy qarashlari bilan ilm ahli orasida ajralib turadi.

Karimov Xusniddin Rustamovich 1989-yil 6-sentabrda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida tavallud topgan. U bolaligidan ilm-fan, texnika va tabiat sirlariga qiziqib, har bir yangi ma'lumotni kashfiyotdek qabul qilgan, dunyoni ilm nuri bilan yoritishni orzu qilgan yoshlar safida edi. Bilim sari ilk qadamlari Denov tumanidagi 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlangan. Aynan shu dargohda u o'zining o'tkir tafakkuri, kuzatuvchanligi va izlanishga chanqoqligi bilan ustozlari e'tiborini tortdi.

Ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashgan Xusniddin Rustamovich, 2012–2016-yillarda poytaxtimizning nufuzli oliygohlaridan biri – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Kimyo yo'nalishida tahsil oldi. Bu dargohdagi o'qishlar unga nafaqat puxta nazariy bilimlar, balki ilmiy fikrlash va tajribaviy tahlil qilish ko'nikmalarini ham singirdi.

Ta'limdagi mukammallikka bo'lgan intilish uni yana bir bosqichga – Termiz davlat universiteti magistratura bo'limiga olib bordi. 2016–2018-yillarda u yerda tahsil olib, kimyo fanining yanada chuqur qirralarini o'rganishga, ilmiy izlanishlarni metodik va zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishga kirishdi.

Xusniddin Rustamovich ilmiy va pedagogik faoliyatining dastlabki bosqichlarida o'rta ta'lim maktab o'qituvchilik faoliyatini boshlagan.

2016-2018-yillarda Denov tumanidagi 24-umumiy oʻrta taʼlim maktabida kimyo fani oʻqituvchisi sifatida yosh avlodni ilm-fanga boʻlgan qiziqishini shakllantirish va kimyo faniga oid bilimlarni mustahkamlash yoʻlida faol mehnat qildi. Keyingi yillarda, uning pedagogik faoliyati taʼlim jarayonini boshqarish va tashkil etishga ham yoʻnaltirilgan. 2018–2020-yillarda aynan shu oʻrta taʼlim maktabining oʻquv ishlari boʻyicha direktor oʻrinbosari lavozimida samarali faoliyat yuritdi.

2020–2021-yillarda Xusniddin Rustamovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tabiiy fanlar” kafedrasida oʻqituvchi sifatida faoliyat koʻrsatdi. Bu davrda u oʻquv jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish, talabalar bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda katta tajriba toʻpladi.

Ilm-fanga boʻlgan chuqur qiziqish, yangilikni kashf etishga boʻlgan tabiiy intilish Xusniddin Rustamovichni ilmiy izlanishlar sari yetakladi. 2021-yilda u oʻzining kasbiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ilmiy tafakkur doirasini kengaytirish maqsadida yurtimizdagi eng nufuzli oliy taʼlim muassasalaridan biri – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasida tayanch doktoranturaga oʻqishga qabul qilindi. Fizik kimyo yoʻnalishida olib borgan izlanishlari, tinimsiz mehnati va ilmga sadoqati oʻz natijasini berdi – Xusniddin Rustamovich 2024-yilda 02.00.04 – Fizik kimyo ixtisosligi boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilib, yosh, istiqbolli va mustaqil fikrlovchi olimlar safidan munosib oʻrin oldi. Bu yutuq – nafaqat uning shaxsiy mehnati, balki yurtimiz ilmiy salohiyatini oshirishga qoʻshilgan navbatdagi muhim hissa edi.

2024-yil yanvar oyidan boshlab, Sunnatullo Shamsullayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda. Ushbu lavozimda u ilmiy va oʻquv-uslubiy faoliyatni uygʻunlashtirib, talabalarga zamonaviy kimyo va texnologiya boʻyicha chuqur bilimlar berishga intilmoqda.

Uning ijodiy va ilmiy faoliyati har jihatdan sermahsul boʻlib,

hozirga qadar 70 ga yaqin ilmiy ishlari – maqola va tezislari Respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida, xalqaro va milliy anjumanlarda muvaffaqiyatli chop etilgan. Ayniqsa, so‘nggi uch yil ichida Scopus va Web of Science kabi dunyo miqyosida tan olingan ilmiy bazalarda chop etilgan 8 ta maqolasi uning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi faolligidan dalolat beradi. Bu yutuqlar uning ilmiy izlanishlariga bo‘lgan professional yondashuvi va mazmunan boy tadqiqotlarining e’tirofi sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda Google Scholar ilmiy platformasidagi h-indeksi 5 ga, Scopus bazasidagi h-indeksi esa 3 ga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar uning ilmiy ishlari nafaqat keng qamrovli, balki dolzarb va amaliy ahamiyatga molik ekanini yaqqol ifodalaydi.

Xusniddin Rustamovich yosh avlodni tarbiyalash, ularning ilmiy salohiyatini shakllantirish borasida ham samarali mehnat qilib kelmoqda. U bugungi kunga qadar 1 nafar magistr va 11 nafar bakalavr bitiruvchining ilmiy rahbari sifatida ularning ilmiy faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, yo‘naltirgan. Rahbarligida tahsil olgan 10 ga yaqin yosh izlanuvchi respublika va xalqaro darajadagi turli tanlovlar, fan olimpiadalari va ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, diplom hamda sertifikatlariga sazovor bo‘lgan.

Ayniqsa, uning shogirdlaridan biri – Mirzo Ulug‘bek nomidagi nufuzli davlat stipendiyasi sohibiga aylangani, olimning nafaqat ilmga, balki inson kapitalini shakllantirishga ham katta hissa qo‘shayotganining yorqin isbotidir.

Karimov Xusniddin Rustamovich – ilm-fan yo‘lida sobitqadamlik bilan harakat qilayotgan, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, fan va ta’lim sohalarida o‘z izini qoldirayotgan olimlardan biridir. U o‘z faoliyati, yangicha fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan nafaqat yosh olimlarga, balki butun jamiyatga ibrat bo‘la oladigan siymodir.



## **KULBASHEVA XURSHIDA XASANOVNA**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrası dotsenti v.b., texnika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi ilmiy g'oyalarni yuzaga chiqarish va amaliyotda qo'llash – bu oson yo'l emas. Bu jarayon, xalqimiz ta'biri bilan aytganda, igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi. Bu yo'lda mustahkam iroda, sabr, mehnatsevarlik, intilish va fidoyilik talab etiladi. Ayniqsa, oila mas'uliyati va farzand tarbiyasi kabi muhim masalalarni ilmiy faoliyat bilan birga olib borayotgan olim ayollarimiz – jamiyatning chinakam tayanchi va ilhom manbai hisoblanadi. Ular nafaqat ilmga, balki jamiyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. Ana shunday jasoratli, mehnatkash va fidoiy olimalardan biri – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent vazifasini bajaruvchi Kulbasheva Xurshida Xasanovna hisoblanadi.

Kulbasheva Xurshida Xasanovna 1984-yil 19-mayda Surxondaryo viloyati Denov tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Bolaligidan bilim olishga bo'lgan qiziqishi, intiluvchanligi uni ta'lim sohasida muntazam va izchil rivojlanishga undadi. Yosh Xurshida Xasanovna 1991–2001-yillarda Denov tumani 84-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olib, ilk bor ilm-fan sari dadil qadam tashladi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, 2001-yilda Termiz davlat universitetining kimyoviy texnologiya va biotexnologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichiga o'qishga qabul qilindi. 2005-yilda universitetni a'lo baholar bilan bitirgan Xurshida Xasanovna ilmiy faoliyatga chuqur qiziqishi sababli o'z tahsilini davom ettirishga qaror qildi va 2006–2008-yillarda Termiz davlat universitetining magistratura bosqichida o'qib, kimyo sohasida chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Mehnatsevarlik va izlanuvchanlik uning harakatlariga asos bo'lib xizmat qildi. U 2005–2013-yillar davomida Termiz tumani Yangi Ariq

qishloq xo‘jalik kasb-hunar kollejida ishlab chiqarish ta’lim ustasi lavozimida faoliyat olib bordi. Shu yillarda u yoshlarga kasbiy ko‘nikmalar berish bilan birga, ularda fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga alohida e’tibor qaratdi.

Ustozlik faoliyatini davom ettirgan holda, 2018–2019-yillarda Termiz axborot texnologiyalari va turizm kasb-hunar kollejida maxsus fan o‘qituvchisi sifatida, 2019–2021-yillarda esa Termiz shahar 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabida kimyo fani o‘qituvchisi sifatida samarali faoliyat yuritdi. Aynan shu davrda u yoshlar orasida ilmga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish, ularning bilim saviyasini oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi.

Ilm-fan sohasiga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq uni yana universitetga qaytishga undadi. 2021–2022-yillarda Termiz davlat universitetining organik kimyo kafedrasida stajyor-tadqiqotchi sifatida ilmiy faoliyatini boshlagan Xurshida Xasanovna, shu davrdan boshlab o‘z ilmiy izlanishlarini chuqurlashtirib bordi. 2021–2024-yillar davomida ushbu kafedrada katta o‘qituvchi lavozimida ishlab, ta’lim va ilm-fan sohasida salmoqli natijalarga erishdi.

2024-yildan boshlab esa Xurshida Xasanovna Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat olib bormoqda.

O‘quv jarayoni bilan bir qatorda Xurshida Xasanovna faol ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullanmoqda. Ayni paytda u 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan “OLTINSOY GOLD SOLOR PRINT” MCHJning “Mahalliy xomashyolar asosida ftalotsianin ko‘k bo‘yoqlarini ishlab chiqarish innovatsion texnologiyasini yaratish” mavzusidagi tijoratlashtirish davlat granti doirasida kimyoviy masalalar bo‘yicha maslahatchi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Olimaning ilmiy yo‘nalishi o‘simlik moylari asosida ekologik toza plastifikatorlar ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. U epoksidlangan o‘simlik moylari asosida polivinilxlorid uchun plastifikator olish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib bormoqda. Bu boradagi ishlari o‘simlik moylarining elastiklik, reologik,

yopishqoqlik, termik barqarorlik kabi fizik-kimyoviy xossalarni chuqur tahlil etish bilan ajralib turadi. U ishlab chiqqan usullar sanoatda amaliy qo'llanilishi mumkin bo'lgan ekologik barqaror yechimlar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda o'simlik moylarini epoksidlash uchun perasidlar texnologiyasidan tashqari, metall komplekslar, geterogen katalizatorlar va fermentlar asosidagi ilg'or usullar ham tadqiq qilinmoqda. Xurshida Kulbasheva aynan ushbu yo'nalishdagi zamonaviy texnologik yechimlarni ishlab chiqishga o'z ilmiy faoliyatini bag'ishlamoqda.

Olimaning bugungi kungacha 35 dan ortiq ilmiy maqolalari respublika va xorijiy jurnallarda, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlarda chop etilgan. So'nggi uch yilda uning 15 ta ilmiy maqolasi Scopus va Web of Science bazalarida indeksatsiyalangan. Google Scholar bazasida h-indeksi 3 ga teng. U ilmiy rahbar sifatida 2 nafar bakalavrni tayyorlagan va 1 nafar mustaqil tadqiqotchining ilmiy ishlari rahbari sifatida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, uning rahbarligidagi 8 nafar talaba respublika va xalqaro miqyosdagi ko'rgazmalar hamda tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, diplom va sertifikatlariga sazovor bo'lgan.

Bundan tashqari, Xurshida Xasanovna Termiz davlat universiteti hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti huzuridagi Ilmiy-texnik kengash a'zosi, "Tadbirkorlik va pedagogika" ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ham faoliyat olib bormoqda. 2024–2025-o'quv yilidan boshlab u Termiz Yoshlar Texnoparki tomonidan tashkil etilgan "Demo Day" loyihalarida ham faol ishtirok etib, o'z g'oyalari bilan faxriy diplom va sertifikatlar bilan taqdirlangan.

Xurshida Kulbasheva – o'zining yurtiga, xalqiga, ilm-fan va ta'lim sohasiga sadoqat bilan xizmat qilayotgan, jamiyatimizning taraqqiyotiga fidoyiligi, bilimdonligi, halolligi va mehnatsevarligi bilan ulkan hissa qo'shayotgan zamonaviy olimalarimizdan biridir.



## **BOZOROV IKROM ISKANDAROVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrası dotsenti, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Har bir inson hayotga ichki bir kuch, ichki bir intilish – o'ziga xos ilhom manbai bilan keladi. Bu ichki quvvat vaqt o'tishi bilan rivojlanib, insonni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi, uni yuksak orzular sari ruhlantiradi. Ayniqsa, ilm-fan yo'lini tanlagan, ilmiy izlanish va tadqiqotlarga hayotini bag'ishlagan shaxslar ana shu ichki kuchni, ichki uchqunni katta alangaga aylantira olgan fidoyi insonlardir. Ilm bilan shug'ullanish, yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish esa naqadar mashaqqatli jarayon ekani sir emas. Bu yo'ldagi har bir muvaffaqiyat, har bir yutuq yillar davomida olib borilgan izchil izlanishlar, fidokorona mehnat va qat'iyat mahsulidir.

Bugungi kunda yurtimizda ilm-fan rivoji, ayniqsa, zamonaviy kimyo fanining taraqqiy etishi yo'lida samarali faoliyat yuritayotgan olimlar safida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar" kafedrası dotsenti Bozorov Ikrom Iskandarovich alohida o'rin egallaydi. U o'zining yuksak ilmiy salohiyati, sermazmun faoliyati va fidoyiligi bilan nafaqat ilmiy doiralarda, balki keng jamoatchilik orasida ham e'tirof etilgan ilm ahlidan biridir.

Ikrom Bozorov 1972-yil 26-mayda Surxondaryo viloyati Denov tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. U yoshlik yillaridanoq bilim olishga, ilm sirlarini chuqur anglashga intilib yashagan. Ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqi, ayniqsa, tabiiy fanlarga qiziqishi maktab davridayoq yorqin namoyon bo'lgan. 1979-yildan 1989-yilgacha Denov tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan davrida sinfdoshlaridan ajralib turadigan faolligi, izlanuvchanligi, mustaqil fikrlashi va o'qishga bo'lgan mehr-muhabbati bilan ustozlari e'tiboriga tushgan.

Bilim olishdagi bu qat'iy ishtiyoq Ikrom Bozorovni oliy ta'lim sari yetakladi. Ikrom Bozorov 1992-yilda Termiz davlat universitetining

kimyo ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilinib, 1997-yilda ushbu oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi. Talabalik yillarida ham u o'zining tirishqoqligi, mustahkam nazariy tayyorgarligi va laboratoriya mashg'ulotlaridagi faolligi bilan ajralib turgan. Aynan shu davrda Ikrom Bozorov kimyo faniga chuqurroq qiziqish bilan yondasha boshlagan va kelajakdagi ilmiy faoliyatining poydevorini mustahkam qo'ygan.

Ikrom Bozorov pedagogik faoliyatini 1998-yilda boshlagan bo'lib, o'shandan buyon o'qituvchilik kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda. U o'zining sermahsul mehnat yo'lida Denov tumanidagi bir qator nufuzli ta'lim muassasalarida kimyo fani o'qituvchisi sifatida faoliyat olib borgan. Xususan, 1998–2003-yillarda Denov tumanidagi 33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2003–2009-yillarda iqtidorli bolalar maktab-internatida, 2009–2017-yillarda esa 17-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatida mehnat qilgan.

2017–2020-yillar mobaynida Ikrom Bozorov yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan. Xususan, repetitorlik xizmatlari orqali bilimga chanqoq, izlanuvchan yoshlar bilan muntazam ishlash orqali ularning tayyorgarligini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Bu yillarda ham u pedagogik faoliyatga bo'lgan sadoqatini saqlagan holda, o'z bilim va tajribasini yoshlarga yetkazishdan charchamagan.

2020-yildan boshlab esa Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida faoliyat olib bormoqda. Dastlab o'qituvchi sifatida mehnat qilgan Ikrom Bozorov 2024-yil oktyabr oyidan boshlab mazkur kafedrada dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelmoqda. Bu bosqichda u nafaqat pedagogik, balki ilmiy faoliyatini ham faol davom ettirib, institutdagi yosh mutaxassislar va talabalarga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

Ikrom Bozorovning ilm-fan yo'lidagi izchil mehnati va chuqur izlanishlari o'z samarasini berdi. 2024-yilda u texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. U o'z dissertatsiya ishini “02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi” hamda “11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” kabi dolzarb va

zamonaviy yoʻnalishlar boʻyicha tayyorlab, uni yuqori saviyada himoya qildi. Ushbu yutuq nafaqat uning kasbiy va ilmiy salohiyatini yana bir bor tasdiqladi, balki uni oʻz sohasi boʻyicha yetuk mutaxassis, salohiyatli olimlar qatoriga olib chiqdi.

Bugungi kungacha Ikrom Bozorov tomonidan 40 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan. Ulardan 2 tasi Scopus va Web of Science xalqaro ilmiy bazalarida indeksatsiyalangan boʻlib, bu uning ilmiy ishlari xalqaro miqyosda ham eʼtirof etilayotganidan dalolat beradi. Olimning Google Scholar bazasidagi h-indeksi 3, Scopus bazasidagi h-indeksi esa 1 ga teng boʻlib, bu koʻrsatkichlar uning ilmiy faoliyati izchil rivojlanib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

Ikrom Bozorov nafaqat yetuk olim, balki tajribali ustoz sifatida ham samarali faoliyat yuritmoqda. Uning ilmiy rahbarligida 3 nafar bakalavr talabalari oʻz bitiruv ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shuningdek, 30 nafarga yaqin bakalavr va magistrantlar respublika hamda xalqaro miqyosda tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlov va koʻrgazmalarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlariga sazovor boʻlishgan. Bu esa olimning pedagogik mahorati va ilmiy rahbarlik salohiyati yuksak darajada ekanidan dalolat beradi.

Ikrom Bozorov – bugungi zamon talablari asosida fidokorona mehnat qilayotgan, Vatan va xalq manfaatlarini oʻz ilmiy faoliyatining asosiy yoʻnalishi qilib olgan, fan, taʼlim va tarbiyani uygʻun holda olib borishga intilayotgan zamonaviy olimdir. U yoshlarni bilimli, vatanparvar, zamonaviy fikrlaydigan kadrlar etib tarbiyalashda butun kuch-gʻayratini, bilimini ayamay kelmoqda.

Shubhasiz, Bozorov Ikrom Iskandarovich kabi ilmga sodiq, mehnatsevar, vatanparvar olimlar bor ekan, yurtimizda ilm-fan yanada rivojlanadi, yoshlarimiz esa ular safidan munosib oʻrin egallashga intiladi. Uning hayoti va faoliyati har bir ilm fidoyisi uchun namunadir.



## **JO'RAYEV ILYOS RO'ZIQULOVICH**

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Insoniyat taraqqiyoti tarozusining bir pallasida moddiy boyliklar turar ekan, ikkinchi pallasida albatta bilim, tafakkur va ma'rifat joy oladi. Har qanday jamiyatning yuksak taraqqiyoti aynan shu ikkinchi palla – ilm va tafakkur bilan belgilanadi. Bu yo'ldagi eng muhim kuch esa – o'z umrini ilmga, ta'limga va xalq xizmatiga bag'ishlagan fidoyi insonlardir. Ana shunday ma'naviyat va ma'rifat bayroqdorlaridan biri, o'z sohasida o'ziga xos iz qoldirayotgan yosh va umidli olimlardan biri – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), faol izlanuvchi, sobitqadam pedagog Jo'rayev Ilyos Ro'ziqulovichdir.

Jo'rayev Ilyos Ro'ziqulovich 1993-yil 4-mart kuni Surxondaryo viloyatining Boysun tumani "O'rta Machay" mahallasi Xo'jadiyak qishlog'ida ishchi oilasida dunyoga kelgan. U yoshligidanoq bilimga chanqoq, tafakkuri teran, izlanuvchan bo'lib voyaga yetdi.

Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limni 1999-2008-yillar davomida Boysun tumanidagi Sa'diy Sheroziy nomli 14-sonli o'rta ta'lim maktabida oldi. Keyinchalik, 2008–2010-yillar mobaynida ta'limni Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Sadridin Ayniy nomli 10-sonli umumta'lim maktabida davom ettirib, tojik tilida o'qib, maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. Ushbu yillar mobaynida u faqatgina a'lo baholarga o'qish bilan cheklanmay, jamoatchilik ishlarida ham faol qatnashgan, sinfdoshlari va ustozlari ishonchini qozongan.

2012-yilda Jo'rayev Ilyos Termiz davlat universitetining Filologiya fakulteti "Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili" ta'lim yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi. Universitetda tahsil olayotgan yillarida u o'zbek tili va adabiyoti sohasida chuqur bilim egallab, til va madaniyatga bo'lgan qiziqishini yanada mustahkamladi va 2016-yilda bakalavr darajasini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi.

Ta'lim muassasasini tamomlagach, Jo'rayev Ilyos o'z faoliyatini xalq ta'limi tizimida boshlaydi. 2016–2017-o'quv yilida Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 48-maktabda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida faoliyat olib bordi. 2017–2018-o'quv yilida esa u Muzrabot tumanidagi 43-sonli umumta'lim maktabida faoliyatini davom ettirib, pedagogik mahoratini yanada oshirdi.

Uning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi, mustahkam irodasi va o'z ustida tinimsiz ishlashi uni 2018–2020-yillar mobaynida Samarqand davlat universitetining “O'zbek tili va adabiyoti” yo'nalishida magistratura bosqichida o'qishni davom ettirishga undadi. Magistratura bosqichida u o'zining ustozlaridan biri, taniqli tilshunos olim, professor Ibodulla Mirzayev Kamolovich rahbarligida tahsil olib, ustozining pedagogik mahorati, ilmiy intizomi va insoniy fazilatlaridan chuqur ta'sirlandi. Professor Mirzayevning ta'biri bilan aytganda, Jo'rayev “o'zining mustahkam tarbiyasi poydevori ustiga ko'rkam ta'lim va muhtasham tadqiqot binosini qurayotgan yosh izlanuvchi” sifatida o'zini namoyon eta oldi. Ustoz-shogird munosabati natijasida Ilyos ilmga, tilshunoslikka bo'lgan munosabatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Jo'rayev Ilyos Ro'ziqulovich magistratura bosqichida o'qish bilan birga, pedagogik faoliyatni ham davom ettirib, bilim va ko'nikmalarini amalda mustahkamladi. Jumladan, Ilyos Ro'ziqulovich 2019–2020-o'quv yillari davomida Samarqand tumanidagi 32-maktabda, shuningdek, 2023–2024-yillarda esa 50-maktabda o'qituvchi sifatida faoliyat olib borib, o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanlarini chuqur, zamonaviy metodlar asosida o'rgatishga harakat qildi.

2020-yilning avgust-dekabr oylarida Ilyos Ro'ziqulovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida amaliyotchi o'qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu institutdagi tajriba Jo'rayevning ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirib, uni doktorantura bosqichiga tayyorladi.

Natijada, Ilyos Ro'ziqulovich 2021–2023-yillarda ushbu institutning tayanch doktorantura bosqichida tahsil olib, o'z ilmiy izlanishlarini izchil davom ettirdi. Tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan

leksikografiya sohasini tanlagan Jo‘rayev 2024-yilda 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha “Sirojiddin Alixon Orzuning “Charog‘i hidoyat” izohli lug‘atining leksikografik tadqiqi” mavzusida dissertatsiya himoya qilib, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi.

2024-yil 4-sentabrdan boshlab Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritayotgan Jo‘rayev Ilyos Ro‘ziqulovich bugungi kunda o‘z ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati va izlanuvchanligi bilan nafaqat talabalarga chuqur bilim berayotgan, balki ilmiy jamoatchilik orasida ham e‘tibor qozonayotgan yosh olimdir.

Uning umumiy ish staji 13 yilni, pedagogik va ilmiy faoliyatdagi tajribasi esa 6 yilni tashkil etadi. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasasidagi pedagogik faoliyat tajribasi 3 yil bo‘lib, bu davr mobaynida u yuqori saviyada dars berish, talabalarda tilshunoslikka bo‘lgan qiziqishni oshirish, amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Jo‘rayev Ilyos o‘zining ilmiy izlanishlarini nafaqat maqolalar shaklida, balki amaliy ishlar orqali ham davom ettirib kelmoqda. Shu kungacha u tomonidan bir dona tarjima lug‘at nashr etilgan bo‘lib, bu asar o‘zbek tilshunosligiga va tarjimashunoslikka qo‘shilgan muhim hissalaridan biridir. Bundan tashqari, u 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi bo‘lib, ushbu ilmiy ishlari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallarda hamda turli konferensiyalarda e‘lon qilingan.

Jo‘rayev Ilyos Ro‘ziqulovich – zamonaviy ilmiy avlodning vakili sifatida Vatanimizda olib borilayotgan ta‘lim islohotlarining faol ishtirokchisidir. Uning faoliyati yosh tadqiqotchilar uchun ibrat maktabi bo‘lib, ilmga sadoqat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik fazilatlarining yorqin namunasi sanaladi.



## **YULDOSHEV FOZIL TURAPOVICH**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrasini dotsenti,  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Har bir insonning ijtimoiy borliqdagi o'rnini anglashga, ijtimoiy faoliyatining mohiyati va xususiyatlarini ochib berishga bo'lgan intilish mudom ilm ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ana shunday ichki bir yorqinlik bilan yaxshiliklar ulashib ilm ahlining hurmat – e'tiboriga sazovor Yuldashev Fozil Turapovich oliy ta'lim tizimida samarali mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilardan biri sanaladi.

Yuldoshev Fozil Turapovich 1981-yil 10-dekabrda Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida dunyoga kelgan. Dastlabki ta'limni Oltinsoy tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida olgan yosh yigitda o'shandaq bilimga chanqoqlik, izlanish va o'z ustida ishlashga bo'lgan kuchli ishtiyoq sezilib turgan. Shu sabablidirki, Fozil Turapovich o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ydi va bu yo'ldan hech qachon og'ishmadi.

2003–2007-yillarda Toshkent arxitektura-qurilish institutida iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olib, bakalavr darajasini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Keyinchalik, 2007–2009-yillarda aynan shu institutda “Tarmoqlar iqtisodiyoti” mutaxassisligi bo'yicha magistratura dasturini ham tamomlab, o'z ilmiy faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga tayyorlandi. Yosh iqtisodchi faqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirib qolmasdan, balki ularni amaliyotga tatbiq etish, jamiyat bilan o'rtoqlashish va boshqalarga o'rgatish yo'lini tanladi.

Uning mehnat faoliyati 2008-yilda Toshkent geodeziya va kartografiya kasb-hunar kollejida o'qituvchi sifatida boshlandi. Dastlabki yillarda ilmiy metodologiyalar va ta'lim texnikalarini o'rganib, o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga, u o'zining pedagogik mahoratini ham rivojlantirdi. Kollejda o'tgan vaqt mobaynida Fozil Turapovich nafaqat ta'lim jarayonida, balki o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi, ularning insoniy fazilatlarini shakllantirishda ham faol

ishtirok etdi.

Yildan yilga uning faoliyati yanada rivojlanib, keyinchalik Toshkent geodeziya va kartografiya kasb-hunar kollejida ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga ko'tarildi. Bu lavozimda uning pedagogik yondashuvlari, innovatsion g'oyalari va rahbarlik fazilatlarini o'quvchilar orasida katta e'tirofga sazovor bo'ldi.

Yuldoshev Fozil Turapovichning ilmiy faoliyati va pedagogik yo'nalishlari davomida Termiz davlat universitetida o'zining mehnatini samarali davom ettirgan. 2013–2015 yillarda u Termiz davlat universitetining “Iqtisodiyot nazariyasi va boshqaruv” kafedrasida o'qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u talabalarga iqtisodiyot nazariyasining asosiy tamoyillari va boshqaruvning samarali metodologiyalarini o'rgatishda o'zining yuqori pedagogik malakasini namoyon etdi. Keyinchalik, 2015–2018 yillarda aynan shu universitetning “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida faoliyatini davom ettirib, iqtisodiy tahlil va nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirdi. 2018–2020-yillarda Fozil Turapovich Termiz davlat universitetining “Turizm va mehmonxona xo'jaligi” kafedrasida o'qituvchi sifatida ish olib bordi. Ushbu sohada o'z bilimlarini kengaytirib, talabalarga turizm va mehmonxona sohasidagi yangi yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv metodlarini o'rgatdi.

2020–2021-yillar davomida u Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga ko'chib o'tdi va “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Bu davrda u moliya va moliyaviy texnologiyalarni o'rgatishda innovatsion metodlarni joriy etib, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat berdi.

2021-yildan bugungi kungacha Yuldoshev Fozil Turapovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida faoliyat yuritmoqda. Ushbu sohada u talabalarga raqamli iqtisodiyotning zamonaviy tamoyillari va uning iqtisodiyotdagi o'rni haqida chuqur bilimlar beradi.

Shu yillar mobaynida, Yuldoshev Fozil Turapovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida mustaqil tadqiqot olib borib, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” ixtisosligi bo'yicha ilmiy

izlanishlar amalga oshirdi. Uning tadqiqot ishlari amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilib, natijada korxonalarining moliyaviy faoliyatida ijobiy o'zgarishlar va samarali natijalarga erishildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati va foydaliligi ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi, natijada Fozil Turobovich 2024-yilda iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi.

Yuldoshev Fozil Turapovichning ilmiy faoliyati tahsinga loyiq. U 30 dan ortiq ilmiy maqolalarni xorijiy va mahalliy jurnallarda chop ettirgan, 20 dan ortiq ilmiy anjuman va seminarlarda qatnashgan. Google Scholar va Scopus bazalarida uning h-indeksi 3 ga teng bo'lib, bu uning ilmiy maqolalarining boshqa tadqiqotchilar tomonidan faol iqtibos keltirilayotganini anglatadi.

Fozil Turapovich ilmiy rahbarlik borasida ham katta tajribaga ega. 2 nafar magistr va 6 nafar bakalavrni muvaffaqiyatli yetishtirdi. Ayniqsa, uning shogirdlaridan biri Mirzo Ulug'bek nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'lgani ustozning fidoyiligi va mehnatining yorqin samarasidir. Uning rahbarligida tayyorlangan bakalavr va magistrantlar turli tanlov va ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli qatnashib, diplom va sertifikatlariga sazovor bo'lishgan.

Bugungi kunda ham Yuldoshev Fozil Turapovich institutda ko'plab yosh tadqiqotchilarga ilmiy yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda. U yoshlarni zamonaviy iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, raqamli iqtisodiyot sohasida salohiyatli kadrlar yetishtirish yo'lida astoydil mehnat qilmoqda.

Uning shijoati, ilmga bo'lgan muhabbati, vatanga sadoqati va halolligi yoshlar uchun chinakam namunadir. Yuldoshev Fozil Turapovich – bu nafaqat o'z kasbining ustasi, balki jamiyat ravnaqiga hissa qo'shayotgan, xalqimiz farovonligi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan bilimdon va vatanparvar olimdir.



## **NORBO'TAYEV ISLOMBEK MUSURMONOVICH**

*Tarix va falsafa kafedrası dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Zamonaviy jamiyatda professor-olimlar nafaqat ilm-fan taraqqiyotining yo'l boshchilari, balki yangi avlodni yetishtirish, ularni mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkur sari yetaklovchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi yetuk mutaxassislar sifatida katta hurmat va e'tirofga sazovor bo'lib kelmoqda. Ular o'zlarining chuqur bilimlari, keng qamrovli ilmiy izlanishlari va fidokorona pedagogik faoliyatlari bilan jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shmoqda. Aynan shunday olimlardan biri – Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tarix va falsafa” kafedrası dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, Norbo'tayev Islombek Musurmonovichdir.

Norbo'tayev Islombek Musurmonovich 1990-yil 17-may kuni Surxondaryo viloyati Uzun tumanida dunyoga kelgan. Maktab Islombek Musurmonovich yoshlik davridayoq tarix, jamiyatshunoslik va adabiyot fanlariga chuqur qiziqish bildirgan. Bu tabiiy intilish uni ilm-fan yo'lini tanlashga, ayniqsa ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida mustahkam bilimga ega bo'lishga undadi. Dastlabki bilim va dunyoqarashining shakllanishida kitobga mehr, o'qishga bo'lgan ishtiyoq va mustaqil fikrlashga bo'lgan intilish muhim omil bo'ldi.

O'rta ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagach, ilm va ma'rifatga bo'lgan cheksiz intilishi uni yurtimizning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga yetakladi. 2014-yilda universitetning Huquqshunoslik fakultetida bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagan Islombek Musurmonovich, ta'lim sohasida chuqur bilimga ega bo'lish va pedagogik faoliyatda o'z o'rnini topish maqsadida ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. 2016-yilda shu oliygohning “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi” yo'nalishi bo'yicha magistrlik dissertatsiyasini

muvaffaqiyatli himoya qilib, magistr ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

Norbo‘tayev Islombek Musurmonovich mehnat faoliyatini o‘qituvchilikdan boshlagan. Uning ilk pedagogik faoliyati 2015–2016-yillarda Toshkent shahridagi 326-sonli akademik litseyda boshlandi.

Yosh pedagog o‘z ona yurti – Surxondaryo zaminiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini amalda namoyon etib, 2016–2017-yillarda Uzun tumanidagi 21-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida pedagogik faoliyatini davom ettirdi. Bu davrda u nafaqat sinf ostonasidagi ustoz, balki o‘quvchilarning do‘sti, yo‘l ko‘rsatuvchi murabbiy sifatida hurmat qozondi.

Ta‘lim sohasidagi ilk yutuqlari, mas’uliyatli yondashuvi va tashabbuskorligi natijasida u 2017–2019-yillar mobaynida Uzun tuman Xalq ta‘limi bo‘limining Bolalarni ijtimoiy himoyalash sho‘basi mudiri lavozimida ishladi. Bu bosqichda u nafaqat ta‘lim tizimidagi islohotlarga o‘z hissasini qo‘shdi, balki ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, bolalar huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy muhofazani ta‘minlash borasida ham katta tajriba to‘pladi.

2019-yil sentyabr oyidan boshlab Norbo‘tayev Islombek Musurmonovich o‘zining pedagogik va ilmiy faoliyatini Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrasi tarkibida davom ettirib kelmoqda. Hozirgi kunga qadar u mazkur kafedrada dotsent lavozimida samarali faoliyat yuritmoqda.

Islombek Musurmonovich 09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy yuksalish g‘oyasini amalga oshirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari” mavzusida chuqur ilmiy tadqiqot olib bordi. Ushbu ilmiy izlanish natijasi sifatida 2023-yil 9-sentyabr kuni O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashda falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Bugungi kunda Norbo‘tayev Islombek Musurmonovich “Zamonaviy avlod: gumanistik aktivizm, qadriyatlar va stereotiplar evolyutsiyasi (falsafiy tahlil)” mavzusida falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun izchil ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Islombek Musurmonovich bugungi kunga qadar 2 ta monografiya, 1 ta risola, 1 ta darslik hamda 35 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi sifatida keng e'tirof etilgan. Uning ilmiy ishlari falsafa fanining dolzarb yo'nalishlarini qamrab olib, hozirgi davr ijtimoiy ongini shakllantirish, jamiyatdagi madaniy-ma'naviy jarayonlarni chuqur tahlil qilishda asosiy manba vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, yosh olimlar va talaba-yoshlar uchun bu asarlar zamonaviy ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim o'quv manbalaridan biri hisoblanadi.

Islombek Musurmonovich ilmiy va jamoatchilik hayotida faol ishtirok etuvchi, tashabbuskor ziyoli sifatida ham tanilgan. So'nggi besh yil ichida u Respublika miqyosida o'tkazilgan o'ndan ortiq ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiya, seminar va anjumanlarda faol qatnashib, o'zining dolzarb ilmiy maqolalari bilan bu tadbirlarning nufuzini oshirdi. Mazkur maqolalar jamiyatshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy-falsafiy fikrlar evolyutsiyasi, ta'lim tizimidagi zamonaviy muammolar kabi yo'nalishlarda yangicha qarash va yondashuvlarni ilgari surdi.

Ayniqsa, 2024-yil 19-noyabr kuni uning tashabbusi bilan tashkil etilgan "Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman katta e'tirofga sazovor bo'ldi. Mazkur tadbir orqali u nafaqat tarixiy haqiqatlarni ilmiy asosda yoritishga erishdi, balki xalqaro ilmiy hamkorlik va muloqot maydonini kengaytirishga ham muhim hissa qo'shdi.

Islombek Musurmonovich o'zining intizomli, samimiy, vatanparvar va halol mehnat qiluvchi insoniy fazilatlari bilan hamkasblari va talabalar orasida katta hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib kelmoqda. U har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadi, har doim yangilikka intiladi, jamiyatda olib borilayotgan islohotlarni chuqur anglab, ularni ilmiy jihatdan asoslab berishga, yoshlarni ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashga astoydil xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Norbo'tayev Islombek Musurmonovich – nafaqat ijtimoiy falsafa sohasida yetuk olim va kuchli mutaxassis, balki pedagogik fidoyilik va ilmiy izlanishlar namunasi bo'lgan, Vatan taraqqiyoti yo'lida sobitqadam xizmat qilayotgan chinakam ziyoli shaxsdir.



## MUMINOV ULMAS RAVSHANQULOVICH

*Tarix va falsafa kafedrasi o'qituvchisi Tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent*

Har bir inson qalbida ezgulikka intilish, atrofdagi olamni anglash va uni yanada go'zalroq qilish istagi bilan dunyoga keladi. Bu intilish ko'pincha ilm, ma'rifat va halollik sari yo'naltiradi. Ana shu kuchli ichki ishtiyoq, fidoyilik va sabr-toqat bilan yo'g'rilgan hayot yo'li orqali jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan, yoshlarga ilm berib, ularni komil inson qilib tarbiyalashga bel bog'lagan fidoyi ustozlardan biri – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Muminov Ulmas Ravshanqulovichdir.

Muminov Ulmas Ravshanqulovich – 1989-yil 11-noyabrda Surxondaryo viloyatining qadimiy tarix va boy madaniy merosga ega bo'lgan Denov tumanida dunyoga kelgan. U bolaligidan bilimga bo'lgan qiziqishi, mustahkam irodasi va tirishqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Maktab davridayoq tarix, jamiyatshunoslik va adabiyot fanlariga bo'lgan qiziqishi uni bu yo'nalishda chuqur bilim olishga undadi.

O'rta ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagach, Ulmas Ravshanqulovich 2009-yilda Toshkent viloyati Angren Davlat pedagogika institutining tarix fakultetiga o'qishga qabul qilindi. 2009–2013-yillar davomida u bakalavriat bosqichida “Tarix o'qituvchisi” mutaxassisligini egalladi. O'zining izlanishlari va tarix faniga bo'lgan chuqur qiziqishi uni ilmiy faoliyat sari yetakladi.

Ta'lim yo'lini davom ettirgan Ulmas Ravshanqulovich 2015–2017-yillar oralig'ida O'zbekiston Milliy universitetida “O'zbekiston tarixi” yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichini ham muvaffaqiyatli tugatdi. Magistrlik tahsili davomida u tarixiy manbalarni tahlil qilish, zamonaviy ilmiy metodlarni qo'llash hamda milliy o'zlikni anglash g'oyalari asosida chuqur tadqiqotlar olib bordi.

Ulmas Muminov mehnat faoliyatini 2013-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 13-umumta'lim maktabida tarix o'qituvchisi lavozimida boshlagan. Ushbu davrda u yosh avlodni o'z vatanining tarixini o'rganishga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga va ilm-fanga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishda o'z hissasini qo'shdi.

2017–2019-yillarda Toshkent shahridagi 283-umumta'lim maktabida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan Ulmas Muminov, yoshlarni ma'naviyat, ahloq va tarbiya yo'nalishida yo'l-yo'riq ko'rsatdi.

2019–2020-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha uslubchi sifatida faoliyat olib borgan. .

2020-yildan hozirgi kunga qadar Ulmas Muminov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda. U o'zining pedagogik faoliyatini yanada kengaytirib, yosh avlodga ilm-fan sohasidagi bilimlarni singdirish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilishga katta hissa qo'shmoqda.

Ilmiy izlanishlari davomida Muminov Ulmas Ravshanqulovich chuqur tahliliy yondashuv, izchil rejalashtirish va ilmiy metodologiyaga asoslangan yondashuv bilan ajralib turadi. U 2021-yil dekabr oyida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida malakaviy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan: chet tili (ingliz) fanidan 56 ball, mutaxassislik (O'zbekiston tarixi) fanidan esa 78 ball to'plagan.

U tomonidan tayyorlangan “Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari mahallalari hayoti: modernizatsiya jarayonlari va o'zgarishlar dinamikasi (1991–2021 yy)” mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi 2023-yil 14-mart kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tarix va falsafa kafedrasida huzuridagi ilmiy-uslubiy seminarda ko'rib chiqilib, Ilmiy kengashga tavsiya etilgan.

Shu asosda, 2023-yil 11-sentabr kuni Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi

bo'yicha ilmiy seminarda dissertatsiya keng muhokamaga qo'yilgan. 2023-yil 29-mayda seminar xulosasi asosida dissertatsiyani rasmiy himoyaga qabul qilish taklif etilgan.

Tegishli hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga (OAK) yuborilgan. 2024-yil 11-iyulda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi haqida rasmiy e'lon OAK veb-saytida chiqarilgan va Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash tomonidan avtoreferatni nashr ettirishga ruxsat berilgan.

Dissertatsiya va unga tegishli avtoreferat 2024-yil 17-iyulda Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markaziga topshirilgan. 2024-yil 23-iyulda esa "ZiyoNET" veb-saytida e'lon qilish uchun qabul qilinib, shu kuni dissertatsiya himoyasi to'g'risida axborot O'zbekiston Axborot agentligi rasmiy saytida ham chop etilgan.

Ilmiy izlanishlar va fidoyilik bilan bajarilgan bu ish o'z munosib natijasini 2024-yil 5-sentabr kuni berdi – Muminov Ulmas Ravshanqulovich tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Uning dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK tasdig'idan o'tgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan.

Mazkur mavzu doirasida u tomonidan 15 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, ulardan 14 tasi OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda, 6 tasi esa xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda taqdim etilib, ilmiy doiralarda katta qiziqish uyg'otgan.

Muminov Ulmas Ravshanqulovichning ilmiy faoliyati keng e'tirof etilib, 2023-yil 29-iyulda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 4-13-212068-sonli ma'lumotnoma asosida ijobiy baholangan.

Bundan tashqari, uning dissertatsiyasi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali tomonidan tayyorlangan "Taqdimot" ko'rsatuvida yoritilgan (2023-yil 3-apreldagi 02-31-505-sonli rasmiy ma'lumotnoma asosida).



## **DULANOV OTABEK YULDASHEVICH**

*Tarix va falsafa kafedrası dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ilm-fan insoniyatning o'tmishdan kelajakka yo'l ochuvchi yorug' chirog'i, jamiyatning ma'naviy va moddiy boyliklarini ko'paytiruvchi muqaddas xazinadir. Bu soha nafaqat bilimlarni yig'ish va tahlil qilish, balki inson qalbini yuksaltirish, tafakkurni o'tkirlashtirish va dunyoni yanada adolatliroq qilish yo'lidagi cheksiz izlanishdir. Aynan shunday ulug' maqsadlarni o'z hayoti va faoliyatining mezonini qilib olgan Dulanov Otabek Yuldashevich tarix va etnologiya sohasida o'ziga xos iz qoldirayotgan fidoyi olimdir.

Dulanov Otabek Yuldashevich 1989-yil 7-fevral kuni Surxondaryoning qadimiy va ma'naviy boyliklarga boy yurti – Oltinsoy tumanida tavallud topgan. Shu zaminning betakror tabiati, boy tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlari go'dak qalbida tarix ilmi va o'tmishga bo'lgan cheksiz mehrni uyg'otdi. Ana shu mehr, ayni damda ilmiy fidoyilik va izchil mehnatga aylanish yo'lida muhim zamin bo'ldi.

Ta'lim yo'lini 2014–2018-yillar oralig'ida Jizzax davlat pedagogika institutining Tarix fakultetida davom ettirgan Otabek Yuldashevich, "Tarixni o'qitish metodikasi" yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini muvaffaqiyat bilan tamomladi. Bu yillar nafaqat bilim egallash, balki tarix fanining murakkab sir-asrorlariga kirib borish, o'qituvchilik kasbiga mehr bilan qarash bosqichi bo'ldi.

Ustuvor intilish va ilmga tashnalik uni 2019–2021-yillarda Termiz davlat universitetining Tarix fakultetiga yetakladi. Bu yerda Otabek Yuldashevich "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" yo'nalishi bo'yicha magistrlik bosqichini tamomlab, ilmiy qarashlarini yanada chuqurlashtirdi. Aynan shu bosqichdan e'tiboran u tarixga oddiygina fanga emas, balki xalq ruhiyati, madaniyati va tafakkurining ildizlarini aks ettiruvchi jonli hodisa sifatida qaray boshladi

Otabek Yuldashevich ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan bir qatorda,

ta'lim maskanlarida olib borgan samarali pedagogik faoliyati bilan ham el nazariga tushgan. Uning o'qituvchilik faoliyati 2018–2020-yillarda Termiz shahridagi 9-sonli umumta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi sifatida boshlangan. Aynan mana shu bosqichda u tarixiy bilimlarni yosh avlodga yetkazishdek mas'uliyatli vazifani katta mehr va fidoyilik bilan bajardi.

O'zining pedagogik mahorati, ilmiy salohiyati va izlanishga chanqoqligi bilan Otabek Yuldashevich qisqa vaqt ichida oliy ta'lim sohasida ham o'z o'rnini topdi. 2021–2024-yillar oralig'ida Termiz davlat universitetining Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchi sifatida faoliyat olib bordi. Bu davrda u nafaqat o'qituvchi, balki ilmiy rahbar, talabalar uchun chin ma'nodagi ustoz va ilhom manbaiga aylandi.

2024-yil 7-oktabrdan boshlab u o'z faoliyatini Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida davom ettirmoqda. Bu yerda u Tarix va falsafa kafedrasining katta o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirgan holda yosh avlodni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatmoqda. Har bir dars, har bir ilmiy suhbat – bu yoshlar qalbiga ezgulik, tarixiy ong va vatanga sadoqat urug'larini qadash demakdir.

Otabek Yuldashevich o'z ilmiy faoliyatini 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi doirasida olib borib, “O'zbekiston hududlariga juz etnik komponentining joylashuvi va uning mahalliy etnoslarga etnomadaniy ta'siri (XVI–XX asrlar)” mavzusida chuqur va fundamental tadqiqotlarni amalga oshirdi. Otabek Yuldashevichning mazkur yo'nalishdagi izlanishlari mamlakatimizda etnik tarix, milliy identitet va madaniy taraqqiyot muammolarini o'rganishda muhim nazariy asos va metodologik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur ilmiy daraja Otabek Yuldashevichning ko'p yillik izlanishlari, mehnatsevarligi va tarixshunoslik sohasiga qo'shgan salmoqli hissasining e'tirofi sifatida baholandi.

2023-yil 6-iyun kuni Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashda Dulanov Otabek Yuldashevich “Surxon vohasi yuz (juz)larining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari (XVIII asr va XX asr boshlari)” mavzusidagi

dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga erishdi.

Bugungi kunda Otabek Yuldashevich tarix fanining zamonaviy yo'nalishlarida olib borayotgan sermazmun va izchil faoliyati orqali mustahkam ilmiy pozitsiyasini namoyon etmoqda. U o'z ilmiy izlanishlari bilan nafaqat tarixshunoslik sohasi rivojiga, balki yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Olim tomonidan tayyorlangan 1 ta o'quv qo'llanma, 3 ta davlat granti doirasidagi ilmiy loyiha hamda 30 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar respublika ilmiy jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan. Xususan, tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zaruriy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, ularning tarixiy tafakkuri va ilmiy qarashlarini shakllantirishda Otabek Yuldashevichning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi samarali ishlardan biri sifatida uning muallifligida yaratilgan "Muzeyshunoslik" nomli o'quv qo'llanmasini alohida tilga olish mumkin. Ushbu adabiyot 70220301 – Tarix mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun asosiy o'quv manbai sifatida keng qo'llanilib, amaliy va nazariy bilimlarni uyg'un holda o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi.

Ayni paytda Otabek Yuldashevich tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish maqsadida "O'zbekiston hududlariga juz etnik komponentining joylashuvi va uning mahalliy etnoslarga etnomadaniy ta'siri (XVI–XX asrlar)" mavzusida chuqur ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu fundamental tadqiqot, shubhasiz, O'zbekistonning tarixiy-etnologik manzarasini yanada teranroq anglash, milliy identitet va madaniy merosni ilmiy asosda o'rganish yo'lida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Otabek Yuldashevich nafaqat yetuk tadqiqotchi va ilmiy maktab vakili sifatida, balki xalqaro va milliy ilmiy nashrlar sahifalarida faoliyat yuritayotgan mas'ul retsenzent sifatida ham keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. U "Central Asian Journal of Social Science and History" ilmiy jurnalining retsenzenti sifatida maqolalarning akademik darajasini baholashda, ularning ilmiy asoslanganligini ta'minlashda halollik va mas'uliyat bilan yondashib kelmoqda. Shu bilan birga,

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining tahrir hay’ati a’zosi sifatida tarixiy-tadqiqot yo‘nalishidagi maqolalarni saralash, tahlil qilish va ommaga taqdim etishda ham faol ishtirok etib, ilmiy nashrlar sifati va mazmunan boyishini ta’minlashda fidokorona mehnat qilmoqda.

2024-yil 15–16-mart kunlari Termiz davlat universitetida muvaffaqiyatli o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston sharoitida tarix va etnologiya fanlarining dolzarb masalalari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining tashkiliy ishlarida Dulanov Otabek Yuldashevich kafedra a’zolari bilan samarali hamkorlikda faol ishtirok etib, beqiyos hissa qo‘shdi. Uning tashabbuskorligi va professional yondashuvi konferensiyaning yuqori saviyada tashkil etilishida muhim omil bo‘ldi. U nafaqat ushbu yirik ilmiy anjumanning tashabbuskori, balki uni ilmiy va tashkiliy jihatdan yuqori saviyada o‘tkazilishida asosiy yetakchilardan biri bo‘ldi. Shu yilning 17-18 may kunlari o‘tkazilgan “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali doirasida bo‘lib o‘tgan “Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyadagi o‘rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham Otabek Yuldashevichning tashabbusi, tashkiliy qobiliyati va yuksak ilmiy salohiyati bilan muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu kabi nufuzli tadbirlar orqali u Surxon vohasining boy tarixiy-madaniy merosini keng jahon ilmiy hamjamiyatiga yetkazish, mintaqaning tarixiy ahamiyatini chuqur yoritish yo‘lida fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

Dulanov Otabek Yuldashevich bugungi kunda tarixshunoslik sohasida yetuk olim, mahoratli pedagog, tajribali retsenzent va yurtimiz ilmiy jamoatchiligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ziyoli sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. Uning har bir ilmiy va pedagogik ishlari tarix fanining rivoji, yoshlar tarbiyasi va milliy g‘ururni mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



## **XALMURATOV MINGBOY AMIROVICH**

*Biologiya va qishloq xo`jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi,  
biologiya fanlari nomzodi, Dotsent*

Ilm yo'li – sabr, izlanish va fidoyilikdan iborat ulug' bir safardir. Bu yo'lni yurib, o'z izini qoldirgan, har bir yutug'ini mehnat va kamtarlik bilan o'lgan insonlar bor. Ana shunday fidoyi ustoz, botanik olim, tajribali pedagog – biologiya fanlari nomzodi, dotsent Xalmuratov Mingboy Amirovich ham shunday olimlardandir. U nafaqat ilm ahli, balki yosh tadqiqotchilar, talabalar orasida ham hurmat va e'tibor topgan, vataniga sadoqatli, tabiatga mehr bilan qaraydigan chin ma'nodagi ziyoli siymodir.

Mingboy Amirovich 1966-yil 30-martda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi (sobiq Sho'rchi tumani) Jobu mahallasida ishchilar oilasida dunyoga keldi. Ilmga chanqoq va intiluvchan Mingboy Amirovich maktab davridayoq a'lo baholari, tirishqoqligi bilan ajralib turgan. 1983-yilda Sho'rchi tumanidagi 22-maktabni imtiyozli baholar bilan tugatgan Mingboy Amirovich 1984-yili Termiz davlat pedagogika institutining biologiya va qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Shu yillar oralig'ida (1984–1986) Latviya Respublikasida harbiy xizmatni o'tadi va keyin yana ilm yo'liga qaytdi. 1991-yilda institutni muvaffaqiyatli tugatib, pedagogik faoliyat sari ilk qadamlarini tashladi.

1991–1996-yillar oralig'ida Xalmuratov Mingboy Amirovich Termiz davlat universitetining “Kimyo, botanika va qishloq xo'jaligi asoslari” kafedrasida katta laborant, so'ng o'qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu davr uning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi, izlanishlarga bo'lgan intilishining yanada kuchaygan davri bo'ldi. Bu qiziqishlar uni 1996-yilda O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi aspiranturaga yetakladi. Ana shu yerda u o'z sohasi bo'yicha tajribali olimlar – professor, biologiya fanlari doktori Jo'raqul Tursunov va mohir tadqiqotchi

Toshbibi Norboboeva rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. Mingboy Amirovichning asosiy ilmiy mavzusi – “Boysun–Cho‘lbair tog‘larining o‘simliklar qoplami” bo‘lib, bu mavzu orqali u nafaqat mintaqaning noyob florasini chuqur o‘rgandi, balki ularni ilmiy jamoatchilikka taqdim etish orqali ekologik muhofaza borasida ham amaliy tavsiyalar berdi. Ushbu izlanishlar natijasida u 2007-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi.

Mingboy Amirovichning mehnatsevarligi faqat laboratoriyalar yoki ilmiy maqolalar bilan cheklanmadi. U pedagogik va rahbarlik faoliyatida ham sermahsulligi, mas’uliyati va tashabbuskorligi bilan ajralib turdi. 1999–2004-yillar mobaynida Mingboy Amirovich fakultet dekani o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritib, talabalarning ilmiy izlanishlarga jalb etilishi, ma’naviy-ma’rifiy muhitning yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shdi. 2011–2017-yillarda esa u “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, “Maktabgacha ta’lim” va “Biologiya” kafedralarida katta o‘qituvchi hamda kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. Mingboy Amirovich Ustoz sifatida har bir darsni jon bilan o‘tib, har bir talabaga e’tibor bilan yondashdi.

Mingboy Amirovichning hayoti va faoliyati jamiyat, ta’lim va xalqaro tajribalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa 2017–2021-yillar orasida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish markazidagi faoliyati bunga yorqin misoldir. U bu markazda o‘quv bo‘limi boshlig‘i, shuningdek, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimlarida samarali faoliyat yuritdi. Bu jarayonda u xalqaro auditoriyada ishlash tajribasini orttirdi, o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlarida muhim loyihalarni amalga oshirdi.

2021-yildan boshlab Mingboy Amirovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida dotsent sifatida faoliyat yuritmoqda. Tabiiy fanlarga oid chuqur bilimlar, o‘ziga xos metodika va hayotiy yondashuvi bilan talabalar va magistrnlarga ma’ruzalar o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlar olib boradi. Uning darslari – nafaqat o‘simliklar olamining boyligi, balki tabiatni anglash, qadrlash saboqlaridir.

Xalmuratov Mingboy Amirovich – 60 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar, jumladan “Biokimyo va molekulyar biologiya” darsligi, “Botanika tadqiqot usullari” qo‘llanmasi, “Boysun–Cho‘lbair tog‘larining o‘simliklar qoplami”, “Ecology of micromycetes of higher plants of the Denov Arboretory”, “Zafaron” monografiyalari muallifi. Uning ilmiy ishlari nafaqat O‘zbekistonda, balki Rossiya, Ukraina, Hindiston va Janubiy Koreya kabi davlatlarning nufuzli nashrlarida chop etilgan. Mingboy Amirovich shuningdek Surxondaryo viloyatining “Qizil kitobi”ga kiritilgan noyob o‘simliklar bo‘yicha ham muhim risola tayyorlagan.

Xalmuratov Mingboy Amirovich – butun umrini ilm, ta’lim va tabiatga bag‘ishlagan fidoyi ustoz, botanik olim. U kishining faoliyati bizga yana bir bor eslatadi: haqiqiy ziyoli – bu nafaqat bilimi, balki hayoti, qadriyatlarini va mehnati bilan yoshlarga ilhom bag‘ishlaydigan, tabiatni sevishga, anglashga o‘rgatadigan insondir.



## **SODIQOVA DILFUZA G'AFFOROVNA**

*Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrası dotsenti, b.f.f.d.*

*(PhD)*

Bugungi O'zbekiston ayoli – bu hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan, o'zining donishmandligi, sabr-toqati va fidoyiligi bilan jamiyat hayotiga baraka olib kirayotgan shaxsdir. U nafaqat mehribon ona, suyuqli yor va oilaning tayanchi, balki olim, pedagog, tashkilotchi va yetakchi ayol sifatida ham Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Aynan ana shunday ezgu fazilatlarni o'zida mujassam etgan zamonaviy, ilg'or fikrli, ilm va tarbiya yo'lida sobitqadam yurayotgan ayollardan biri – Sodiqova Dilfuza G'afforovnadir.

Dilfuza Sodiqova 1975-yil 17-noyabr kuni Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Yoshligidanoq tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, hayotiy jarayonlarning ichki sir-asrorlariga bo'lgan qiziqish uni kimyo va biologiya fanlariga oshno etdi. 1992-yilda Uzun tumani 2-son umumta'lim maktabini tamomlagan Dilfuza G'afforovna ilmga chanqoqligi, izlanishga bo'lgan intilishi bilan katta orzular sari dadil qadam tashladi. Shu azmu shijoat uni Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) Biologiya fakultetiga yetakladi va u 1997-yilda bu nufuzli oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi.

Mazkur universitetda olgan chuqur nazariy bilimlari va ilmiy asoslangan qarashlari unga kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi, ekolog sifatida mustahkam ilmiy-pedagogik tayanch yaratdi. Shu tariqa u o'z hayotini ilm-fan, ta'lim va tarbiya yo'liga bag'ishladi – bu yo'l esa uni o'z sohasining bilimdoni, ustozlar ustoziga aylantirdi.

Mazkur nufuzli oliygohda olgan chuqur nazariy bilimlari va ilmiy asoslangan qarashlari unga kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi, ekolog sifatida mustahkam ilmiy-pedagogik tayanch yaratdi. Shundan so'ng, u hayotining asosiy yo'nalishini – ya'ni, ilm-fan, ta'lim va tarbiya

yo'lini tanladi. Bu yo'l esa uni o'z sohasining bilimdoni, ustozlar ustoziga aylantirdi.

Sodiqova Dilfuza G'afforovnaning ta'lim sohasidagi fidokorona faoliyati 1998-yilda Denov tumanidagi 61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlangan. Ana shu paytdan boshlab u hayotini butunlay ustozlik, yosh avlodga ilm-ma'rifat berish, ularning qalbida tabiatga muhabbat, ekologik mas'uliyat va fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otishdek ezgu maqsadga bag'ishladi. Endigina faoliyat boshlagan bo'lishiga qaramay, qisqa fursat ichida Dilfuza G'afforovna o'zining chuqur bilimi, sabr-toqati va mas'uliyat hissi bilan el e'tiboriga tushdi.

2001–2007-yillar mobaynida u Denovdagi 80-sonli maktabda faoliyat yuritib, bu yerda yuzlab o'quvchilarga nafaqat kimyo va biologiyaning nazariy asoslarini, balki hayotiy amaliyotdagi o'rnini ham sabr bilan singdirdi. Har bir darsda u fanga muhabbat, hayotga chuqur qarash va mustaqil fikrlashni shakllantirishga intildi. Shogirdlari orasida keyinchalik yurtning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassislar yetishib chiqdi.

2007–2018-yillarda esa u Termiz davlat universiteti qoshidagi 3-son akademik litseyda faoliyat yuritib, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda o'ziga xos metodik yondashuvlar, interaktiv o'qitish uslublarini amaliyotga tatbiq etdi. Bu davrda u nafaqat fanni o'rgatdi, balki yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirdi, ularni tanqidiy tafakkurga, ilmiy izlanishga undadi. Aynan uning bu kabi ilg'or uslublari tufayli ko'plab iqtidorli yoshlar oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida yuksak natijalarga erishdi.

2018–2020-yillar davomida u Termiz davlat universitetining Denov filialida ishlagan. Bu davrda u talabalarga biologiya fanining nazariy asoslari, ekologik muammolar, zamonaviy biotexnologiyalar va ilmiy izlanishlarning hayotiy ahamiyati haqida chuqur bilim berdi.

2020-yildan boshlab esa u Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat yuritmoqda. Hozirda "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda. U 2024-yilning 3-sentyabrida dotsent unvonini oldi,

PhD ilmiy darajasini esa Qarshi davlat universitetida 2024-yilda himoya qilgan. Uning ilmiy ishi – “Surxon vohasi Denov denderariysi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari” mavzusidagi tadqiqot – nafaqat ilmiy yangilik, balki tabiatni asrash, biologik xilma-xillikni chuqur tushunishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Ilm-fan sohasidagi mehnatlari natijasida u 50 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar muallifiga aylandi. Ulardan 3 tasi o‘quv qo‘llanma, 1 tasi monografiya, 10 dan ortig‘i uslubiy ko‘rsatma, 30 dan ortig‘i ilmiy maqolalardir. 3 ta maqolasi Scopus bazasida, 10 dan ortig‘i esa xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan. 2024-yilda chop etilgan “Denov dendariysi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari” nomli monografiyasi ilmiy jamoatchilik orasida katta e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Ustoz sifatida ham u o‘z maktabini yaratgan. Uning shogirdlari nafaqat ilm-fan sohasida muvaffaqiyat qozongan, balki “Ulug‘bek” nomidagi davlat stipendiyasi kabi nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘lganlar. Bugun u Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakultetida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi sifatida ham faoliyat yuritmoqda. U talaba-qizlar orasida ijtimoiy faollikni oshirish, gender tenglikni ta’minlash va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar tashabbuskori sifatida ham tanilgan.

Sodiqova Dilfuza G‘afforovnaning faoliyati – bu ilm-fan, ustozlik va jamiyat oldidagi mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan buyuk yo‘ldir. U o‘z mehnatsevarligi, fidoyiligi va izlanuvchanligi bilan bugungi O‘zbekiston ayolining yorqin qiyofasini ifodalab, kelajak avlod uchun munosib ibrat bo‘lib qolmoqda.



## RO'ZIYEVA INOBAT JO'RAYEVNA

*Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.*

*(PhD)*

Yurtimizda zamonaviy taraqqiyot, ma'naviy yangilanish va intellektual jamiyat sari dadil odimlayotgan bugungi davrda ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohalarida faoliyat yuritayotgan fidoyi, ijodkor va tashabbuskor ayollarning roli beqiyos. Bugungi O'zbekiston ayoli – milliy qadriyat va an'analarga sodiq holda, zamonaviy tafakkur, ilg'or g'oya va yangicha yondashuvlar bilan jamiyat hayotining barcha jabhalarida yetakchi bo'lib bormoqda. Ana shunday namunali zamonaviy olim, pedagog va tadqiqotchi ayollardan biri – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ro'ziyeva Inobat Jo'rayevnadir.

1985-yil 26-yanvar kuni Buxoro viloyati Olot tumanining serquyosh zaminida, xizmatchi oilasida dunyoga kelgan Inobat Jo'rayevna yoshligidanoq o'ziga xos zehni va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turardi. Millati o'zbek bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida u o'z vataniga chuqur mehr bilan bog'langan. Tabiatning nozik muvozanati va hayot sirlari haqidagi savollar uni agronomiya va biologiya sohasiga yo'naltirdi. Bu yo'lda birinchi muhim qadam sifatida 2003-yilda Toshkent davlat agrar universitetining Agronomiya fakultetini tamomlab, o'z mutaxassisligining mustahkam poydevorini yaratdi.

Bilim sari intilishi uni cheklanib qolishga yo'l qo'ymadi. 2009-yilda Inobat Jo'rayevna Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya fakulteti magistraturasiga qabul qilindi. Bu yerda u biologiya fanining chuqur qatlamlarini o'rganib, agrokimyo sohasida o'z yo'nalishini aniqladi va 2011-yilda ushbu oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi.

Inobat Jo'rayevna magistraturani muvaffaqiyatli tamomlaganidan so'ng, biologiya va agrokimyo sohasida chuqur tadqiqotlar olib bordi va o'z ishlarining yuqori sifati tufayli biologiya fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qildi. Bu yutuq uni O‘zbekistonda va xalqaro ilmiy doiralarda e’tirof etilgan nufuzli olim sifatiga aylantirdi. Uning ta’lim va tadqiqot yo‘li – o‘z yo‘nalishini topish, bilim chegaralarini kengaytirish va ilmiy izlanishlarga sadoqatning ajoyib timsolidir.

Inobat Jo‘rayevna o‘z kasbiy faoliyatini 2007-yilda Toshkent shahrining Sergeli tumanidagi 70-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida kimyo va biologiya fani o‘qituvchisi sifatida boshladi. Yosh pedagog sifatida u o‘quvchilariga nafaqat fanlarning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgatdi, balki tabiatning muvozanati va hayotning o‘zaro bog‘liqligi haqida chuqur tushuncha berdi. Uning darslari oddiy saboqlardan ko‘ra ko‘proq edi – ular tabiatga hurmat, ilmiy kashfiyotlarga ishtiyoq va ijodiy fikrlashni uyg‘otuvchi sayohatga aylandi. O‘quvchilarning qalbidagi bilim olovini yoqish, ularga o‘z salohiyatlarini kashf etishga yordam berish Inobat Jo‘rayevnaning pedagogik falsafasining asosiy tamoyili bo‘ldi. Uning darslari talabalar tomonidan nafaqat bilim manbai, balki ilhom manbai sifatida yuqori baholandi.

2010–2013-yillarda Inobat Jo‘rayevna Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tekshirish institutida aspirant sifatida tahsil olib, tuproq unumdorligi va ekologik barqarorlik masalalariga bag‘ishlangan chuqur tadqiqotlarga sho‘ng‘idi. Bu davr uning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Inobat Jo‘rayevnaning pedagogik faoliyati 2017-yilda Surxondaryo viloyatidagi Toshkent agrar universiteti filialida assistent sifatida yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning darslari talabalarni nafaqat biologiya va agrokimyo sohasining nozik jihatlari bilan tanishtirdi, balki ularda tabiatga mas’uliyatli munosabat va ilmiy izlanishlarga ishtiyoq uyg‘otdi. Uning o‘quvchilarga yondashuvi bilim berishdan tashqari, ularning ijodiy salohiyatini ochish va mustaqil fikrlashga undashga qaratilgan edi.

2020-yildan boshlab Ro‘ziyeva Inobat Jo‘rayevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida katta o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritib, talabalarga biologiya va agrokimyo sohasining chuqur bilimlarini singdirish bilan birga, ularni ilmiy izlanishlarga ilhomlantirdi. 2023-yildan esa institutning “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari

texnologiyalari” kafedrasida dotsent lavozimiga ko‘tarilib, ta’lim sifatini yanada yuksaltirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish va yosh olimlarni yetaklash yo‘lida muhim ishlar qilmoqda. Uning bu lavozimdagi faoliyati bilim va ijodning uyg‘un sinteziga asoslanib, institutning ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Inobat Jo‘rayevnaning ilmiy faoliyati o‘zining keng ko‘lami va chuqur ta’siri bilan alohida e’tiborga loyiq. U hozirgacha 50 dan ortiq ilmiy va uslubiy ish muallifi bo‘lib, ular qatorida ikkita o‘quv qo‘llanma, ikkita monografiya, 10 dan ziyod uslubiy ko‘rsatma va 30 dan ortiq ilmiy maqola mavjud. Uning tadqiqotlari xalqaro miqyosda e’tirof etilib, nufuzli Scopus bazasida bitta maqola va 10 dan ortiq maqolasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. Inobat Jo‘rayevna 20 dan ziyod xalqaro va respublika konferensiyalarida o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etib, biologiya va tuproqshunoslik sohasidagi yangi yondashuvlarni ilmiy jamoatchilik bilan baham ko‘rgan.

Uning tadqiqotlari orasida “Sug‘oriladigan arziqli tuproqlarning unumdorligini baholash (Markaziy Farg‘ona misolida)” mavzusidagi ish alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot tuproqlarning ekologik holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni taklif etdi. Inobat Jo‘rayevna, shuningdek, muhim ilmiy loyihalarda faol ishtirok etdi. Jumladan, 2012–2014-yillarda KA7-003 “Respublika sug‘oriladigan zona tuproq qoplamini kompleks o‘rganish, ularni baholash hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish” amaliy loyihasida muhim hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, 2017-yilda “Farg‘ona viloyati Markaziy Farg‘ona hududi tumanlaridagi fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug‘oriladigan yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproqlarini baholash” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasida faol ishtirok etib, tuproqlarning aniq xaritasini tuzish va ularning sifatini baholashda muhim natijalarga erishdi. Ushbu loyihalar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning ilmiy salohiyatini va amaliy yondashuvini yaqqol namoyon

etdi.

Inobat Jo‘rayevna Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakultetida ilmiy ishlar bo‘yicha dekan maslahatchisi sifatida fakultetning ilmiy va o‘quv faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. U ustoz-shogird an‘analarini na‘munali tarzda davom ettirib, shogirdlarini ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalarga faol jalb qilmoqda. Uning rahbarligida bir nechta shogirdlari xalqaro va respublika olimpiadalarida ishtirok etib, muhim yutuqlarga erishdi. Ikki nafar shogirdi “Hokim” stipendiyasi g‘olibi bo‘lib, uning pedagog sifatidagi muvaffaqiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Inobat Jo‘rayevna kafedrada magistr va doktorantlarga rahbarlik qilib, ularning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam bermoqda. Xususan, doktorant Baratov Javoxir Muhiddinovichga “To‘palang Milliy tabiat bog‘i karbonatlashgan tuproqlarida mikroorganizmlarning biologik faolligi” mavzusida biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish yo‘lida rahbarlik qilmoqda. Ushbu tadqiqot tuproq ekologiyasi va barqaror qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ro‘ziyeva Inobat Jo‘rayevna o‘zining ilmiy tadqiqotlari, pedagogik faoliyati va jamiyatdagi faol ishtiroki bilan zamonaviy ma‘rifatparvar ayolning yorqin namunasidir. Uning tuproqshunoslik va agrokimyo sohasidagi tadqiqotlari, ilmiy nashrlari, shogirdlarni tarbiyalashdagi muvaffaqiyatlari va fakultet faoliyatiga qo‘shgan hissasi ta‘lim va ilmiy olamda muhim iz qoldirmoqda. U nafaqat o‘z sohasida yangi ufqlarni kashf qilmoqda, balki yosh avlodni bilimga yo‘naltirib, ularning qalbida ilmiy izlanish olovini yoqmoqda.



## MAMMADIYEV ABSAHAT XASANOVICH

*Biologiya falsafa fanlari doktori (PhD)*  
*Dotsent*

Mammadiyev Absahat Xasanovich 1973-yil 18-dekabrda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida mehnatkash va kamtarin oilada dunyoga keldi. Oddiy ishchi oilasida tarbiya topgan Absahat Xasanovich bolalikdan ilmga chanqoqligi, atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishi va intiluvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi.

Absahat Xasanovich 1980-yilda Sherobod tumanidagi Oybek nomli 50-maktabda boshlang‘ich ta‘limni boshlab, o‘rta ma‘lumot olish jarayonini Sho‘rchi tumanidagi 39-sonli maktabda davom ettirdi. 1988-yilda mazkur maktabda to‘liqsiz o‘rta ta‘limni olgach, bilim olishdagi tirishqoqligi va o‘quvdagi yutuqlari uni yanada yuqori marralarni zabt etishga undadi. Shunday qilib, 1990-yilda Sho‘rchi tumanidagi 22-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabini a‘lo baholar bilan tamomladi.

Yoshligidan biologiya faniga qiziqqan Absahat Xasanovich 1998-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining biologiya yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilinadi. U yerda 2003-yilga qadar tahsil olib, bakalavriat bosqichini ham a‘lo baholar bilan tugatadi. Universitetdagi tahsili davomida u nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi, balki ilm-fan sohasida ilk izlanishlariga ham qo‘l uradi.

Mehnat faoliyatini 1999-yilda boshlagan Mammadiyev Absahat Xasanovich 2005-yilgacha Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi 39-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida kimyo va biologiya fanlaridan dars berdi. U o‘zining pedagogik mahorati, yuksak mas‘uliyat hissi va yangilikka intilishi bilan o‘quvchilar hamda hamkasblari orasida chuqur hurmat-e‘tibor qozondi. Maktabda faoliyat olib borar ekan, u yosh avlod qalbida ilmga muhabbat uyg‘otishga, biologiya fanining hayotiy ahamiyatini chuqur anglatishga katta e‘tibor qaratdi.

Ilm-fan yo‘lida qat‘iyat bilan olg‘a intilgan Absahat Xasanovich 2005–2008-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti magistratura

bosqichida tahsil olib, biologiya fanining nazariy asoslari va amaliy yoʻnalishlarini chuqur oʻzlashtirdi. U oʻzining ilmiy izlanishlarini “Gʻoʻzaning (*Gossypium hirsutum* L.) COKER-312 navining transformatsiyasi, somatik embriogenezi va regeneratsiyasi” mavzusida olib borib, muvaffaqiyatli tarzda magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi va magistr ilmiy darajasiga sazovor boʻldi.

Ushbu izlanishlar asosida 2008–2011-yillar mobaynida aspirantura bosqichini ham ayni shu oliy dargohda davom ettirib, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirdi. Aspirantlik yillari davomida u bir nechta ilmiy maqolalarni nashr ettirgan boʻlib, akademik salohiyatini mustahkamladi va ilmiy jamoatchilik orasida eʼtiborli izlanuvchi sifatida tanildi.

Absahat Xasanovichning keyingi faoliyati esa taʼlim tizimida rahbarlik lavozimlarida davom etdi. 2012–2017-yillarda Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tumanidagi 48-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabiga direktorlik qildi. Ushbu davrda u maktab infratuzilmasini rivojlantirish, taʼlim sifati va samaradorligini oshirish, oʻquvchilarning ijtimoiy-maʼnaviy tarbiyasini takomillashtirish borasida samarali islohotlarni amalga oshirdi. Uning rahbarligi davrida mazkur maktab tuman miqyosida ilgʻor taʼlim muassasalaridan biriga aylandi.

Shuningdek, 2017–2018-yillarda Shoʻrchi tumanidagi 22-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori sifatida faoliyat olib borgan. Bu yerda ham taʼlim-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari asosida yoʻlga qoʻyish, jamoaning birligi va oʻquvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish borasida koʻplab ijobiy oʻzgarishlarga boshchilik qildi.

2018–2019-yillarda esa Absahat Xasanovich Termiz davlat universiteti Denov filiali “Boshlangʻich taʼlim va aniq fanlar” kafedrasida oʻqituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, ushbu dargohda Kasaba uyushmasi raisi lavozimida ham ishlagan. Ushbu ikki yoʻnalishda birdek muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan Absahat Xasanovich nafaqat taʼlim sifati oshirishga, balki oʻqituvchilarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga, ularning huquq va erkinliklarini taʼminlashga ham katta hissa qoʻshdi.

2019–2020-yillarda Absahat Xasanovich Termiz davlat universiteti

Denov filiali “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritib, pedagogik jarayonni bolalar psixologiyasi, tabiiy fanlar va metodik yondashuvlar asosida olib bordi. U boshlang‘ich ta‘lim sohasiga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni joriy etishda jonbozlik ko‘rsatdi. 2020–2023-yillar davomida esa Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tabiiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. Bu bosqichda u o‘z ilmiy salohiyati, ilg‘or metodik ishlanmalari, dars berishdagi innovatsion yondashuvi bilan kafedra va institut miqyosida o‘ziga xos ijobiy iz qoldirdi. 2023-yildan boshlab esa Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. U bugungi kunda biologiya fanining zamonaviy yutuqlarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, talabalar bilimni chuqurlashtirish, ularni ilmiy izlanishlarga jalb etish borasida samarali ishlar olib bormoqda.

Absahat Xasanovich 2006–2008-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi “Gen muhandisligi va biotexnologiya” bo‘limida ilmiy izlanishlar olib borgan. U yerda Absahat Xasanovich akademik Abduraxmonov Ibrohim Yulchiyevich – hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri – ilmiy rahbarligida ishlagan va mamlakatimizda birinchilardan bo‘lib transgen g‘o‘za navini yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Ilmiy izlanishlarini davom ettirgan holda, Absahat Xasanovich Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 03/30.12.2019.B.02 raqamli kengash qarori bilan “Epifit mikroorganizmlar asosida o‘simliklar uchun biopreparatlar yaratish va ularning samaradorligini baholash” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilib, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

Absahat Xasanovich biologiya fanining bir necha muhim sohalarida – mikrobiologiya, virusologiya, genetika va genomika asoslari, sitologiya, gistologiya, embriologiya, biotexnologiya kabi yo‘nalishlarda talabalarga ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tib, o‘z bilim va

tajribasini yosh avlodga fidokorlik bilan yetkazib kelmoqda.

Absahat Xasanovich o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida bir qator muhim ilmiy-uslubiy adabiyotlar muallifi hisoblanadi. U tomonidan yozilgan “Biokimyó va molekulyar biologiya” (darslik), “Botanika tadqiqot usullari” (o‘quv qo‘llanma), “Epifit mikroorganizmlar asosida o‘simliklar uchun biopreparatlar yaratish va ularning samaradorligini baholash” (monografiya), “Kuzgi bug‘doy, g‘o‘za hosildorligiga biopreparatning ta’siri” (monografiya) kabi asarlar hozirgi kunda ko‘plab talabalar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Absahat Xasanovich ilmiy-innovatsion faoliyati doirasida O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlangan 3 ta ixtiro patenti egasi hisoblanadi. Jumladan:

Ustozning ilmiy faoliyati bugungi kunda 52 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya, 3 ta patent, 10 dan ortiq uslubiy ko‘rsatmalar, 30 dan ortiq maqolalar nufuzli respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, 5 dan ortiq maqolalari xalqaro ilmiy jurnallarda – Rossiya, Ukraina, Hindiston kabi mamlakatlarda e‘lon qilingan. Bu esa uning ilmiy ishlari xalqaro miqyosda tan olinganini yana bir bor isbotlaydi.

Mammadiyev Absahat o‘z ilmiy qarashlari va tadqiqot natijalari bilan 20 dan ortiq xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etgan. Ushbu ma‘ruzalar orqali u mikrobiologiya, biotexnologiya va biologiya sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimlarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etib kelmoqda.

Bugungi kunda ustoz ilmiy izlanishlarni davom ettirish bilan birga, oliy ta‘lim tizimida bilimli, fidoyi va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni tayyorlashda faol ishtirok etmoqda. Uning boy ilmiy-amaliy tajribasi va ustozlik faoliyati yoshlarga bilim berish va ilmga muhabbat uyg‘otishda muhim o‘rin tutadi.



## **ESHQOBILOVA NARGIZA MENGNAROVNA**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası katta o‘qituvchisi,  
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Ilm yo‘li – bu sabr, fidoyilik va qat‘iyat talab qiluvchi yo‘l. Har kim bu yo‘ldan yura olmaydi. Lekin yurishga jur‘at etganlar hayotini ilm bilan bezaydi, jamiyatni esa nur bilan yoritadi. Shunday oliyjanob yo‘lni tanlagan, raqamli iqtisodiyot kabi zamonaviy va murakkab sohaga hayotini bag‘ishlagan, o‘zbek ayolining salohiyati, iste‘dodi va matonatini birlashtirgan olimalardan biri – bu iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi Eshqobilova Nargiza Mengnarovnadir.

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna 1976-yil 18-dekabr kuni Surxondaryo viloyatining tabiatidan baraka, xalqidan nur taralib turuvchi go‘zal go‘shalaridan biri – Sho‘rchi tumanida dunyoga keldi. Bolaligidanoq u bilimga chanqoqligi, zukkoligi va qat‘iyati bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Har bir kitob varaqlari bilan tanishgani sari uning qalbida yanada baland orzular, yurtga xizmat qilish istagi uyg‘onardi. Bu orzular uni mustahkam niyat, izlanish va tirishqoqlik bilan katta maqsadlar sari yetaklay boshladi.

Ta‘lim olishni hayotining bosh g‘oyasi deb bilgan Nargiza 1994-yilda Termiz davlat universitetining Iqtisodiyot fakultetiga o‘qishga kirib, bu yerda nafaqat iqtisodiy tafakkur asoslarini o‘zlashtirdi, balki mustaqil fikrlash, analitik yondashuv, ilmiy izlanishga bo‘lgan mehrni ham rivojlantirdi. 1999-yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, mustahkam nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ldi.

Ta‘limni tugatganidan so‘ng, u ilm olamidan chetda qolmay, o‘zining butun faol hayotini pedagogik soha bilan bog‘lashga qaror qildi. 1999-yildan 2018-yilga qadar Sho‘rchi qurilish uy-joy kommunal xo‘jalik kasb-hunar kollejida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritdi. Bu davr ichida u yuzlab o‘quvchilarga iqtisodiyotning nozik jihatlarini sabr-toqat,

oddiy va xalqchil tilda tushuntira oldi. Har bir darsida nafaqat fanga oid bilim, balki hayotga boʻlgan qarash, mehnatga boʻlgan hurmat, vatanparvarlik tuygʻularini ham singdirishni oʻz oldiga maqsad qilgan edi. Shuning uchun ham oʻquvchilar uni oʻz hayot yoʻllarida yoʻl koʻrsatuvchi ustoz sifatida yodga olishadi.

2018-yildan 2022-yilgacha esa Nargiza Mengnarovna Shoʻrchi tumanidagi 41-maktabda faoliyat olib bordi. Maktab muhitida ham u oʻzining yuksak masʼuliyat hissi, samimiy muloqoti va faol yurtdoshlik ruhi bilan oʻquvchilar, hamkasblar va ota-onalarning qalbida chuqur iz qoldirdi.

Ammo Nargiza Eshqobilova uchun oddiy oʻqituvchilik – bor yoʻgʻi bir bosqich, bir poydevor edi. Uning qalbida esa ilm-fan sari cheksiz intilish, bilim orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshish istagi har doim uygʻoq edi. Aynan shu ichki motivatsiya uni ilm yoʻlida sobit qadam tashlashga undadi.

2022-yil fevral oyida u Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida oʻqituvchilik faoliyatini boshlaganida, bu davra uning uchun nafaqat pedagogik maydon, balki ilmiy izlanishlar sari ochilgan yangi ufqga aylandi. U mazkur kafedrada faoliyat olib borar ekan, oʻz ustida tinimsiz ishladi, yangidan-yangi gʻoyalarga chanqoq boʻldi. Aynan shu davrda u institutda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy izlanishlariga jiddiy kirishdi.

Natijada, qisqa vaqt ichida – 2024-yilda Nargiza Eshqobilova iqtisodiyot fanlari boʻyicha 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyat bilan himoya qilib, yurtimiz ilmiy doiralarida oʻz oʻrnini topdi. Bu nafaqat shaxsiy yutuq, balki Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy jamoatchiligi uchun ham katta faxr va ilhom manbai boʻldi.

Eshqobilova Nargiza ilm-fan yoʻlida izchil va barqaror qadamlar bilan oldinga intilayotgan yosh olimalarimizdan biridir. U bugungi kunga qadar 15 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi boʻlib, bu ishlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosdagi nufuzli ilmiy jurnallarda eʼlon qilingan.


2022-yilda u “Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda raqamli

transformatsiya” mavzusidagi ilmiy anjumanda ishtirok etib, dolzarb masalalarga oid qarashlari bilan e’tibor qozondi. 2024-yilda esa “Raqamli transformatsiya jarayonlari va biznesni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o’rni” konferensiyasida taqdim etgan maqolasi ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Bularning ortidan, u Qozon Federal universitetida o’tkazilgan xalqaro miqyosdagi anjumanda “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” mavzusida ma’ruza bilan qatnashib, xorijiy olimlarning ham diqqat markaziga tushdi.

Ilm-fanga bo‘lgan yuksak hurmat, izlanishga bo‘lgan sadoqatli munosabat uni nafaqat maqola muallifi, balki darslik yaratuvchisi sifatida ham tanitdi. Eshqobilova Nargiza institutdagi hamkasblari bilan birgalikda “Sanoat iqtisodiyoti” nomli darslikni chop ettirdi. Mazkur asar bugungi raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda dolzarb qo‘llanma sifatida ta’lim jarayonida keng foydalanilmoqda.

Nargiza Mengnarovna nafaqat ilmda, balki jamoatchilik ishlarida ham faol. 2024-yil 27-oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovida Sho‘rchi tuman kengashiga deputat etib saylangani bunga yaqqol misoldir. Bu yutuq – uning xalq orasida obro‘-e’tibor qozonganining, halol mehnat va intilishlarining e’tirofi bo‘ldi.

Har bir insonning hayoti – bu bir yo‘l. Nargiza Eshqobilovanning yo‘li esa – ilm, mehnat, fidoyilik va mas’uliyat bilan yo‘g‘rilgan. U yosh avlodga ilm o‘rgatibgina qolmay, ularga kuch, ishonch, hayotiy saboq berayotgan ustoz, olima, izlanishdan to‘xtamaydigan fidoyi ayoldir. Bugun u raqamli iqtisodiyot sohasida mamlakatning yetakchi olimalaridan biriga aylanib bormoqda. Yana ko‘plab ilmiy yutuqlar, amaliy ishlar, izlanishlar va g‘oyalar u kishi oldida turibdi. Ularning har biri esa – Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnatning yorqin namunasidir.



## **BOROTOV SHAROFIDDIN JUMAQUL O'G'LI**

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi,  
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)*

Bugungi kunda taraqqiy etgan jamiyatlarning poydevori – ilm, fan va zamonaviy bilimlarga asoslangan. Har qanday yuksalish, har qanday yangilik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish zamirida fidoyi olimlarning tinimsiz mehnati, izlanishi va sadoqati mujassam. Ana shunday fidoyi olimlardan biri – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası katta o'qituvchisi Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'lidir.

Sharofiddin Borotov 1993-yil 21-aprelda Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. U yoshlik yillaridanoq kitobga mehr qo'yib, ilm-fanga chuqur qiziqish bilan ulg'aydi. Sharofiddin Borotov 2000–2009-yillarda Uzun tumanidagi 12-umumta'lim maktabida tahsil olib, o'rta ta'limni a'lo baholarga yakunladi. U bu davrda o'zlashtirgan mustahkam bilim asoslari va qat'iy mehnatsevarlik unga keyingi ta'lim bosqichlarida katta tayanch bo'ldi. 2009–2012-yillar oralig'ida u Termiz davlat universiteti qoshidagi 4-sonli akademik litseyda o'qib, bu muassasada chuqurlashtirilgan ta'lim asosida iqtisodiy va texnik yo'nalishlar bo'yicha o'z salohiyatini kengaytirdi.

Sharofiddin Borotovning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi uni oliy ta'lim yo'lidga boshladi. Borotov Sharofiddin 2014–2018-yillar davomida Toshkent davlat texnika universitetida oliy ta'lim olib, iqtisodiy yo'nalishda bakalavrluk diplomini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Talabalik yillaridayoq u iqtisodiy jarayonlar, xususan, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy boshqaruv va innovatsion rivojlanish kabi yo'nalishlarga alohida qiziqish bilan yondashdi

Uning iqtisodiyotga bo'lgan chuqur qiziqishi va izlanishga bo'lgan intilishi 2018–2020-yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining

magistratura bosqichida tahsil olishga olib keldi. Bu davr mobaynida Borotov iqtisodiy tahlil, strategik rejalashtirish, makro va mikroiqtisodiyot yoʻnalishlarida zamonaviy nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy koʻnikmalarni ham mukammal darajada egalladi.

Sharofiddin Borotov talabalik davridan boshlab ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyatni uygʻunlashtira olgan iqtidorli yosh sifatida ajralib turgan. U turli innovatsion va startup loyihalarda faol ishtirok etib, respublika miqyosida tashkil etilgan tanlov va konferensiyalarda oʻz gʻoyalari bilan qatnashib, bir necha bor eʼtirofga sazovor boʻlgan. Uning iqtisodiy fikrlash doirasi zamonaviy yondashuvlarga asoslangan boʻlib, iqtisodiy islohotlar va raqamli transformatsiya jarayonlariga ijobiy hissa qoʻshishga qaratilgan.

Borotov Sharofiddin mehnat faoliyatini 2018–2020-yillarda Toshkent shahri Shayxontohur tumani Xalq taʼlimi boʻlimida boshlagan. Shu davrdan boshlab u taʼlim sohasida samarali faoliyat yuritib, yosh avlodga zamonaviy bilimlarni yetkazish, ularning tafakkurini ilmiy asosda shakllantirish yoʻlida muntazam izlanishda boʻldi.

2020-yildan boshlab Sharofiddin Borotov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida oʻqituvchi lavozimida faoliyat boshladi. Ustozlik faoliyatida oʻz ustida tinimsiz ishlash, pedagogik mahoratini rivojlantirish va zamonaviy talablarga mos dars jarayonlarini tashkil etishga alohida eʼtibor qaratdi. Uning izchil mehnati, ilmiy va amaliy salohiyati, shuningdek, talabalar bilan samarali muloqot oʻrnatish qobiliyati 2023-yilda unga ushbu kafedrada katta oʻqituvchi lavozimiga tayinlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda Borotov Sharofiddin “Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari”, “Raqamli iqtisodiyot”, “Statistika”, “Ekonometriya” hamda “Elektron tijorat” kabi zamonaviy, dolzarb va amaliy ahamiyatga ega fanlar boʻyicha talabalar bilan samarali ishlamoqda.

Sharofiddin Borotov 2022–2025-yillar mobaynida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida mustaqil izlanuvchi sifatida faoliyat yuritib, 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi boʻyicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Sharofiddin Borotov olib borgan izlanishlar ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. 2025-yilning yanvar oyida Sharofiddin Borotov doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Bu yutuq uning ilm-fanga sadoqati, izlanishga bo'lgan intilishi va iqtisodiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'shishga bo'lgan yuksak mas'uliyatining yorqin ifodasidir.

Sharofiddin Borotov o'zining ilmiy faoliyati davomida iqtisodiy sohaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borib, bu borada salmoqli natijalarga erishdi. Uning ilmiy izlanishlari natijasida 1 ta monografiya hamda 20 dan ortiq ilmiy maqolalar respublika va xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda chop etildi. Ayniqsa, "Iqtisodiyot va ta'lim", "Yashil iqtisodiyot", "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" kabi ilmiy-nazariy jurnallarda e'lon qilingan maqolalari iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish, raqamli transformatsiyani samarali joriy etish va innovatsion yondashuvlar asosida yechimlar taklif etish kabi jihatlari bilan e'tiborga loyiqdir.

Bundan tashqari, u 15 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman va konferensiyalarda ishtirok etib, o'z tezislari bilan faol qatnashgan. Jumladan, 2022-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan o'tkazilgan "Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda raqamli transformatsiya" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida, shuningdek, 2024-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan "Raqamli transformatsiya jarayonlari va biznesni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Mazkur chiqishlarida u iqtisodiy sohadagi raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tahlil qilib, ishtirokchilarning e'tiborini qozondi.

Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li – iqtisodiyot sohasida yetuk bilimga ega, pedagogik faoliyatda iqtidorli, zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda ilm-fan taraqqiyotiga o'z munosib hissasini qo'shib kelayotgan yosh va istiqbolli olimlardan biridir. Uning hozirgi va kelajakdagi faoliyati O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga, raqamli transformatsiya jarayonlariga xizmat qilishi shubhasizdir.



## **RAHMATOV ERKIN TAGAYMURADOVICH**

*Tarix va falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi,  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, ayniqsa, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi tub o‘zgarishlar zamirida bilimli, vatanparvar va fidoyi ziyolilar mehnati mujassam. Ayniqsa, bugungi kunda pedagog va olimlarning xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy hayotida tutgan o‘rni va mas’uliyati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda o‘zining puxta bilim va salohiyati, ilm-fanga sadoqati, yosh avlodni tarbiyalashdagi fidokorona xizmatlari bilan ajralib turadigan olim va ustozlar safida Rahmatov Erkin Tagaymuradovich alohida e’tiborga loyiqdir.

Rahmatov Erkin Tagaymuradovich 1985-yil 2-noyabrda Surxondaryo viloyatining qadimiy va ilm-ma’rifatga boy maskanlaridan biri bo‘lgan Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. U bolaligidan bilimga chanqoq, tarixiy merosga mehr qo‘ygan, mustaqil fikrlovchi va izlanuvchan o‘quvchi bo‘lib voyaga yetdi. Uning yoshlik yillaridayoq tarix faniga bo‘lgan qiziqishi, o‘tmishga bo‘lgan ehtiromi va ilm-fanga bo‘lgan cheksiz muhabbati kelajakdagi olim sifatidagi yo‘lini belgilab berdi.

Bu ezgu intilishlar Erkin Rahmatovni 2004-yilda Termiz davlat universitetining Tarix fakultetiga yetakladi. Universitetdagi tahsili davomida u nafaqat nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirdi, balki mustaqil izlanishlar olib borish, tarixiy voqelikni tahlil qilish, milliy qadriyatlarni o‘rganish va targ‘ib etish borasida ham yetuk salohiyatga ega bo‘ldi. U oliy ta’lim muassasasini 2008-yilda muvaffaqiyatli tamomlab, o‘z faoliyatini ta’lim va ilm-fan sohasiga bag‘ishlashni hayotining bosh maqsadi deb bildi.

Ilmga bo‘lgan cheksiz mehr, yangilikka intilish va izlanishga chanqoqlik uni keyingi bosqichlarda ham ilmiy izlanishlarni davom ettirishga undadi. Shu maqsadda u yana Termiz davlat universitetining

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil oldi. 2014-yilda magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Erkin Tagaymuradovich bu bosqichda ham o‘zining izlanishlarga bo‘lgan yondashuvi, mantiqiy fikrlashi, ilmiy tahlil qilish qobiliyati va milliy tarixga bo‘lgan chuqur hurmati bilan professor-o‘qituvchilar jamoasining e’tiborini qozondi.

Erkin Rahmatovning pedagogik faoliyati 2012-yilda Termiz davlat universiteti qoshidagi 5-son Akademik litseyda tarix fani o‘qituvchisi sifatida boshlandi. 2012–2016-yillar oralig‘ida u o‘quvchilarga nafaqat o‘zbek xalqining tarixiy yo‘lini o‘rgatdi, balki ularda vatanparvarlik va bilimga intilish tuyg‘ularini shakllantirdi. Uning darslari oddiy ta’lim jarayoni emas, balki yoshlar qalbida tarixga muhabbat uyg‘otuvchi, o‘tmishdan saboq olishga undovchi ma’naviy sayohat edi.

Erkin Rahmatovning ustozlik yo‘li 2012-yilda Termiz davlat universiteti qoshidagi 5-son Akademik litseyda boshlangan. Bu muqaddas maskanda u ilk bor tarix darslarini o‘tarkan, o‘zining chuqur bilimlari, fidoyiligi va mas’uliyat bilan yondashuvi orqali yoshlarning qalbida tarixga mehr uyg‘otdi. Dars jarayonida u faqat faktlar bilan cheklanmay, o‘tmish sahifalarini jonlantirgan holda har bir voqea ortidagi saboq va hayotiy mazmuni ochib berishga intildi.

2016–2019-yillar oralig‘ida Rahmatov Erkin Surxondaryo viloyati, Jarqo‘rg‘on tumanidagi 1-umumta’lim maktabida tarix o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritdi. Aynan shu bosqichda u maktab o‘quvchilari orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, tarixiy voqealarga o‘z nuqtai nazaridan yondashishni o‘rgatish, ular ongida milliy g‘urur va qadriyatlarni mustahkamlash borasida samarali ishlar olib bordi. Uning har bir darsi – o‘tmishga sayohat, har bir suhbat – ma’naviyat darsiga aylangan edi.

2019–2020-yillarda Termiz davlat universitetining Denov filialida faoliyat olib borgan Erkin Rahmatov oliy ta’lim tizimida ham o‘zini malakali pedagog sifatida namoyon etdi. Uning ma’ruzalari hayotiy misollar, tarixiy shaxslar taqdiri, davrlar ruhi orqali boyitilib, yoshlarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishga xizmat qildi.

2020–2021-yillarda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining

“Tarix va falsafa” kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyatini davom ettirgan Erkin Rahmatov bu davrda ham yuqori mas’uliyat bilan harakat qildi. U talabalarni faqat tarixiy ma’lumotlar bilan qurollantirib qolmay, ularni falsafiy mushohadaga, fikrlar tahliliga chorladi. Har bir mavzuni hayotiy voqealar bilan uyg‘un holda talqin qilib, darslarni jonli muloqot maydoniga aylantirdi.

2021–2023-yillar oralig‘ida Erkin Rahmatov Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida tayanch doktorant sifatida ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. Ilmga bo‘lgan chuqur qiziqish va o‘ziga nisbatan yuqori talabchanlik uni falsafa fanlari bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borishga undadi. Erkin Rahmatov 09.00.04 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Alouddin Attorning naqshbandiya ta’limoti rivojidadagi o‘rni” mavzusida dissertatsiya tayyorladi va uni 2024-yil 17-avgust kuni Buxoro davlat universiteti huzuridagi DsC.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi. Shu orqali u falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

2024-yil yanvar oyidan boshlab Erkin Rahmatov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tarix va falsafa” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida ishlamoqda. U kafedra faoliyatida nafaqat dars jarayonida, balki ilmiy-tadqiqot, yosh kadrlar tayyorlash va metodik ishlar yo‘nalishida ham faol ishtirok etmoqda.

Erkin Rahmatovning ilmiy faoliyati yildan-yilga kengayib bormoqda. U bugungi kungacha 1 ta monografiya va 20 dan ortiq ilmiy maqola hamda tezislarni muallifi sifatida e’tirof etilgan. Uning ishlari respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda, anjumanlar to‘plamlarida e’lon qilingan. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, tarix fanining dolzarb masalalari hamda zamonaviy oliy ta’lim tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq muammolarni qamrab olgan tadqiqotlari ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholanmoqda.

So‘nggi besh yil davomida E.Rahmatov respublika miqyosida o‘tkazilgan 10 dan ortiq ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiya, seminar hamda anjumanlarda faol qatnashgan. Ushbu ilmiy tadbirlarda u o‘zining dolzarb va mazmunli tadqiqot natijalarini namoyish etib, ilmiy

hamjamiyat rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. U ilmiy nutq madaniyati, analitik tahlil va tarixiy-falsafiy yondashuv asosida o‘z maktabini shakllantirayotgan izlanuvchan olimlardan biridir.

Erkin Rahmatov o‘zining tashabbuskorligi, tashkiliy salohiyati va chuqur ilmiy saviyasi bilan respublika miqyosidagi nufuzli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan samarali hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, u Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bilan hamkorlikda bir qator ilmiy-amaliy tadbirlarning tashkil etilishida faol ishtirok etib, ilmiy jamoatchilik orasida munosib e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

2024-yil 19-noyabr sanasida Erkin Rahmatovning bevosita tashabbusi va ilmiy rahnamoligi ostida “Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yuqori saviyada tashkil etildi. Ushbu muhim tadbirda turkiy xalqlarning davlatchilik an’analari, tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosiga oid dolzarb masalalar keng yoritilib, anjuman ilmiy jamoatchilik uchun muhim ilmiy maydon vazifasini bajardi.

Erkin Rahmatov bu kabi konferensiyalar orqali nafaqat o‘zining ilmiy salohiyatini namoyon etmoqda, balki ilmiy hamjamiyatni birlashtirish, tarix fanining dolzarb muammolarini muhokama qilish hamda zamonaviy yondashuvlarni ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. Uning sa’y-harakatlari tufayli fanga qiziquvchi yoshlar va tajribali olimlar o‘rtasida samarali ilmiy aloqalar yo‘lga qo‘yilib, yangi tadqiqot yo‘nalishlariga asos solinmoqda.

Erkin Rahmatovning ilm-fan va ta’lim sohasidagi fidokorona faoliyati bugungi yosh avlod uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning mehnatsevarligi, izlanuvchanligi va vatanparvarlik ruhidagi sa’y-harakatlari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki kelajak tarixchilar avlodiga ham munosib o‘rnak bo‘la oladi.



**AHMEDOV SARDOR SAYRIDDIN  
O'G'LI**

*Tarix va falsafa kafedrası katta o'qituvchisi,  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Yurtimizda tarix ilmining turli sohalari bo'yicha izlanishlar olib borayotgan iqtidorli yosh olimlar safi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ular orasida o'zining ilmiy faoliyati, fidoyiligi va cheksiz izlanuvchanligi bilan alohida ajralib turadigan yoshlardan biri – Ahmedov Sardor Sayriddin o'g'lidir. Uning hayot yo'li va ilmiy izlanishlari har bir yosh uchun ibrat, har bir olim uchun esa o'rnakdir.

Sardor Ahmedov 1992-yil 23-martda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida, tabiatning saxiy bag'rida, mehnatkash va olijanob insonlar yashaydigan muhitda dunyoga keldi. Bolaligidanoq uning ko'zlarida bilim sari intilish, dunyoni kashf etish ishtiyoqi porlab turardi. Maktab yillarida o'qituvchilarining mehr bilan yo'l-yo'riq ko'rsatishi va kitoblar olamiga bo'lgan cheksiz muhabbati uni yuksak maqsadlar sari yetakladi. Tarix sahifalarini varaqlagan sari, o'tmish sirlarini ochish, xalqining boy merosini o'rganish istagi uning qalbida tobora chuqur ildiz otardi.

Aynan shu intilish Sardor Ahmedovni 2014-yilda Termiz davlat universitetining Tarix fakultetiga olib keldi. Bakalavr bosqichida tahsil olgan to'rt yil davomida Sardor Ahmedov nafaqat o'z faniga muhabbat bilan yondashdi, balki uni chuqur o'rganishga, har bir tarixiy fakt va hodisaning mohiyatini tahlil qilishga intildi. Uning bilimga chanqoqligi va izlanuvchanligi ustozlari tomonidan e'tirof etildi. 2018-yilda u universitetni muvaffaqiyatli tamomladi. Ammo bu yutuq uning ilmiy yo'lidagi so'nggi manzil emas, balki katta maqsadlar sari boshlang'ich nuqta bo'ldi.

Ilm o'qi o'z egasini tinimsiz chaqiradi, degan naqlga amal qilgan Sardor Ahmedov 2019-yilda shu oliy ta'lim muassasasining "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" yo'nalishi bo'yicha

magistratura bosqichiga o‘qishga qabul qilindi. Bu davrda u o‘z bilimini yanada chuqurlashtirib, ilmiy izlanishlar olamiga jiddiy kirib bordi. Magistratura yillarida uning o‘tkir aqli, tafakkur kengligi va mehnatsevarligi nafaqat ustozlari, balki tengdoshlari tomonidan ham yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi.

2021-yilda magistraturani muvaffaqiyatli yakunlagan Sardor Ahmedov shu tariqa o‘z xalqining madaniy merosi, etnografik boyliklari va tarixiy jarayonlarini o‘rganish hamda ularni xalqaro miqyosda tanitish yo‘lida mustahkam poydevor qo‘ydi. Uning ilmiy yo‘li endilikda yanada yuqori marralarni ko‘zlagan, izchil va chuqur tadqiqotlarga asoslangan faoliyat bilan davom etmoqda.

2018-yilda o‘z mehnat faoliyatini Sariosiyo tumanidagi 80-sonli umumta’lim maktabida boshlagan Sardor Ahmedov tarix fani o‘qituvchisi hamda direktor o‘rinbosari sifatida ilk amaliy qadamlarini qo‘ydi. Bu maskanda u nafaqat o‘quvchilarga tarixning sirli sahifalarini ochib berdi, balki ularning qalbida vatanparvarlik, milliy g‘urur va bilimga chanqoqlik tuyg‘ularini uyg‘otishga harakat qildi. Sardor Ahmedovning darslari shunchalik ta’sirli ediki, o‘quvchilar tarixiy voqealarni nafaqat eslab qolishdi, balki ularni yurakdan his etib, o‘z vatanining boy o‘tmishiga mehr bilan yondasha boshladilar. 2018–2020-yillar davomida ushbu lavozimda samarali faoliyat olib borgan yosh pedagog o‘zining mas’uliyatli mehnati, ijodiy yondashuvi va halolligi bilan hamkasblari va shogirdlari orasida chuqur hurmat-e’tibor qozondi.

2020–2022-yillar oralig‘ida esa Sardor Ahmedov ilmiy izlanishlarga yanada jiddiy kirishish maqsadida Termiz davlat universitetining “Jahon tarixi” kafedrasiga o‘qituvchi sifatida ishga qabul qilindi. Bu yerda u o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirib, talabalar ongiga nafaqat tarixiy bilimlarni, balki tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini ham singdirishga harakat qildi. U o‘zining har bir ma’ruzasida tarixni faqat o‘tmish haqida emas, balki kelajak uchun saboq bo‘ladigan fan sifatida talqin etdi.

Ilm-fanga bo‘lgan cheksiz qiziqish va tadqiqotchilik salohiyati Sardor Ahmedovni 2022–2023-yillarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonning Islom sivilizatsiyasi markaziga olib keldi. Bu nufuzli

ilmiy muassasada Sardor Ahmedov ilmiy xodim sifatida faoliyat olib borib, mamlakatimizning boy tarixiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, islom sivilizatsiyasining O'zbekiston tarixidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga o'z ilmiy salohiyatini bag'ishladi.

2023–2024-yillarda esa Sardor Ahmedov yana Termiz davlat universitetiga qaytib, “Jahon tarixi” kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davrda u nafaqat tajribali pedagog, balki yetuk tadqiqotchi sifatida ham tanildi. Uning ilmiy-ma'rifiy ishlari, yangicha pedagogik yondashuvlari va innovatsion fikrlari yosh avlodga tarixni sevdirishda muhim omil bo'ldi.

2024-yil Sardor Ahmedov hayotida yangi bosqich, mas'uliyatli vazifalar va katta ishonch bilan boshlang'an yil bo'ldi. U yana Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonning Islom sivilizatsiyasi markaziga qaytib, bu safar katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritdi. Ushbu nufuzli muassasada u o'ziga xos mas'uliyat bilan ishladi, jamoaviy faoliyatda faollik ko'rsatdi va muassasaning ilmiy-ma'rifiy ishlarida munosib hissa qo'shdi.

2024-yilning sentyabr oyidan boshlab esa Sardor Ahmedov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tarix va falsafa” kafedrasida katta o'qituvchi sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. Bu dargohda u o'zining yillar davomida to'plagan bilim va tajribasini yosh avlod vakillariga yetkazib, ularni tarix ilmlari asoslariga chuqurroq qiziqtirishga xizmat qilmoqda. Uning darslari o'ziga xos uslub, hayotiy misollar va tarixiy dalillarga boyligi bilan ajralib turadi. Sardor Ahmedovning har bir saboqlari yoshlar qalbida o'tmish merosiga bo'lgan hurmatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ilmga bo'lgan cheksiz muhabbat, doimiy izlanish va o'ziga nisbatan talabchanlik Sardor Ahmedovni ilm-fan olamida mustahkam qadamlashga undadi. U 2019–2020-yillardan boshlab 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo'nalishida “Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o'rni” mavzusida ilmiy izlanishlarga sho'ng'idi. Yillar davomida olib borilgan izchil tadqiqotlar, boy ilmiy materiallar va chuqur tahlillarga asoslangan holda u yetuk dissertatsiya ishini tayyorladi. Nihoyat, 2023-yil 11-iyul kuni Termiz

davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 raqamli ilmiy kengashda mazkur mavzudagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda Sardor Ahmedov tarix fanlari sohasida faoliyat yuritayotgan, yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli yosh olimlar safidan munosib o'rin egallamoqda. U nafaqat fidokorona mehnati, balki ilm-fanga bo'lgan yondashuvi, yangilikka intilishi bilan ham e'tiborni tortmoqda. Hozirgacha u 1 ta monografiya, 1 ta ilmiy albom-katalog hamda 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi sifatida ilmiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Ayni paytda Sardor Ahmedov o'z ilmiy izlanishlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. U "Janubiy O'zbekiston hududida yashovchi tojiklarning etnomadaniy o'rni (Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi misolida)" mavzusida tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ustida izchil tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu mavzu doirasida u o'zbek-tojik xalqlarining tarixiy-madaniy aloqalari, mintaqaviy madaniyatlararo munosabatlar va ularning shakllanish hamda rivojlanish omillarini tahlil qilib, ilm-fanga yangi qarashlar, konsepsiyalar va metodologik yondashuvlar olib kirishga intilmoqda. Bu izlanishlar, shubhasiz, mintaqaning etnomadaniy tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Sardor Ahmedov o'zining ilmiy faoliyatida nafaqat o'zining izlanishlari, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan aloqalari orqali ham ajralib turadi. U "American Journal of Religious, Culture, and Archaeological Studies" (AQSh) jurnalining taqrizchisi sifatida, ilmiy maqolalarni xolislik va yuqori akademik me'yorlar asosida baholab, ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Uning tanqidiy fikrlash va ilmiy yondashuvi, jurnalning global miqyosda nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sardor Ahmedov har yili Respublikamizda va turli ilmiy institutlarda o'tkaziladigan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib, yoshlarni ilmga mehr va sevgi bilan yondashishga undaydi. U o'zining ilmiy ishlari bilan tarix fanining

dolzarb muammolari hamda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi kabi masalalarda keng e'tirofga sazovor bo'lib kelmoqda. So'nggi besh yil davomida u respublika miqyosidagi 10 dan ortiq ilmiy tadbirda ishtirok etib, o'zining ilmiy maqolalarini ilmiy jurnallar va konferensiyalar to'plamlarida chop ettirdi. Bu orqali u sohasidagi ilmiy hamjamiyatni rivojlantirish va yangi ilmiy yondashuvlarni joriy qilishga o'zining beqiyos hissa qo'shdi.

Sardor Ahmedov o'zbek tarixshunosligida o'zining fidoyiligi, tinimsiz izlanishlari va yosh avlodga bilim ulashishga bo'lgan sadoqati bilan nafaqat olim, balki haqiqiy o'rnak sifatida yorqin namoyon bo'lmoqda. Uning hayot yo'li – har bir qadami mehnat, intilish va o'z xalqiga xizmat qilish bilan to'ldirilgan ibratli manzara bo'lib, yosh olimlar va talabalar uchun cheksiz ilhom manbaidir.



## **MAMATKULOV ILHOM IBRAGIMOVICH**

*Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrası katta o‘qituvchisi,  
Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Har bir inson bu yorug‘ olamga o‘ziga xos ichki bir ruhiy quvvat, hayotiy intilish bilan keladi. Ana shu ichki kuch vaqt o‘tishi bilan katta maqsadlar, ezgu orzular sari yetaklaydi. Bu yo‘l esa izlanish, fidoyilik, doimiy mehnat va bilimga sadoqat bilan bezaladi. Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimida samarali faoliyat olib borayotgan, ilmiy izlanishlari bilan sohaga munosib hissa qo‘shayotgan, yosh avlod tarbiyasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fidoyi pedagog va olimlardan biri – Mamatkulov Ilhom Ibragimovich ana shunday intiluvchanlik va mehnatsevarlik timsolidir.

1985-yilda Surxondaryo viloyatining qadimiy, serhosil va fayzli maskani – Denov tumanida dunyoga kelgan Ilhom Mamatkulov yoshlikdanoq o‘zining tirishqoqligi, ilmga chanqoqligi va halolligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Tabiatan mehnatsevar, qalbi bilan ilm-fanga oshno bo‘lgan bu iste‘dodli Ilhom Mamatkulov maktab davridayoq fanga, ayniqsa qishloq xo‘jaligiga daxldor fanlarga alohida mehr qo‘ygan. Bu qiziqish uni Toshkent davlat agrar universiteti sari yetakladi.

Ilhom Mamatkulov 2010-yilda ushbu nufuzli oliygohning bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli tamomlab, ilmiy izlanishlar sari dadil qadam tashladi. O‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirish, sohaga zamonaviy yondashuvlar bilan kirib kelish maqsadida 2012-yilda “Dehqonchilik mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichini ham muvaffaqiyatli yakunladi. Bu yillar – uning hayotida nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba, mustaqil fikrlash va ilmiy tafakkur shakllangan muhim davr bo‘lib qoldi.

Talim bilan bir qatorda, Ilhom Mamatkulov o‘z mehnat faoliyatini ham soha bilan chambarchas bog‘lab bordi. 2012–2013 yillarda

Respublika O‘rmon Bosh boshqarmasining “O‘rmongiproloyiha” davlat korxonasida texnik xodim sifatida ishlagan. Keyinchalik, 2013–2015 yillarda Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritib, qishloq xo‘jaligi ilm-fani bilan amaliyotda chambarchas shug‘ullana boshladi.

2015-yildan boshlab Ilhom Mamatkulov Toshkent davlat agrar universitetining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash” kafedrasida o‘z mehnat faoliyatini davom ettirdi. Avvaliga assistent, keyinchalik esa katta o‘qituvchi lavozimlarida ishlagan u, pedagogik faoliyatda ham o‘zining bilimdonligi, halolligi va fidoyiligi bilan ajralib turdi. Har bir dars, har bir mashg‘ulot – u uchun nafaqat bilim ulashish, balki talabaning qalbiga ilmga muhabbat, mehnatga ishtiyoq singdirish vazifasini bajargandek bo‘ldi.

2020–2023-yillar davomida u ilmiy izlanishlar sari jiddiy qadam tashladi. Toshkent davlat agrar universitetining mustaqil tadqiqotchisi sifatida faoliyat yuritarkan, o‘zining sohasiga chuqur kirib bordi, tajriba va kuzatishlar asosida dolzarb masalalarni ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishga kirishdi. Bu yillar – izlanish, sinov va iztirob ila boyigan, ammo har bir qadami kelajakdagi yutuqlar poydevoriga aylanib borgan davr bo‘ldi.

Va nihoyat, bu mehnat o‘zining munosib natijasini berdi. 2024-yil 28-avgust kuni Ilhom Mamatkulov 06.01.08 – “O‘simlikshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu mavzu bugungi ekologik va iqlim o‘zgarishlari sharoitida nihoyatda dolzarb bo‘lib, amaliy ahamiyati bilan ham alohida e‘tiborga molik. Bu yutuq – nafaqat ilm-fanga sodiqlik, balki sabr, matonat va izlanishlar bilan yo‘g‘rilgan hayot yo‘lining mantiqiy yakuni, o‘ziga xos mehnat e‘tirofi bo‘ldi.

2024-yil 4-sentyabrdan boshlab Mamatkulov Ilhom Ibragimovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchi, v.b. dotsent sifatida mehnat faoliyatini davom ettirmoqda. Bugungi kunda u o‘zining boy tajribasi, chuqur ilmiy salohiyati va yuksak pedagogik

mahorati bilan yosh avlod qalbida ilmga, izlanishga, mehnatsevarlikka bo‘lgan intilishlarni uyg‘otayotgan hurmatli ustoz sifatida tanilgan. Har bir darsda – hayotiylik, har bir maslahatda – samimiyat mujassam.

Ilmiy faoliyati ham samarali natijalar bilan boyib bormoqda. Ilhom Ibragimovich 60 dan ortiq ilmiy, o‘quv-uslubiy maqola, tezis va metodik qo‘llanmalar muallifi hisoblanadi. Ayniqsa, uning “Qurg‘oqchilik sharoitida don jo‘xorining ‘Massino‘ navidan yuqori, sifatli don va yem-xashak hosili yetishtirish asoslari” nomli monografiyasi o‘z sohasida nafaqat nazariy, balki amaliy yechimlar taklif etuvchi muhim ilmiy manba sifatida e’tirof etilmoqda. Bu asar uning nafaqat tajriba, balki ilmiy tahlil va ijodiy yondashuvni uyg‘unlashtira olgan yetuk olim ekanidan dalolat beradi.

Mamatkulov Ilhom Ibragimovich – zamonaviy agrar fanlar taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan fidoyi olim, kamtar va halol inson, mehribon ustozdir. Uning hayot yo‘li, ilmiy va pedagogik faoliyati bizga shuni yana bir bor eslatadi: ilm-fan – bu faqat tajriba maydoni emas, balki yurakdan berilgan fidoyilik, Vatanga sadoqat, va eng muhimi, kelajak avlod kamoloti yo‘lida ko‘z ochirmasdan mehnat qilish demakdir.



## **NORMAMATOVA PARDAXOL OCHILDIYEVNA**

*Tarix va falsafa kafedrasi dotsenti, Tarix fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Jamiyatda professor olimlar chuqur bilim va boy tajribalari, ilmiy tadqiqotlari va samarali pedagogik faoliyati orqali intellektual rivojlanishning tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Ular ta'lim tizimining takomillashuvi, yosh avlod tarbiyasi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga zamin yaratish borasida beqiyos hissasini qo'shadilar. Professor olimlar o'z ilmiy izlanishlari orqali jamiyatda yangi bilimlar ommasini shakllantiradi, shuningdek, yoshlarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltiradi. Ular yaratgan ilmiy maktablar orqali ko'plab yetuk mutaxassislar kamol topadi, bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shunday professor olimalardan biri – Normamatova Pardaxol Ochildiyevna, bugungi kunda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat olib borib, o'zining ilmiy va pedagogik salohiyati bilan katta e'tiborga sazovor bo'lmoqda.

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna 1974-yil 8-mart kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Obi mahallasida ziyoli oilada tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa tarixga bo'lgan chuqur qiziqishi bilan ajralib turgan. Maktab davrlaridanoq o'quv fanlariga, xususan, tarix, adabiyot va ijtimoiy fanlarga qiziqishi kuchli bo'lgan.

1992-1996-yillar davomida Normamatova Pardaxol Ochildiyevna Termiz davlat universitetida "Tarix, jamiyat va huquqshunoslik" yo'nalishida tahsil olib, ushbu mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'ldi.

Oliy ma'lumotni qo'lga kiritgach, 1996-1997-yillarda Boysun tumanidagi 25-umumta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi sifatida o'zining mehnat faoliyatini boshladi. Yosh mutaxassis sifatida ish boshlagan Pardaxol Ochildiyevna qisqa fursat ichida o'zining

mas'uliyatli, tirishqoq va yangilikka intiluvchan pedagog sifatida namoyon bo'ldi. 1998-2019-yillar davomida u Denov tumanidagi 82-umumta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida samarali faoliyat olib bordi. Ushbu davr mobaynida u nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ishlarni olib borishda ham katta tajriba to'pladi.

2019-yilidan boshlab Pardaxol Ochildiyevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Tarix va falsafa" kafedrasida o'qituvchi lavozimida o'z mehnat faoliyatini davom ettirdi. Kafedra jamoasiga qo'shilganidan so'ng, u zamonaviy ta'lim talablariga mos pedagogik yondashuvlarni joriy etib, o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga o'z hissasini qo'sha boshladi. Ilmga bo'lgan yuqori qiziqish, muntazam izlanishlar va yuksak mas'uliyat tufayli 2022-yildan boshlab u shu kafedrada katta o'qituvchi lavozimiga tayinlandi.

O'ziga talabchanligi, izlanuvchanligi va ilm-fanga bo'lgan chuqur qiziqishi natijasida Pardaxol Ochildiyevna ilmiy izlanishlar olib borish yo'lida qat'iy qarorga keldi. U tarix fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan 07.00.01 – "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqot ishlariga kirishdi. Uning tadqiqot mavzusi – "Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining O'zbekiston tashqi aloqalaridagi ishtiroki (1991-2020 yy.)" – zamonaviy tarixshunoslik uchun muhim ilmiy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu mavzu doirasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida Normamatova Pardaxol Ochildiyevnaning dissertatsiyasi 2025-yilda Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar tomonidan muhokama uchun qabul qilindi. Mazkur bosqichni muvaffaqiyatli yakunlagach, u 2025-yil 8-aprel kuni 07.00.01 – "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha tayyorlagan "Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining O'zbekiston tashqi aloqalaridagi ishtiroki (1991–2020 yy.)" mavzuidagi dissertatsiyasini ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

Pardaxol Ochildiyevna o'zining ilmiy va pedagogik faoliyati orqali

tarix fanining dolzarb yoʻnalishlarida salmoqli natijalarga erishib, zamonaviy tarixshunos olimlar safidan munosib oʻrin egallab bormoqda. Bugungi kunga kelib u tomonidan 1 ta darslik, 1 ta oʻquv qoʻllanma, 1 ta monografiya hamda 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar chop etilgan boʻlib, bu ishlari ilmiy hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Pardaxol Ochildiyevena, ayniqsa, oliy taʼlim tizimida tarix yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalarning zamonaviy oʻquv adabiyotlari bilan taʼminlanishida faol ishtirok etmoqda. Uning muallifligida tayyorlangan “Tarix oʻqitish metodikasi” darsligi hamda “Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi” faniga oid oʻquv qoʻllanma nafaqat tarix, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar yoʻnalishlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega boʻlib, keng foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, Pardaxol Ochildiyevena bir necha yillardan buyon Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Tadbirkorlik va boshqaruv” fakultetida xotin-qizlar masalalari boʻyicha dekan oʻrinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. U talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni barkamol shaxs etib voyaga yetkazish, maʼnaviy-maʼrifiy dunyoqarashini boyitish maqsadida muntazam tarzda turli tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etib, oʻzining befarq boʻlmagan yondashuvi va hayotiy maslahatlari bilan yoshlarga doimiy koʻmakdosh boʻlib kelmoqda.

Pardaxol Ochildiyevena har yili Respublikasi va institut miqyosida tashkil etiladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib, yoshlar tarbiyasi, tarix fanining dolzarb muammolari, jismoniy madaniyat va sport tarixi hamda oliy taʼlim tizimining muhim masalalariga bagʻishlangan yuqori darajadagi ilmiy ishlar bilan keng eʼtirofga sazovor boʻlib kelmoqda. Soʻnggi besh yil davomida u respublika miqyosida oʻtkazilgan 15 dan ortiq ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiya, seminar va anjumanlarda faol qatnashib, oʻz tadqiqotlari natijasida tayyorlangan bir qator ilmiy maqolalarni ushbu tadbirlarning toʻplamlarida chop ettirdi va bu orqali sohasidagi ilmiy hamjamiyatning rivojlanishiga muhim hissa qoʻshdi.

Pardaxol Ochildiyevena kafedra aʼzolari bilan hamkorlikda oʻzining

tashabbuskorligi va ilmiy faoliyati bilan bir qator muhim tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etdi. 2023-yil 19-sentyabrda “Mamlakatimizda uchinchi renessans g‘oyasini keng targ‘ib qilishda ijtimoiy va gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni” mavzusida respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazdi, shuningdek, 17-18-noyabr kunlari “O‘zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzlardan asrash” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani tashkil qilib, ushbu dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun xalqaro miqyosda platforma yaratdi. 2024-yil 19-noyabrda esa “Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazib, turkiy xalqlarning tarixiy ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan muhim tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Ushbu konferensiyalar va anjumanlar orqali Normamatova Pardaxol Ochildiyevna ilmiy hamjamiyatni birlashtirish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va yangi ilmiy yondashuvlarni targ‘ib qilishda katta hissa qo‘shdi.

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna – O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning faol targ‘ibotchisi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bevosita ishtirokchisi sifatida o‘zini namoyon etib kelmoqda. U e’tiqodli, sog‘lom fikrli, madaniyatli, intizomli, samimiy hamkasb va mehribon ustoz sifatida hamkasblari va shogirdlari o‘rtasida katta hurmatga sazovor bo‘ldi.



**SODIQOVA BAXTIGUL  
IBODULLAYEVNA**

*Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar  
kafedrasi dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

Mamlakatimizda fan va ta'lim sohalarini izchil rivojlantirish, zamonaviy bilimlarga ega, vatanparvar va tashabbuskor yosh olimlarni yetishtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, milliy taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, ilm-fan asosidagi yondashuv aynan ana shunday bilimli, fidoyi insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ana shunday bilimli, mas'uliyatli, shijoatli va o'z sohasining yetuk mutaxassislaridan biri – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrasi v.b. dotsenti Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna hisoblanadi.

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna 1988-yil O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumanida, ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1995–2004-yillarda Surxondaryo viloyati Denov tumanida 30-sonli o'rta maktabda ta'lim oldi. Maktab davridayoq bilim olishga bo'lgan intilishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va iqtisodiy tushunchalarga qiziqishi uni aniq maqsad sari yetakladi.

2004–2007-yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik liseyda tahsil oldi. Undagi chuqur izlanish ruhi va intellektual salohiyat bu sohadagi bilimlarini yanada kengaytirishga undadi.

2007–2011-yillarda Toshkent shahri O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining bakalavr bosqichini tamomlab, nazariya va amaliyotga oid puxta bilimlarni o'zlashtirdi.

Sodiqova Baxtigul o'zining pedagogik faoliyatini 2011-yilda Denov tumanidagi 16-umumixtisoslashtirilgan maktab internatida boshlagan, 2012-yilda Denov tumanidagi 92- umumta'lim maktabida ham ingliz tili

o'qituvchisi lavozimida faoliyat yuritgan. U 2017–2019-yillarda magistratura bosqichini Toshkent shahri O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida tamomlab, 2013–2017-yillarda Toshkent bank kolleji "Tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimida faoliyat yuritgan. Ushbu yillar davomida mazkur dargohda faoliyat olib borar ekan, u ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etib, o'quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham samarali singdirishga alohida e'tibor qaratdi.

Keyingi faoliyat davrida 2019–2020-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filiali o'qituvchisi vazifasida ish olib borgan. U oliy ta'lim tizimidagi tashkiliy-ma'muriy ishlarni samarali tashkil qilishda o'zining mas'uliyati, tashabbuskorligi va ijobiy ish uslublari bilan ajralib turgan. Mazkur davr mobaynida Baxtigul Ibodullayevna oliy ta'lim muassasasining ichki hujjatlari, muhim yig'ilish va qarorlarning huquqiy asosda yuritilishi, fakultetlararo muvofiqlik kabi masalalarda faol ishtirok etgan.

Fanga bo'lgan qiziqish va ilmiy izlanishga intilish uni 2021-yillarda 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya halqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Djon Faulzning ijodida postmodernizmning falsafiy va estetik dominantlari" mavzusida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasida filologiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga olib kirdi. Ilmiy izlanishlar jarayonida adabiyotga qiziqish va jahon adabiyotidagi yangiliklar, ularning samaradorligi, strategik yo'nalishlari bo'yicha chuqur ilmiy ish olib bordi. Natijada, 2025-yil filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2020-yildan hozirgi kungacha Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi lavozimida faoliyat boshlagan bo'lib, qisqa fursat ichida o'zining yuqori salohiyati, ta'limga bo'lgan mas'uliyatli munosabati va metodik yondashuvlari bilan ajralib turdi.

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna o'zining ilmiy izlanishlari va ta'lim sohasidagi fidokorona mehnati bilan nafaqat pedagogik, balki ilmiy doiralarda ham e'tirofqa sazovor bo'lgan mutaxassislardan biridir.

Hozirgi vaqtda u tomonidan 58 ga yaqin ilmiy ishlar – ilmiy maqola va tezislar xorijiy hamda Respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy jurnallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va anjumanlarda chop etilgan.

Sodiqova Baxtigulning ilmiy rahbarlik faoliyati ham e'tiborga loyiq. Bugungi kunga qadar uning bevosita ilmiy rahbarligida bakalavr bitiruvchilar ilmiy ishlari yuzasidan mazmunli tavsiyalar olib kelishmoqda.

Bundan tashqari, uning yetakchiligida 2 nafarga yaqin bakalavriat bosqichi talabasi Respublika va xalqaro darajadagi tanlov hamda ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlariga sazovor bo'lgan. Bu esa uning nafaqat mustaqil tadqiqotchi, balki yosh olimlarni yetishtirayotgan tajribali mentor ekanligidan dalolat beradi.

Sodiqova Baxtigul nafaqat ilmiy-pedagogik, balki tashkilotchilik faoliyatida ham faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, institut huzurida nashr etiladigan "Tadbirkorlik va pedagogika" ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ham faoliyat yuritib, mazkur nashrning ilmiy saviyasini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna – bu o'z kasbiga sodiq, ilm-fanga ixlos bilan yondashadigan, yosh avlod tarbiyasi va sohasiga oid yetuk kadrlar tayyorlashda munosib hissa qo'shayotgan pedagog va olimdir.



## **BOBOJONOV DILSHOD JUMAQUL O‘G‘LI**

*Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası  
dotsenti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim va ilmiy izlanishlar sifatini oshirish, zamonaviy fikrlaydigan, chuqur bilimli va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri sanaladi. Chunki har qanday taraqqiyot va jamiyat ravnaqi, avvalo, yuksak salohiyatli, izlanuvchan hamda fidoyi mutaxassislar faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Shunday fidoyi, ma‘suliyatli va vatanparvar yoshlar safidan munosib o‘rin egallagan mutaxassislar esa bugungi kunning eng katta boyligi sanaladi. Shu kabi bilimli, mas‘uliyatli, o‘z kasbiga shijoat bilan yondoshib, sohasining yetuk mutaxassislaridan biri, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, “Xorijiy til va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Bobojonov Dilshod Jumaqul o‘g‘li hisoblanadi.

Bobojonov Dilshod Jumaqul o‘g‘li 1994 yil 18 mayda Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Millati - o‘zbek. U ilk ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasini oila bag‘rida olgan bo‘lsa, ta‘limdagi dastlabki qadamlari 2001–2009-yillar oralig‘ida Sariosiyo tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida boshlangan. Maktab davrida bilim olishga va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati tushunchalarga qiziqishi uni ulkan marralar sari yetakladi.

Dilshod Bobojonov ta‘lim yo‘lida keyingi bosqichni 2010–2014-yillarda Toshkentdagi Soliq kollejida davom ettirib, xorij tili va boshqa tillar bo‘yicha ilk amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ldi. Undagi chuqur izlanish ruhi va intellektual salohiyat bu sohadagi bilimlarini yanada kengaytirishga undadi.

Shundan keyin, 2014-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)” ta‘lim yo‘nalishida bakalavriat bosqichiga kirdi va 2018 yilda uni muvaffaqiyatli tamomlab xorijiy tillar bo‘yicha bilimlarni puxta o‘zlashtirdi.

Tilga bo‘lgan qiziqishi uni huddi shu yili 2018 – yili ushbu

universitetning magistratura bosqichiga qabul qilindi va 2020-yilda magistratura bosqichini a'lo baholar bilan tamomlagan.

Mehnat faoliyatini 2018–2020-yillarda Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 268-sonli umumta'lim maktabida ingliz tili o'qituvchisi sifatida boshlagan. 2020–2022-yillarda Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Chet tillari kafedrasida ingliz tili o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan.

Ilm fanga bo'lgan qiziqish va ilmiy izlanishga intilish uni 2022-yilda 10.00.06 Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Gazeta sarlavhalarining pragmatik va lingvomadaniy tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida)" mavzusida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasida filologiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga olib kirdi. Ilmiy izlanishlar jarayonida chuqur ilmiy ish olib bordi.

2021-yildan boshlab ilmiy rahbari Teshaboyeva Dilfuza Mo'minova boshchiligda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borgan. Dissertatsiya ishi mavzusi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashida 2021-yil 29-dekabrda 5-sonli majlis qarori bilan tasdiqlangan va Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida 2022-yil 2-sonida e'lon qilingan.

Dilshod Bobojonovning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ishi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Chet tili va adabiyoti" kafedrasida va Termiz davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedralarining qo'shma majlisida 2024-yil 27-avgust 6-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va to'liq yakunlangan ish sifatida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminarda 2024-yil 28-noyabr kungi majlisi 8-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan. Ushbu Ilmiy kengashning 2024-yil 12-dekabr kungi majlisida 13-sonli bayonnomasi bilan dissertatsiya ishini himoya qilish uchun qabul qilingan.

Ilmiy darajalar beruvchi "Ilmiy kengash to'g'risida"gi qonunning

2-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlari Oliy attestatsiya komissiyasiga topshirildi va 2024-yil 27-fevral sanasida Oliy attestatsiya komissiyasi veb-saytida dissertatsiyani himoya qilish uchun ruxsat berildi. D.Bobojonovning dissertatsiya ishi hamda ish bo'yicha yozilgan avtoreferati 2025-yil 4-martda QQDU axborot resurs markaziga topshirilgan. 2025-yil 5 martda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi "ZiyoNET" Veb-saytida e'lon qilish uchun qabul qilingan.

Dissertatsiya himoyasi to'g'risidagi ma'lumot Qoraqalpog'iston Respublikasi axborot agentligining saytida 2025-yil 6-mart va "Erkin Qoraqalpog'iston" gazetasining 2025-yil 8-mart sanasida e'lon qilingan. Ilmiy kengash tuzilgan tashkilot ya'ni Qoraqalpoq davlat universiteti KARSU.UZ. veb saytiga 2025-yil 14-mart sanasida joylashtirilgan.

Natijada, 2025-yil 18 - mart oyida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dilshod Bobojonov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Xorij tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchi lavozimida faoliyati davomida qisqa fursat ichida o'zining ilmiy salohiyati, ta'limga bo'lgan

Dilshod Bobojonov ilmiy rahbarlik faoliyatini ham yo'lga qo'ygan. Bugungi kunga qadar uning bevosita ilmiy rahbarligida ostida 10 yaqin bakalavr talabalar bilan ilmiy maqolalar chop etilgan. Bu esa uning nafaqat ilmiy tadqiqotchi, balki yosh olim va olimlarni yuksalishga o'z hissasini qo'shishga katta yordam bergani dalolat beradi.

Dilshod Bobojonov ilmiy faoliyatida o'zining chuqur bilimlari va izlanishlari bilan ajralib turadi va ilm-fanga bo'lgan ulkan ishtiyoqi, kasbiy mahorati bilan hamkasblari orasida o'z mavqeyiga ega namunali inson.



## **YUNUSOV ALISHER PANDJIYEVICH**

*Rus tili va adabiyoti kafedrasida katta  
o'qituvchisi, Filologiya fanlari nomzodi*

Vaqt bilan hamnafas yashash, bugunning voqeliklaridan, yangiliklaridan boxabar bo'lish zamondan orqada qolmaslikning muhim shartidir. Shu jihatdan, bugungi kunda dunyoviy ilmlar egasi bo'lmoqlik, ma'rifatlilik, ilm-baxtga yetaklovchi eng to'g'ri yo'l ekanligini his qilib yashash tafakkurli shaxsning asosiy maslagidir. Ilm nuri bilan o'z hayot yo'lini yoritib kelayotgan Yunusov Alisher Pandjiyevich oliy ta'lim tizimida samarali mehnat qilib kelayotgan professor o'qituvchilardan biri sanaladi.

Yunusov Alisher Pandjiyevich 1966 yil 13- dekabrda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tug'ilgan. 1988–1993 yillarda Volgograd davlat universitetida Rus tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tahsil oldi.

1985–1987-yillarda harbiy xizmatni o'tagan. 1990-yildan pedagogik faoliyatini Denov tumanidagi 50-umumiy ta'lim maktabidan boshlagan.

2000–2018-yillarda Denov pedagogika kollejida rus tili va adabiyoti o'qituvchisi, shu jumladan, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yurgizib kelgan.

2018–2020-yillarda Termiz davlat universiteti Denov filialida kafedra mudiri vazifasida ishladi.

2020-yildan buyon Rus tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchi

Shu davr ichida Yunusov Alisher Pandjiyevich o'zining ilmiy izlanishlari va ta'lim sohasidagi fidokorona mehnati bilan nafaqat pedagogik, balki ilmiy doiralarda ham e'tirofga sazovor bo'lgan mutaxassislardan biridir. Hozirgi vaqtda u tomonidan 40 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari xorijiy hamda Respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan bo'lib, har yili Xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalari bilan ishtirok etib keladi. Ushbu

tadqiqotlar Hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolari, qiyosiy tilshunoslikda zamonaviy yondashuv masalalarini qamrab olgan bo‘lib, ilmiy hamjamiyatda ijobiy baho topgan. Ilmiy ishlar bilan bir qatorda DTPIning xorijiy OTMLar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shib kelmoqda.

2024-yilda Rossiya federatsiyassi 73.2.003.01 OAKda “Функционально- семантические типы инфинитивных предложений и их передача в узбекском языке” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi tomonidan “Filologiya fanlari nomzodi” diplomi bilan taqdirlandi. Ta’kidlab o‘tish joizki, dissertatsiya ishi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ilk xorijiy himoya hisoblanadi.



## **TURSUNOV SAYFULLA NARZULLAYEVICH**

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi  
kafedrası professori, Tarix fanlari doktori*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (DTPI) O‘zbekistondagi eng yosh oliy ta’lim muassasalaridan biri sifatida qisqa vaqt ichida Surxondaryo viloyatida ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shdi. 2020-yil 17-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan ushbu institut viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim markazga aylandi. Ayniqsa, tarixchi olimlarning “Surxondaryo viloyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: an’analar va transformatsion jarayonlar” mavzusidagi loyiha doirasida olib borayotgan tadqiqotlari nafaqat mintaqaviy, balki umummilliy ahamiyatga ega. Ushbu loyiha Surxondaryoning o‘tmishi va hozirgisini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, an’analar bilan zamonaviy o‘zgarishlarning uyg‘unligini yoritishga xizmat qiladi. Institut olimlari o‘z ishlarida Surxon vohasining boy tarixiy merosini, sovet davri siyosati, mustaqillik yillaridagi transformatsiya jarayonlari va etnomadaniy xususiyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor berishmoqda.

Institutning tarixchi olimlari orasida D.Yoqubova, J.Tursunov, B.Nazirov, A.Mengliboev, U.Muminov, I.Norbo‘tayev, S.Ahmedov, O.Dulanov va N.Xasanova, E.Rahmatov, P.Normamatova kabi yetuk mutaxassislar bor. Ularning har biri o‘ziga xos tadqiqot yo‘nalishlarida faoliyat yuritib, Surxondaryo viloyatining tarixiy rivojlanishiga oid muhim xulosalar keltirmoqda. Masalan, D.Yoqubova o‘zining “O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari (1930–1990-yillarda Surxon vohasi misolida)” mavzusidagi tadqiqotida sovet davrida paxtachilikni majburiy joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot Surxon vohasi aholisining hayot

tarziga, iqtisodiy tuzilmasiga va ekologik muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatganini ochib beradi. Paxta yakkahokimligi nafaqat qishloq xo'jaligini bir yoqlama rivojlanishga olib keldi, balki mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini ham tubdan o'zgartirdi. Yoqubovanning ishi ushbu jarayonning chuqur ijtimoiy oqibatlarini Surxondaryo misolida ko'rsatib beradi.

J.Tursunovning "O'zbekiston shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tarixi (Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlari misolida) 1971–1990-yillar" mavzusidagi tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti olimlari tomonidan Surxondaryo viloyatining rivojlanishini o'rganishdagi muhim yo'nalishlardan birini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot sovet davrining so'nggi o'n yilliklarida Surxondaryo viloyatidagi kichik shaharlar – Boysun, Sharg'un va Sho'rchi misolida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. 1971–1990-yillar oralig'i O'zbekiston uchun urbanizatsiya, sanoatlashuv va madaniy transformatsiya nuqtayi nazaridan muhim davr bo'lib, J.Tursunovning ishi ushbu jarayonlarning mahalliy darajadagi ko'rinishini ochib berishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, B.Nazirovning "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida)" mavzusidagi tadqiqoti ham alohida e'tiborga loyiq. U o'z ishida Surxondaryo viloyatida sportning rivojlanish bosqichlarini, sovet davridagi jismoniy tarbiya siyosatini va mustaqillik yillarida ushbu sohada yuz bergan o'zgarishlarni o'rganadi. Nazirovning tadqiqotlari sportning nafaqat salomatlik, balki ijtimoiy integratsiya va milliy o'zlikni shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi. Surxon vohasida sport infratuzilmasining rivojlanishi, mahalliy an'analar bilan uyg'unlashishi va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdagi ahamiyati uning ishining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

A.Mengliboev esa "Janubi-sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi kurash (Surxon vohasi misolida, 1920–1930-yillar)" mavzusida tadqiqot olib boradi. Ushbu ish sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Surxondaryoda yuz bergan siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarni yoritadi. Mengliboev sovet rejimining mahalliy aholi

orasida qanday qarshiliklarga duch kelganini, bu qarshiliklarning sabablari va oqibatlarini tahlil qiladi. Surxon vohasida bolsheviklar siyosatiga qarshi boshlangan harakatlar, xususan, istiqloqlolchilik harakati va uning mahalliy xususiyatlari uning tadqiqotining muhim qismini tashkil etadi. Bu tadqiqot sovet hokimiyatining mintaqada oʻrnatilishi jarayonidagi murakkabliklarni ochib beradi va mahalliy aholining oʻziga xos qarshilik ruhini aks ettiradi.

U.Muminovning “Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari mahallalari hayoti: modernizatsiya jarayonlari va oʻzgarishlar dinamikasi (1991–2021-yillar)” mavzusidagi ishi esa mustaqillik davrida mintaqa hayotidagi oʻzgarishlarni oʻrganishga qaratilgan. U modernizatsiya jarayonlarining mahalliy mahallalar hayotiga taʼsirini, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy transformatsiyalarni tahlil qiladi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining turmush tarzi, anʼanaviy qadimiy tuzilmalar va zamonaviy hayot talablari oʻrtasidagi muvozanat uning tadqiqotining asosiy yoʻnalishi hisoblanadi. Muminovning ishi mustaqillik yillarida yuz bergan oʻzgarishlarning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatli baholashga xizmat qiladi.

I.Norboʻtayevning “Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy yuksalish gʻoyasini amalga oshirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari” mavzusidagi tadqiqoti esa falsafiy nuqtai nazardan mamlakatning yangi davrdagi rivojlanish yoʻllarini oʻrganadi. U milliy yuksalish gʻoyasining Surxondaryo viloyati va umuman Oʻzbekiston miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi oʻrnini tahlil qiladi. Norboʻtayevning ishi mustaqillik davrida milliy oʻzlik, davlatchilik va ijtimoiy adolat kabi tushunchalarni falsafiy jihatdan asoslashga qaratilgan boʻlib, bu tadqiqot Surxondaryoning zamonaviy rivojlanishdagi oʻrnini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

S.Ahmedov “Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi oʻrni” mavzusida olib borgan tadqiqotida Surxondaryo viloyatidagi tojik jamoasining madaniy hayotdagi rolini oʻrganadi. U mintaqadagi etnik xilma-xillik, tojiklarning mahalliy madaniyatga qoʻshgan hissasi va ularning oʻzbek xalqi bilan oʻzaro taʼsirini tahlil qiladi. Surxon vohasining koʻp millatli tabiati Ahmedovning tadqiqotida

markaziy o‘rin tutadi va bu ish mintaqaning etnomadaniy xaritasi haqida muhim ma’lumotlar beradi.

E.Rahmatovning “Alouddin Attorning Naqshbandiya tariqatining rivojlanishida tutgan o‘rni” mavzusidagi tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti olimlari tomonidan Surxondaryo viloyatining ma’naviy merosini o‘rganishdagi muhim qadamdir. Ushbu tadqiqot XIV asrda yashagan Alouddin Attorning Naqshbandiya tasavvuf tariqatining shakllanishi va rivojlanishidagi rolini tahlil qiladi, uning Bahouddin Naqshband ta’limotini mustahkamlash va tarqatishdagi hissasini yoritadi. Surxondaryo viloyatining tasavvuf tarixidagi o‘rni va Attorning mahalliy ma’naviy hayotga ta’sirini o‘rganish orqali E.Rahmatov mintaqaning diniy-madaniy rivojlanishiga yorug‘lik soladi. Tadqiqot Naqshbandiya tariqatining Surxondaryodagi ildizlarini ochib, uning ijtimoiy integratsiya va ma’naviy tarbiyadagi ahamiyatini ta’kidlaydi, shu bilan institutning viloyatning boy merosini dunyoga tanitishdagi sa’y-harakatlarini boyitadi.

O.Dulanovning “O‘zbekiston hududlariga juz etnik komponentining joylashuvi va uning mahalliy etnoslarga etnomadaniy ta’siri (XVI–XX asrlar)” mavzusidagi tadqiqoti Surxondaryo va undan tashqaridagi hududlarda juzlarning tarixiy joylashuvi va ularning mahalliy etnoslar bilan aloqalarini o‘rganadi. U juzlarning migratsiya jarayonlari, ularning mahalliy madaniyatga ta’siri va etnik o‘zaro ta’sir dinamikasini tahlil qiladi. Dulanovning ishi Surxondaryoning etnik tarkibi va madaniy rivojlanishidagi murakkab jarayonlarni yoritadi.

N.Xasanovanning “O‘zbekistonda sovet hukumatining madaniy-ma’naviy siyosati va uning natijalari (Surxon vohasi misolida, 1917–1941-yillar)” mavzusidagi tadqiqoti sovet davrining dastlabki yillarida madaniyat va ma’naviyat sohasidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi. U sovet hukumatining Surxondaryoda olib borgan madaniy siyosati, ta’lim tizimidagi islohotlar va mahalliy an’analarga ta’sirini tahlil qiladi. Xasanovanning ishi sovet davrining Surxon vohasi madaniyatiga chuqur ta’sirini va bu ta’sirning uzoq muddatli oqibatlarini ko‘rsatadi.

Nihoyat, P.Normamatovanning “Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining O‘zbekiston tashqi aloqalaridagi ishtiroki (1991–2020-yy.)”

mavzusidagi tadqiqoti Surxondaryoning O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki 30 yilidagi tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalardagi rolini o‘rganadi. Afg‘oniston bilan chegaradosh strategik joylashuvi tufayli viloyatning qishloq xo‘jaligi eksporti, transport-logistika imkoniyatlari va xalqaro loyihalardagi ishtiroki, xususan, Termiz orqali tranzit yo‘llari va Afg‘oniston bilan hamkorlikdagi tashabbuslari tahlil qilinadi. Tadqiqot Surxondaryoning O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya va ochiq siyosatiga o‘tishdagi ahamiyatini ochib berib, uning geosiyosiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi muvaffaqiyat va cheklovlarni ko‘rsatadi, shu bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti olimlarining viloyatning zamonaviy tarixini yoritishdagi sa‘y-harakatlarini boyitadi.

Institut olimlarining ushbu faoliyati Surxondaryo viloyatini o‘rganishda yangi sahifa ochmoqda. Olimlarning tadqiqotlari nafaqat mahalliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham e‘tirofga sazovor bo‘lish imkoniyatiga ega, chunki ular Surxondaryoning boy tarixiy va madaniy merosini dunyoga tanitishda katta rol o‘ynamoqda. Boysunning UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan nomoddiy madaniy merosi, Surxon vohasining etnik xilma-xilligi va mintaqaning sovet va mustaqillik davridagi o‘ziga xos rivojlanish yo‘li institut olimlari tadqiqotlari orqali kengroq auditoriyaga yetib bormoqda. Bu esa Surxondaryoni nafaqat O‘zbekiston ichida, balki jahon miqyosida ham muhim ilmiy va madaniy markaz sifatida ko‘rsatishga xizmat qilmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti olimlari qisqa vaqt ichida Surxondaryo viloyatining tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini o‘rganishda muhim yutuqlarga erishdi. Ularning tadqiqotlari nafaqat akademik doiralarda, balki mintaqaning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu olimlarning har biri o‘ziga xos yo‘nalishda olib borgan ishlari bilan Surxondaryoning o‘tmishi va hozirgisini yoritib, kelajak uchun muhim ilmiy asos yaratmoqda. Institutning ushbu faoliyati Surxondaryo viloyatini o‘rganishda yangi sahifa ochib, uning boy tarixiy merosini dunyoga tanitishda katta rol o‘ynamoqda.

## DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI XORIJIY OLIMLARI



**RAVIPRAKASH GOVINDRAO DANI**  
*Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrasi professori, b.f.d.*  
(DSc)

Doktor Raviprakash Govindrao Dani – o‘zining biologiya, genetika va seleksiya, hamda biotexnologiya sohasidagi chuqur bilimi, keng ilmiy qarashlari va tajribasi bilan ajralib turadigan yirik olimlardan biridir. U ilmiy faoliyati davomida fundamental va amaliy tadqiqotlarga asoslangan ko‘plab ilmiy ishlanmalarni amalga oshirgan.

Raviprakash Govindrao Dani 1955-yil 29-yanvarda Hindiston davlatining Nagpur shahrida tug‘ilgan. Millati hind. Amerika fuqarosi. 1979 yilda Dehli shahrida biologiya fanlari falsafa doktorini himoya qilgan. 1995 yil 26 yanvarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika institutidagi ixtisoslashgan kengashning tavsiyasiga ko‘ra biologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan. Mutaxassisligi biotexnologiya va genetika fani o‘qituvchisi. Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DcS). Professor tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar biologiya, genetika va seleksiya hamda biotexnologiyaning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Doktor Raviprakash Dani tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar, darsliklar va monografiyalar biologiya va qishloq xo‘jaligi sohalarida tahsil olayotgan talabalar hamda yosh olimlar uchun muhim manba hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari dolzarb va zamonaviy muammolarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, milliy va xalqaro miqyosda katta e‘tirofga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, u ilmiy maktab shakllantirish, yosh olimlarni tarbiyalash, ularni ilm-fanga jalb etish yo‘lida ham samarali ish olib bormoqda. Professorning yetakchiligida tayyorlangan ilmiy kadrlar bugungi kunda turli ilmiy markazlarda faoliyat yuritmoqda. Doktor Raviprakash Dani Denov

tadbirkorlik va pedagogika institutida professor lavozimida faoliyat yuritib, nafaqat ilmiy izlanishlar olib boradi, balki talabalarga chuqur nazariy bilimlar berishda, ularning ilmiy salohiyatini oshirishda faol ishtirok etmoqda. Uning ilm-fanga sadoqati, fidoiyligi, izlanuvchanligi, xalqaro ilmiy hamkorlikka ochiqligi va doimiy yangilik sari intilishi uni zamonaviy ilm-fan namoyandalaridan biri sifatida tanitadi.

Professor Raviprakash Govindrao Dani o‘z sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, yosh olimlarni tarbiyalash va ularni mustaqil ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish borasida katta tajribaga ega. Uning ilm-fanga bo‘lgan sadoqati, fidoiyligi va yangilikka intilishi uni zamonaviy ilm-fan rivojida muhim shaxslardan biriga aylantirgan.



## **RUZIYEV JURA RAHIMNAZAROVICH**

*Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar  
kafedrasi professorii, texnika fanlari doktori  
(DSc) professor*

Ruziyev Jura Rahimnazarovich 1971-yilda Tojikiston Respublikasi, Dushanbe shahri, Xatlon viloyati, Kabodiyon tumanida tavallud topgan. O'rta maktabni yuksaltirish tamomlagach, u MSOsimi nomidagi Tojikiston texnika universitetining texnologik fakultetida kunduzgi ta'lim yo'nalishida tahsil olib, ushbu oliygohni texnologiya-texnolog-ximik mutaxassisligi bo'yicha tugatgan.

Oliy ta'limni tamomlagach, ilmiy izlanishlarini davom ettirib, Tojikiston Fanlar akademiyasining VINikitin nomidagi Kimyo ilmiy-tadqiqot institutida aspirant sifatida faoliyat ko'rsatish darajasi. So'ngra ushbu institutda laboratoriya mudiri faoliyatida samarali mehnat qilgan. Ilmiy faoliyatining uzviy davomi sifatida doktorlik dissertatsiyasini yuqori himoya qilib, texnika fanlari doktori (DSc) ilmiy tadqiqot olgan va professor unvoniga olib bo'lgan.

Professor JRRuziyev o'z sohasining yetuk vakili, mohir va tajribali pedagogika tarzida shakl, bugungi kunda ham bakalavriat ta'lim yo'nalishlari magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv-quvvabiy samarali tashkil etib keladi.

U 1991–1996-yillar MSOsimi nomidagi Tojikiston texnika universitetida tahsil olgan. 1996–2003-yillarda esa Tojikiston Fanlar akademiyasining VINikitin nomidagi Kimyo ilmiy-tadqiqot institutida laboratoriya mudiri faoliyatida ishlagan. 2003–2005-yillarda Tojikiston alyuminiy zavodida muhandis, 2005–2006-yillarda esa Tojikiston energetika vazirligida ilmiy bo'lim bo'yicha faoliyat yuritgan. 2006–2010-yillarda Tojikiston Milliy universitetining Kimyo amaliy kafedrasida dotsent, 2010–2024-yillarda esa shu kafedrada professor faoliyatda faoliyat yuritgan. 2024-yildan hozirgi kungacha Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Umumiy kimyo va texnologiya kafedrasi professori sifatida nazorat olib boradi.

Ustoz olim bo'yicha 2 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 2 dan ortiq uslubiy qo'llanma, 2 ta monografiya va 2 ta o'quv-uslubiy majmuasi. Bugungi kunga qadar olim 170 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar respublika va ilmiy jurnallar hamda nufuzli anjumanlarda chop etilgan. Ilmiy rahbarligi ostida 10 nafar texnika fanlari nomzodi, 6 nafar texnika fanlari doktori, 20 dan ziyod magistratura. u rahbarlik qilgan 30 dan ortiq bakalavr va magistrlar xalqaro hamda respublika miqyosidagi tanlov va ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlariga baho bo'lganlar.

O'zining ilmiy-ijodiy mehnatlari, sadoqatli faoliyati evaziga Ruziyev Jura Rahimnazarovich "Tojikiston xalq maorifi a'lochisi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Bugungi kunda u yosh avlodni jahonga mos, yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashda, fayl vatanparvar va farzandlar sifatida tarbiyalashda o'z bilim va himoyasini ayamaydigan, xalqimiz baxt-saodati va farovonligi yo'lida fidokorona xizmat qilish fidoiy olimdir.



**XIDIROV RAJAB GULMATOVICH**  
*O'zbek tili va adabiyoti kafedراسи dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Ona yurtdan bir oz narida, ammo yurak bilan Vatanga sadoqatli bo'lgan insonlar bor. Ular orzu qilgan, intilgan, xizmat qilgan har bir ishida xalqiga, millatiga, el-yurtiga muhabbat ila yashaydilar. Xidirov Rajab Gulmatovich ana shunday fidoyi ziyolilardan biridir. Uning hayoti, ijodi va ilmiy faoliyati – adabiyotga sadoqat, pedagogikaga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmat namunasi sifatida yoshlarga ibrat bo'la oladi.

Xidirov Rajab Gulmatovich 1962-yil 29-noyabrda Tojikiston Respublikasining qadimiy va go'zal maskanlaridan biri – Hisor tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Bolalik va o'smirlik davrlaridan boshlab ilm-fanga, adabiyot va san'atga bo'lgan cheksiz qiziqishi uning kelajakdagi hayot yo'lini belgilab berdi. O'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, ilm olish sari intilib, Hisor shahar pedagogika bilim yurtida tahsilini davom ettirdi.

1981–1983-yillar davomida Rajab Gulmatovich harbiy xizmat burchini sidqidildan ado etdi. Ushbu davr uning hayotiy tajribasini boyitib, matonat va intizom kabi insoniy fazilatlarni yanada mustahkamladi. Harbiy xizmatdan so'ng, 1983-yilda u o'zining ilm olish yo'lini davom ettirib, Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universitetining filologiya fakultetiga qabul qilindi. Talabalik yillaridayoq u nafaqat ilm-fanga bo'lgan chuqur qiziqishi, balki tashabbuskorligi va tashkilotchilik qobiliyati bilan ham o'z tengdoshlaridan ajralib turardi.

Yoshligidanoq adabiyotga mehr qo'ygan va badiiy so'z sehriga oshno bo'lgan Rajab Xidirov talabalik yillarida bu ishtiyoqini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtira oldi. Uning o'tkir fikri, teran kuzatuvchanligi va adabiy didi bilan yozilgan maqola, xabar, she'r va hikoyalari nafaqat universitet gazetasida, balki respublika va viloyat

miqyosidagi nufuzli nashrlarda – “Xalq ovozi”, “Sug‘d haqiqati”, “Mahorati pedagogy” hamda “Hisor Shodmon” kabi gazetalarda muntazam e‘lon qilinib, keng kitobxonlar ommasining e‘tiborini qozondi. Adabiyot maydonida o‘z qalamiga ishonch bilan kirib kelgan Rajab Gulmatovich o‘zining bilim va izlanuvchanligini nafaqat ijodiy faoliyatda, balki ilmiy izlanishlarda ham namoyon etdi. U bitiruv malakaviy ishini Sharq adabiyotining buyuk namoyandasi, ma‘naviyatimiz va ma‘rifatimiz durdonasi “Alisher Navoiy asarlarining tojik tiliga tarjimalari” mavzusida puxta va mukammal tarzda tayyorlab, ushbu ilmiy ishini “a‘lo” bahoga himoya qildi.

Rajab Gulmatovichning ilmiy va pedagogik faoliyatdagi ilk qadamlari aynan Hisor shahar pedagogika bilim yurtidan boshlandi. Talaba yillari davomida orttirgan bilimlari, adabiyotga bo‘lgan chuqur qiziqishi va o‘qituvchilik kasbiga mehr bilan yondashuvi uni pedagogik sohada mustahkam poydevor qo‘yishiga sabab bo‘ldi. Tojikiston Respublikasi Ta‘lim vazirligining yo‘llanmasiga asosan, u o‘zbek tili va adabiyoti fanlari bo‘yicha o‘qituvchi sifatida mazkur bilim yurtida mehnat faoliyatini boshladi. Yosh mutaxassis sifatida u nafaqat dars jarayonida o‘zining bilim va tajribasini talabalar bilan ulashdi, balki ularda ona tiliga, adabiyot va badiiy tafakkurga mehr-muhabbat uyg‘otishga harakat qildi.

1990-yilda esa Rajab Gulmatovich o‘zining adabiyotshunoslik va ilmiy-ijodiy izlanishlar borasidagi ilk yirik natijasini namoyon etdi. Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlab tayyorlangan “Navoiy gulshanidan sahifalar” nomli ilmiy-ommabop risolasi chop etildi. Mazkur kitob notiqlik san‘ati bilan shug‘ullanayotgan yoshlar, adabiyot ixlosmandlari va pedagoglar uchun nafaqat amaliy qo‘llanma, balki Navoiy ijodining teran ma‘nolari bilan tanishish, uning badiiy merosidan saboq olish yo‘lida bebaho manba sifatida xizmat qildi.

1992-yilda Rajab Gulmatovichning ilmiy-pedagogik faoliyatida yangi bosqich boshlandi. Uning bilimga tashnaligi, fidoyiligi va adabiyotga bo‘lgan yuksak ehtiromi Sadridin Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti rahbariyatining diqqat-e‘tiborini tortdi va u mazkur nufuzli dargohga umumiy psixologiya

kafedra o'qituvchisi lavozimiga taklif etildi. Yosh olim universitet jamoasiga qo'shilgach, qisqa fursat ichida o'zining tashabbuskorligi, ilmiy salohiyati va pedagogik mahorati bilan hamkasblari va rahbariyat e'tiborini qozondi.

Rajab Gulmatovichning ilmiy va tashkiliy sohadagi fidokorona sa'y-harakatlari natijasida universitet rektori, taniqli pedagog olim Ergash Yamoqovich Yamoqov bilan hamkorlikda Tojikiston Respublikasi Hukumatining maxsus Qaroriga muvofiq, tojik filologiyasi fakulteti tarkibida o'zbek tili va adabiyoti bo'limi tashkil etildi. Bu muhim qadam Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy-ma'naviy aloqalarni mustahkamlashda, yosh avlodni ona tili va adabiyot ruhida tarbiyalashda ulkan ahamiyat kasb etdi.

Bo'lim faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida Rajab Gulmatovich o'z tashabbusi bilan O'zbekistonning nufuzli oliy ta'lim muassasalari – sobiq Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika universiteti hamda Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universitetidan o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, ilmiy va badiiy adabiyotlar olib kelinishini tashkil etdi. Bu esa o'zbek tili va adabiyoti bo'limining mustahkam ilmiy-uslubiy poydevorini yaratdi.

1993-yilda Rajab Gulmatovich Xidirov Toshkent, Termiz va Xo'jand shaharlari bo'ylab xizmat safarlaridan qaytib, tashkil etilgan bo'limning ilk rahbari va birinchi o'qituvchisi sifatida o'z faoliyatini boshlab berdi. Uning bilimdonligi, mas'uliyati va tashabbuskorligi tufayli qisqa vaqt ichida bo'lim o'zining mustahkam ilmiy-uslubiy bazasiga ega bo'ldi va ko'plab iqtidorli talabalar uchun adabiyot olamiga yo'l ochdi.

1998–2000-yillar oralig'ida Rajab Gulmatovich universitet rektori buyrug'iga binoan, Turkiya Respublikasi elchixonasi tashabbusi bilan ochilgan turkologiya fakultetida ta'lim ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. U ushbu mas'uliyatli vazifani bajarish davomida zamonaviy o'quv-uslubiy yondashuvlarni joriy etish, ta'lim jarayonini takomillashtirish va yosh avlodning bilim saviyasini yuksaltirish yo'lida tinimsiz izlanishlar olib bordi.

Rajab Gulmatovich Xidirov nafaqat malakali pedagog, balki zukko tashkilotchi, izlanuvchan olim va halol, samimiy inson sifatida ham universitet jamoasi orasida chuqur hurmat va obro‘ qozondi. Uning o‘z kasbiga sadoqati, fidokorona mehnati va intellektual salohiyati ta’lim sohasida ko‘plab yutuqlarga zamin yaratdi.

Rajab Gulmatovich ta’lim-tarbiya sohasida samarali pedagogik faoliyat yuritish, ilmiy izlanishlar olib borish bilan birga, 2012-yildan boshlab Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy test markazida (TRPHMTM) o‘zbek tili va adabiyoti fanlari bo‘yicha faxriy bosh mutaxassis sifatida faoliyat oli bordi. Gulmatovichning bu sohadagi mashaqqatli mehnati natijasida 2014-yildan boshlab Milliy test markazi nashriyoti tavsiyasiga binoan o‘zbek tili va adabiyoti fanlaridan tuzilgan test savollari har yili test kitoblari shaklida chop etilib, markazning rasmiy veb-saytida ham e’lon qilinmoqda. Bu jarayon mamlakatdagi o‘zbek maktablari bitiruvchilari uchun adolatli va tizimli baholash imkoniyatlarini yaratish, til va adabiyot bilimlarini zamonaviy talablar asosida sinovdan o‘tkazish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, Rajab Gulmatovich 2014-yildan boshlab Tojikiston Respublikasi Maorif va ilm vazirligi huzuridagi Milliy ta’lim sho‘rosi a’zosi sifatida ham faoliyat olib bordi. U ushbu nufuzli tuzilma doirasida o‘zbek tili va adabiyoti fanlari bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish, darsliklarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish va ularning nashrga tayyorlanish jarayonida jamoatchi koordinator sifatida fidokorona mehnat qilmoqda. Rajab Gulmatovichning bu boradagi sa’y-harakatlari Tojikistondagi o‘zbek tilida ta’lim oluvchi minglab yoshlar uchun sifatli, ilmiy asoslangan va zamonaviy talablarga mos darsliklar yaratilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamon va jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar natijasida til taraqqiyotida yuzaga kelgan yangi jarayonlar, ayniqsa, o‘zbek va tojik tillarining lug‘aviy boyligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Makrosotsial omillar natijasida yuzaga kelayotgan nutqiy o‘zgarishlar va ularning til qonun-qoidalari, adabiy til me’yorlariga ta’siri tilshunoslar uchun dolzarb ilmiy izlanish mavzusiga aylandi. Mustaqillik yillarida sobiq sovet respublikalari tillarida kuzatilgan bu til hodisasi Rajab

Gulmatovichning ham ilmiy qiziqish doirasidan joy oldi. U bu mavzuga bag‘ishlab, respublika matbuotida qator dolzarb va sermazmun maqolalar chop ettirdi. Xususan, uning “Tilga e’tibor – elga e’tibor”, “Tilga ziynat – elning ishi”, “Til – aql bezagi” hamda “Farhod va Shirin – tojik tilida” kabi maqolalari keng jamoatchilik orasida katta qiziqish va iliq munosabat uyg‘otdi.

Rajab Gulmatovichning ilmiy izlanishlari xalqaro maydonda ham e’tirof etildi. 1993-yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada u Tojikiston Respublikasidan yagona tadqiqotchi sifatida qatnashib, “O‘rtaturk tilini yaratish muammolari” mavzusida ma’ruza bilan ishtirok etdi. U o‘z ma’ruzasida “O‘rtaturk tilining leksikasi masalasi” bo‘yicha ilmiy mulohazalarini ilgari surdi va mazkur mavzudagi tezisi konferensiya materiallari to‘plamida chop etildi.

Rajab Gulmatovich o‘zbek tilshunosligi ilmiy maktabining asoschilaridan biri, Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonda o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan taniqli olim, filologiya fanlari doktori, professor Abduvali Berdialievning shogirdi sifatida ham tanilgan. Ustozi Berdialiev rahbarligida Rajab Gulmatovich o‘z ilmiy izlanishlarini chuqurlashtirib, “XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek va tojik tillaridagi lug‘aviy o‘zgarishlar” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini tayyorladi va 2008-yilda muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Uning ilmiy va pedagogik faoliyati 2013-yilda yuksak baholanib, dotsent ilmiy unvoni bilan e’tirof etildi.

Rajab Gulmatovichning ilmiy izlanishlari tilshunoslik sohasining keng qamrovli va dolzarb yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lib, u umumiy tilshunoslik nazariyasining etnolingvistika, sociolingvistika, kontrastiv lingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika kabi tarmoqlari bo‘yicha muntazam va samarali ilmiy izlanishlar olib borgan. U O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Rossiya kabi mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida maqolalari bilan ishtirok etib kelmoqda, shuningdek, turli xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda dolzarb mavzularda ma’ruzalar bilan qatnashib, tezis va maqolalari ilmiy to‘plamlarda muntazam chop etilgan va ko‘plab faxriy

sertifikatlarga sazovor bo'lgan.

Olimning ilmiy faoliyati davomida e'lon qilingan asarlari, asosan, til va jamiyat, adabiy nutq taraqqiyoti, ijtimoiy omillarning til tizimiga ta'siri, ikki tillilik jarayonlari va qardosh tillar aloqalarini qamrab olgan. U tomonidan chop etilgan "Adabiy nutq o'zgarishlarining ijtimoiy asoslari" (1995), "Ijtimoiy hayot, mafkura hamda ularning til va nutqqa ta'siri" (1995), "Adabiy nutq o'zgarishlari, o'zlashma so'zlarning ijtimoiy xarakteri va adabiy me'yor" (1995), "Nutqiy o'zgarishlar va ularning adabiy til me'yoriga munosabati" (1996), "Yangi lug'aviy birliklar va ularning til paradigmatic tizimiga munosabati" (1996), "Qardoshlik va hamjihatlik omillarining adabiy nutqqa ta'siri" (1998), "Madaniy-ma'rifiy omillarning adabiy nutqqa ta'siri" (1999), "Iqtisodiy mikrosotsial omillarning adabiy nutqqa ta'siri" (2003), "Siyosiy mikrosotsial omillarning adabiy nutqqa ta'siri" (2006) kabi maqolalari bugungi tilshunoslik ilmining nazariy va amaliy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan.

Shuningdek, uning "XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'zbek adabiy tilining ayrim ijtimoiy fanlar sohasidagi lug'aviy ekvivalentlari xususida" (2008), "O'zbek va tojik tillarida frazeologik ma'noning shakllanish xususiyatlari" (2011), "Afg'oniston o'zbeklari tilida arabcha so'zlarning o'zlashish omillari" (2011), "O'zbek va tojik tillari aloqasining lug'aviy xususiyatlari" (2012), "O'zbek va tojik tillarida ayrim frazema va paremalarning shakllanishi haqida" (2018), "Sadridin Ayniyning 'Eski maktab' asaridagi o'zbekcha va tojikcha frazeologizmlarning xususiyatlari" (2018), "Alisher Navoiy asarlarida ayrim tibbiy atamalar xususida" (2019), "O'zbek va tojik tillarining fonetik-fonologik sathiga xos aloqalari" (2019), "Alisher Navoiyning 'Xamsa' asarida qo'llanilgan tibbiy atamalarning leksik-grammatik xususiyatlari" (2020), "Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan ayrim tibbiy atamalarning paradigmatic munosabati va lug'aviy mavqei" (2021), "Ijtimoiy taraqqiyot va ikki tillilik" (2022), "O'zbek va tojik ikki tilligi va uning tarixiy asoslari" (2022), "Navoiy asarlaridagi ayrim tibbiy atamalarning leksik-semantik xususiyatlari" (2022) kabi ko'plab ilmiy maqolalari ham bugungi tilshunoslik fani rivojida alohida e'tirofqa

loyiqdir.

Rajab Gulmatovich ilmiy izlanishlari bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya va ilmiy-metodik faoliyat sohasida ham fidokorona mehnat qilgan. Professor Abduvali Berdialiev bilan hammualliflikda "O'zbek va tojik lisoniy aloqalari" (2011), "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. Frazzeologiya. Leksikografiya" (2013) nomli oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan darslik, shuningdek, umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun "O'zbek tili" (2019) darsligini yaratdi.

Shu bilan birga, o'rta maktab o'qituvchilari uchun "Maktabda Avliyoxon Eshon hayoti va ijodini o'rganish" (2022) nomli qo'llanma, oliy ta'lim talabalariga mo'ljallangan "Tilshunoslikka kirish" (2022), "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. Frazzeologiya. Leksikografiya" (2022), "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya" (2022), "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" (2019), "Umumiy tilshunoslik" (2019), "Shevashunoslik" (2019) hamda "Uslubshunoslik" (2020) kabi kompleks o'quv-uslubiy qo'llanmalar uning samarali pedagogik faoliyatining mahsulidir.

Olim Rajab Gulmatovichning ilmiy izlanishlari o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Uning qalamiga mansub maqolalar orasida yirik mutafakkir Alisher Navoiy ijodining Tojikistonda o'rganilishiga bag'ishlangan "Tojikistonda navoiyshunoslik" (2022) nomli maqolasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, adabiyotshunoslik sohasida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan taniqli adabiyotshunos Olim Davlatovning ko'p jildli "Ma'nolar xazinasi" asari tahliliga bag'ishlangan "Bahr yoshurmush Navoiy har duri maknun aro..." (2022) nomli maqolasi, mashhur tojik dramaturgi Ato Hamdamning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari haqidagi "Hayotbaxsh jasorat, Ipak yo'li va tutash qalblar" (2021) nomli tadqiqoti olim ijodining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Bundan tashqari, Rajab Gulmatovich o'zining ilmiy izlanishlari davomida taniqli tilshunos va adabiyotshunos olimlarning ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar bilan ham tilshunoslik ilmiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilshunosligining

yirik namoyandasi Abduvali Berdialiev, tojik leksikologiyasining yetuk vakili Sharofiddin Rustamov (2021), mashhur tojik shevashunos olimlari G‘affor Jo‘raev (2021) va Shamsullo Ismoilov (2022), shuningdek, o‘quv-metodika sohasining yirik mutaxassisi Saidboy Sherboev (2023) ilmiy merosining tahliliga bag‘ishlangan maqolalari alohida e‘tiborga loyiq.

Olimning ilmiy va metodik merosi juda boy va serqirra. Uning muallifligida 2 ta ilmiy risola, 3 ta darslik, 10 ta davlat tili darsliklarining tarjimalari, 8 ta o‘quv qo‘llanma hamda 6 ta o‘quv dasturi chop etilgan. Bundan tashqari, 200 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik maqolalari respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli jurnallarda chop etilib, ko‘plab sertifikatlar bilan e‘tirof etilgan.

Rajab Xidirovning fidokorona mehnati, ilm-fanga qo‘shgan hissasi nufuzli mukofotlar bilan e‘tirof etilgan. Xususan, Tojikiston Respublikasi Maorif va ilm vazirligi tomonidan “Tojikiston maorif va ilm a‘lochisi” (A‘lochii maorif va ilmi Tojikiston) ko‘krak nishoni (2016) bilan taqdirlangan. Shuningdek, Sadriddin Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti, Tojikiston Respublikasi Maorif va ilm vazirligi (2001, 2019), Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy test markazi (2021), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (2023, 2025) tomonidan faxriy yorliqlar va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

Xidirov Rajab Gulmatovich hayoti – bu ilm va ijod yo‘lida fidokorona xizmat, o‘z kasbiga sadoqat, xalq ma‘naviyatiga mehr va yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan sharaflı umr yo‘lidir. Uning mehnatlari nafaqat adabiyot va ta‘lim sohasida, balki madaniy-ma‘naviy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi. Bugun uning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun nafaqat ibrat, balki kuchli rag‘bat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.



**SAFAROVA FARZONA  
RADJABALIYEVNA**

*Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrası dotsenti, t.f.f.d.  
(PhD)*

Zamonamizda ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi, yosh avlodni bilimli, ekologik ong va mas‘uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ulug‘ maqsad yo‘lida o‘z hayotini ta‘lim, ilmiy izlanishlar va jamiyat farovonligiga bag‘ishlagan shaxslarning o‘rni beqiyosdir. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrası dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Safarova Farzona Radjabaliyevna ana shunday fidoyi olim va ustozlardan biridir. Uning ilmiy va pedagogik faoliyati, ma‘naviy-ma‘rifiy tashabbuslari va shogirdlar tarbiyasidagi samarali yondashuvi jamiyatda chuqur hurmat va e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Safarova Farzona Radjabaliyevna 1988-yil 28-iyunda Tojikiston Respublikasining poytaxti – Dushanbe shahrida tavallud topdi. Yoshligidanoq tabiat va ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishi uni biologiya va kimyo sohalariga yo‘naltirdi. Bu ishtiyoq uning 2014-yilda Osimi nomidagi Tojikiston texnika universiteti tamon yetakladi va 2018-yilda ushbu oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi. Farzona Radjabaliyevna kimyo va biologiya fani o‘qituvchisi hamda texnolog sifatida malakali mutaxassis darajasiga erishdi. Ta‘lim jarayonida o‘ziga xos intiluvchanligi va ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan e‘tibori bilan ajralib turgan Farzona Radjabaliyevna o‘z yo‘lini yanada rivojlantirishga qaror qildi.

2020-yilda Farzona Radjabaliyevna texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilib, o‘z sohasida chuqur bilim va tajribaga ega ekanligini isbotladi. Ushbu muvaffaqiyat uning ilmiy olamda mustahkam o‘rin egallashiga va ta‘lim sohasida yangi ufqlarni kashf etishiga yo‘l ochdi.

Farzona Radjabaliyevna o‘z kasbiy faoliyatini Tojikiston Respublikasining Dang‘ara davlat universitetida professor-o‘qituvchi sifatida boshlagan. Shu bilan birga, u ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i sifatida muhim mas‘uliyatni zimmasiga olib, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy standartlarni joriy etish yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirdi. Uning rahbarlikdagi tashkilotchilik qobiliyatlari va o‘qituvchilikdagi ijodiy yondashuvi talaba va hamkasblar orasida katta hurmat qozondi.

Hozirgi kunda Farzona Radjabaliyevna Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida dotsent sifatida faoliyat yuritmoqda. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori sifatida u talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki biologiya va texnologiya sohasidagi amaliy ko‘nikmalarni ham singdirmoqda. Uning darslari ilmiy tahlil, amaliy qo‘llanma va ekologik ongni rivojlantirishning muvozanatli uyg‘unligi bilan ajralib turadi.

Farzona Radjabaliyevnaning ilmiy faoliyati o‘zining keng ko‘lami va sifati bilan e‘tiborga loyiq. U hozirgacha 30 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ish muallifi bo‘lib, ular orasida bitta o‘quv qo‘llanma, bitta monografiya, 10 dan ortiq uslubiy ko‘rsatma va 20 dan ziyod ilmiy maqola mavjud. Ushbu nashrlar biologiya, kimyo va qishloq xo‘jaligi texnologiyalari sohasida talabalar va mutaxassislar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning maqolalari xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli jurnallarda chop etilib, soha rivojiga muhim hissa qo‘shmoqda.

Farzona Radjabaliyevna 10 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida ma‘ruzalari bilan ishtirok etib, o‘z tadqiqotlari natijalarini keng auditoriya bilan baham ko‘rgan. Shu bilan birga, u konferensiyalarni tashkil etishda faol ishtirok etib, ilmiy jamoatchilikni birlashtirish va yangi g‘oyalarni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi.

Safarova Farzona Radjabaliyevna nafaqat ilmiy va pedagogik faoliyati, balki ma‘naviy-ma‘rifiy tashabbuslari bilan ham alohida e‘tiborga loyiq. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bir qancha muhim tadbirlarni tashkil etib, yoshlarda ekologik ong va

mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qildi. "Yer kuni", "Qushlar kuni", "Atrof-muhitni muhofaza qilish" va "Global ekologik muammolar" kabi mavzulardagi ma'ruzalari talabalar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu tadbirlar nafaqat bilim berish, balki atrof-muhitni asrashga oid mas'uliyatni yosh avlod ongiga singdirish maqsadini ko'zlaydi.

Farzona Radjabaliyevna ustoz-shogird an'analarini na'munali tarzda davom ettirib, o'z shogirdlarini ilmiy va amaliy faoliyatga faol jalb qilmoqda. Uning rahbarligida bir nechta shogirdlari xalqaro va respublika olimpiadalarida ishtirok etib, muhim yutuqlarga erishdi. Uning shogirdlarga yondashuvi nafaqat bilim berish, balki ularda mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv uning shogirdlari orasida yuqori hurmat va ishonch qozonishiga sabab bo'ldi.

Safarova Farzona Radjabaliyevna ikki farzandning mehribon onasi va oilada oqila turmush o'rtog'idir. U oilaviy hayot bilan ilmiy va pedagogik faoliyatni muvozanatli olib borishning yorqin namunasi. Uning insoniy fazilatlari, o'z ishiga sadoqati va jamiyat farovonligiga qo'shgan hissasi uni nafaqat hamkasblari, balki atrofdagilar orasida hurmatli shaxsga aylantirgan.

Safarova Farzona Radjabaliyevna o'zining boy ilmiy-amaliy tajribasi, chuqur bilimi va ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslari bilan ta'lim va ilmiy olamda muhim iz qoldirmoqda. Uning biologiya va qishloq xo'jaligi texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlari, ekologik ongni rivojlantirishga qaratilgan faoliyati va shogirdlar tarbiyasidagi muvaffaqiyatlari kelajak avlod uchun ibratdir.



**BURKOVA LYUBOV LEONIDOVNA**  
*Adigey davlat universiteti (Rossiya)*  
*Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,*  
*pedagogika fanlari nomzodi*

O‘qituvchi bo‘lish – bu bir missiya. Kelajakdagi o‘qituvchilarni xalqaro darajadagi pedagog sifatida tayyorlash esa ushbu missiyaga qo‘shimcha vazifalar va imkoniyatlar qo‘shadi. Pedagogik faoliyat, boshqa har qanday faoliyat singari, nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham baholanadi. Aytilishicha, o‘qituvchining eng katta xatosi – zerikarli bo‘lishdir. Aslida, pedagoglar ham orzu qiluvchi va rassomlardir: ular faqat yuragi tortgan, qalbi ochiq bo‘lgan, hissiyot bilan yo‘g‘rilgan yo‘nalishda yaxshi va uzoq ishlay oladilar. Boshqa mamlakatda talabalarga ta‘lim berish va ularni tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini ochishga, jasur loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashish – katta mas‘uliyat va sharafdir. Lyubov Leonidovna Burkova xorijda dars berish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lib, Adigey davlat universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda.

L.L.Burkova, 1957-yilda tug‘ilgan. 1981-yilda Adigey davlat pedagogika institutining fizika-matematika fakultetini "fizika va matematika o‘qituvchisi" mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. Pedagogika fanlari nomzodi, 1994-yil mart oyida Moskva davlat ochiq pedagogika institutida 13.00.02 – Matematika o‘qitish metodikasi ixtisosligi bo‘yicha «Olti yoshli bolalarni maktabda o‘qitishda kompyuterlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dotsent unvoniga ega bo‘lib, 1998-yilda Rossiya Federatsiyasining Umumiy va kasb-hunar ta‘limi vazirligi qarori bilan dotsent ilmiy unvoni berilgan. Olimning butun mehnat va ilmiy-pedagogik faoliyati Adigey davlat universiteti bilan bog‘liq. L.L.Burkova 1984-yil oktyabr oyidan boshlab Adigey davlat pedagogika institutining pedagogika fakulteti tarkibidagi pedagogika va

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida ishlaydi. 1997-yildan pedagogika fakultetining tabiiy-matematik fanlar va ularni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritgan. 2022-yil noyabr oyidan boshlab Rossiya Federatsiyasi davlat oliy ta'lim muassasasi "Adigey davlat universiteti" (FGBU VO "AGU") ning pedagogni fan va kasbiy tayyorlash kafedrasida dotsenti hisoblanadi. 2022-yildan boshlab Lyubov Leonidovna akademik mobillik dasturi doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida pedagogik faoliyat olib bormoqda. Ushbu dastur 2021-yilda ikki oliy ta'lim muassasasi tomonidan imzolangan memorandum asosida tashkil etilgan. 2022/2023 o'quv yilida – matematika va fizika kafedrasida dotsenti, 2023/2024 o'quv yilida – boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti, 2024–2025 o'quv yilida – pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti sifatida faoliyat yuritmoqda. Ishlab chiqilgan o'quv kurslari dasturlari (sillabus) **yevroguruh** talabalari uchun ta'lim, madaniyat va til muhitiga chuqur sho'ng'ish imkoniyatini yaratadi.

Lyubov Leonidovna ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni yuqori ilmiy-nazariy va metodik darajada, zamonaviy interaktiv va raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda olib boradi.

U o'quv materiallarini hayot, maktab amaliyoti hamda oliy va o'rta ta'lim tizimidagi islohotlar bilan uzviy bog'laydi, shuningdek, yevroguruh talabalari uchun o'qitish usullari va metodlarini xilma-xil tarzda tashkil etadi.



**DAVLATBEKOV AKIMBEK  
AVALBEKOVICH**

*Oliy matematika kafedrası dotsenti, fizika  
matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi, zamonaviy bilimli kadrlar tayyorlash va yosh avlodni ilmiy fikrlashga, ijodiy izlanishlarga yo'naltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'lda o'z hayotini ta'lim-tarbiya jarayoniga, ilmiy kashfiyotlarga bag'ishlagan, boy tajribasi, chuqur bilimi va vatanparvarlik ruhi bilan jamiyat hurmatiga sazovor bo'lgan ustozlarning o'rni beqiyosdir. Ana shunday fidoyi shaxslardan biri – algebra va sonlar nazariyasi sohasining yetuk olimi, tajribali pedagog va ilmiy yo'l boshchi Akimbek Avalbekovich Davlatbekovdir.

Akimbek Avalbekovich 1987-yil 20-mayda Tojikiston Respublikasining go'zal va serquyosh hududlaridan biri – Ishkoshim rayoni, Vrang mahallasida tavallud topdi. Bolaligidan matematikaga bo'lgan o'zgacha qiziqishi va o'tkir zehni uni tengdoshlaridan ajratib turardi. Bu ichki ishtiyoq uning ta'lim yo'lida dadil qadamlar tashlashiga zamin yaratdi. 2005-yilda u Sadridin Ayni nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi. Matematika va fizika ixtisosligini tanlagan yosh Akimbek bu yerda nafaqat fan asoslarini chuqur o'zlashtirdi, balki ilmiy izlanishlarga bo'lgan ehtirosini yanada mustahkamladi. 2010-yilda ushbu nufuzli oliy ta'lim muassasasini muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma'lumotli mutaxassis sifatida o'z kasbiy faoliyatini boshladi.

Akimbek Avalbekovichning mehnat faoliyati 2007-yilda, talabalik davridayoq Dushanbe shahridagi 92-sonli o'rta maktabda matematika va fizika fanlaridan o'qituvchilik bilan boshlandi. Yosh pedagog sifatida u nafaqat o'quvchilarga fan asoslarini puxta o'rgatdi, balki ularda bilimga ishtiyoq, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirdi. Uning darslari bilim beruvchi va ilhomlantiruvchi muhitga ega bo'lib, o'quvchilar tomonidan iliq qabul qilindi.

2010-yilda universitetni tamomlagach, Akimbek Avalbekovich faoliyatini oliy ta'lim tizimida davom ettirdi. U Sadridin Ayni nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universitetining "Algebra va sonlar nazariyasi" kafedrasida assistent lavozimida ish boshladi. U yerda talabalarga dars berish bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlariga ham jiddiy e'tibor qaratib, algebra sohasi bo'yicha dolzarb ilmiy masalalarni o'rganishda faol ishtirok etdi.

2013-yilda Akimbek Avalbekovich A.Rudakiy nomidagi Kulob davlat universiteti aspiranturasiga qabul qilinib, bir vaqtning o'zida assistent lavozimida faoliyat boshladi. Uning ilm-fanga sadoqati, tashabbuskorligi va tashkilotchilik qobiliyati 2018-yilda uni ushbu universitetning "Oliy matematika" kafedrasini mudiri lavozimiga olib keldi. U ushbu lavozimda kafedra faoliyatini tizimli asosda yo'lga qo'yib, ta'lim sifati va ilmiy izlanishlarni faollashtirish borasida qator tashabbuslarni ilgari surdi.

2020-yilda Akimbek Avalbekovich Sadridin Ayni nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universitetining "Algebra va sonlar nazariyasi" kafedrasini mudiri sifatida mas'uliyatli lavozimni o'z zimmasiga oldi. U bu yerda professor-o'qituvchilarning salohiyatini yuzaga chiqarish, talabalarni zamonaviy ilmiy yondashuvlarga oshno qilish va ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni tatbiq etish bo'yicha muhim islohotlarni amalga oshirdi.

2023-yildan buyon Akimbek Avalbekovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Oliy matematika" kafedrasini dotsenti sifatida mehnat qilmoqda. Ushbu o'zgarish uning xalqaro miqyosdagi ilmiy hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirib, O'zbekiston ta'lim tizimiga munosib hissa qo'shishiga zamin yaratdi. U o'zining boy pedagogik tajribasi, chuqur ilmiy bilimi va yuqori malakasi bilan talabalar va hamkasblari orasida e'tibor va hurmat qozongan.

Akimbek Avalbekovichning ilmiy faoliyatidagi eng muhim yutuqlardan biri – 2019-yilda Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi A.Djuraev nomidagi Matematika institutida "Автоморфизмы, эндоморфизмы и конгруэнции обобщенных линейных квазигрупп" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini

muvaffaqiyatli himoya qilgani bo'ldi. Mazkur tadqiqot 01.01.06 – Matematik mantiq, algebra va sonlar nazariyasi ixtisosligi bo'yicha olib borilib, unga fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish imkonini berdi. Dissertatsiya umumlashtirilgan chiziqli kvaziguruhlarning avtomorfizmlari, endomorfizmlari va kongruensiyalarini chuqur tahlil qilib, algebra sohasiga yangi nazariy yondashuvlarni olib kirdi.

Akimbek Avalbekovichning ilmiy merosi 50 dan ortiq ilmiy maqola va ishlar bilan boyitilgan bo'lib, ular xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida hamda nufuzli ilmiy anjumanlar materiallari sifatida chop etilgan. Uning nashrlar ro'yxatida hammualliflikda yozilgan "Algebra va sonlar nazariyasi" va "Asoshoi algebrai xatti" darsliklari, ikkita o'quv qo'llanma, bir monografiya va beshta uslubiy qo'llanma mavjud. Ushbu nashrlar algebra va sonlar nazariyasini o'qitishda zamonaviy ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagog sifatida ham Akimbek Avalbekovich munosib e'tirofga loyiq. Uning rahbarligida 10 nafar magistr va ikki nafar bakalavr talaba o'z ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, matematika sohasida o'z yo'llarini topdilar. Ustoz nafaqat nazariy bilim berish, balki shogirdlarida mustaqil fikrlash, ilmiy muammolarga ijodiy yondashish va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning darslari ilmiy tahlil va amaliy yechimlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Akimbek Avalbekovich Davlatbekovning ilmiy va pedagogik faoliyati – bu bilim, izlanish va fidoyilikning yorqin timsolidir. Uning algebra va sonlar nazariyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlari, nashrlari va yosh olimlarni tarbiyalashdagi xizmatlari Tojikiston va O'zbekiston ta'lim tizimlarida munosib iz qoldirdi. U nafaqat ilmiy muammolar yechimiga hissa qo'shayotgan olim, balki yosh avlodni ilm-fanga yo'naltirayotgan ustoz sifatida ham qadrlanadi.



## **TURSUNBADALOV UMID ABDUMALIKOVICH**

*Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti,  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Zamonaviy texnologiyalar asrida har bir yurt taraqqiyotining asosi bilimli, tajribali va innovatsion tafakkurga ega mutaxassislar faoliyatiga chambarchas bog‘liqdir. Ana shunday iqtidorli, ilmga oshno, o‘z kasbiga yuksak fidoyilik bilan yondashayotgan zamonaviy pedagoglardan biri – texnika fanlari nomzodi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti Tursunbadalov Umid Abdumalikovichdir.

Tursunbadalov Umid Abdumalikovich 1986-yil 24-sentabr kuni Tojikiston Respublikasining Shahrinav tumanida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Bolalik chog‘laridanoq texnikaviy fanlarga bo‘lgan qiziqishi va yangilikka intilishi bilan ajralib turgan Umid Abdumalikovich ilk maktab yillaridanoq o‘zining intellektual salohiyati, izlanishga chanqoqligi va bilimga bo‘lgan mehrini namoyon eta boshlagan. Umid Abdumalikovich 1993–2004-yillar davomida Shahrinav tumanidagi 6-sonli umumta’lim maktabida tahsil olib, har doim namunali o‘quvchi sifatida ustozlarining e’tiboriga tushgan, tengdoshlarining hurmatini qozongan.

2004-yilda Umid Abdumalikovich Tojikiston texnika universitetiga “Avtomatlashtirilgan tizimlarda ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni boshqarish” yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinib, talabalar safiga qo‘shildi. Talabalik davridayoq zamonaviy axborot texnologiyalari, algoritmlar, dasturlash tizimlari va boshqaruv uslublariga chuqur qiziqish bildirgan Umid Abdumalikovich o‘zining tizimli fikrlashi, tahliliy yondashuvi va amaliy ko‘nikmalari bilan ajralib turdi. 2009-yilda mazkur yo‘nalishni muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma’lumotli mutaxassis sifatida zamonaviy texnologiyalar olamiga dadil qadam qo‘ydi.

Umid Abdumalikovich ilmiy izlanish va amaliy faoliyat yo‘lini 2009-yilda ushbu universitetning “Avtomatlashtirilgan tizimlarda

ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni boshqarish" kafedrasida assistent sifatida boshladi. Mehnatsevarligi va pedagogik salohiyati tufayli Umid Abdumalikovich katta o'qituvchi, shuningdek, fakultetda dekan o'rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritdi. Bu yillar davomida Umid Abdumalikovich talabalarga nafaqat zamonaviy bilim berish, balki ularda kasbiy mas'uliyat, yangilikka intilish, ixtirochilik ruhini shakllantirishga katta e'tibor qaratdi.

Ilm-fan yo'lida sobitqadamlik va sadoqat bilan harakat qilgan Tursunbadalov Umid Abdumalikovich 2011–2015-yillar davomida Tojikiston texnika universiteti "Avtomatlashtirilgan tizimda ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni boshqarish" kafedrasida aspiranturada tahsil olib, ilmiy izlanishlarini tizimli ravishda davom ettirdi. Umid Abdumalikovich o'z izlanishlarida zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri – tizimli tahlil, boshqaruv va ma'lumotlarni qayta ishlash sohasini chuqur o'rgandi. Natijada, 2019-yilda Tojikiston texnika universiteti qoshidagi ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashda 05.13.01 – "Tizimli tahlil, boshqaruv va ma'lumotlarni qayta ishlash" ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Bu yutuq uning mashaqqatli mehnati, ilmiy sadoqati va fidokorona izlanishlarining yorqin natijasi bo'ldi.

Umid Abdumalikovichning 16 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati zamonaviy axborot texnologiyalarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash hamda innovatsion yondashuvlar asosida yangi avlod mutaxassislarini yetishtirish yo'lida samarali ishlar bilan to'la. U 2022–2024-yillar davomida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida faoliyat yuritdi. O'zining yuksak mas'uliyati, ilmiy salohiyati va kasbiga bo'lgan ehtiromi evaziga, 2024-yilning sentabr oyidan boshlab ushbu kafedrada dotsent lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Tursunbadalov Umid Abdumalikovich tomonidan axborot texnologiyalari sohasiga oid dolzarb masalalarni yorituvchi ko'plab nufuzli ilmiy ishlanmalar yaratildi. U hammualliflikda 1 ta darslik, 6 ta

o'quv qo'llanma va 1 ta monografiyani nashr ettirgan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi bo'lib, ularning aksariyati xorijiy va respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy jurnallar hamda konferensiyalarda chop etilgan. Uning ilmiy ishlanmalari zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni va istiqbolini ochib beruvchi muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, u 1 ta dasturiy mahsulot uchun rasmiy sertifikatga ega bo'lgan, ilmiy rahbar sifatida esa 1 nafar magistr va 50 dan ortiq bakalavr bitiruvchilariga yetakchilik qilgan. Hozirda u o'z ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirib, ilm-fan sohasida yangi yutuqlarga erishish yo'lida tinimsiz mehnat qilmoqda.

## DAVLAT MUKOFOTLARI VA KO‘KRAK NISHONLARI BILAN TAQDIRLANGAN USTOZLAR



### MAMATMURATOV RAVSHAN BOBORAIMOVICH

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta  
o‘qituvchisi*

Bugungi zamon ilm-fani chuqur tahlil, qat’iyatli izlanish va cheksiz fidoyilikni talab qiladigan murakkab, ammo nihoyatda sharaflı yo‘ldir. Bu yo‘lda yurak bag‘ridan joy olgan har bir yutuq – insoniyat tafakkurining yangi pog‘onasi, har bir yangilik – jamiyat taraqqiyotining belgisidir. Ilm-fanning ana shunday cheksiz ummonida sobitqadam yurib, filologiya sohasi hamda baxshichilik san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shayotgan zamonaviy olimlardan biri – Mamatmuratov Ravshan Mamatmuratovdir.

Mamatmuratov Ravshan Boboraimovich 1969-yil 7-oktyabrda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Ruhiy dunyosi nozik, o‘ziga xos ichki sezgirlikka ega bo‘lgan bu yigit bolaligidanoq inson tabiatiga, ruhiyat olamiga, shaxsiyat sir-asrorlariga, jamiyatdagi psixologik muvozanat masalalariga qiziqish bildirgan. Undagi bu tabiiy qiziqish vaqt o‘tishi bilan ilmga chanqoqlik, tahlilga ishtiyoq, o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qat’iyatga aylanib bordi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, u 1986–1992-yillarda Termiz davlat pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida tahsil olib, Oliy darajasini qo‘lga kiritdi. U 1992–2009-yillarda Denov tumanidagi 19-son umumta’lim maktabida, so‘ngra 2009–2019-yillar mobaynida 3-son Denov Akademik litseyida O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining mudiri lavozimida ishladi. 2019–2020-yillarda Termiz davlat universitetining Denov filialida Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limining boshlig‘vazifasini bajardi. 2020-yildan boshlab Denov tadbirkorlik va

pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Shu kunga qadar, R.Mamatmuratov o‘z ilmiy faoliyati davomida 10 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar muallifi sifatida tanilgan. Uning maqolalari, aksariyat hollarda, xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan bo‘lib, ilm-fan sohasidagi dolzarb masalalarni o‘rtaga qo‘yadi va o‘zining chuqur tahliliy yondashuvi bilan o‘ziga e‘tibor qaratgan. Uning rahbarligida 10 nafarga yaqin bakalavr magistrant bitiruv loyiha ishi va ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, o‘zlarining ilmiy karyeralarida yuksak marralarga erishishdi.

R.Mamatmuratov shu bilan birgalikda Baxshichilik san’atida ham yuksak marralarga erishdi. Baxshichilik san’atini ustozlari O‘zbekiston xalq baxshisi Boboraim baxshi Mamatmurodovdan o‘rgangan. Ustozidan 40 dan ortiq dostonlarni, 30 dan ortiq do‘mbira kuylarini va 30 dan ortiq termalarni o‘zlashtirgan. 1984 yilda “Baxshi shoir” ko‘rik tanlovining viloyati bosqichida 1-o‘rinni, 1999-yil Alpomish dostonining 1000 yilligiga O‘rta Osiy baxshi-shoir, oqin va jirovlar ko‘rik tanlovida 3-o‘rinni, 2001-yil “Respublika yosh baxshilari va musavvirlari” ko‘rik-tanlovida 2-o‘rinni, 2001–2004-yillarda “Boysun bahori” festivallarida “Faol ishtiroki uchun” diplomlarini, 2011-yilda “Respublika baxshi shoirlar, oqin va jirovlar” ko‘rik-tanlovida “Faol ishtiroki uchun” diplomini, 2017–2018-yillarda “Boysun bahori” festivalida “Faol ishtiroki uchun” diplomlarini, 2018 yilda Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani “Vaxshivor” qishlog‘ida o‘tkazilgan “Baxshi shoir, oqin va jirovlar” festivalida “Faol ishtiroki uchun” diplomini, 2019- yil I Xalqaro “Baxshichilik san’ati” festivali munosabati bilan Surxondaryo viloyat bosqichida 1-o‘rinni, Respublika bosqichida 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. 2020-yil noyabr oyida Xalqaro “Baxshichilik san’ati” festivali munosabati bilan tuman va viloyat bosqichlarida 1 o‘rinlarning sohibi bo‘ldi. 2021-yil 24 avgustda “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi, 2021-yil Nukus shahrida o‘tkazilgan II Xalqaro “Baxshichilik san’ati” festivalining Respublika doirasida III o‘rinni, Xalqaro doirasida “Qadryatlar davomchisi” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi. 2022-yil 15-aprelda “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan

taqdirlandi. 2022-yil Termiz shahrida o‘tkazilgan Respublika baxshichilik san’ati ko‘rik tanlovida ishtirak etib faxrli 1-o‘rinni egalladi va Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan III Xalqaro “Baxshichilik san’ati” festivalining “Xalqaro baxshi shoirlar, oqin va jirovlar” ko‘rik-tanlovida qatnashib “Faol ishtiroki uchun” diplomi bilan taqdirlandi. Hozirgi kunda Denov dostonchilik maktabini ham yuritib kelmoqda. 40 dan oshiq talaba yoshlarni baxshichilik sah’atiga o‘rgatib kelmoqda. Filologiya fakultetidan 2 nafar shogirdi Oliy ta’lim yoshlari festivallarida 1-2 o‘rinlarni egallashib, milliy qadriyatlarimizni yurtga namoyish qilmoqda.



## ASHUROVA MAFTUNA ORTIQ QIZI

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi*

Ashurova Maftuna Ortiq qizi 2000-yil 25-avgustda Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Hozirda jamoatchilik yo'nalishida faol izlanishlar olib bormoqda. U Respublika yosh olimlar kengashi Surxondaryo viloyati vakili, O'zLiDep a'zosi, shuningdek, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi jamoasi va ko'p ming sonli elektorati nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi sifatida faoliyat yuritmoqda. U 76-Sherobod saylov okrugidan saylangan.

2021-yilda Respublika yosh olimlar kengashiga a'zolik guvohnomasi bilan a'zolikka qabul qilingan. O'sha yili Maftuna Ashurova qator nufuzli xalqaro va respublika miqyosidagi tadbirlar, forumlar va tanlovlarda ishtirok etib, yutuqlarga erishgan. Jumladan, "O'zbekiston va Afg'oniston yoshlarining hamjihatligi" xalqaro forumida ishtiroki uchun sertifikat, tashakkurnoma va tavsiyanoma bilan taqdirlangan. Shuningdek, "Intellect Group Study" o'quv markazi tomonidan o'tkazilgan "Til bilgan el biladi" shiori ostidagi tanlovda Respublika miqyosida 1-o'rinni egallagan.

